ISSN 2181-8231

ЎЗБЕКИСТОН
РЕСПУБЛИКАСИ
ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ

ЎЗБЕКИСТОН ЭНГ ЯНГИ ТАРИХИНИНГ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАРИ

№ 1 (19) 2026

Webtrance

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI HUZURIDAGI
O‘ZBEKISTONNING ENG YANGI TARIXI MASALALARI BO‘YICHA
MUVOFIQLASHTIRUVCHI-METODIK MARKAZ

O‘ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING DOLZARB MASALALARI

ФАНЛАРАРО ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЖУРНАЛ

АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ НОВЕЙШЕЙ ИСТОРИИ УЗБЕКИСТАНА

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЙ НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ

UZBEKISTAN CONTEMPORARY HISTORY ISSUES

INTERDISCIPLINARY ACADEMIC JOURNAL

№ 1 (19) 2026

TOSHKENT
2026

“O‘zbekiston eng yangi tarixining dolzarb masalalari” Fanlararo ilmiy-nazariy jurnal.
№ 1 (19), 2026. –198 b.

Muassislar:
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi,
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiya vazirligi,
O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi

Bosh muharrir:
Feruza Usarova, siyosiy fanlar nomzodi, katta ilmiy xodim

Bosh muharrir o‘rinbosari:
Nodira Mustafayeva, tarix fanlari doktori, professor

Tahrir hay’ati:
Akbar Xakimov, akademik, san’antshunoslik fanlari doktori, professor
Anatoliy Sagdullayev, akademik, tarix fanlari doktori, professor
Akmal Saidov, akademik, yuridik fanlari doktori, professor
Dilorom Alimova, tarix fanlari doktori, professor
Mirzoxid Raximov, tarix fanlari doktori, professor
Grigoriy Glizin (Gregory Gleason), fan doktori
Valentina Komleva, sotsiologiya fanlari doktori, professor
Izabel Oxayon (Isabelle Ohayon), fan doktori
Sanjay Pandey (Sanjay Pandey), fan doktori
Alikber Alikberov, tarix fanlari doktori, professor
Vladimir Paramonov, siyosiy fanlari doktori
Guli Yuldasheva, siyosiy fanlari doktori
Ra’no Tursunova, tarix fanlari doktori
Lyudmila Yugay, yuridik fanlari doktori
Askar Djumashev, tarix fanlari doktori
Xayriya Buriyeva, tarix fanlari doktori
Nodirbek Rasulov, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Farxod Primov, yuridik fanlari doktori
Sevara Pulatova, tarix fanlari nomzodi, professor
Dilshod Aberkulov, tarix fanlari nomzodi, katta ilmiy xodim
Nilufar Mannanova, sotsiologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD)
Sanobar Tolibova, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim
Azamat Amirov, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), katta ilmiy xodim

Ushbu sonni tayyorlaganlar:
Nargiza Abdusattarova, katta ilmiy xodim

Sahifalovchi:
Sagatov Muxtor

Tahririyat manzili: 100047, Toshkent, Yahyo G‘ulomov ko‘chasi, 70-uy.
Telefonlar: 233-37-01; 233-37-11. e-mail: uzconhistory@academy.uz

Jurnal O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi tomonidan ro‘yxatga olingan. Guvohnoma № 0848.

Materiallarni faqat tahririyat ruxsati bilan qayta chop etish mumkin. Nashr etilgan materiallar va e'lonlarda ko'rsatilgan faktlarning to'g'riligi va ishonchliligi uchun ularning mualliflari javobgardir. Mualliflarning fikri tahririyatning fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

ISSN 2181-8231

© O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz, 2026 y.

MUNDARIJA – СОДЕРЖАНИЕ – CONTENT

YANGI O‘ZBEKISTON: ISLOHOTLAR, RIVOJLANISH VA ISTIQBOLLAR

S. Jo‘rayev, S. G‘ulomova. O‘zbekiston: tashabuskor diplomatiya, o‘zaro hamkorlikning yangi qamrovi....5

F. Usarova. Prezidentning O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida mahalla institutining mustahkamlanishi....17

F. Primov. Korrupsiyaviy omillar tushunchasi, tasnifi hamda retrospektiv tahlili....23

Р. Турсунова. Концепция сильного государства: наследие Амира Темура и стратегические ориентиры послания Президента....31

I. Shamsieva. Tarixiy tadqiqotlarda Generativ Sun’iy Intellektning intellektual hamkor sifatidagi o‘rni....38

Д. Аберкулов. Современное изучение участия войск САВО в оборонительных операциях 1941-1942 гг....44

А. Амиров. Стратегическое значение наследия джадидов в гармонизации национальных ценностей и современной государственности....51

F. Yoqubov. O‘zbekiston va Germaniya o‘rtasida migratsiyaviy jarayonlarning vujudga kelishi va rivojlanish dinamikasi....55

Ф. Сугуралиева. Образовательные инициативы на международных площадках (на примере республики Узбекистан)....61

A. Xudayorov. O‘zbekistonda soliq tizimini modernizatsiya qilishning huquqiy asoslari va institutsional rivojlanishi....69

T. Jumayev. O‘zbekistonda korrupsiyaviy holat va uning ilmiy-falsafiy yechimi....76

Sh. Raximov. Ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda elektron demokratiyaning qo‘llanilishiga oid ayrim xorijiy davlatlar tajribasi tahlili....84

N. Buranova. Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy siyosati: islohotlar strategiyasi va inson kapitali transformasiyasi....93

Д. Хидирова. Развитие арбитражной культуры в Центральной Азии....97

N. Abdusattarova. Axborot texnologiyalari va inklyuziv ta’lim: imkoniyati cheklanganlar uchun teng imkoniyatlar....105

B. Allamurodov. Qozog’iston Respublikasida raqamli texnologiyalarni rivojlantirishning huquqiy va amaliy asoslari....110

Ф. Киргизбаева. Политика заимствования (policy transfer) в международных отношениях: на примере цифровых реформ Узбекистана и опыта Сингапура....116

A. Raximov, D. Sayfullayeva. Tovar belgisiga oid nizolarning iqtisodiy sudlarda ko‘rib chiqilishining o‘ziga xos jihatlari....122

YOSH TADQIQOTCHI MINBARI

А. Очилов. Политика Европейского Союза в Центральной Азии и роль Узбекистана в формировании регионального взаимодействия....126

T. Aliev. History of small business and private entrepreneurship development in the City of Tashkent 133

А. Умаркулова. “Мягкая сила” как фактор формирования международного имиджа государства: сравнительно-политический анализ стратегий и практик зарубежных стран....139

R. Raxmatov. Talabalarda faol harakatli turmush tarzini tashkil etishning pedagogik-psixologik jihatlar 145

D. Razikova. Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya munosabatlarini o‘rganishdagi asosiy yondashuvlar 151

D. Nishonova. Xalqaro munosabatlarda ta’lim diplomatiyasi tushunchasi mazmuni: uning nazariy-ilmiy asoslari 159

Ж. Ражабов. Традиционные базары Узбекистана в исторической ретроспективе: функции и их значение для туризма 167

Ш. Ёзиева. История развития и становления двусторонних отношений между Республикой Узбекистан и государством Кувейт: история и современность 171

М. Мирзаева. Приоритеты внешней политики ФРГ в Центральной Азии: вызовы и возможности в контексте стратегии ЕС 176

H. Donaboyeva. O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro me’yor va standartlarning joriy qilinishi va takomillashtirilishi 184

Д. Аберкулов, Г. Шаудунова. Репрезентативность данных в эмпирических исследованиях: проблемы выборки, предвзятости и обобщения результатов 190

A. Amirov, S. Ismatova. Mediamadaniyatning vujudga kelish genezisi va tarixiy-retrospektiv asoslari 195

O‘ZBEKISTON: TASHABUSKOR DIPLOMATIYA, O‘ZARO HAMKORLIKNING YANGI QAMROVI

“O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligi” ga bag‘ishlangan

Sayfiddin Jo‘rayev

Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti
siyosiy fanlar doktori, professor

S. G‘ulomova

Taxliliy tadqiqotlar markazi kichik ilmiy xodimi,
Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti talabasi

Annotatsiya: *ushbu analitik maqolada yirik taxliliy tadqiqotmizning dastlabki birinchisi hisoblanib 2025 yilda sodir bo‘lgan siyosiy - diplomatik jarayonlar va ularning keyingi yillarga ham ta’sir etuvchi omillari bo‘yicha tizim tashkil etuvchi yo‘nalishlardagi eng yangi tendensiyalarni, siyosiy - diplomatik nuqtalar bo‘yicha taxlillarimiz natijalariga ko‘ra, quyidagi ustuvor yo‘nalishlar alohida ahamiyat kasb etmoqda: Yangi Markaziy Osiyo muloqot platformasi va rivojlanish tendensiyalari, rivojlangan davlatlar bilan Strategik sheriklik bo‘yicha muloqotlarning qamrovi va istiqboli; Strategiik maqsadlar va tashabbuslar; O‘zbekiston AQSh, Markaziy Osiyo va Yevropa ittifoqi hamkorligining yangi bosqichining yangi tendensyailari va rivojlanish qonuniyatlarini ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Yangi Markaziy Osiyo, Maslaxat uchrashuvlari, o‘zaro hamkorlikda yangi burulishlar, tashabbuskor diplomatiya, dunyo siyosiy tartibotidagi ziddiyatlar.*

Аннотация: *Данная аналитическая статья, первая в нашей масштабной аналитической работе, раскрывает последние тенденции в областях, формирующих систему политико-дипломатических процессов, происходивших в 2025 году, и факторы, которые будут влиять на них в ближайшие годы. По результатам анализа политико-дипломатических пунктов особое значение имеют следующие приоритетные направления: новая центральноазиатская диалоговая платформа и тенденции развития, масштабы и перспективы диалогов о стратегическом партнерстве с развитыми странами; стратегические цели и инициативы; новые тенденции и модели развития нового этапа сотрудничества между Узбекистаном, США, Центральной Азией и Европейским союзом.*

Ключевые слова: *Новая Центральная Азия, Маслахатские встречи, новые направления сотрудничества, проактивная дипломатия, конфликты в мировом политическом порядке.*

Abstract: *This analytical article, the first of our large-scale analytical research, reveals the latest trends in the areas that form the system of political and diplomatic processes that took place in 2025 and the factors that will affect them in the coming years. According to the results of our analysis of political and diplomatic points, the following priority areas are of particular importance: The new Central Asian dialogue platform and development trends, the scope and prospects of dialogues on Strategic Partnership with developed countries; Strategic goals and initiatives; New trends and development patterns of the new stage of cooperation between Uzbekistan, the United States, Central Asia and the European Union.*

Keywords: *New Central Asia, Maslakhat meetings, new developments in cooperation, proactive diplomacy, conflicts in the world political order.*

KIRISH

2025 yil davomida O‘zbekistonning tashqi siyosati, xalqaro siyosatdagi faoliyatini kuzatuvlarimiz, rivojlanish tendensiyalarini va bu jarayonlarga ta’sir etuvchi aniqlangan ichki va tashqi omillarni taxlil etish shuni ko‘rsatadiki, keyingi yillarda ayniqsa 2025 yilda xalqaro siyosatda keskin o‘zgarishlar bilan bir vaqtda strategik istiqbolda yirik ijobiy o‘zgarishlarga olib keluvchi tendensiyalar kuzatilmoqda. Bular orasida tizim tashkil etuvchi omil sifatida mamlakatimiz raxbarining dunyo siyosati uchun “Yangi Markaziy Osiyo” konsepsiyasinini birinchi marta taqdim etishi, mintaqa davlatlari raxbarlari bilan ochiq, do‘stona muntazam uchrashuvlari va muloqotlari bir tomondan, ikkinchi tomondan dunyo siyosatining kun tartibini shakllantirayotgan Rossiya, Xitoy va AQSh yetakchilari, shuningdek biznes sohasining yetakchi vakillari hamda, Yevropa ittifoqi raxbarlari bilan olib borgan muloqotlari va erishilgan kelishuvlar tizim tashkil etuvchi markaziy nuqtalar bo‘ldi, o‘z navbatida tashqi siyosiy faoliyatning keyingi yillar uchun muhim strategik axamiyatga ega bo‘lmoqda.

Bu tendensiyalar, mamlakatlar o‘rtasida o‘zaro iqtisodiy, savdo-sotiq, investiyaviy, harbiy-texnologik raqobat zamirida geosiyosiy ziddiyatlar yangicha tus olayapti va chuqurlashib bormoqda. Bunday sharoitda yangi rivojlanib kelayotgan davlatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli hamkorlikning yangi shakllari, xamda rivojlangan davlatlar bilan yangi aloqalar shakllanmoqda. Bular natijasida G‘arb va Sharq o‘rtasidagi an’anaviy aloqalarda yangi yo‘nalish sifatida, yangi kuch markazlarini vujudga kelishining tendensiyalari namoyon bo‘lmoqda, shart - sharoitlari yaratilmoqda, o‘z navbatida bu jarayonlar yangi dunyoning qonuniyatlarini va o‘yin qoidalarini shakllantirish bilan bir vaqtda ziddiyatli jarayonlarni kengayishiga olib kelmoqda.

Bunday sharoitda O‘zbekistonning ko‘p yo‘nalishli, ko‘p qirrali tashqi siyosati tizim tashkil etuvchi sifatidagi mavqei paydo bo‘lib, mustakamlanib bormoqda va xalqaro jamiyat tomonidan e’tirof etilmoqda. Shuningdek bu jarayonlarni davomiyligi va muntazamligi bilan bir vaqtda ikki va ko‘p tomonlama aloqalarda, hamkor davlat raxbarlari o‘rtasida o‘zaro ishonch va muloqotga asoslangan muzokaralar va ma’naviy samimiylik; strategik sheriklikni kengaytiruvchi va mustaxkamlovchi yangi yo‘nalishlariga turtki beradigan nuqtalar vujudga kelib, telefon diplomatiyasi, ikki tomonlama siyosiy - diplomatik muloqotlarning yangi qamrovi; parlament, iqtisodiy, madaniy gumanitar va xududlararo diplomatiya kabi yangi tendensiyalarni geografiyasi kengayib borishi kuzatildi.

O‘z navbatida Davlatimiz raxbari ta’kidlaganidek “yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib bormoqda”. Bugungi kunda bu jarayonlarni rivojlanish tendensiyalarini unga ta’sir etuvchi shart sharoitlar va omillarni aniqlash, uning rivojlanish strategiyalarini mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazish ham amaliy, ham analitik, ham nazariy siyosiy axamiyatga ega vazifa sifatida kun tartibiga aylandi.

Yangi markaziy Osiyoning rivojlanish tendensiyalarida o‘zaro hamkorlikning tub burilish nuqtalari, Markaziy Osiyo (O‘zbekiston) Yevropa Ittifoqi hamkorligi qanday kechdi, uni tashkil etuvchi tizimning asosiy nuqtalari va rivojlanish traektoriyalari;

Xalqaro tizimlar doirasidagi Prezident tashabbuslarini nima uchun dunyo hamjamiyati e’tirof etmoqda; Jaxon siyosatining nozik nuqtalari va ziddiyatlari nimalardan iborat? Ular bizga qanday muammolarni keltirib chiqaradi, shuningdek imkoniyat beradimi?, asosiy tizim tashkil etuvchi markaziy nuqtalarini ijobiy va jumboqli jarayonlarni analitik taxlil qilishga xarakat qilamiz.

1. O‘ZARO HAMKORLIGINING TUB BURILISH NUQTALARI (YANGI MARKAZIY OSIYO O‘ZBEKISTON YETAKCHISI RAXBARI TALQINIDA)

O‘zbekistonnin tashqi siyosatida, xalqaro tizimlarda o‘z manfatlarini himoya qilishda markaziy Osiyo mintaqasi eng ustuvor yo‘nalish bo‘lib kelmoqda. Bu borada 2025 yilda yirik ijobiy najaga ega bo‘lgan,jaxon xamjamiyatini qiziqtirgan, Davlat raxbari Shavkat Mirziyoevning keng jamoatchilik uchun e’lon qilgan strategik taxliliy maqolasi “Markaziy Osiyo yangi davr ostonasida” markaziy nuqta bo‘ldi. Bular muallifning quyidagi fikr va mulohazalarida ko‘rinadi.

Davlat raxbari tomonidan yangi Markaziy Osiyo bugungi holati va istiqboli bo‘yicha ilgari surgan strategik g‘oyalari, fikrlari ilgari surilgan yangi tashabbuslari tizim tashkil etuvchi markaziy nuqtalari quyidagilarda namoyon bo‘ladi. Prezidentning konsepual va qarashlari tizimli yondashuvga asoslanib strategik taxlildan iborat bir birini to‘ldiruvchi va taqozo etuvchi xalqaro vaziyatga baxo va mintaqa davlatlari oldida turgan vazifalar; Mintaqa davlatlari raxbarlari maslaxat kengashining strategik yutuqlari

va markaziy Osiyoda vujudaga kelgan yangi o‘zgarishlar; Maslaxat uchrashuvlarini institutsionalashuvning yangi jihatlari va istiqboli; Maslaxat kegashining, mintaqaning istiqboli bo‘yicha yangi tashabbuslardan iborat.

Xalqaro munosabatlar va siyosatidagi yangi jarayonlar taxlili va uning markaziy Osiyoga taxlili yo‘nalishda quyidagi ilg‘or taxlil natijalari bilan farqlanadi. Davlavt raxbari bu borada dunyoda yuz berayotga taxllivaviy jarayonlarni moxiyatini va mintaqaga ta’siri ochib berib mintaqaga ta’siri axamiyatini ko‘rsatib bu borada markaziy Osiyoda vujududga yangi o‘zgarishlarni ko‘rsatib o‘tadi. Bu borada maslaxat uchrashuvlari platformasining o‘rni va axamiyati ochib berilgan.

Markaziy Osiyoning bugungi taraqqiyoti va kelajagiga daxldor strategik masalalar bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun asosiy muloqot maydoni sifatida shakllandi.

Bu borada Maslahat uchrashuvlari formati yo‘lga qo‘yilgan 2017 yil mintaqaviy hamkorlik tarixida tub burilish yasadi. Mintaqa yetakchilari ko‘p yillar mobaynida birinchi marta tashqi vositachilarsiz tizimli va muntazam muloqotni boshladilar. Bunda ishonchga, ochiqlik va umumiy manfaatlarni anglashga asoslangan yangicha siyosiy muloqot mintaqaviy platforma shaklandi. Bu doirada Aynan Maslahat uchrashuvlari doirasidagi muloqot tufayli eski davrdan qolgan bir qator kelishmovchiliklarni bartaraf etish va ishonchsizlikdan haqiqiy hamkorlikka o‘tishga erishildi.

Maslaxat uchrashuvining faoliyati natijasiada mintaqada vuujudga kelgan yangi reallikning aniq faktlari chegara masallari uzul kesil hal etilganligi va ... chegara tartib-taomillari, mintaqaviy xavfsizlikning yangi tendensiyalarining vujudga keldi, suv energetika va gumanitar aloqalar sohasida jiddiy o‘zgarishlar sodir bo‘ldi.

Voqelarning rivojlanib borishi, keng qamrovli vazifa va masallarning kun tartibiga qo‘yilishi,yangi tashabbuslarni amaliyotga jorish vazifali tabiiy ravishda instituvlashuv vazifalarini kun tartibiga aylantirdi. Davlat raxbarining ta’kidlashicha, Ushbu muloqot platforma doirasida Hamkorlikni institutsional jihatdan rasmiylashtirish bo‘yicha qadamlar ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirishda izchillikni ta’minlash muxim axamiyatga ega bo‘lmoqda.

Mintaqada yangi iqtisodiy voqelik paydo bo‘ldi mintaqa davlatlarining yallpi ichki maxsulotini ko‘payishi, tashqi savdr hajmi o‘sib bormoqda saonatda saonoat kooperatsiya vuujdag kelmoqda yangi o‘zgarishlar vujudga keldi ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo‘lga qo‘yish – qo‘shma investitsiya biznesning o‘sishiga yordam beradigan chegaraoldi savdo zonalari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Mintaqada yangi iqtisodiy voqelik shakllanib borayotgan sharoitda So‘nggi sakkiz yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarining yalpi ichki mahsuloti qariyb ikki yarim barobar o‘sib, 520 milliard dollarga, tashqi savdo hajmi esa ikki karradan ziyod ko‘payib, 253 milliard dollarga yetganligini, o‘zaro savdo hajmi 2 marta oshib, qariyb 11 milliard dollarga, o‘zaro investitsiyalar esa 5,6 barobarganligi aloxida ta’kidlaydi. Sanoatda Markaziy Osiyo barqaror ravishda yiliga 6 foiz atrofidagi o‘sishni namoyish etmoqda, bu jahondagi o‘rtacha o‘sish sur’atidan ikki karra yuqori. Bunday muvaffaqiyat ishlab chiqarish kooperatsiyasining yangi shakllarini yo‘lga qo‘yish – qo‘shma investitsiya tashkil etilganligiga, avtomobilsozlik, elektrotexnika, to‘qimachilik sanoati, qishloq xo‘jaligi sohalarida loyihalarni amalga oshirish bilan bog‘liqligiga aloxida urgu beradi. Predzidentning ta’kidlashicha Mintaqa mamlakatlari tomonidan tasdiqlangan 2025-2027 yillarda sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar rejasi hamkorlikning muhim vositasiga aylanmoqda. Kichik va o‘rta biznesning o‘sishiga ko‘maklashadigan chegaraoldi savdo zonalari va xalqaro sanoat kooperatsiyasi markazlari faol rivojlanmoqda.

Keyingi yillardagi bordi keldining rivojlanishi, shuningdek birgalikdagi hamkorlik fan, madaniyat, ta’lim,sport sohliqni saqlash soxadagi, ayollar va yoshlarning yangi muloqotlari kabi yangi o‘zrishlarni vujduga kelib rivojlanib borishi, Gumanitar sohada keyingi yillarda aloqalar mustahkamlanmoqda. Markaziy Osiyo yetakchi ayollari muloqoti va Yoshlar platformasi ta’sis etildi, 2022 yildan boshlab rektorlar va olimlar forumlari o‘tkazilmoqda, o‘zaro madaniyat yillari, ko‘rgazmalar, konsertlar va sport tadbirlari muntazam o‘tkaziliyotganligi, qardosh xalqlarimiz bo‘layotgan barcha ijobiy o‘zgarishlarni o‘z kundalik hayotida his etmoqda. Yangi o‘tkazish punktlari ochilgani, aviaqatnovlar, temir yo‘l va avtobuslar yo‘nalishlari yo‘lga qo‘yilgani o‘zaro bordi-keldilarni bir necha bor oshirish, madaniy-gumanitar aloqalarni kengaytirish imkonini berdi. Mintaqa mamlakatlarining umumiy sayyohlik oqimida ichki mintaqaviy turizmning ulushi 80 foizdan oshdi.

Mintaqaviy o‘ziga xosligining yangi tendensiyalari vududga kelib takomillashib bormoqda Asta-sekin Markaziy Osiyoning yangi mintaqaviy o‘ziga xosligi vujudga kelmoqda. Bu farqli jihatlarimizni

e’tirof etish va ayni paytda xalqlarimizning umumiy tarixi, mushtarak madaniyatini, taqdirlarimiz o‘zaro bog‘liq ekanini chuqur anglashga asoslanadi. Qo‘shnichilik, imkoniyat, bir tarafning muvaffaqiyati – barchaning yutug‘i degan yagona mintaqaviy makonga mansublik hissi shakllanmoqda.

O‘zbekiston yetakchtsining Ta’kidlashichaki, Markaziy Osiyoning har bir davlati o‘z sa’y-harakatlarini iqtisodiyotni rivojlantirish, ishonchni mustahkamlash va mintaqaviy hamkorlikni kengaytirishga yo‘naltirish orqali mintaqamiz barqarorligi va farovonligini ta’minlashga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Yangi Markaziy Osiyo tinchlik, barqaror taraqqiyot va yaratuvchan sheriklik yo‘lini tanlab davlatlar o‘rtasida ko‘prik barpo etilmoqda. Mintaqaviy jipslashuv borasidagi yutuqlar tufayli bugungi kunda Markaziy Osiyo xalqaro munosabatlarning o‘z manfaatlari va taraqqiyot yo‘llarini aniq tasavvur etadigan mustaqil va mas’uliyatli ishtirokchisi sifatida e’tirof etildi. “Markaziy Osiyo plyus” hamkorlik formatlari mintaqaning xalqaro huquqiy sub’ekt sifatidagi mavqei kuchayib borayotganining ifodasi hamda barqarorlik va taraqqiyotning muhim markazi sifatidagi rolining e’tirofi bo‘ldi. ugungi kunda dunyoning yetakchi davlat va birlashmalari Markaziy Osiyo bilan munosabatlarni yaxlit mintaqaviy sherik sifatida rivojlantirmoqda.

Bu mintaqaning boshqa hamkorlar bilan munosabatlarini yangi bosqichga olib chiqqnligidan dalolat beradi, mintaqaning Dunyoga ochiqligi, niyatlarimizning shaffofligi va muloqotga moyilligimiz xalqaro maydonda Markaziy Osiyoni yangicha qabul qilish uchun asos bo‘ldi. Ayni paytda Markaziy Osiyoni dunyoning yetakchi davlatlari va birlashmalari bilan bog‘laydigan o‘ndan ortiq “Markaziy Osiyo plyus” formatlari faoliyat ko‘rsatmoqda. Joriy yilning o‘zida “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi”, “Markaziy Osiyo – Xitoy”, “Markaziy Osiyo – Rossiya” va “Markaziy Osiyo – AQSh” sammitlari bo‘lib o‘tgani mintaqaning global siyosatdagi shiddati va strategik ahamiyati ortib borayotganini tasdiqlaydi.

Strategiik maqsadlar va tashabbuslar

Mintaqa davlatlari o‘rtasida ko‘p tomonlama maloqatlar shakllanib rivojlanib boromoqda Bu borada iqlim o‘zgarishi, energetika sohasidagi o‘tish, suv va oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash, raqamli texnologiyalarni rivojlantirish kabi asosiy mintaqaviy tahdidlarga birgalikda yechim topishda hamkorlik rivojlanib bormoqda Shuning bilan bir vaqtda umumiy mas’uliyat, o‘zaro ishonch va kelajagimiz haqidagi yakdil tasavvurga asoslangan hamkorlikning yangi strategiyalariga manffat istiqbodagi rivjlanish traektoriyalarini aniqlash strategik vazifalarini yechish Markaziy Osiyo yaqin o‘n yilliklarda qanday rivojlanishi birgalikda javob berishni kun tarbiga aylantirdi.

Davlat raxbari mamlakatlarimizning o‘zaro hamkorlikni rivojlantirish suverenitet, teng huquqlilik va ichki ishlarga aralashmaslik borasidagi mustahkam poydevor asosida shuningdek. Hech kim mintaqa mamlakatlariga begona modellarni tiqishtirmasligi yoki milliy tuzilmalardan ustun turadigan tuzilmalarni yaratmasligidan kelib chiqib o‘zaro hamkorlik ixtiyoriy, pragmatik va mamlakatlarimiz xalqlariga foyda keltiradigan real natijalarga yo‘naltirilgan bo‘lishini ta’kilab mintaqa oldida o‘ta muhim masalalar tuganligiribdi, mintaqamizning barqarorligi va rivojlanish sur’atlari ularning hal etilishiga bog‘liq haqidagi strategik va kenga qamrovli yangi aloqaoarga olib keladigan konseptual tashabbuslarni ilgari suradi.

Birinchidan, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishni davom ettirish – mavjud mexanizmlarni mustahkamlab, ularga barqaror tus va amaliy ma’no-mazmun bag‘ishlash.

Ikkinchidan, xavfsizlik sohasida tahdid va xatarlarga qarshi kurashish bo‘yicha umumiy salohiyatni shakllantirish. Xavfsizlik kengashlari kotiblari, maxsus xizmatlar, mudofaa va huquqni muhofaza qilish idoralari rahbarlarining muntazam uchrashuvlarini davom ettirish. “Xavfsizlikning bo‘linmasligi” prinsipi asos bo‘lib qolishi kerak. Ayni paytda mintaqaviy hamkorlik amaldagi xalqaro mexanizmlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lishi, barqarorlikni mustahkamlash hamda mamlakatlar va umuman, mintaqa xavfsizligiga nisbatan tahdidlarning keng doirasiga qarshi turish bo‘yicha o‘z salohiyatini shakllantirishi lozim.

Uchinchidan, iqtisodiy sohada ichki mintaqaviy savdoni rivojlantirish, chegaralardan o‘tish tartib-taomillarini soddalashtirish va o‘zaro investitsiyalar uchun qulay sharoitlar yaratish muhimdir. Sanoat kooperatsiyasini faollashtirish, mintaqaviy va hududlararo yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, chegaraoldi savdo zonalarini rivojlantirish, transport va iqtisodiy yo‘laklar tarmog‘ini kengaytirish, transport, energetika, qishloq xo‘jaligi va raqamli iqtisodiyot sohalarida qo‘shma loyihalarni ilgari surish zarur.

Hamkorlikning ekologik jihatiga – iqlim o‘zgarishlariga moslashish, transchegaraviy suv resurslari va biologik xilma-xillikni asrash, “yashil” energetika va kam uglerodli texnologiyalarga o‘tish bo‘yicha birgalikdagi sa’y-harakatlarga alohida e’tibor qaratish.

To‘rtinchidan, gumanitar hamkorlik ustuvor yo‘nalish bo‘lib qolmoqda. Inson kapitalini rivojlantirish, ta’lim, ilm-fan va madaniy aloqalarni mustahkamlash markaziy vazifadir. Umumiy axborot makonini yaratish, ta’lim, sog‘liqni saqlash sifatini oshirish, umuman, ijtimoiy sohani, jumladan, turizmni va yoshlarga oid qo‘shma dasturlarni rivojlantirish.

Beshinchidan, Markaziy Osiyo mamlakatlarining tashqi siyosatda kelishilgan yondashuvlarini ishlab chiqish muhim yo‘nalish hisoblanadi, asosiy hamkorlar bilan pragmatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishda o‘z samaradorligini isbotlagan “Markaziy Osiyo plyus” formatlarini yanada rivojlantirish zarur.

Prezidentning yakuniy xulosachcha fikricha mintaqamda kechayotgan jarayonlar barqaror va farovon mintaqa – Yangi Markaziy Osiyoning mustahkam poydevorini yaratish ongli va ortga qaytmas tanlov. Ushbu yo‘l nafaqat birgalikdagi sa’y-harakatlarni, balki umumiy kelajagimiz uchun mas’uliyatni o‘z zimmamizga olishga tayyor bo‘lishimizni ham talab qiladi. Kuch va imkoniyatlarimizni birlashtirib, umumiy vazifalarni hal etish, shuningdek, xalqaro hamjamiyatga tinch va bunyodkor hamkorlikning vaqt va hayot sinovidan o‘tgan – ishonch, yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro qo‘llab-quvvatlashga asoslangan o‘z modelimizni taklif etmoqdamiz. Va bugun Markaziy Osiyoni keng mintaqamizda yashayotgan barcha millat va xalqlar uchun yagona tinchlik, farovonlik va taraqqiyot makoniga aylantiradigan ushbu tarixiy sur’atni saqlab qolish muximligini takidlaydi.

2. MASLAHAT UCHRASHUVIGA RAISLIK XALQARO AXAMIYATGA EGA BO‘LDI

16-noyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev raisligida Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Sammitda Ozarbayjon Respublikasi xamda markaziy Osiyo davlatlarining yetakchilari ishtirok etishdi. Kun tartibiga muvofiq, mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash hamda ustuvor sohalarda qo‘shma loyiha va tashabbuslarni amalga oshirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Sammitda Ozarbayjon Maslahat uchrashuvlari formatiga to‘la huquqli a’zo sifatida qo‘shildi. Bu xolat ikkitia xususiyati bilan farqlanadi. O‘zbekiston yetakchisi ta’kidlaganidek, bu qaror mushtarak tarix, qardoshlik rishtalari, ma’naviy va madaniy yaqinlik bilan uzviy bog‘langan xalqlarimiz manfaatlariga to‘liq javob beradi. Shuningdek ushbu strategik qadam Maslahat uchrashuvlariga kuchli shiddat berishiga, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish, barqaror taraqqiyot masalalari bo‘yicha hamjihatlikda qarorlar ishlab chiqish uchun yangi ufqlar ochadi.

Davlatimiz raxbari o‘zining taxlilida keyingi yillarda mintaqada kechayotgan integratsiya jarayonlardagi ochiq muloqot va birgalikdagi faol sa’y-harakatlar tufayli mintaqa uchun dolzarb bo‘lgan qator muammolarga samarali yechimlar ta’kidladi.

Birinchidan, xududiy masalalar uzil-kesil hal etildi, chegara punktlari ochildi, suv-energetika sohasida o‘zaro manfaatli hamkorlik yo‘lga qo‘yildi, transport aloqalari qayta tiklandi, faol savdo-investitsiyaviy va gumanitar aloqalar uchun qulay sharoitlar yaratildi.

Ikkinchidan, mintaqa jahon iqtisodiyotiga faol integratsiyalashuvi kuzatilyapti, jumladan investitsiyaviy jozibadorlik oshmoqda, uchinchi bozorlarga eksport qilish imkoniyatlari kengaymoqda, tranzit salohiyati o‘smoqda.

Uchunchidan, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash, terrorizm va ekstremizm, transchegaraviy jinoyatchilik tahdidlariga qarshi kurashish masalalari bo‘yicha tizimli choralar ko‘rilmoqda.

To‘rtichidan, mintaqaning xalqaro munosabatlar sub’ekti sifatidagi mavqei mustahkamlanib, global masalalardagi roli ortib bormoqda, “Markaziy Osiyo plyus” formatidagi munosabatlar kuchaymoqda, mintaqa nufuzli xalqaro maydonlarda yagona pozitsiya bilan maydonga chiqmoqda. Formatga Ozarbayjonning qo‘shilishi bilan mintaqaning jahon hamjamiyatidagi ovozi yanada salmoqli bo‘lishiga ishonch bildirildi.

Tashkiliy tadbirlar yuqori xalqaro standralar darajasida o‘tkazildi, mintaqaviy sheriklikning institutsional asoslari va mexanizmlari tizimli ravishda mustahkamlanib borayotgani namoyon qilingani ta’kidlandi.

Jumladan, O‘zbekiston raisligi davrida 20 dan ortiq yirik tadbirlar o‘tkazilgani ta’kidlandi. Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida Hududlararo hamkorlik forumi faoliyati yo‘lga qo‘yildi, ilk bor mudofaa

idoralari, maxsus xizmatlar rahbarlari, shuningdek, geologiya, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va madaniyat vazirlarining yig‘ilishlari o‘tkazildi. Markaziy Osiyo davlatlari yetakchi ayollarining muloqoti muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Davlatimiz rahbari murakkab va oldindan bashorat qilib bo‘lmaydigan xalqaro siyosiy jarayonlar sharoitida mintaqa mamlakatlarining hamjihatligi va bir-birini qo‘llab-quvvatlashini mustahkamlash alohida ahamiyat kasb etishini ta’kidlab Davlatimiz rahbari mintaqaviy hamkorlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Institutsional takomillashish

Mintaqaviy muloqotning maslahatlashuv shaklidan “Markaziy Osiyo hamjamiyati” strategik formatiga aylantirish, maslahat uchrashuvlari to‘g‘risidagi nizomni ishlab chiqish, navbatma-navbat ishlaydigan Kotibiyatni ta’sis etish, milliy muvofiqlashtiruvchilar maqomini Prezidentlarning maxsus vakillari darajasiga ko‘tarish, Oqsoqollar kengashini tuzish yo‘lga qo‘yildi.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni sifat jihatidan yangi darajaga olib chiqish; Ma’muriy to‘siqlarni bartaraf etish, soliq va bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, erkin iqtisodiy va sanoat zonalaridan birgalikda foydalanish, ko‘rsatib o‘tilgan barcha masalalarni qamrab oladigan, savdo-iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha 2035 yilgacha bo‘lgan davrga mo‘ljallangan keng qamrovli mintaqaviy dasturni ishlab chiqish va qabul qilish belgilandi.

Umumiy investitsiya makoni to‘g‘risidagi deklaratsiyani qabul qilish cohadagi yondashuvlarni uyg‘unlashtirish, virtual savdo maydonchalari va ishonchli raqamli to‘lov tizimlarini yaratishga qaratilgan Elektron tijoratni rivojlantirish bo‘yicha qo‘shma chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish yo‘lga qo‘yildi.

Infra tuzulma va tranport logistika

Mintaqaning yuqori texnologik infratuzilmasi va transport-logistika salohiyatini birgalikda rivojlantirish, elektr stansiyalari va uzatish tarmoqlari, avtomobil va temir yo‘llar, chegara orqali o‘tkazish punktlari, “yashil yo‘laklar”, optik-tolali liniyalar va boshqa ob’ektlarni qurish va modernizatsiya qilish bo‘yicha strategik ahamiyatga ega bo‘lgan umummintaqaviy loyihalarni amalga oshirish uchun sa’y-harakatlarimiz birlashtirildi.

“Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li va Transafg‘on transport yo‘lagi qurilishi mintaqalararo transport bog‘liqligining ustuvor loyihalari sifatida qarash xududni Yevropa davlatlari bilan bog‘laydigan Transkaspiy yo‘nalishlari katta imkoniyatlarga ega ekaniga e’tibor qaratildi. Ushbu yo‘nalishlardagi ishlarni muvofiqlashtirish uchun Bosh vazir o‘rinbosarlari darajasida Infratuzilmani rivojlantirish kengashini tuzish yo‘lga qo‘yildi.

Xavfsiz va barqaror rivojlanish

Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash nuqtai nazaridan sammitda qabul qilinayotgan hujjatlar – Mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi hamda Tahdidlar va xatarlar katalogi yuqori baholandi. Ushbu hujjatlar mintaqada mavjud va ehtimoliy xavf-xatarlarni tizimli ravishda baholash hamda ularning oldini olish bo‘yicha hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Afg‘onistondagi vaziyatning xavfsizlikka ta’sirini hisobga olgan holda va butun mintaqaning barqaror rivojlanishi uchun ushbu mamlakatni mintaqaviy infratuzilma, energetika hamda transport loyihalariga bosqichma-bosqich integratsiya qilish muhim vazifa sifatida qayd etildi. Shuningdek, mintaqada tinchlik va o‘zaro ishonch muhitini mustahkamlashga qaratilgan samarali muloqot maydoni sifatida “Farg‘ona tinchlik forumi”ni an’anaviy xalqaro forumga aylantirish tashabbusi qo‘llab-quvvatlandi.

Ekologiya, iqlim, suv resurslari masalalari

Markaziy Osiyoning “yashil” taraqqiyot konsepsiyasini tez fursatda qabul qilish muhimligi qayd etildi. 2026-2036 yillarni “Markaziy Osiyoda suvdan oqilona foydalanish bo‘yicha amaliy harakatlar o‘n yilligi” deb e’lon qilish. Qo‘shni Afg‘onistonni Amudaryo havzasi suv resurslaridan birgalikda foydalanish bo‘yicha mintaqaviy muloqotga faol jalb qilish tashabbuslari ilgari surildi.

O‘zbekiston Prezidenti Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti negizida Suv xo‘jaligi sohasidagi mintaqaviy vakolatlar markazini tashkil etishni taklif qildi. Ushbu markaz Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida suv resurslarini bosh qarish, ilmiy-tadqiqot ishlarini muvofiqlashtirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishda muhim platforma bo‘lishi kutilmoqda.

2026-yil O‘zbekistonda o‘tkazilishi rejalashtirilgan suvni tejash bo‘yicha Butunjahon forumida faol ishtirok etish orqali mamlakatning global ekologik kun tartibidagi o‘rnini yanada mustahkamlash

maqsad qilingan. Ushbu tashabbuslar O‘zbekiston Prezidenti tomonidan amalga oshirilayotgan suv diplomatiyasi, barqaror taraqqiyot va mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga qaratilgan izchil siyosatning amaliy ifodasi hisoblanadi.

Madaniy-gumanitar qamrov

Madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Islom sivilizatsiyasi markazi yoshlar, ularning ilmiy va ma’naviy ma’rifati uchun jozibador maskanga aylantirish xamda sammit arafasida Toshkentda ilk bor o‘tkazilgan Ma’naviy meros va ma’rifat masalalari bo‘yicha xalqaro kongressni muntazam o‘tkazib b orish muxim tabbuslardan biridir.

Shuningdek, Markaziy Osiyonirng atoqli olim va mutafakkirlarining global ma’rifat rivojiga qo‘shgan hissasiga bag‘ishlangan BMT Bosh Assambleyasining maxsus rezolyusiyasini qabul qilish ilgari surildi.

Ilmiy-ta’lim kooperatsiyasi doirasida davlatlararo loyihalarni moliyalashtirish, akademik hamjamiyatni rag‘batlantirish va sun’iy intellekt texnologiyalarini joriy qilish imkoniyatlarini kengaytirish uchun Ilmiy tadqiqotlar fondini tashkil etish xam ilgari surildi.

Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining yettinchi Maslahat uchrashuvi yakunlari bo‘yicha Qo‘shma bayonot qabul qilindi. Sammit yakunnida Prezidentlar quyidagi muhim hujjatlarni qabul qildilar:

– Qirg‘iz Respublikasining 2027-2028-yillarda BMT Xavfsizlik Kengashining muvaqqat a’zoligiga nomzodi yuzasidan BMTga a’zo davlatlarga murojaat;

– Ozarbayjon Respublikasining Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida to‘la huquqli a’zo sifatida ishtirok etishi to‘g‘risidagi qaror;

– Markaziy Osiyoda mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik konsepsiyasi;

– Markaziy Osiyo xavfsizligiga xatarlarning katalogi va ularning oldini olish bo‘yicha 2026-2028 yillarga mo‘ljallangan choralar.

Demak, geosiyosiy ziddiyatlar chuqurlashib borayotgan, global institutlar transformatsiyasi, resurslar va bozorlar uchun raqobat kuchayib borayotgan sharoitda ushbu tadbir va shu vaqtgacha O‘zbekiston tomonidan sammitlarning yuqori darajada tashkil etilishi, keng qirrali muloqotlar olib borilishi, ayniqsa Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuviga O‘zbekistonning raislik qilganini va uning samarali natijalari nafaqat mintaqa balki xalqaro axamiyatga ega bo‘ldi. Toshkenta o‘tkazilgan sammit mintaqa davlatlarining yanada yaqin hamkorlikni hamda mamlakatlarning birgalikda harakat qilish, umumiy kelajak uchun mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, mintaqa manfaatlari yo‘lida harakatlarni muvofiqlashtirish va kun tartibi bo‘yicha ma’suliyatli va samaraga olib keladigan kelishuvlarga erishishshga tayyorligini amalda namoyon qildi va sezilarni darajada kengaytirib mustahkamladi. O‘z navbatida sammitning muloqot mavzulari istiqbolda boshlangan xarakatlarni davom ettirish zaruriyatini tasdiqladi.

Shu nuqtai nazardan, 2025-yilda O‘zbekistonning xalqaro hayotida mamlakatning tashqi siyosiy pozitsiyasiga strategik ta’sir ko‘rsatgan voqealar sifatida alohida ahamiyat kasb etdi. Mintaqaviy tashqi siyosat va o‘zaro aloqalarning zamonaviy talablari va texnologiyalari darajasidagi mukammallik, muntazamlik, pragmatizim va natijadorlikni namoyish etdi. Mamlakat nafaqat xalqaro maydonda o‘z mavqeini mustahkamladi, o‘z navbatida isloxotlarni amalga oshirishda amaliy yordam, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va fuqarolarning farovonligini yaxshilash uchun diplomatik shart - sharoitlar yaratdi.

Rivojlanib borayotgan mintaqaviy o‘ziga xoslikni Markaziy Osiyoni yagona butunlik sifatida ta’minlaydigan va uning harakat yo‘nalishini belgilaydigan markaziy nuqta sifatida ilgari surilgan tashabbuslar va takliflarni amalga oshirishning strategik axamiyatini,shuningdek mintaqaning xalqaro munosabatlarda o‘rni va strategik ahamiyati sezilarli darajada oshganligi tizim tashkil etuvchi markaziy nuqtalar va taraqqiyot istiqbollarini belgilaydigan mustaqil platforma sifatida xalqaro axamiyatini oshirishga imkoniyatlar yaratdi.

Takomillashib borayotganlik va kuchli mintaqaviy o‘zlik mintaqaga strategik sub’ekt sifatida chiqish, o‘z kun tartibini shakllantirish, sa’y-harakatlarni birlashtirish va barqaror natijalarga erishish imkonini berdi. Bu xavfsizlikni ta’minlash, energetika barqarorligi va ekologik barqarorlikdan tortib, transport logistikasi va sanoat hamkorligigacha bo‘lgan muhim sohalarda kelishilgan holda harakat qilish uchun sharoit yaratadi.

O‘zbekistonning tashqi siyosiy strategiyasida Markaziy Osiyo an’anaviy ravishda alohida o‘rin tutadi. 2025-yilda ushbu ustuvor yo‘nalish yanada institutsional rivojlantirildi. O‘zbekiston Markaziy

Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvida raislik qildi va raislik birinchi marta alohida kompleks dastur asosida amalga oshirildi. Uning doirasida iqtisodiy hamkorlik, transport bog‘liqligi, ekologiya, suv resurslaridan oqilona foydalanish va gumanitar almashinuv masalalari qamrab olindi.

Yigirmadan ortiq yirik tadbirlarning o‘tkazilishi va Toshkentda Prezident Shavkat Mirziyoev raisligida bo‘lib o‘tgan mintaqa davlatlari rahbarlarining tarixiy sammiti mintaqaviy diplomatiyaning yil yakuni bo‘ldi hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ishonchni chuqurlashtirish va birgalikda rivojlanishga intilishini tasdiqladi. Mintaqamiz uzoq vaqtdan buyon birinchi marta jahon siyosatining yaxlit, to‘laqonli sub’ektiga aylanganligini namoyish etdi. Xalqaro hamjamiyatning e’tibori tobora ortib borayotgani, global maydonda mintaqaga bo‘lgan munosabat o‘zgargani shundan dalolat beradi.

3. O‘ZBEKISTON AQSH: TASHABUSKOR DIPLOMATIYA

2025-yilda O‘zbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasining amaliyoti, bu borada davlatimiz raxbarining tashabbuskor, faol hatti xarakatlari, shuningdek xalqaro jarayonlarda sodir bo‘lgan va davom etayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hodisalar va jarayonlarning kuzatuvi, taxlil etish natijalari, hamda mavjud ma’lumotlar, ekspertlar va mutaxassislarning qarashlari, fikrlari konseptual takliflari shuni tasdiqlaydiki, dunyoda o‘ziga xos tangliklar, strategik ziddiyatlar chuqurlashib borayotgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan bunday muammolarni yechish imkoniyatlari va shart sharoitlari vujudga kelayapti. Shubxasiz, o‘tgan yil siyosiy voqeligida O‘zbekistoning rivojlangan davlatlar Rossiya, Xitoy, AQSh bilan bilan o‘zaro manfaatli siyosiy diplomatik aloqalarining barqarorligi, xalqchilligi, manaviyligi, tizimliligi, muntazamligi va istiqbolga qaratilganligi va ushbu aloqalarning dunyo va mintaqaviy axamiyat kasb etayotganligining strategik axamiyati sezilarli darajada namoyon bo‘ldi.

Shunday sharoitda O‘zbekiston raxbarining yangi davr muammolarini, o‘yin qoidalarini strategik mushoxada qilishi va anglashidan kelib chiqib barcha sohalarda tizimli isloxotlarning amalga oshirilishi va uning natijalari bilan uyg‘unlashtirish natijasida davlatimizn xalqaro siyosat bugungi va ertangi kuni bo‘yicha o‘ziga model bo‘ladigan strategik tashabbuslarni xalqaro miqyosda ilgari surmoqda. Aslida bu tashabbuslar mamlakatimizni iqtisodiy qudratini yanada mustaxkamlash, dunyoda bo‘layotgan jarayonlarda O‘zbekiston manfaatlarini himoya qilish va ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, tenglar ichida teng bo‘lish halqimizning farovonligini ta’minlashdan iborat.

Ushbu jarayonlarni ayniqsa davlat raxbarining g‘oyalari va tashabbuslarini siyosiy taxlil etish va mohiyatini ochib berish, ya’ni bu g‘oyalar qanday sharoitda shakllantirildi, qanday kechayapti va kanday natijalar berdi, kelajakda qanday o‘zgarishlarga olib kelishi va undan kelib chiqib ilmiy - taxliliy konseptual g‘oyalarni shakllantirish va keng jamotchilikka yetkazish muxim axamiyat kasb etmoqda. Gap shundaki, davlatimizda ichki va tashqi siyosatning natijalari, bugungi kunda xalqaro siyosatning sub’ektiga aylanganligi juda katta axamiyatga va iftixorga ega bo‘lish bilan bir vaqtda xar bir fuqoradan raqobatbardosh siyosiy madaniyatga ega bo‘lishni, analitik ko‘nikmalarga va yuksak darajada vatanparvarlikni, barcha soxalarda faol va ma’suliyatli bo‘lishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Muloqotlar o‘zaro hamkorlikni rivojlanishiga turtki bo‘lmoqda

Shubhasiz, 2025-yilda ikki davlat raxbarlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli aloqalarni ijobiy va strategik rivojlanishida davlatimiz yetakchisi, Shavkat Mirziyoev 6-noyabr kuni Donald Trampga Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti saylovida g‘alaba qozonib, ushbu lavozimga saylanganligi munosabati bilan bildirgan aloxida munosabati va bergan baxosii, o‘z navbatida Donald Trampning Prezidentimizni va xalqimizni ajoyib Navro‘z ayyomi bilan tabriklaganligi ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarni yil davomida va bundan keyin butunlay yangi bosqichiga chiqishiga manaviy omil va tizim tashkil etuvchi asosiy turtki nuqta bo‘ldi. Ikki yirik siyosatchining bunday munosabati o‘zaro aloqalarni rivojlantirishda mavjud va hali aniqlanmagan imkoniyatlarni va resurslarni ishga solishda axamiyatli bo‘ldi. Muxim markaziy nuktalardan biri Trampning Buyuk davlatlarimiz ravnaq sari intilayotgan bir paytda, Amerika Qo‘shma Shtatlari O‘zbekistonning suvereniteti, mustaqilligi va hududiy yaxlitligini doimo qo‘llab-quvvatlashga sodiq bo‘lib qolishi ta’kidlandi.

Birinchidan, O‘zbekiston va AQSh yetakchilarining tabrik xatida quyidagi muhim nuktalarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Donald Trampning yangi muddatdagi prezidentlik faoliyati davomida AQShning xalqaro maydondagi nufuzi va obro‘-e’tibori, iqtisodiy qudrati va salohiyati, global miqyosdagi o‘rni va ahamiyati yanada ortishiga ishonch, O‘zbekiston AQShning mamlakatimiz mustaqilligi, suvereniteti va hududiy yaxlitligini doimiy qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan siyosatini yuqori

baholadi va alohida qadrlanishi ta’kidlandi.

Ikkinchidan, Trampning birinchi prezidentlik davrida ikki davlat o‘rtasida yangi davrdagi strategik sheriklik munosabatlari o‘rnatilganini va ko‘p qirrali aloqalarning yuqori bosqichga ko‘tarilganini hamda ikki va ko‘p tomonlama platformalar doirasida uzoq muddatli hamkorlikni yanada rivojlantirishdan manfaatdorligi ta’kidlanib, Donald Trampni tashrif bilan O‘zbekistonga kelishga taklif etganligi bo‘ldi.

Uchunchidan, Donald Trampning Amerika Qo‘shma Shtatlari xalqi nomidan dalvatimiz raxbarini, O‘zbekiston xalqini Navro‘z ayyomi bilan tabriklashi axamiyatli bo‘ldi. Bu barcha uchun tinchlik, farovonlik va yangilanish bayramidi ekanligini ta’kidlab, o‘zaro aloqalarning kengayishi, mustahkam rishtalar o‘rnatilayotganligini yuksak qadrlab. ShMMning izchil islohotlar dasturini olqishladi.

To‘rtinchidan, 2025 yil 5-sentabr kuni bo‘lib o‘tgan telefon orqali muloqot yakunida erishilgan kelishuvlarning amalga oshirilishi ko‘rib chiqildi. Suhbat avvalida davlatimiz rahbari Prezident Donald Trampni ichki va tashqi siyosatni amalga oshirishdagi yuksak muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabrikladi. Uning xalqaro va mintaqaviy miqyosdagi o‘tkir mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish borasidagi shaxsiy hissasi va sa’y-harakatlari alohida qayd etildi. O‘z navbatida, AQSh yetakchisi Yangi O‘zbekistonda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, aholi farovonligini oshirish va xalqaro nufuzni yuksaltirishga qaratilgan ortga qaytmas islohotlarni yana bir bor qo‘llab-quvvatladi. Turli darajalardagi siyosiy muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotgani, ishbilarmonlik aloqalari faollashgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Davlatimiz rahbari Donald Trampni ichki va tashqi siyosatdagi yuksak muvaffaqiyatlari bilan samimiy tabriklashi, AQSh yetakchisini o‘zi uchun qulay muddatda O‘zbekistonga rasmiy tashrif bilan kelishga taklifi o‘zaro aloqalarning yangi tub burilishini yuzaga kelishiga manaviy turtki bo‘ldi. Voqealarning keyingi rivoji shu nuqtalardan kelib chiqib amaliy xususiyat kasb etib, ikki tomon uchun manfaatli o‘zaro aloqalarni yangi mazmun va bosqisqichga olib chiqadi.

Muloqotlarning muntazamligi muvaffaqiyat garovi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 6-noyabr kuni Vashington shahriga amaliy tashrifi doirasida Oq uyda, 23-sentabr kuni BMT bosh qarorgohida, tashkilot Bosh Assambleyasining 80-yubiley sessiyasi doirasida Amerika Qo‘shma Shtatlari Prezidenti Donald Tramp bilan ochiq, konstruktiv va do‘stona ruhda muloqotlari bo‘lib o‘tdi. Muzokaralar davomida O‘zbekiston-AQSh strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirishning dolzarb masalalari va ustuvor yo‘nalishlari batafsil muhokama qilindi. Mintaqaviy va global ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi. O‘zaro siyosiy muloqotni mustahkamlash, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirish masalalarini muhokama qilindi. Jumladan, joriy yil sentabr oyida Nyu-York shahrida oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishga alohida e’tibor qaratildi. Global va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar, shu jumladan, “S5+1” formatida Markaziy Osiyo va AQSh o‘rtasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish yuzasidan fikr almashildi; Qo‘shma loyihalarni ilgari surishning institutsional mexanizmlarini yaratish va takomillashtirishga xam e’tibor qaratildi.

Parlament diplomatiya

Davlat raxbarlarining hamda ikki davlat parlamentlaridagi muzokoralar va kelishivlar ikki davlat parlamentlarining o‘zaro aloqalardagi ishtiroki yangi mazmun axamiyat kasb etdi. Muloqotlar davomida O‘zbekiston-AQSh strategik sheriklik munosabatlarini yanada kengaytirish, shu jumladan, parlamentlararo muloqotni mustahkamlash masalalari, Parlamentlararo muloqot va almashinuvlar jadal rivojlanib borayotganini shuningdek, ikki tomonlama hamkorlikning yuqori darajaga erishilganligi katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Faol siyosiy muloqotlar va idoralararo almashinuvlar davom etmoqda, Kongress Senati va Vakillar palatasi a’zolari O‘zbekistonga muntazam tashrif buyurmoqda. "O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha kokus" faol ishlamoqda, uning tarkibi kengaymoqda. Kongressda har yili ikki mamlakat parlamentlari o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilayotgan O‘zbekiston kunlari o‘tkazib kelinmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti AQSh bilan parlamentlararo muloqotni kengaytirish muhimligini ta’kidladi. BMT Bosh Assambleyasining yubiley sessiyasi tadbirlarida ishtirok etish doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev 24-sentabr kuni AQSh Kongressi a’zosi, Vakillar palatasidagi "O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha kokus" raisi Trent Kelli va Missisipi shtati Milliy gvardiyasi qo‘mondoni, general-mayor Bobbi Jinni muloqotlari amaliy axamiyat kasb etdi. Shuningdek,

17-mart kuni Amerika Qo‘shma Shtatlari Kongressi a’zosi, O‘zbekiston bilan hamkorlik bo‘yicha parlament kokusi ishtirokchisi Kerol Miller boshchiligidagi delegatsiyada O‘zbekiston bilan AQSh o‘rtasidagi strategik sheriklik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari muhokamalarning kun tartibida muxokama qilindi. Kerol Miller Yangi O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi, jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, demokratik institutlarni, eng avvalo, parlamentni mustahkamlash, gender tenglikni ta’minlash borasidagi ishlar natijalarini yuksak baholadi. Iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarni, shu jumladan tog‘-kon, sanoat, energetika, qishloq xo‘jaligi sohalaridagi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilgari surish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi.

Savdo Iqtisodiy va investiyaviy diplomatik muloqotlarning faollashuvi kuzatildi

Yil davomida O‘zbekiston yetakchisining AQShning 100 dan ortiq yirik kompaniya va banklari rahbarlari bilan o‘tkazgan uchrashuv va muzokaralari natijasida Fuqaro aviatsiyasi, tog‘-kon sanoati, muhim minerallar, moliya, innovatsiyalar, kimyo, energetika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi. Ushbu loyiha va kelishuvlar ikki mamlakatda o‘n minglab yangi ish o‘rinlarini yaratishi ta’kidlandi.

AQShning yetakchi kompaniyalari, investitsiya fondlari va moliyaviy institutlari rahbarlari bilan o‘tkazilgan davra suhbati yangi investitsiya loyihalarini rivojlantirish va savdo aloqalarini kengaytirish imkoniyatlarini muhokama qilishga qaratildi.

Xududlararo iqtisodiy diplomatiya

O‘zbekiston–AQSh strategik sheriklik munosabatlarining sur’ati ortib borayotgan sharoitda ikki davlat o‘rtasida diplomatik aloqalarning vertikaliga faolligi kuzatildi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev Amerika Qo‘shma Shtatlari Yuta shtatining Iso Masih Oxirgi zamon avliyolari cherkovi oqsoqoli Devid Bednar va “Stirling” xalqaro xayriya fondi raisi Mayls Xansendan iborat biznes delegatsiyasi bilan, shuningdek, AQShning Missisipi shtati bilan muloqotlarda savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar aloqalarga yuksak baho berildi. O‘zbekiston bilan AQSh o‘rtasidagi strategik sheriklikni yanada kengaytirish, oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirishda Kongressning qo‘llab-quvvatlovi muhim bo‘lib qolmoqda. Xududlar o‘rtasidagi faol muloqot va almashinuvlar faollashib bormoqda, raqamlashtirish, ta’lim va ijtimoiy himoya sohalarida qo‘shma loyihalar amalga oshirish boshlangan.

Iqtisodiy va biznes diplomatiyaning yangi qamrovi

Yil davomida ikki davlat raxbarlarining uchrashuvlarida savdo iqtisodiy, invesitiviy, biznesni rivojlantirish masalalri eng ustuvor vazifalar sifatida muloqot va kelishuvlarning markaziy nuqtalaridan bo‘ldi. Buning uchun yetakchilar ishlab chiqarish sub’ektlari, yirik kompaniyalar, biznes vakillari bilan o‘zaro foydalarni va aloqalarni samaradorligini oshirish bo‘yicha yuqoridagi soxa vakillari bilan ochiq konstruktiv muloqotlar olib borildi va avvallari kuzatilmagan yirik natijalarga erishildi. Bu borada Prezidentimizning yil davomida ham O‘zbekistonda, ham AQShdagi uchrashuvlari va muloqotlarning markazidan quyidagi strategik masallar bo‘yicha ochiq pragmatik, o‘zaro foydali masalalar kun tartibida bo‘ldi. Muloqotlarning asosida quyidagi ikki tomon uchun manfatli kelishuvlarga olib kelayotgan strategik rejalarni ilgari surdi

Birinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev AQSh raxbariyatining vakillari shuningdek yetakchi kompaniyalari, investitsiya fondlari va moliya institutlari vakillari bilan kompaniyalarining investitsiya tashabbuslarini shaxsan qo‘llab-quvvatlashga tayyorligini bildirdi.

Ikkinchidan, muhim minerallarni qayta ishlash va barqaror yetkazib berish zanjirlarini shakllantirish, AT, sun’iy intellekt, raqamlashtirish, transport, energetika va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, "aqlli" qishloq xo‘jaligi, ilg‘or texnologiyalarni joriy qilish va ko‘plab boshqa sohalarda aniq loyihalarni ilgari surish iqtisodiy va innovatsion sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Uchunchidan, davlat raxbari O‘zbekiston xorijiy investorlar uchun ishonchli hamkor va muvaffaqiyat kafolati bo‘lib qolishini ta’kidladi. Amerika biznesida O‘zbekistondagi faoliyatni kengaytirishga qiziqish ortib borayotganidan dalolat ekanini katta mamnuniyat bilan qayd etdi.

To‘rtinchidan, investitsion va innovatsion hamkorlik istiqbollariga, strategik ahamiyatga ega materiallarni o‘zlashtirish va qayta ishlash, sun’iy intellekt va raqamli texnologiyalar, transport va energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish, qishloq xo‘jaligi, turizm va boshqa sohalarda aniq loyihalarni ilgari surishga alohida e’tibor qaratdi.

Beshinchidan, Fuqaro aviatsiyasi, tog‘-kon sanoati, moliya va innovatsiyalar, kimyo, energetika va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda umumiy qiymati 100 milliard dollardan ziyod bo‘lgan shartnomalar va istiqbolli loyihalar portfeli shakllantirildi. Yangi loyihalarni qo‘llab-quvvatlash va ilgari surish uchun AQSh Eksimbanki va “DFC” jamg‘armasi imkoniyatlaridan foydalanish, ularni amalga oshirishni jadallashtirish uchun qo‘shma Muvofiqlashtiruvchi qo‘mita ta’sis etish muhimligi qayd etildi. Xavfsizlik, terrorizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohalaridagi hamkorlikka alohida e’tibor qaratildi.

Oltinchidan, ishlab chiqarish kooperatsiyasini yanada rivojlantirish, mahsulotlar turini kengaytirish va mahalliylashtirishni chuqurlashtirishga alohida e’tibor qaratildi. Zamonaviy mashinasozlikda talab yuqori bo‘lgan yangi texnologiyalar va xomashyo resurslari sohasida qo‘shma loyihalarni amalga oshirish istiqbollari muhokama qilindi. Ustuvor loyihalarni moliyalashtirish uchun qo‘shma investitsiya platformasini yaratishni jadallashtirish, kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash, bo‘yicha aniq chora-tadbirlar ko‘rib chiqildi.

Yettinchida, muhim minerallarni qazib olish, qayta ishlash va barqaror yetkazib berish zanjirlarini yaratish sohasida ilg‘or texnologiyalar va bilimlarni joriy etish bo‘yicha bitim va "yo‘l xaritasi" qabul qilindi. Loyihalarni jadallashtirish va yangi takliflar tayyorlash maqsadida qo‘shma ishchi guruh tuzish va "yo‘l xaritasi"ni qabul qilish bo‘yicha kelishuvga erishildi.

Yakunlangan yil davomida O‘zbekiston–AQSh strategik sheriklik munosabatlarini amaliy jixatlarini yanada mustahkamlash va o‘zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishning amaliy jihatlari ko‘p qirrali hamkorlikni kengaytirishga yangi imkoniyatlar yaratdi. Ikki tomonlama siyosiy muloqot va almashinuvlar, ayniqsa, yetakchilar darajasida faollashib, mamlakatlarimiz o‘rtasidagi strategik sheriklikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab bergani va uni aniq mazmun bilan boyitdi.

Hududlar o‘rtasidagi hamkorlikning yangi mexanizmi ishga tushirildi. O‘zbekistonning uchta viloyati delegatsiyalari Amerika shtatlari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun ushbu mamlakatda bo‘ldi ikki davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqalarni yangi bosqichga chiqishiga amaliy yordam beradi.

Turli darajalarda samarali aloqalar davom etayotgani kuzatilyapti. Konstruktiv siyosiy muloqot rivojlanmoqda, faol parlamentlararo almashinuvlar amalga oshirilmoqda. Kongressda O‘zbekiston kuni doirasidagi tadbirlar o‘tkazildi, bu yil kuzda xavfsizlik sohasida, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlik rivojlanib borayotganligini ko‘rsatadi.

Ustuvor tarmoqlarda biznes kooperatsiya loyihalarini ilgari surish va savdo bitimlari hajmini tubdan oshirish masalalarini muxokama qilinishi shuningdek, xavfsizlik sohasida, eng avvalo, terrorizm, ekstremizm va noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish borasida samarali hamkorlikni hamda madaniy-gumanitar almashinuvlarni takomillashdi. Markaziy Osiyo davlatlari va AQShning “C5+1” shaklidagi mintaqaviy hamkorligini chuqurlashtirish yuzasidan muloqotlar ushbu platforni yangi qamrovni vujudga kelishiga shart sharoitlar yaratadi.

Amaldagi loyiha va dasturlarni samarali ilgari surish hamda yangilarini ishlab chiqish maqsadida Amerika–O‘zbekiston ishbilarmonlar va investitsiyalar kengashi tashkil etildi. Qo‘shma Investitsiya fondini ta’sis etish bo‘yicha faol ish olib borilmoqda.

Yakuniy xulosa shundan iboratki, davlatlar ayniqsa yetakchilarning jadal siyosiy muloqoti, turli darajadagi delegatsiyalar almashinuvi, parlament diplomatiyasi, xududlararo aloqalarning rivojlanib borish jarayonlari hamda ishbilarmonlik aloqalari sur’ati ortib borayotgani, Prezidentlar oliy darajada erishilgan kelishuvlar ijrosining borishini, shuningdek, O‘zbekiston – AQSh strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirish istiqbollarining yo‘nalishlari ikki davlatning o‘zaro munosabatlarida tub burilish boshlanganligi ko‘rsatadi.

Shunday qilib, 2025 yilda:

Birinchidan, jaxonda, geosiyosiy ziddiyatlar kuchayib borayotgan, xalqaro tartibotlar o‘zgarishi, resurslar va bozorlar uchun raqobat kuchayib borayotgan murakkab va noaniq xalqaro vaziyat sharoitida O‘zbekiston tashqi aloqalarning muntazamligini, barqarorligini saqlab qolish, bilan bir vaqtda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning shiddatligi va natijadorligi va istiqboli bilan uyg‘unlashtirishi kuzatildi. O‘zbekiston Prezidenti amalga oshirilgan ochiq, pragmatik, faol va tashabbuskor tashqi siyosat o‘zaro hurmat, davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik va xalqaro huquq normalariga qat’iy rioya qilish tashqi siyosatning tamoyillarini mustaxkamladi va kengaytirdi.

Ikkinchidan, Shuningdek xalqaro tizimlarda davlatimiz manffatlarini ta’minlashning yangi tendensiyalarining mustakamlanishi, “keyingi paytda yurtimiz global masalalar muhokama qilinadigan xalqaro muloqot maydoniga aylanib borishini ta’minlash” bilan bir vaqtda, izchilligi, muntazamligi va barqaror mantiqiy asosga egaligini amalda namoyish etdi. Yangi davlatimiz tashqi siyosati va

diplomatiyasi yangi O‘zbekiston konsepsiyasini muxim tarbiy qismi sifatida avvalom bor mamlaktimiz iqtisodiy qudratini mustaxkamlash, axolining farofonligini ta’minlashda qulay tashqi sharoitlarni shakllantirish, gumanitar va madaniy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgani bilan farqlandi.

Shubxasiz bu jarayonlar Markaziy Osiyoni birinchi marta jahon siyosatining yaxlit, to‘laqonli sub’ektiga aylananishiga munosib hissa qo‘shdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

https://president.uz/uz/lists/view/8587; https://senat.uz/oz/international-cooperation/post-3530; https://www.dunyo.info/ru; /“Dunyo” AA/. https://uza.uz/posts/805695

PREZIDENTNING O'ZBEKISTON XALQIGA MUROJAATNOMASIDA MAHALLA INSTITUTINING MUSTAHKAMLANISHI

Feruza Usarova

O‘zR FA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi direktori

Annotatsiya. *Maqolada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va O‘zbekiston halqiga yo'llagan Murojaatnomasida mahalla institutining fuqarolik jamiyati asosi sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Davlat boshqaruvi tizimida mahallalarning o'zgarish dinamikasi, ularni kuchaytirish bo'yicha murojaatnomada bayon etilgan chora-tadbirlar hamda mahalla institutining fuqarolik jamiyati asosi sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Maqolada mahallalarning vakolatlarini kengaytirish, mahalliy masalalarni hal etishda ularning ishtirokini oshirish, aholini ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, davlat va jamiyat o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan yondashuvlarga alohida e'tibor qaratiladi. Xulosada mahalla institutini mustahkamlash islohotlarning strategik muhim yo'nalishi ekanligi, mahalliy o'zini o'zi boshqarish samaradorligi, ijtimoiy aloqadorlik va hududlarning barqaror rivojlanishiga ko'maklashish negizi haqida fikrlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *mahalla, o'zini o'zi boshqarish, fuqarolik jamiyati, Murojaatnoma, xalq, Oliy Majlis, davlat siyosati, ijtimoiy rivojlanish, boshqaruvni markazsizlashtirish, O'zbekiston Respublikasi.*

Аннотация*: В статье анализируется роль института махалли как основы гражданского общества в свете Послания Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису и гражданам. Рассматривается, как менялась значимость махаллей в системе государственного управления, и оцениваются меры по их усилению, изложенные в Послании. Особое внимание уделяется подходам к расширению полномочий махаллей, увеличению их участия в решении местных вопросов, социальной поддержке населения и укреплению партнёрства между государством и обществом. В заключение делается вывод, что укрепление института махалли является стратегически важным направлением реформ, способствующим эффективности местного самоуправления, социальной связности и устойчивому развитию регионов.*

Ключевые слова: *махалля, самоуправление, гражданское общество, Послание Президента, народ, Олий Мажлис, государственная политика, социальное развитие, децентрализация управления, Республика Узбекистан.*

Abstract: *This article analyzes the role of the mahalla institution as a foundation of civil society in light of the Address of the President of the Republic of Uzbekistan to the Oliy Majlis and Citizens. It examines how the importance of mahallas in the public administration system has changed and highlights the measures outlined in the Address to strengthen them. Particular attention is paid to approaches to expanding the powers of mahallas, increasing their participation in local issues, providing social support to the population, and strengthening partnerships between the state and society. In conclusion, it is concluded that strengthening the mahalla institution is a strategically important area of reform, promoting the effectiveness of local self-government, social cohesion, and sustainable regional development.*

Keywords*: mahalla, self-government, civil society, Presidential Address, Oliy Majlis, state policy, social development, decentralization of governance, Republic of Uzbekistan.*

Kirish.

Murojaatnoma – davlatning o‘z fuqarolari oldida ochiq hisobdorligini ta’minlaydigan, strategik maqsadlar va amaliy vazifalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi muhim siyosiy instrumentdir. U orqali mamlakat yetakchisi nafaqat yil natijalarini sarhisob qiladi, balki kelgusi bosqichda jamiyat oldida turgan

asosiy vazifalarni konseptual jihatdan belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga yo‘llagan 2025 yil 26 dekabrdagi Murojaatnomasida **2026 yil mamlakatimizda «Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish yili»** deb e’lon qilindi.[1] Prezidentimiz tashabbusi bilan 2026 yilga berilgan nom ramziy emas, balki aniq dasturiy mazmunga ega. Bu yil doirasida mahalla infratuzilmasi uchun 20 trillion so‘m, og‘ir sharoitli 33 tuman va 330 mahalla uchun 8,5 trillion so‘m hamda mahalliy budjetlar mustaqilligini oshirishga qaratilgan yangi moliyaviy mexanizmlar joriy etilishi ta’kidlandi. Bunday choralar mahalliy boshqaruvni kuchaytirish, fiskal detsentralizatsiya va aholining qaror qabul qilish jarayonidagi ishtirokini oshirishga xizmat qiladi. Murojaatnoma yurtimizning kelgusi davrda, kelajagimizning ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilovchi muhim strategik hujjatga aylanib bormoqda. Ichki va xalqaro muhitdagi ko‘p qirrali o‘zgarishlar sharoitida ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash va mahalliy darajada boshqaruv samaradorligini oshirish davlat siyosati uchun dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu Murojaatnomada fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarishning noyob tizimi va fuqarolik jamiyatining asosiy bo‘g‘ini bo‘lmish mahallaning roliga alohida urg‘u berildi. Bu ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga va xalqqa yo‘naltirilgan islohotlarni amalga oshirishga hissa qo‘shadi.

Prezident mahallalarni jonlantirish orqali barqaror ijtimoiy kapitalni qurish, mahalliy muammolarni hal qilishda jamoatchilik ishtirokini va nazoratini oshirish, yosh avlodda vatanparvarlik va mas'uliyatni tarbiyalash mumkinligini ta'kidladi. Shunday qilib, Murojaatnomada bayon etilgan islohot yo'nalishlarini tahlil qilish bizga mahalliy o'zini o'zi boshqarishning zamonaviy modelining asosi sifatida mahalla institutini mustahkamlashning mexanizmlari va salohiyatini aniqlash imkonini beradi. Bu esa davlat tuzilmalari va aholi o'rtasidagi aloqani mustahkamlashga, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga va ijtimoiy birdamlik tamoyillariga asoslangan barqaror rivojlanishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot usullari.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomasi kontekstida mahalla institutini mustahkamlash muammosini o'rganish kompleks metodologik yondashuvga asoslangan. Asosiy tadqiqot usuli kontent tahlili bo'lib, u davlat siyosatining asosiy kontseptual yo'nalishlari va ustuvorliklarini aniqlash, shuningdek, mahalla institutini rivojlantirish va mustahkamlash bilan bevosita bog'liq qoidalarni tizimlashtirish imkonini beradi. Maqolada mahallalar faoliyatini tartibga soluvchi amaldagi huquqiy hujjatlar bilan taqqoslashga qaratilgan qiyosiy huquqiy yondashuv qo'llanildi, shuningdek, davlat, mahalliy hokimiyat organlari va fuqarolik jamiyati o'rtasidagi o'zaro ta'sirlarni yaxlit tushunishni ta'minlaydigan analitik va tizimli usullar qo'llanildi.

Foydalanilgan tadqiqot usullarining uyg'unligi maqola xulosalarining ilmiy asosliligini ta'minladi va O'zbekiston Respublikasida mahalla institutini mustahkamlash jarayonida Prezidentning Murojaatnomasining strategik yo'nalish sifatidagi ahamiyatini har tomonlama ochib berish imkonini berdi.

O'zbekiston Respublikasidagi mahalla instituti an'anaviy ijtimoiy tuzilma elementlarini zamonaviy davlat boshqaruvi mexanizmlari bilan birlashtirgan mahalliy o'zini o'zi boshqarishning noyob modelini ifodalaydi. Tarixan, mahalla ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimi bo'lib xizmat qilgan, jamiyat ichidagi munosabatlarni tartibga solgan va madaniy qadriyatlarni uzatgan, ijtimoiy tuzilmaning muhim elementi bo'lib xizmat qilgan. “Tarix davomida qanday og‘ir sinovlarga duch kelmaylik, biz avvalo birdamlikdan kuch oldik. Mashaqqatli kunlarda odamlarimiz, mahalla ahli yelkadosh bo‘lib qiyinchiliklarni yenggan. Oila – oilaga, qo‘shni – qo‘shniga ko‘mak berib yashagan. Biz mana shunday o‘ta noyob qadriyatimizga doimo sodiq qolishimiz, yosh avlodimizni ayni shu ruhda tarbiyalashimiz kerak. Bugungi kunda jamiyatimizda turli xil fikr va qarashlar bo‘lishi tabiiy. Bu – demokratiyaning birlamchi talabi. Ammo, millati, tili va dinidan qat’i nazar, butun el-yurtimizni birlashtiradigan ulug‘ bir g‘oya bor. U ham bo‘lsa, Vatan manfaati, xalqimiz manfaatidir”. [1] Zamonaviy islohotlar sharoitida uning roli o'zgarib, mahalliy darajada davlat siyosatini amalga oshirishning asosiy vositasiga aylanmoqda.

Prezidentning 2026-yilni “Mahalla va jamiyatni rivojlantirish” yili deb e'lon qilishi chuqur siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy ahamiyatga ega. Axir, mahalla jamiyat uchun mustahkam poydevor, inson manfaatlari to'liq amalga oshiriladigan va davlat siyosati odamlar hayoti bilan chambarchas bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy institut hisoblanadi. [3]

Mamlakatimiz rahbari haqli ravishda ta'kidlaganidek, xalqimiz uchun mahalla shunchaki fuqarolik jamiyati instituti emas, balkim “Qanchalik og‘ir bo‘lmasin, boshlagan demokratik islohotlarimizni qat’iy davom ettirganimiz, xalqimizning qo‘llab-quvvatlashi va yoshlarimizning g‘ayrat-

shijoati, hamjihatlik asosi bo‘lgan mahallaning hayotimizdagi o‘rni va ta’sirini kuchaytirganimiz, odamlarimizning ongi va dunyoqarashini o‘zgartirib, el-yurtimizni yanada jipslashtirganimiz, tadbirkor, dehqon va fermerlarimizning tashabbuskorligi va mardona mehnati, o‘zaro manfaatli hamkorlikka asoslangan do‘stona tashqi siyosatimiz hisobiga 2025 yilda barcha sohalarda ulkan yutuqlarga erishdik». [1]

Darhaqiqat, davlat boshqaruvi tizimida mahalla davlat organlari va aholi o'rtasida bog'lovchi vosita bo'lib xizmat qiladi, ijtimoiy dasturlarning maqsadli amalga oshirilishini ta'minlaydi, fikr-mulohazalarni bildiradi va mahalliy xususiyatlarni hisobga oladi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va xalqqa Murojaatnomasida jonli fuqarolik jamiyatini rivojlantirish va ijtimoiy yo'naltirilgan islohotlarning samaradorligi uchun poydevor sifatida ushbu institutni yanada mustahkamlash zarurligi ta'kidlandi.

Murojaatnomada mamlakat bo'ylab o'tkazilgan sotsiologik so'rovlarga ko'ra, ishtirokchilarning 90 foizi o'zlarini mahalla jamoasining bir qismi deb hisoblashi ta'kidlandi. Bu, esa o‘z navbatida, mahalla, avvalo, ijtimoiy birdamlik manbai ekanligini yaqqol ko'rsatadi. [2]

Mahalladagi tinchlik va osoyishtalik jamiyatda tinchlik va hamjihatlikni ta'minlaydi. Agar mahallada adolat hukm sursa, davlatga ishonch mustahkamlanadi. Agar mahalla rivojlansa, mamlakat gullab-yashnaydi. Shuning uchun ham Prezident Murojaatnomada mahalla institutiga yangi, keng qamrovli va tizimli yondashuvni taklif qildi. Mahalla shunchaki boshqaruvning hududiy birligi emas, balki ijtimoiy barqarorlik, ijtimoiy totuvlik va ma'naviy birlikning asosiy ustunidir. [3]

Shu munosabat bilan, Murojaatnoma mazmunini tahlil qilish bizga mahalla institutini rivojlantirishning bir nechta asosiy kontseptual yondashuvlarini aniqlash imkonini beradi:

Birinchidan, mahalla ijtimoiy siyosatning asosiy darajasi sifatida qaraladi, bu yerda mahalliy aholining dolzarb muammolari aniqlanishi va hal qilinishi kerak. Ushbu yondashuv rasmiy boshqaruvdan muayyan jamoalarning real ehtiyojlari va manfaatlariga asoslangan boshqaruvga o'tishga qaratilgan.

Ikkinchidan, Murojaatnomada mahallalarning funktsional rolini kengaytirishga, jumladan, ularning bandlik, ijtimoiy himoya, jinoyatchilikning oldini olish va yoshlar bilan aloqalarni rivojlantirishdagi ishtirokini kengaytirishga urg'u berilgan. Bu davlatning mahallalar vakolatlarini mustahkamlash va ularni o'z hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirokchilarga aylantirishini namoyish etadi.

Uchinchidan, mahallaning insoniy va tashkiliy salohiyatini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratilmoqda, bu ularning rahbarlarining malakasini oshirish, zamonaviy boshqaruv usullari va davlat idoralari bilan o'zaro aloqalar uchun raqamli vositalarni joriy etishni o'z ichiga oladi.

Murojaatnomada mahalla institutini mustahkamlashning quyidagi asosiy yo‘nalishlari belgilab berildi:

- Mahalla nafaqat ijtimoiy tuzilma, balki milliy davlatchilik an’analariga asoslangan o‘zini o‘zi boshqarish instituti sifatida rivojlantirilmoqda.

- Mahallabay ishlash tizimini samarali tashkil etish maqsadida hokim yordamchisi, yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faoli va boshqalardan iborat «yettilik»ning aholi muammolarini hal etishdagi vakolatlari kengaytirildi.

- Mahalla tizimini ilmiy va uslubiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida O‘zbekistonda *Mahallani rivojlantirish milliy instituti* tashkil etilishi belgilandi. Mahalla instituti, shuningdek, kichik va oilaviy biznesni qo'llab-quvvatlash va o'zini o'zi band qilishni rivojlantirishni o'z ichiga olgan mahalliy iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish platformasi sifatida qaraladi. Mahalla orqali aholini iqtisodiy masalalarga jalb qilish o'z jamiyatini rivojlantirishga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi va fuqarolarning farovonligini oshiradi.

- 2026 yilga mo‘ljallangan davlat dasturi doirasida mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi daromadlarini oshirishga qaratilgan alohida chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

- Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiq, mahalla fuqarolik jamiyatining mustaqil va tayanch bo‘g‘ini sifatida e’tirof etilib, uning davlat va xalq o‘rtasidagi «ko‘prik» vazifasi kuchaytirilmoqda.

Prezident o‘z nutqida *«Mahalla tinch va ahil bo‘lsa, jamiyatimiz tinch va hamjihat bo‘ladi»* degan tamoyil asosida islohotlar samarasini har bir xonadonda his etish zarurligini alohida ta’kidladi.

Shunday qilib, O'zbekistondagi mahalla instituti zamonaviy jamiyatning yangi chaqiriqlari va talablariga moslasha oladigan ko'p funksiyali va jadal rivojlanayotgan mexanizmni ifodalaydi. Uni

yanada mustahkamlash va rivojlantirish aholining hayot sifatini yaxshilash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlari hisoblanadi.

Alohida e’tibor berishimiz kerakki, Prezident Murojaatnomasida mahalla instituti ijtimoiy hamjihatlik va jamiyatning barqarorligini oshirishning asosiy mexanizmi sifatida taqdim etilgan. Mahalla tuzilmasi ijtimoiy zaif guruhlarni maqsadli qo'llab-quvvatlash, ijtimoiy keskinlikni minimallashtirish va davlat institutlariga ishonchni mustahkamlashning asosiy kanali bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, Prezident Murojaatnomada *birinchi marta mahalla muammolariga kompleks yondashuv yordamida yondashish muhimligi qayt etildi. Endi mahalla muammolari yagona tizim orqali hal qilinadi*. Masalan: ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirish va ijtimoiy reabilitatsiya orqali. Bu maqsadlar uchun katta mablag' ajratilishi mahalla islohotlari shunchaki shior emas, balki aniq, amaliy dastur ekanligini ko'rsatadi. [3]

Mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati uning yoshlarni tarbiyalash, fuqarolik mas'uliyati va qonunga hurmat qadriyatlarini shakllantirishdagi rolida ham yaqqol ko'rinib turibdi. Bu jamiyatning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga egadir.

Prezident mahallaning o'zini o'zi boshqarishning noyob tizimi sifatida yoshlarni vatanparvarlik va matonat ruhida tarbiyalashda, shuningdek, jamiyatni yanada birlashtirish va mustahkamlashda ajralmas rolini ta'kidladi. Davlat rahbarining so'zlariga ko'ra, mahalla va yaxshi qo'shnichilik jamiyatning ijtimoiy kapitalini boyitadigan uyg'un qadriyatlardir. [2]

Murojaatnomada bayon etilgan eng muhim vazifalardan biri bu aholini barqaror daromad bilan ta'minlashdir. "Mahallalarda sanoat va xizmatlar" loyihasi orqali har bir hudud ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarini tashkil etish, yoshlar va ayollarni kasblarga o'rgatish va ularning iqtisodiy faolligini oshirishni rejalashtirmoqda. Ushbu yondashuv mahallani ijtimoiy yordam oluvchidan iqtisodiy faol hududga aylantiradi. Qashshoqlikni kamaytirishda erishilgan natijalar mahalla tizimining samaradorligidan dalolat beradi. Minglab mahallalarni qashshoqlikdan xoli hududlarga aylantirish, muhtoj oilalarga yo'naltirish va bolalarni ta'lim va tarbiya bilan ta'minlash orqali jamiyatda ijtimoiy adolat tamoyillari mustahkamlanmoqda. Bu mahalla orqali shaxslar taqdiriga bevosita ta'sir ko'rsatadigan siyosatning natijasidir. [3]

Murojaatnomada belgilangan maqsadlarga erishish mahallalar faoliyatining institutsional mexanizmlarini takomillashtirishni talab qiladi. Xususan, ularning maqomini huquqiy va tartibga solish vositalari orqali mustahkamlash, davlat va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi vakolatlarni aniq ajratish va idoralararo hamkorlik mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.

Mahalla faoliyatiga hisobdorlik va shaffoflik tamoyillarini kiritish juda muhimdir. Bu jamoatchilik ishonchini oshirishga va resurslardan samarali foydalanishni yaxshilashga yordam beradi. Shunday qilib, mahalla nafaqat davlat siyosatining ob'ekti, balki jamoatchilik nazorati va boshqaruv jarayonlarida faol ishtirokchiga aylanadi.

Katta salohiyatga qaramay, mahallaning institutsional mustahkamlanishi bir qator qiyinchiliklarga duch kelmoqda, jumladan, kadrlar yetishmasligi va jamoatchilik ishtirokini rasmiylashtirish xavfi. Shuning uchun davlat ko'magini fuqarolik tashabbusini rivojlantirish bilan birlashtirgan muvozanatli yondashuvni ishlab chiqish juda muhimdir.

Prezident Murojaatnomasida bayon etilgan mahalla institutini rivojlantirish istiqbollari markazsizlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, mahalliy avtonomiyani kengaytirish va mahallani strategik hududiy rivojlanishni rejalashtirish tizimlariga integratsiya qilish bilan bog'liq. Bu bizga mahalla institutini zamonaviy qiyinchiliklarga moslashish va uzoq muddatli ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qodir barqaror mexanizm sifatida ko'rish imkonini beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlis va mamlakat xalqiga Murojaatnomasidagi g‘oyalarni tahlil qilish bizga mahalla institutini mustahkamlash davlat tomonidan ijtimoiy-siyosiy va ma’muriy islohotlarning asosiy yo‘nalishi sifatida qaralishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi. Zamonaviy sharoitda mahalla nafaqat ijtimoiy o‘zini o‘zi tashkil etishning an’anaviy elementi, balki mahalliy darajada davlat siyosatini amalga oshirish uchun to‘laqonli institut maqomiga ega bo‘lmoqda. [1]

Prezidentning murojaati mahallani rivojlantirishga yanada tizimli va keng qamrovli yondashuvga o'tishni anglatadi, bu uning funktsional imkoniyatlarini kengaytirish, insoniy va tashkiliy salohiyatini mustahkamlash hamda mahalliy muammolarni hal qilishda fuqarolarning rolini oshirishni o'z ichiga oladi. Shunday qilib, mahalla instituti ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning manzilliligini yaxshilash va davlat va jamiyat o'rtasidagi o'zaro ta'sirning barqaror mexanizmlarini ishlab chiqish uchun muhim vositaga aylanib bormoqda.

Tadqiqotdan quyidagi xulosalar chiqarildi:

Prezidentning Murojaatnomasida mahalla instituti davlat idoralari va jamoatchilik o'rtasidagi asosiy bog'lovchi vosita sifatida ta'riflangan. Mahalla fikr-mulohazalarni shakllantirishda, aholining dolzarb muammolarini aniqlashda va jamoaviy harakatlarni jamoaviy darajada tashkil etishda vositachi vazifasini bajaradi. Ushbu yondashuv mahalliy tashabbuslarning davlat siyosati tizimiga integratsiyalashuvini ta'minlaydi, fuqarolarning hukumatga bo'lgan ishonchini mustahkamlaydi va faol fuqarolik ishtiroki tamoyillarini rivojlantirishga yordam beradi. Bugungi sharoitda mahallaning roli markazsizlashtirish siyosatini amalga oshirish va mahalliy o'zini o'zi boshqarish samaradorligini oshirish uchun strategik ahamiyatga ega.

Murojaatnomada mahallaning ijtimoiy-iqtisodiy, ta'lim va profilaktika vazifalarini qamrab oluvchi funksional doirasini kengaytirish tendentsiyasi bayon etilgan. Mahalla nafaqat kundalik va infratuzilma masalalarini hal qiladi, balki fuqarolik mas'uliyatini oshirish, jamoat tartibini saqlash va ijtimoiy nizolarning oldini olishga qaratilgan ta'lim, madaniy va profilaktika tadbirlarini tashkil etishda ham ishtirok etadi. Ushbu kengaytirilgan doira mahallani mahalliy rivojlanish va ijtimoiy farovonlik uchun keng qamrovli strategiyada faol ishtirokchiga aylantiradi.

Mahalla faoliyatining samaradorligi bir-biri bilan bog'liq bir nechta omillarga bog'liq: institutsional rivojlanish darajasi, aniq tartibga solish tizimi, vakolatlarni taqsimlashdagi shaffoflik va kadrlar sifati. Ushbu sohalarning har qandayidagi kamchiliklar mahallaning ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va mahalliy boshqaruv maqsadlarini amalga oshirish qobiliyatini pasaytiradi. Mahalla faoliyatini optimal tashkil etish menejerlar uchun professional tayyorgarlikni, boshqaruv kompetensiyalarini rivojlantirishni va zamonaviy monitoring va jamoatchilik bilan aloqa texnologiyalarini joriy etishni talab qiladi.

Prezident Murojaati qoidalarini amalga oshirish kollektivizm va o'zaro yordam kabi an'anaviy qadriyatlarni rejalashtirish, nazorat qilish va jarayonlarni raqamlashtirishni o'z ichiga olgan zamonaviy boshqaruv yondashuvlari bilan birlashtirgan boshqaruv modelini yaratishga hissa qo'shadi. Ushbu model hududlarning barqaror rivojlanishini ta'minlaydi, fuqarolarning hayot sifatini yaxshilaydi, davlat institutlariga ishonchni mustahkamlaydi va uzoq muddatli ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlik uchun poydevor yaratadi.

Xulosala qilar ekanmiz, quyidagilarni tavsiya qilish muhimdir:

- Mahalla organlarining huquqlari, majburiyatlari va vakolatlarini aniq belgilash, shuningdek, ularning funktsiyalarini tuman va viloyat darajasidagi davlat hokimiyati organlarining funktsiyalaridan ajratish uchun mavjud qonunlar va qoidalarni qayta ko'rib chiqish va to'ldirish kerak. Davlat idoralari bilan o'zaro hamkorlik qilish, hisobot berish va nazorat qilish qoidalarini o'z ichiga olgan mahalla faoliyati uchun standartlashtirilgan ko'rsatmalarni ishlab chiqish tavsiya etiladi. Shuningdek, mahalla tashabbuslari uchun huquqiy himoya mexanizmini mustahkamlash va ularning mahalliy ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarda mustaqil ishtirokini rag'batlantirish muhimdir.

-Mahalla rahbarlari va xodimlari loyihalarni boshqarish, moliyaviy rejalashtirish, jamoatchilik bilan aloqalar va raqamli savodxonlikni qamrab oluvchi muntazam professional tayyorgarlikdan o'tishlari kerak. Mahalliy tashabbuslarni boshqarish, jamoat ehtiyojlarini monitoring qilish va davlat idoralari bilan samarali hamkorlik qilish bo'yicha malakalarni rivojlantirish uchun uzluksiz ta'lim kurslari, seminarlar va masofaviy o'qitish dasturlari joriy etilishi kerak. Ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni kuzatish, aholining fikr-mulohazalarini tashkil qilish va mahalla darajasida raqamli xizmatlarni joriy etish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish kerak.

-Mahalla aholisining mahalliy dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda, jumladan, muntazam yig'ilishlar, maslahat kengashlari, jamoat loyihalari va elektron ishtirok platformalarini faol ishtirok etishi uchun sharoit yaratish zarur. Mahalliy darajada qarorlarning shaffofligi va qonuniyligini oshiradigan ishtirokchi tashabbuslarning samaradorligini baholash mexanizmlarini joriy etish, yoshlar va ayollar jamoalarini tashabbus ko'rsatishga undash, fuqarolarni ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni birgalikda amalga oshirishga undash tavsiya etiladi.

- Barqaror moliyalashtirish mexanizmlarini, jumladan, mahallalarning mahalliy byudjetni boshqarishda, grant dasturlarida va xususiy sektor bilan hamkorlik loyihalarida bevosita ishtirok etish imkoniyatlarini ishlab chiqish kerak. Xarajatlarni kuzatib borish, investitsiyalar samaradorligini baholash va mahalla faoliyatiga jamoatchilik ishonchini oshirish uchun shaffof buxgalteriya hisobi va hisobot tizimlarini joriy etish kerak. Shuningdek, mahalla resurslaridan iqtisodiy faoliyat va barqaror rivojlanish uchun platforma sifatida foydalangan holda, mahalliy tadbirkorlik va o'zini o'zi band qilishni rag'batlantirish bo'yicha tashabbuslarni ishlab chiqish muhimdir.

- Mahalla mintaqaviy va milliy strategik dasturlarning faol ishtirokchisi sifatida qaralishi, loyihalarni amalga oshirishni rejalashtirish, monitoring qilish va baholashda aniq belgilangan rolga ega bo'lishi kerak. Davlat idoralari, munitsipal tuzilmalar va mahallalar o'rtasida muvofiqlashtirish mexanizmini ishlab chiqish, jumladan, muntazam ma'lumotlar almashinuvi, ishchi guruhlarda ishtirok etish va loyiha sessiyalarini o'tkazish tavsiya etiladi. Bu mahallani nafaqat aholining hozirgi ehtiyojlariga javob berishga, balki mahalliy darajada ijtimoiy, iqtisodiy va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatli dasturlarni ishlab chiqishga qodir strategik ahamiyatga ega mahalliy institutga aylantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2026-yil 26-dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi - https://president.uz/ru/lists/view/8834
2. Султанов В. 2026 год объявлен - «Годом развития махалли и всего общества». - https://kun.uz/ru/88038433
3. Tursunmurodov R. Развитие страны начинается с махалли. - https://uza.uz/ru/posts/razvitie-strany-nachinaetsя-s-maxalli_805337

KORRUPSIYAVIY OMILLAR TUSHUNCHASI, TASNIFI HAMDA RETROSPEKTIV TAHLILI

Farxod Primov

Sarbon universiteti Huquqiy fanlar kafedrasi mudiri, yu.f.d., dotsent

Annotatsiya. *Ushbu maqolada korrupsiyaviy omillar tushunchasi va ularning tasnifi tahlil qilingan. Xususan, muallif tomonidan korrupsiyaning huquqiy omillari jinoiy-huquqiy va kriminologik, ma’muriy-huquqiy hamda fuqarolik-huquqiy fanlar nuqtayi nazaridan tahlil qilingan. Shuningdek, korrupsiyaning siyosiy, iqtisodiy, pedagogik, falsafiy, tarixiy hamda psixologik omillari o‘zaro aloqadorlikda tahlil qilingan. Maqolada davlat boshqaruvida korrupsiyaviy omillarning o‘zaro bog‘liqligi ularning shakllanishi, o‘z mavjudligini saqlab qolishi, rivojlanishi va yangi gibrid omillarni vujudga keltirishida namoyon bo‘lishi haqida xulosaga kelingan.*

Kalit so‘zlar: *korrupsiya, korrupsiyaviy omil, huquqiy, ma’muriy-huquqiy, fuqarolik-huquqiy, siyosiy, iqtisodiy, pedagogik, falsafiy, tarixiy.*

Аннотация. *В данной статье проанализировано понятие коррупционных факторов и представлена их классификация. В частности, автором рассмотрены правовые факторы коррупции с позиций уголовно-правовой и криминологической, административно-правовой, а также гражданско-правовой наук. Кроме того, в их взаимосвязи проанализированы политические, экономические, педагогические, философские, исторические и психологические факторы коррупции. В статье сделан вывод о том, что взаимосвязанность коррупционных факторов в системе государственного управления проявляется в процессах их формирования, сохранения собственного существования, развития и порождения новых гибридных факторов.*

Ключевые слова: *коррупция, коррупционный фактор, правовой, административно-правовой, гражданско-правовой, политический, экономический, педагогический, философский, исторический.*

Abstract. *This article analyzes the concept of corruption-related factors and presents their classification. In particular, the author examines the legal factors of corruption from the perspectives of criminal law and criminology, administrative law, and civil law. In addition, the political, economic, pedagogical, philosophical, historical, and psychological factors of corruption are analyzed in their interrelation. The article concludes that the interdependence of corruption-related factors in public administration is manifested in their formation, preservation, development, and in the emergence of new hybrid factors.*

Keywords: *corruption, corruption-related factor, legal, administrative-legal, civil-legal, political, economic, pedagogical, philosophical, historical.*

Tahlillar va o‘rganishlar korrupsiyaga qarshi kurashish samaradorligi ko‘p jihatdan ushbu tushunchaning qanday anglanishi va uning amaliyotda qanchalik o‘z ifodasini topishiga bog‘liqligini ko‘rsatmoqda. Bugungi kunda o‘zbek leksikonida korrupsiya asosan “pora” sifatida tushuniladi. “Pora” so‘zi forschadan olingan bo‘lib, o‘zbek tilida “mayda pul”, “chaqa”, “xayr sadaqa” singari ma’nolarni anglatgan holda biror ishni noqonuniy hal qilib berganlik uchun mansabdor shaxsga beriladigan yoki berilgan narsa (pul) sifatida tushunilgan.

Korrupsiya qanchalik teran va chuqur anglanar ekan unga qarshi kurashish masalalarini ham shunchalik samarali belgilash mumkin. Masalan Jinoyat kodeksining 121-moddasida shaxsni jinsiy aloqa qilishga majbur etganlik uchun jinoiy javobgarlik bo‘lib mazkur jinoyat jinsiy erkinlikka qarshi jinoyatlar turkumiga kiradi. Biroq rivojlangan davlatlarda esa hokimiyat vakolatlaridan foydalangan holda ayolning jinsiy aloqada bo‘lishini talab qilish korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sextortion, deb baholanadi va Transparency International tashkiloti har yili 8-mart arafasida «jinsiy xizmatlarni talab qilish» (yoki ingl. sextortion) holatlari bo‘yicha xalqaro hisobotini e’lon qiladi [1].

AQSHlik tadqiqotchi Brigitte Zimmerman ham o‘z tadqiqotlarida korrupsiyaga qarshi kurash-ishda fuqarolarning ishtirokini o‘rganar ekan korrupsiyaga qarshi kurashishda ishtirok etish istagi fuqarolar tomonidan korrupsiyaning turli shakllarini qanday qabul qilishlari, ularning ijtimoiy muhitida, madaniy an’analarida qanday baholashlariga bevosita bog‘liqligi to‘g‘risida muhim ilmiy natijalarni qayt etgan [2].

Shunday qilib, korrupsiyaga qarshi kurashish uni qanday tushunishga jiddiy bog‘liq (masalan davlat xizmatlarini ko‘rsatishda qo‘shimcha xizmat ko‘rsatish evaziga haq olish ayrim hollarda xizmatini pulga ayriboshlash sifatida tushunilib korrupsiya sifatida baholanmasligi mumkinligi) [27]. Bu tushunish mentalitet va qonunlarda o‘z ifodasini topadi. Eng muhimi mentalitet va qonunlarda korrupsiya bir xil tushunilishi kerak. Bordi-yu qonunlarda korrupsiya keng tushunilganligi bilan mentalitetda va ijtimoiy ongda keng tushunilmasa unda bu qonunlarning samarali ishlashi dargumon. Ko‘plab ekspertlar ham korrupsiyaviy omillar milliy mentalitet va urf-odatlar bilan bog‘liqligini ta’kidlashadi [23].

Bugungi kunda korrupsiyani vujudga keltiruvchi omillar turli rakurslardan o‘rganilgan va o‘rganilmoqda. Ilmiy-nazariy jihatdan korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi nafaqat huquqiy fanlarning, ayni chog‘da boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlarning ham muhim mavzularidan biri hisoblanadi. Shu sababli, iqtisodiyot, siyosatshunoslik, falsafa, sotsiologiya, pedagogika, psixologiya kabi fanlar doirasida ham korrupsiyaga qarshi kurashish borasida qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Korrupsiyaga qarshi kurashish masalasi bitta fan doirasida ancha keng mavzu hisoblanadi. Bu borada V.N. Lopatinning “Korrupsiyaga qarshi kurashish – nafaqat jinoyat huquqining muammosi, balki umum yuridik, ijtimoiy va siyosiy muammo hisoblanadi” degan fikriga [18] to‘liq qo‘shilish mumkin. Shuning uchun ham davlat va huquq nazariyasi, ma’muriy huquq, fuqarolik huquqi, jinoyat huquqi, kriminologiya fanlari doirasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari alohida tadqiqot sifatida o‘rganiladi.

Korrupsiyaviy omil tushunchasining lingvistik hamda huquqiy mazmunida ham birmuncha farq bor. Xususan agarda biz ushbu tushunchani faqat lingvistik jihatdan tushunadigan bo‘lsak, korrupsiya hamda korrupsiyaviy omillarni torroq tushunamiz. Boshqacha aytganda sof, lingvistik jihatdan korrupsiyaviy omil tushunchasi biroz jo‘n mazmun kasb etadi.

Korrupsiyaviy omil tushunchasi o‘z mazmuniga ko‘ra korrupsiyaviy xavf tushunchasiga yaqin turadi. Ammo bu ikki tushunchani sinonim sifatida talqin qilish kerak emas. Korrupsiyaviy xavf adabiyotlarda ta’kidlanganidek, davlat organlarida xizmat olib borayotgan xodimlarning korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etishlari imkoni yuqori bo‘lgan xizmat muhiti hisoblanadi [8]. Korrupsiyaviy omil esa kengroq mazmunga ega. Ammo korrupsiyaviy xavf tushunchasini «yutib» yubormaydi. Shuningdek, korrupsiyaviy omil kriminologiyadagi huquqbuzarliklarning sabablari va shart sharoitlariga ham ancha yaqin tushuncha hisoblanadi.

Kriminologiyada huquqbuzarliklarning sabablari hamda ularning sodir etilishiga imkon bergan shart-sharoitlar birga qo‘llansada aslida mustaqil ma’noda tushuniladi. Korrupsiyaviy omil ham sababni ham shart-sharoitni bir paytda o‘zida ifodalaydi. Shu bilan birga kriminologiyadagi sabablar asosan individual shaxsga bog‘lab tushuntiriladi. Biz esa korrupsiyaviy omil tushunchasi tarkibidagi sabablarni individual shaxs va uni o‘rab turgan muhit – jamiyatga (“ijtimoiy shaxs”ga) ham bog‘lagan holda tushunish lozim deb o‘ylaymiz. Boshqacha aytganda, ijtimoiy ong va ijtimoiy qadriyatlar butun jamiyatga nisbatan ishlatiladi. Shu sababli korrupsiyada nafaqat shaxsni, ayni paytda uning ijtimoiylashuviga ta’sir qilgan jamiyatni ham ayblash o‘rinlidir.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, korrupsiyaviy omillar korrupsiyaning vujudga kelishi, rivojlanishi va o‘z mavjudligini saqlab qolish uchun sabab bo‘ladigan hamda imkon bergan holatlar, vaziyatlar hamda jarayonlar hisoblanadi.

Mazkur holatlar va vaziyatlar hamda jarayonlar judayam turli-tuman (moddiy) muhitda, ijtimoiy va individual ongda yuz beradi. Boshqacha aytganda, biz korrupsiyaviy omillarni ma’lum bir fanlar doirasida bor bo‘yi bilan ko‘ra olmaymiz va albatta unga qarshi strategiyani ham ishlab chiqolmaymiz. Shu sababli korrupsiyaviy omillarni turli fanlar doirasidagi yaxlit rakurs bo‘yicha ko‘rib chiqish o‘rinlidir. Bu borada Q.R. Abdurasulova ham bugungi kunda yuridik fanlar bo‘yicha tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida korrupsiyaning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa jihatlariga bag‘ishlangan binar tadqiqotlar olib borilishi maqsadga muvofiqligini ta’kidlaydi [17].

Shunday qilib, korrupsiyaviy omillarni hodisa sifatida bir yoki bir necha omillar bilan tushuntirish mumkin emas. Bu borada yaxlit tasavvurlargina tugal xulosaga erishi imkonini beradi.

Korrupsiyaviy omillarning biri sifatida *huquqiy omillar* turli rakurslardan o‘rganilgan. Bu boradagi tadqiqotlarni kuzatish natijasida ular haqida shunday xulosaga kelindiki, korrupsiya va korrupsiyaviy omillar huquqiy nuqtai nazardan asosan quyidagi yo‘nalishlarda tadqiq etilgan:

jinoiy-huquqiy va kriminologik nuqtai nazardan korrupsiya va korrupsiyaviy omillar, qilmishni kvalifikatsiya qilish, uning oldini olish (korrupsiyaning sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish), korrupsiyaga oid huquqbuzarlik sodir etgan shaxslarning kriminologik tavsifi doirasida tadqiq etilgan [19]. Masalan, G.B. Nurmuxamedova korrupsiyaga qarshi kurashish tushunchasini korrupsiyaga qarshi kurashish sub’ektlarining doimiy ravishda korrupsiya profilaktikasi (korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning sodir etilish sabablari va ularga imkon bergan shart-sharoitlarni aniqlash va bartaraf etish), korrupsiyaga qarshi jinoyat-huquqiy vositalar orqali kurashish (korrupsiya bilan bog‘liq huquqbuzarliklarni aniqlash, fosh etish, tergov qilish) hamda korrupsiya oqibatlarini bartaraf qilish bilan bog‘liq tashkiliy chora-tadbirlarni o‘z ichiga qamrab olgan tizimli faoliyat sifatida talqin qilgan [19]. Jinoiy-huquqiy va kriminologik nuqtai nazardan korrupsiya asosan jinoiy qilmish, o‘zining ma’lum sabab va shart sharoitlariga ega salbiy jinoiy hodisa sifatida talqin etiladi.

Korrupsiyani to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat sifatida tushunish asosan jinoyat huquqi va kriminologiya faniga xos hodisa sanaladi. Buning ijobiy jihati shundaki, korrupsiya jinoyat sifatida tushunilar ekan u jamiyat va davlat tomonidan qat’iy “tabulashgan” hamda albatta jazoga tortilishi kerak bo‘lgan qilmish sifatida tushuniladi. Shu bilan birga korrupsiyani faqat jinoyat sifatida tushunish uning ma’muriy-huquqiy, fuqaroviy hamda intizomiy jihatlarini e’tibordan chetda qolishiga olib keladi.

A.V. Kurakin ham o‘z tadqiqotlarida davlat xizmatlari tizimidagi korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish mexanizmida jinoiy-huquqiy vositalar ustunlik qilayotgani, ammo jinoyat uchun jazolash choralari davlat uchun juda qimmatga tushishi, qolaversa jinoyat-huquqiy vositalarni amalga oshirish natijasida korrupsiyaning shakllari o‘zgarishi, buning natijasida jinoyat huquqi normalarini amalga oshirish orqali ularga qarshi kurashish samarasiz bo‘lib qolishi to‘g‘risida fikr yuritadi [15].

Ma’muriy-huquqiy jihatdan korrupsiyaviy omillar asosan quyidagi ikki yo‘nalishda tadqiq etilgan:

Birinchisi – normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillar va ularni huquqiy ekspertizadan o‘tkazish bo‘yicha talablarni nazarda tutuvchi tadqiqotlar [24]. Bu boradagi ayrim tadqiqotlarda «Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to‘g‘risida»gi maxsus qonunni qabul qilish lozimligi to‘g‘risida fikr bildirilmoqda [25]. Shu bilan birga mazkur yo‘nalishdagi tadqiqotlarda asosan normativ-huquqiy hujjatlar yoki ularning loyihalaridagi korrupsiyaviy omillar va ularni aniqlash metodologiyasi tadqiq etilgan. Masalan, O.R. Fayziev korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga imkoniyat yaratadigan korrupsiyaviy omillarni quyidagi uch guruhga ajratib ko‘rsatgan: 1) huquqni qo‘llovchilarga asossiz ravishda ko‘rib chiqishning keng doirasini yoki umumiy qoidalardan chiquvchi istisnolarni qo‘llash imkoniyatini belgilovchi korrupsiyaviy omillar; 2) jismoniy va yuridik shaxslarga noaniq, bajarilishi qiyin bo‘lgan va (yoki) og‘irlashtirilgan talablarni o‘z ichiga olgan korrupsiyaviy omillar; 3) huquqni tartibga solishdagi bo‘shliqlar bilan bog‘liq bo‘lgan korrupsiyaviy omillar [24]. Bizning nazarimizda mazkur omillarni yana davom ettirish mumkin. Xususan, normativ-huquqiy hujjatlarning tarqoqligi, bitta sohaning ko‘plab normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinishi, ierarxik tartibga solishdagi muvozanatining buzilganligi, xususan huquqiy tartibga solishda idoraviy-normativ huquqiy hujjatlarning ko‘pligi.

ikkinchisi – korrupsiyaning asosan ma’muriy-huquqiy munosabatlar tizimida paydo bo‘lishi, rivojlanishi va saqlanib qolishi to‘g‘risidagi tadqiqotlar. Mazkur yo‘nalishda korrupsiyaviy omillar nisbatan kengroq yoritilganligining guvohi bo‘lish mumkin [7]. Masalan, D.A. Povniy ta’lim sohasidagi korrupsiyaviy omillar sifatida quyidagilarni ko‘rsatadi: ta’lim sohasidagi qonunchilikning tarqoqligi va nomuvofiqligi; mahalliy ta’limning sifati va nufuzining tushib ketganligi; talabalar ongida xulq-atvorning cheklangan modeli (huquqiy infantilizm va huquqiy nigilizm)ning ildiz otganligi [20].

Sivilistik jihatdan korrupsiyaviy omillar nisbatan kam o‘rganilgan. Aftidan bunga Sobiq ittifoq davrida shakllangan va qisman stereotipga aylangan “korrupsiya davlat boshqaruvida bo‘ladi degan” qarashlar hamda ularning huquq ijodkorligidagi in’ikosi sabab bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Sivilistik tadqiqotlarda korrupsiyaning xususiy sektor hamda davlat-xususiy sherikchiligi sohasida vujudga kelishiga oid masalalar hamda korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy vositalari o‘rganilgan [4]. Korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqaroviy-huquqiy vositalari bugungi kunda mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi kurashishning huquqiy vositalari ichida yetishmayotgan unsurlardan biri hisoblanadi. Strasburgda 1999-yil 4-noyabrda qabul qilingan “Korrupsiya bo‘yicha fuqaroviy-

huquqiy javobgarlik to‘g‘risida”gi Konvensiyada muhim qoidalar o‘z ifodasini topgan. Xususan, Konvensiyaga a’zo bo‘lgan mamlakatlar uchun korrupsiya natijasida yetkazilgan zararning o‘rnini qoplashning fuqaroviy-huquqiy (mulkiy) vositalarini belgilash to‘g‘risidagi norma [11] korrupsiyaning oqibatlarini to‘la qayta tiklashga qilishga xizmat qiladi. Ayrim mualliflar ham korrupsiya uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlikni takomillashtirish korrupsiya natijasida noqonuniy ravishda ko‘rsatilgan xizmatlar qiymatini aybdor davlat xizmatchisidan undirish, shuningdek korrupsion huquqbuzarliklar natijasida qabul qilingan shartnomalarni haqiqiy emas deb e’tirof etish va normativ-huquqiy hujjatlarni bekor qilish imkoniyatlarini oshiradi degan mazmundagi fikrni bildirishadi [15]. Chindan ham fuqarolik-huquqiy javobgarlik universal huquqiy javobgarlik bo‘lib har qanday huquqbuzarlikning moddiy oqibatlarini bartaraf etishning universal vositasi hisoblanadi. Shu sababli mamlakatimiz milliy qonunchiligida ham korrupsiyaga qarshi kurashishning fuqarolik-huquqiy jihatlarini rivojlantirish muhim natijalarga erishish imkonini beradi.

*Korrupsiyaning siyosiy omillari*ni aniqlash va bartaraf etish unga qarshi kurashishda muhim ahamiyat kasb etadi. Korrupsiyaning siyosiy omillari siyosiy tuzimning korrupsiyaga qarshi kurashishdagi pozitsiyasi va siyosiy irodasi, korrupsiyaga qarshi kurashishning siyosiy komponentlari, korrupsiyaga qarshi kurashishning siyosiy-g‘oyaviy texnologiyalari va mexanizmlari bilan bog‘liqlikda tadqiq etilgan. Shu bilan birga ayrim siyosiy tadqiqotlarda korrupsiyaga qarshi kurashishning milliy va mintaqaviy modellari tadqiq etilgan [9].

D.A. Gridyakin davlat organlarining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi siyosiy-g‘oyaviy mexanizmining asosiy tarkibiy elementlari sifatida: fuqarolarda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mentalitetni shakllantirish; halollik kodeksini ishlab chiqish; OAVning korrupsiya bo‘yicha axborot olish erkinligini ta’minlashni nazarda tutadi [9].

Не прекращается работа по привлечению ведущих зарубежных университетов к открытию своих филиалов в Узбекистане. Если до 2017 года было организовано обучение в столичных филиалах 7 зарубежных университетов, а именно Международного Вестминстерского университета, Сингапурского института развития менеджмента, Туринского политехнического университета, Московского государственного университета, Российского государственного экономического университета имени В. Плеханова, Российского института нефти и газа имени Губкина, Южно–Корейского университета ИНХА, то уже в 2018 году в Узбекистане начали деятельность 13 новых вузов, в частности Международный университет туризма «Шелковый путь» в Самарканде, филиал Национального исследовательского технологического университета «МИСиС» (Россия) в Алмалыке и Университета Пучон Южной Кореи в Ташкенте и др.[12,205]

Кроме того, Узбекистан активно работает над созданием международных научных центров и вузов, что позволяет студентам получать образование по международным стандартам и участвовать в глобальной научной деятельности.

Цель всех этих системных и последовательных преобразований, осуществляемых в системе образования – создать условия для формирования гармонично развитой личности. Это вызвано тем, что конечный успех реформ в стране во многом зависит от образования и воспитания молодежи, формирования ее мировоззрения на основе современных знаний, духовности и просвещения. В частности, в противодействии таким угрозам, как терроризм и экстремизм, сегодня уже не эффективно бороться лишь с их последствиями, главной задачей становятся искоренение первопричин этих угроз, воспитание молодежи в духе высоких идеалов гуманизма. Узбекистан выступает именно за такой подход к решению важнейших проблем современности.

Таким образом, новые образовательные стандарты должны стать одним из важнейших средств повышения уровня подготовки специалистов с высшим образованием через освоение в процессе обучения основ профессиональной деятельности, методов, приемов и навыков индивидуального и коллективного выполнения научно-исследовательских работ, развития способностей к научному творчеству, исследовательской самостоятельности и, как следствие – формирования высокопрофессиональных специалистов способных к генерированию новых знаний и их эффективному применению в условиях глобализации. В Узбекистане велико понимание того, что постоянные инвестиции в так называемый «человеческий капитал» и образование, являются залогом формирования развитого демократического государства, постоянным двигателем прогресса и непременным условием модернизационной направленности общегосударственного развития.

Реформирование государственной образовательной политики направлена на открытость, модернизацию и международную интеграцию. Ведущую роль в этих процессах играют: расширение сотрудничества с зарубежными университетами; внедрение международных образовательных стандартов; открытие филиалов иностранных вузов в стране; участие в международных образовательных проектах и форумах.

Среди ключевых инициатив, реализуемых на международных площадках, можно выделить следующие:

Открытие филиалов зарубежных вузов: в Узбекистане функционируют представительства таких университетов, как Российский экономический университет им. Плеханова, Университет Инха (Южная Корея), Сингапурский институт менеджмента и др. Все открытые филиалы действуют на основе соглашений между Республикой Узбекистан и зарубежными учебными заведениями. Зарубежные филиалы обеспечивают реализацию учебных программ с участием международных партнеров, зачастую по стандартам «материнского» университета, важно отметить, что они способствуют переносу образовательных моделей, технологий, преподавательского опыта и связей с индустрией.

Для Узбекистана открытые зарубежные филиалы повышает качество образования за счет применения передовых подходов и практик зарубежных вузов. Способствует подготовке кадров, конкурентоспособных на международном рынке труда (особенно в сферах ИТ, логистики, бизнеса). Улучшает научно-исследовательский потенциал страны: создание центров, лабораторий, стартап-экосистем в рамках филиалов. И самое важное укрепляет международное сотрудничество: студенты и преподаватели становятся «мостами» между Узбекистаном и зарубежными образовательными центрами.

Двусторонние соглашения и программы обмена: Узбекистан заключил более 100 соглашений с зарубежными странами в сфере образования. Осуществляются академические обмены, совместные научные исследования, языковые программы. Так, на сегодняшний день, реализуются программы обмена с вузами из Южной Кореи (KOICA, KOREATECH, Inha: образовательные и исследовательские обмены, включая ИТ и инженерные науки), РФ (квоты на бесплатное обучение в российских вузах, работа представительств РУДН, МГУ и др.), Германии (DAAD: ежегодно десятки студентов и преподавателей проходят обучение и стажировки), Китая (стипендии правительства КНР, развитие институтов Конфуция, обмен аспирантами), Индии (программа ITEC, поддержка онлайн-курсов и технических стажировок) и др., которые представлены в форме поддержки краткосрочных и долгосрочных стажировок, летних школ, исследовательских визитов. Через установленные программы развивается коллаборация между узбекскими и зарубежными университетами по актуальным тематикам – агротехнологии, климат, цифровизация, инженерия, медицина и пр. В результате студенты получают опыт международного обучения, стажировок и общения, что увеличивает их шансы на трудоустройство как внутри страны, так и за рубежом.

Участие в международных организациях. Узбекистан на сегодняшний день активно развивает сотрудничество с такими международными организациями, как ЮНЕСКО, ОБСЕ, ЮНИСЕФ, Всемирный банк, Азиатский банк развития (АБР), ЕС, и др. Эти взаимодействия охватывают широкий круг направлений – от реформирования образовательной системы до внедрения цифровых технологий, обеспечения инклюзии, гендерного равенства и развития человеческого капитала. Так, разработанная и принятая *Стратегия развития образования Узбекистана до 2030 года реализуется* в сотрудничестве с ЮНЕСКО и Всемирным банком. А поддержка дошкольного и инклюзивного образования реализуется совместно с ЮНИСЕФ. Цифровизация образования в нашей стране поддерживается со стороны Всемирного банка, АБР, Европейского Союза. Особое значение имеют проекты по расширению STEM-образования и внедрению цифровых навыков в школьную программу. Гуманитарное сотрудничество и академическая дипломатия поддерживается со стороны ОБСЕ, ЮНЕСКО.

Если говорить о конкретных проектах, то необходимо указать проект Всемирного банка, который мониторит Индекс человеческого капитала, направленный на улучшение учебных программ, профессиональное развитие учителей и создание системы мониторинга качества образования.[13] Другой проект ЮНЕСКО по обучению учителей устойчивому развитию (ESD Teacher Training Program), запущен с целью обучения педагогов экологическому и гражданскому воспитанию. Необходимо выделить запущенную программу PISA (Programme for International Student Assessment) с 2022 года, как важный шаг в направлении международной сопоставимости качества образования. Указанные проекты финансируются за счет международных грантов и кредитов, что позволяет модернизировать образование при ограниченных ресурсах.

Цифровизация образования и онлайн-сотрудничество: развитие дистанционного обучения в международном формате, участие в глобальных онлайн-платформах. Вообще, цифровизация образования – одно из приоритетных направлений развития образовательной системы Узбекистана, которая демонстрирует необходимость устойчивых онлайн-решений. В рамках международного сотрудничества Узбекистан активно участвует в цифровых образовательных инициативах, интегрируется в глобальные онлайн-платформы, развивает дистанционное обучение. Прорывом можно назвать разработку "UzEdu" – национальной электронной платформы для школьного и вузовского образования.[14]

Среди примеров международного цифрового сотрудничества необходимо указать: World Bank EdTech Project – проект цифровизации в рамках реформ школьного образования (разработка цифровой инфраструктуры, обучение преподавателей); проект с KOICA (Южная Корея) – цифровые лаборатории, онлайн-курсы, совместная разработка электронных учебных материалов; курсы с Microsoft и Cisco – обучение ИКТ и цифровым навыкам в онлайн-формате, сертификация; обмен через платформу Erasmus+ Virtual Exchange – участие студентов и преподавателей в международных онлайн-семинарах, курсах и дебатах и др.

Участие в международных образовательных инициативах оказывает существенное влияние на внутренние процессы: модернизация содержания образования; повышение квалификации преподавателей; развитие академической мобильности; привлечение иностранных студентов; повышение конкурентоспособности выпускников на глобальном рынке труда.

Результаты и их обсуждение. Современная образовательная политика Республики Узбекистан характеризуется выраженной направленностью на международное сотрудничество, интеграцию в глобальное образовательное пространство и использование образования в качестве инструмента гуманитарной дипломатии. Активное участие в международных форумах, стратегическое развитие партнёрских отношений с ведущими зарубежными университетами, создание совместных образовательных учреждений и внедрение международных стандартов обучения свидетельствуют о целенаправленной ориентации страны на построение открытой, конкурентоспособной и инновационной образовательной системы. Эти инициативы не только способствуют повышению качества образования внутри страны, но и формируют имидж Узбекистана как надежного и компетентного партнёра в сфере науки и образования на международной арене.

Важно продолжить развивать международные образовательные программы с акцентом на научные исследования и академическую мобильность, акцентируя внимание на совместных исследовательских проектов (joint research) с зарубежными университетами и научными центрами. Необходимо расширять двусторонние программы обмена преподавателями и студентами, включая краткосрочные стажировки, летние школы и программы двойных дипломов. Кроме того, необходимо обеспечить государственное софинансирование таких проектов и предусмотреть преференции для вузов, успешно реализующих международные программы.

Следует стимулировать открытие новых филиалов зарубежных университетов в регионах Узбекистана, особенно в тех, где отсутствует доступ к качественному высшему образованию. Кроме того, необходимо развивать гибридные модели сотрудничества (например, онлайн-офлайн университеты или транснациональные кампусы);

Узбекистану целесообразно усилить участие в глобальных образовательных инициативах и институтах, таких как: ЮНЕСКО, ОЭСР (в частности, программы PISA, TALIS, Education 2030). Это позволит Узбекистану влиять на формирование глобальной образовательной повестки, отстаивать национальные интересы и продвигать узбекские вузы на международной арене. Также важно участие национальных представителей в международных экспертных группах и рабочих комиссиях.

Образование должно рассматриваться как инструмент стратегического влияния и формирования долгосрочных партнерств. А для этого важно активизировать работу национальных образовательных представительств и атташе за рубежом; разрабатывать цифровые платформы открытого образования (на английском и других языках) для привлечения иностранных студентов; расширить число стипендий и грантов для иностранных граждан, особенно из стран СНГ, Центральной Азии, Африки и Юго-Восточной Азии; использовать образовательные мероприятия (форумы, олимпиады, летние школы) как площадки для культурной и научной дипломатии.

Особое внимание уделить разработке национального механизма оценки эффективности международных образовательных проектов, который призван включать методики мониторинга результативности (влияние на качество образования, академическую успеваемость, мобильность, трудоустройство выпускников); регулярную обратную связь от вузов, студентов, работодателей и зарубежных партнёров; гибкую адаптацию международных практик к местному контексту. Также важно внедрить цифровые инструменты управления данными об эффективности проектов и обеспечить открытость для анализа и корректировки образовательной политики.

Выводы. Республика Узбекистан демонстрирует устойчивую тенденцию к интеграции международных образовательных инициатив в контекст государственной стратегии модернизации и внешнеполитического позиционирования. Это свидетельствует не только о признании ключевой роли образования в социально-экономическом развитии, но и о понимании необходимости соответствовать глобальным стандартам. Образование становится важным компонентом стратегии «открытого Узбекистана», направленной на повышение инвестиционной привлекательности, развитие человеческого капитала и формирование имиджа страны как активного и ответственного участника международного сообщества.

Международное сотрудничество в сфере образования оказывает мощное мультипликативное воздействие на внутренние реформы. Благодаря трансферу знаний, участию в совместных научных проектах, а также адаптации лучших международных практик, происходит качественное обновление методологических и технологических подходов в образовательной системе. Одним из важнейших результатов этого процесса является повышение профессионального уровня преподавателей через программы переподготовки, стажировки за рубежом, участие в сетевых университе-

тах и международных конференциях. Всё это способствует формированию устойчивой среды для инноваций и академического обмена.

Активное участие Узбекистана в международных образовательных инициативах способствует расширению академической мобильности студентов, преподавателей и исследователей. Это не только стимулирует циркуляцию знаний, но и обеспечивает устойчивый культурный обмен, необходимый для формирования межкультурной компетентности – одного из ключевых навыков XXI века. Такой подход способствует переходу от изолированного национального образования к модели, встроенной в глобальные академические и научные процессы, что усиливает интеграцию страны в мировое образовательное пространство.

Образовательные инициативы играют важную роль в продвижении интересов страны на международной арене, функционируя как элемент «мягкой силы». Через создание совместных университетов, академических программ, стипендий для иностранных студентов и участие в глобальных образовательных форумах Узбекистан формирует привлекательный и открытый образ государства, ориентированного на диалог и сотрудничество. Такие подходы укрепляют доверие со стороны международного сообщества, способствуют расширению международных контактов и обеспечивают долгосрочные репутационные выгоды.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Бурунчук Л. Инвестиции в будущее [Электронный ресурс] // Gazeta.uz. – 2018. – 4 сентября. – Доступно на: https://www.gazeta.uz/ru/2018/09/04/education/ (от 04.11.2025).
2. Муминов А. Г. Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №8. С. 202-208.doi:10.33619/2414- 2948/45/22
3. Узбекистан сосредоточится на реформах образования в 2025 году. Доступно на: https://daryo.uz/ru/2024/12/25/uzbekistan-sosredotocitsa-na-reformah-obrazovania-v-2025-godu (от 25.12.24г.)
4. В Узбекистане внедрят новые способы повышения квалификации и зарплат врачей и учителей. Доступно на: https://fergana.ru/news/136098/
5. Узбекистан сосредоточится на реформах образования в 2025 году. Доступно на: https://daryo.uz/ru/2024/12/25/uzbekistan-sosredotocitsa-na-reformah-obrazovania-v-2025-godu (от 25.12.24г.)
6. Узбекистан сосредоточится на реформах образования в 2025 году. Доступно на: https://daryo.uz/ru/2024/12/25/uzbekistan-sosredotocitsa-na-reformah-obrazovania-v-2025-godu (от 25.12.24 г.)
7. Узбекистан сосредоточится на реформах образования в 2025 году. Доступно на: https://daryo.uz/ru/2024/12/25/uzbekistan-sosredotocitsa-na-reformah-obrazovania-v-2025-godu (от 25.12.24 г.)
8. В Узбекистане внедрят новые способы повышения квалификации и зарплат врачей и учителей. Доступно на: https://fergana.ru/news/136098/ (от25.12.24 г.)
9. О Государственной программе по реализации Стратегии «Узбекистан – 2030» в Год охраны окружающей среды и «зеленой экономики». Доступно на:https://uza.uz/oz/posts/ozbekiston-2030-strategiyasini-atrof-muhitni-asrash-va-yashil-iqtisodiyot-yilida-amalga-oshirishga-oid-davlat-dasturi-togrisida_686016 (от 12.05.25.)
10. Постановление Президента Республики Узбекистан «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования» от 20 апреля 2017 года № ПП-2909. Доступно на: https://lex.uz/docs/3171587
11. Муминов А. Г. Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №8. С.204. doi.org/10.33619/2414- 2948/45/22
12. Муминов А. Г. Реформы в образовании Узбекистана: состояние и перспективы // Бюллетень науки и практики. 2019. Т. 5. №8. С.205 doi.org/10.33619/2414- 2948/45/22
13. Education Excellence Towards Human Capital and Economic Growth in Uzbekistan. Uzbekistan: ASA-P174517 September 15, 2021 Доступно на: https://documents1.worldbank. org ›curated › txt
14. Новый образовательный контент для Нового Узбекистана 20 декабря 2021 г. Доступно на: https://www.uzedu.uz/ru/news/514

O‘ZBEKISTONDA SOLIQ TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISHNING HUQUQIY ASOSLARI VA INSTITUTSIONAL RIVOJLANISHI

Axmadjon Xudayorov

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida mustaqillikning dastlabki kunlaridan, soliq qonunchiligini yaratishning huquqiy asoslari, bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida soliq siyosatining ahamiyati, Soliq kodekslarining qabul qilinishi va ularning o‘ziga xos jihatlari yoritilgan. 1997, 2007 va 2019 yillarda qabul qilingan Soliq kodekslarining mazmun-mohiyati, ular o‘rtasidagi farqlar, soliq ma’muriyatchiligidagi islohotlar hamda xalqaro tajribalar ta’siri atroflicha ko‘rib chiqilgan.*

Kalit so‘zlar: *Soliq tizimi, soliq qonunchiligi, Soliq kodeksi, soliq siyosati, bozor iqtisodiyoti, soliq ma’muriyatchiligi, soliq islohotlari, davlat byudjeti, soliq imtiyozlari, investitsiya muhiti, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются правовые основы формирования налогового законодательства Республики Узбекистан с первых дней независимости, а также значение налоговой политики в условиях перехода к рыночной экономике. Освещаются процессы принятия Налоговых кодексов и их специфические особенности. Подробно анализируются содержание и сущность Налоговых кодексов, принятых в 1997, 2007 и 2019 годах, их отличия, реформы налогового администрирования, а также влияние международного опыта.*

Ключевые слова: *Налоговая система, налоговое законодательство, Налоговый кодекс, налоговая политика, рыночная экономика, налоговое администрирование, налоговые реформы, государственный бюджет, налоговые льготы, инвестиционный климат, поддержка предпринимательства.*

Abstract: *This article examines the legal foundations of the formation of tax legislation in the Republic of Uzbekistan from the first days of independence, as well as the role of tax policy in the transition to a market economy. The processes of adopting the Tax Codes and their specific features are highlighted. The content and essence of the Tax Codes adopted in 1997, 2007, and 2019 are analyzed in detail, including their differences, reforms in tax administration, and the impact of international experience.*

Keywords: *tax system, tax legislation, Tax Code, tax policy, market economy, tax administration, tax reforms, state budget, tax incentives, investment climate, support for entrepreneurship.*

O‘zbekistonda istiqlolning birinchi kunlaridan boshlab samarali soliq tizimini yaratishga katta e’tibor berildi va bu masalaga ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar muvaffaqiyatini ta’minlashning eng muhim omili sifatida qaraldi.

Mustaqillikka erishilganidan keyin, bozor yo‘lini mustaqil tanlash zarurati yuzaga kelganida O‘zbekiston oldida qonunchilikni, shu jumladan, xo‘jalik sohasida, tub iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgartirishlar vazifalariga muvofiq, tubdan yangilash zarurati yuzaga keldi. Soliq qonunchiligini ishlab chiqishga alohida e’tibor qaratish zarur edi. Bu, albatta, soliq tizimining uzoq muddatga mo‘ljallangan puxta o‘ylangan aniq va tushunarli bo‘lishini talab qiladi [1, 124].

Bu esa iqtisodiyotni isloh qilishning o‘z modeli bozor munosabatlari rivojlangan, hatto gullab-yashnagan boshqa mamlakatlarning soliqqa oid qonun hujjatlaridan shunchaki nusxa ko‘chirish mumkin emasligini shartlaydi.

O‘tish davrida eski soliq tizimini birdan yo‘qotib bo‘lmas edi. Chunki shunday bo‘lganda davlat daromadsiz qolib, o‘z vazifalarini bajara olmay butun jamiyat aziyat chekkan bo‘lardi.

Shu sababli mamlakatda, avvalo, soliq qonunchiligiga alohida e'tibor qaratildi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar tajribasiga ko'ra, soliq tizimining barqarorligi, soliq qonunchiligi biznes sub'yektlarining o'z faoliyatini o'rta va uzoq muddatli istiqbolga rejalashtira oladigan darajada o'zgarmas bo'lishini taqozo etadi. Masalan, Yevropa Ittifoqi, AQSH, Kanada, Yaponiya, Shveysariya, shuningdek, jadal rivojlanib borayotgan Xitoy, Hindiston, Braziliya, Turkiya, Janubiy Koreya, Singapur va boshqa ko'plab davlatlarda soliq tizimining asosiy elementlari nisbatan barqaror bo'lib, ular soliq tizimidagi huquqiy me'yoriy hujjatlar bilan kafolatlanadi [2, 412].

O'zbekiston Respublikasi soliq siyosatining huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, soliqqa oid qonunlar, farmonlar, kodekslar, qarorlar va boshqa qonunosti hujjatlari bilan mustahkamlangan.

Qabul qilingan qonunlar amaldagi soliq tizimini, soliq munosabatlarini bevosita tartibga solishga davlatning ijtimoiy vazifalarini to'laqonli bajara olishi uchun yetarlicha soliq tushumlarini ta'minlay olmaydi.

Fuqarolarning qonun bilan belgilangan soliqlar va mahalliy yig'imlarni to'lashga majbur ekanligi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 63-moddasida berilgan bo'lib, Respublikamiz hududida yagona soliq tizimi amal qilishi va uni belgilash vakolatlari ham ko'rsatilgan. Unda O'zbekiston Respublikasi hududida yagona soliq tizimi amal qilinishi, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni joriy qilishga faqat Oliy Majlis haqli ekani [3, 25, 35] ta'kidlanadi.

Bozor munosabatlariga o'tilishida soliqlar to'g'risidagi qonunchilikni yaratish tajribasi mavjud emasligi, juda qisqa muddatda demokratik tizimning mulkchilik shakli turlicha bo'lgan korxonalar va tashkilotlar uchun soliqlarni ishlab chiqishni taqozo etganligi soliqlar to'g'risidagi huquqiy me'yorlar, asosan, ularning fiksal (xazina uchun tegishli) ahamiyatda bo'lganligi, qonunlarning ba'zi bandlari umuman bajarilmagan yoki ochiq-oydin qoniqarsiz bajarilishi soliq to'g'risida alohida kodeksning qabul qilish zaruriyatini tug'dirgan.

Kodeksni ishlab chiqish nafaqat mahalliy ahamiyatga, balki, xalqaro ahamiyatga ega bo'lganligi sababli, Birlashgan Millatlar Tashkiloti ma'lum dasturlar asosida bozor iqtisodiyotiga o'tayotgan va islohotlar olib borayotgan davlatlar bilan hamkorlik qiladi hamda ularga yordam beradi. Ko'rsatilayotgan amaliy yordamning ijobiy tomoni shundan iboratki, milliy soliq tizimining shakllanishi va rivojlanishida xalqaro iqtisodiy talablar inobatga olinishi ta'minlanadi.

Kodeks ishlanayotgan paytda xalqaro tashkilotlar berayotgan amaliy yordamlar mamlakatdagi iqtisodiy-ijtimoiy holatga, huquqiy-me'yoriy hujjatlarga zid kelmasligi inobatga olindi.

1997 yilda tayyorlangan Soliq kodeksi loyihasi respublika soliq idoralarining shu paytgacha to'plagan tajribasini, jahon amaliyotining tahlilini o'zida aks ettirdi. U respublikaning soliq qonunlarini va binobarin, soliqqa tortish tizimini rivojlangan mamlakatlar darajasiga yaqinlashtirdi. Shu bilan birga, unda O'zbekiston rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari ham hisobga olingan.

Tayyorlangan Soliq kodeksi loyihasida quyidagi prinsip va yangiliklarni ko'rish mumkin.

Birinchidan, bu soliqqa tortish sohasidagi barcha asosiy me'yorlarning yagona bir hujjat holiga keltirildi.

Ikkinchidan, soliqlar sohasidagi imtiyozlar bir tizimga solindi.

Uchinchidan, daromadlar, mol-mulk qo'shilgan qiymatni hisobga olish va soliqqa tortishning xalqaro tizimini joriy qilish, kichik va xususiy tadbirkorlik sohasini hisobga olish, hisobot va hisob-kitoblarni soddalashtirish nazarda tutilgan.

To'rtinchidan, soliq idoralari huquqni muhofaza qilish organlari, kredit muasasalari bilan o'zaro munosabatlari aniq belgilangan, soliq to'lovchilar va soliq idoralarining huquqlari, vazifalari va javobgarligi aniqlashtirilgan [4, 2].

O'zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi "O'zbekiston Respublikasining soliq kodeksini tasdiqlash" to'g'risidagi 396-I-sonli qonuni bilan Soliq kodeksi qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi 1998 yil 1 yanvardan e'tiboran amalga kiritildi [5, 1-50].

Soliq kodeksi 12 bob, 122 moddadan iborat tarzda qabul qilinib, ushbu sohadagi munosabatlarni tartibga solish, soliq turlari, undirish tartibi, soliq imtiyozlari tatbiq qilinadigan shaxslar doirasini belgilab bergan bo'lib, u shuningdek, soliq organlarining huquq va majburiyatlarini ham nazarda tutgan. Ushbu kodeks 2008 yilgacha 10 yil davomida soliq munosabatlarini tartibga solib kelgan bo'lsa-da, soliq to'lovchilarning huquq va majburiyatlarini, davlat soliq idoralari va xodimlarining vakolatlari, ularning bevosita majburiyatlarini, soliqqa tortiladigan ob'yektlarning imtiyozlari kabi asosiy masalalarga e'tibor qaratilmadi.

Kodeksning eng katta kamchiliklaridan biri shundaki, u to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlamasdi, ya’ni bevosita soliq to‘lovchining undan foydalanish imkoniyatlari birmuncha cheklangan edi. Har bir soliq turi bo‘yicha alohida yo‘riqnoma va hatto bahsli holatlar bo‘yicha tushuntirishlardan foydalanilar edi.

1998 yilda joriy qilingan Soliq kodeksining bekor qilinishiga sabab, uning soliq munosabatlarini bevosita tartibga solishga qodir bo‘lmay qolgani, juda ko‘p (204 dan ortiq) o‘zgartirishlar kiritilgani edi [6, 61]. (1-Ilova)

Mavjud o‘zgarishlarning ko‘pligi salbiy holat bo‘lmasdan tabiiy jarayon bo‘lib, boshqa sohalarda olib borilayotgan islohotlarning bir qismi sifatida turg‘un bo‘lib qolishi mumkin emas edi.

Soliq tizimida olib borilayotgan davlat siyosati ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlardan kelib chiqib takomillashtirildi, o‘zgarishlar kiritilib, yangilandi va bu shubhasiz huquqiy-me’yoriy hujjatlarda aks ettirildi. Ammo, doimiy ravishda tez-tez o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilishi me’yoriy hujjatlarning butunlay o‘zgarib ketishiga sabab bo‘ladi. Bu esa, amaldagi me’yoriy hujjatlarning qaytadan ishlab chiqarilishiga olib keladi.

Shu sababli, hukumat 2007 yilda amaldagi soliq qonunchiligini o‘rganish va uni jahondagi eng yaxshi standartlarga yaqinlashtirish uchun ishchi guruh tashkil etdi.

Tashkil etilgan ishchi guruh faoliyatida Birlashgan Millatlar Tashkiloti taraqqiyot dasturi ekspertlari fikrlari ham inobatga olindi [7, 5]. Jumladan, ekspert Veyn Tirsning investitsiya xarajatlarini qo‘shilgan qiymat solig‘i bazasidan olib tashlash, daromad solig‘i olinmaydigan holatlar eng kam miqdorini joriy etish kabi takliflariga ham muayyan e’tibor qaratildi.

Mahalliy, xorijiy ekspertlar va mutaxassislarning takliflari inobatga olinib, 2007 yil 25 dekabrda 2 ta (umumiy va maxsus) qism, 21 bo‘lim, 64 bob va 392 ta moddadan iborat bo‘lgan, O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qabul qilindi [8]. Yangi Soliq kodeksining avvalgisidan eng asosiy farqi shundan iborat ediki, yangi kodeks to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir kuchiga ega hujjat hisoblanardi. Unga ko‘ra, har bir soliq turini hisoblash tartibi turli xil huquqiy-me’yoriy hujjatlar, yo‘riqnomalar asosida amalga oshirilmasdan, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Soliq kodeksida o‘z ifodasini topdi. Eng muhim jihati, unda avvalgi hujjatlar asosida tartibga solinuvchi soddalashtirilgan soliqqa tortish tartibi va maqsadli jamg‘armalarga majburiy ajratmalarning hisoblanishi va undirish tartiblari aks ettirildi.

Agarda to‘lanadigan to‘lovlar soliqlarning stavkasi o‘zgaradigan bo‘lsa, mazkur hujjat hisobot davri boshlanishidan kamida bir oy oldin jamoatchilikka e’lon qilinishi va e’lon qilingan oydan hisoblanmasligi belgilab qo‘yildi ya’ni Kodeksga ko‘ra, yangi stavkalar keyingi hisobot oyining birinchi sanasidan amalda qo’llaniladigan bo’ldi.

Soliq kodeksining umumiy qismida xalqaro me’yorlarga mos keluvchi soliqqa tortish tamoyillari, kodeksda foydalanilgan asosiy tushunchalar, soliq majburiyatlarini bajarishda foydalaniladigan tartiblar, soliqlar va majburiy to‘lovlarni to‘lash yoki to‘lov muddatlarini kechiktirish tartiblari, ortiqcha to‘lovlarni qaytarib berishning aniq mexanizmlari belgilab berildi. Shuningdek, unda soliq nazorati shakllari va ularni amalga oshirish tartiblari hamda soliq organlari mansabdor shaxslarining harakatlari va harakatsizligi ustidan shikoyat qilish qoidalari, soliq qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlik choralarini belgilash kabi masalalar keng yoritildi. Unda xalqaro me’yorlarga mos keladigan, o‘z tajribamizga xos mahalliy shart-sharoitlarga muvofiq keluvchi soliq solishning aniq tamoyillari belgilab berildi.

2008 yil 2 iyundan 2009 yil 1 iyunga qadar 45 ta mamlakat bilan soliqlarni to‘lash tizimi soddalashtirildi. 9 ta mamlakat mehnat solig‘i stavkalarini pasaytirdi 18 ta mamlakat elektron tarzda hisobot taqdim etish va soliqlarni to‘lash tizimini joriy etdi, 12 mamlakat soliq solish sohasida yangi qonunlar qabuli yoki tartib-qoidalarini ancha o‘zgartirdi va soliq rejimlarini modernizatsiya qildi [9, 5].

Ushbu qabul qilingan yangi tahrirdagi Soliq kodeksiga 2020 yilga qadar 860 dan ortiq o‘zgartirishlar kiritilganligining guvohi bo‘lamiz [10, 64] (2-Ilova). Iqtisod fanlari doktori I.M. Niyazmetovning o‘z tadqiqotlarida 2018 yilgacha 800 dan o‘zgarishlar bo‘lganini qayd etgan. 3-Ilova.

Bunday o‘zgarishlar nafaqat O‘zbekiston Respublikasida balki, jahonning ko‘plab davlatlarida ham kuzatildi [11].

2008 yilgi Soliq kodeksini pishiq-puxta ishlab chiqish uchun roppa-rosa 3 yil ketganiga, yana 2 yil mobaynida uni takomillashtirishni ko‘zda tutuvchi o‘zgartirishlar kiritishga ruxsat berilganiga [12] qaramasdan, hanuzgacha bu jarayon davom etayotganligini ko‘rishimiz mumkin. Oqibatda, o‘zining 29 yillik soliq tizimi tarixida O‘zbekiston uchinchi marta Soliq kodeksini yangilashga majbur bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 iyuldagi farmoni [13, 6] talablaridan kelib chiqib, olib borilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan, respublika miqyosida va mahalliy byudjet daromadlarining qo‘shimcha zaxiralarini yaratish, soliq tizimiga eng so‘nggi axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tadbiq etish, rivojlangan davlatlarining soliq qonunchiligi va ma’muriyatchiligi

sohasidagi tajribadan o‘tgan yutuqlarini amalda qo‘llash ishlari yetarlicha bo‘lmadi.

Soliq islohoti turi	Soliq islohotlarini o‘tkazgan mamlakatlar
Daromad solig‘i stavkasini pasaytirdilar	O‘zbekiston, Jazoir, Bangladesh, Benin, Bruney, Kabo-Verde, Fiji, Islandiya, Isroil, Qozog‘iston, Koreya Respublikasi, Kosovo, Chernogoriya, Filippin, Rossiya, Ispaniya, Sent-Vinsent va Grenada, Sudan, Timor, Togo, Vyetnam
Soliqlar to‘lashni soddalashtirdilar	O‘zbekiston, Angola, Belorussiya, Bel’giya, Kolumbiya, Chexiya, Finlyandiya, Gvatemala, Iordaniya, Qirg‘iziston, Laos, Livan, Makedoniya, Meksika, Peru, Polsha, Syerra-Leone, Tayvan, Tunis

Buning natijasida davlat soliq idoralari faoliyatini, jumladan, soliq to‘lovchilarning davlat soliq organlari bilan hamkorligini mustahkamlash zarurligini ko‘rsatdi. Soliqdan qarzdor bo‘lgan fuqarolar, tadbirkorlardan soliqlarni to‘liq undirish shu bo‘yicha nazoratning zamonaviy shakllarini tizimga joriy qilish muhim vazifa bo‘lib qoldi.

Soliq ma’muriyatchiligi va soliqqa tortishning zamonaviy usullarini, soliqlarning to‘liq yig‘iluvchanligi va byudjetga o‘z vaqtida tushishi ustidan samarali nazorat mexanizmlarini joriy etish orqali soliq-byudjet siyosatini yanada takomillashtirish, byudjet jarayoni shaffofligi darajasini oshirish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 13 fevraldagi “Soliq qonunchiligini tubdan takomillashtirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi F-5214-sonli Farmoyishi qabul qilindi [14].

Ushbu farmoyishdan kelib chiqqan holda Kodeksining yangi tahrirdagi loyihasini yaratish uchun Respublika komissiyasi tuzilib, takomillashtirish bo‘yicha ishchi guruhlar tuzildi. Olib borilgan amaliy ishlar natijasida O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi uchinchi Soliq kodeksi 2019 yilda ishlab chiqildi va 2020 yil 1 yanvardan boshlab yangi Soliq kodeksi kuchga kirdi [15].

Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi soliq yukini izchillik bilan kamaytirish, soliq solish tizimini soddalashtirish va soliq ma’muriyatchiligini takomillashtirish, iqtisodiyotni jadal rivojlantirishga hamda ishbilarmonlik va investitsiyaviy faollikni oshirishga, sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilishi belgilandi. Kodeksda mamlakat taraqqiyotining tayanchi bo‘lgan intizomli, soliq to‘lovchilarni qo‘llab-quvvatlash, tadbirkorlik bilan yashirin ravishda shug‘ullanayotganlarning o‘rnatilgan tartibda ishlashlari uchun shart-sharoit yaratishga xizmat qiladigan me’yorlar o‘z aksini topdi. Buning asosiy maqsadlaridan biri fuqarolar soliq to‘lamasligini oldini olish va ularning soliqlarni o‘z vaqtida to‘lashdan manfaatdorligini oshirish bo‘ldi. Shu sababdan yangi soliq tizimining asosiy tamoyili sifatida tenglik, soddalik, aniqlik va samaradorlik g‘oyasi olindi.

Mazkur soliq kodeksining qabul qilinishi bilan 2020 yilning 1 yanvaridan boshlab soliq sohasiga 120 dan ortiq yangi qoidalar amaliyotga joriy etildi. Jumladan, soliq turlari 13 tadan 9 tagacha kamaytirildi, soliq organlari tomonidan soliq tekshiruvlari faqat Kodeksda nazarda tutilgan va ularni o‘tkazish tartibini belgilaydigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinganidan keyin o‘tkazilishi belgilab qo‘yildi. Shuningdek, soliq organlarining ortiqcha to‘langan yoki ortiqcha undirilgan soliqlarni o‘z vaqtida qaytarish uchun javobgarligi kuchaytirildi. Ortiqcha undirilgan soliq va moliyaviy sanksiyalar summalarini, ushbu summalarni undirish (to‘lash) davrida amalda bo‘lgan Markaziy bankning qayta moliyalash stavkasidan kelib chiqib, hisoblangan foizlarni inobatga olgan holda, qaytarish tartibi belgilab qo‘yildi. Davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan korxonalar tomonidan to‘lanayotgan yagona ijtimoiy to‘lov 25 foizdan 12 foizga tushirildi, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qaytarib berish tizimi tubdan o‘zgartirildi [16, 15]. Ya’ni, batafsil kameral soliq tekshiruv [17, 186] o‘tkazilganidan keyin QQS bo‘yicha “manfiy” qoldiq summasini qaytarish huquqi taqdim etildi.

Davlat rahbari tomonidan Prezident vakolatlarining ayrimlarini parlamentga, ijro hokimiyatiga, mahalliy hokimliklarga berish bo‘yicha tashabbuslar amalga oshirilmoqda. Bunday tashabbuslar asosida mamlakatda Davlat byudjetini Prezident qarori bilan qabul qilish amaliyotidan voz kechgan holda, Qonun bilan qabul qilish joriy etildi. Shunday tashabbuslardan biri Soliq kodeksida ham o‘z aksini topdi. 2020-yilga qadar soliq imtiyozlarini berish faqatgina Prezident vakolatida bo‘lgan bo‘lsa, endilikda bunday imtiyozlar soliq kodeksi bilan berilishi belgilandi. Shu bilan birga, yangi tahrirdagi Soliq kodeksida mahalliy hokimliklarning ham soliq borasidagi vakolatlari va mas’uliyatlari oshirildi.

Yangi tahrirdagi soliq Kodeksida soliq majburiyatlarini bajarish bo‘yicha umumiy qoidalar qayta ko‘rib chiqilib, soliq to‘lovchilarning huquq va majburiyatlari yagona hujjatga jamlandi. Soliq

majburiyatlarini bajaruvchilarning qonunda belgilangan manfaatlaring himoya qilinishi kuchaytirildi. Belgilangan soliqlar, to‘lovlar, yig‘imlarning soni, turlari, alohida soliq rejimlari optimallashtirildi.

Kodeks bir qancha afzalliklardan iborat bo‘lib, tadbirkorlar tomonidan belgilangan miqdorga nisbatan ortiqcha to‘langan soliq summalari o‘z vaqtida qaytariladigan bo‘ldi. Soliq organlari tomonidan qonunga zid ravishda ortiqcha hisoblangan soliqlar yoki moliyaviy sanksiyalarni qo‘llanilgan taqdirda ularni javobgarlikka tortish kuchaytirildi. Sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish orqali soliq tizimining nazorat shakllari va mexanizmlariga o‘zgartirishlar kiritildi.

Yangi soliq Kodeksi yuqoridagi ijobiy jihatlari bilan birga, ayrim kamchiliklardan ham xoli emas edi. Masalan, Kodeks qabul qilinishining asosiy vazifalaridan biri qonunosti hujjatlarini kamaytirish va uni to‘g‘ridan-to‘g‘ri amal qiluvchi hujjatga aylantirish bo‘lishiga qaramasdan, ellikdan ortiq qonunosti hujjatlari so‘nggi yillarda qabul qilindi. Soliqqa oid me’yoriy-huquqiy hujjatlarni soddalashtirish belgilangan bo‘lsa-da, aksariyat hollarda, tushunilishi murakkabligi sababli qiyin bo‘lgan normalar ham bor edi.

Mustaqillik yillarida qabul qilingan Soliq kodekslarning tahlili va farqli jihatlarining ayrimlariga to‘xtalish maqsadga muvofiqdir.

Jumladan: 1997 yilgi soliq kodeksining III bo‘limi 44-moddasi [18, 45] hamda 2007-yilgi soliq kodeksining VI bo‘lim 167-moddasida, “moliya yilida soliq solinadigan daromadga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to‘lovchilardir [19, 185]” deb qayd etilgan bo‘lsa, 2019-yilgi soliq kodeksining XIII bo‘lim 364-moddasida Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining soliq to‘lovchilari deb;

1) O‘zbekiston Respublikasining rezidentlari bo‘lgan jismoniy shaxslar;

2) O‘zbekiston Respublikasidagi manbalardan daromad oluvchi O‘zbekiston Respublikasining norezidenti bo‘lgan jismoniy shaxslar [20, 497] deb belgilangan.

Birinchi kodeksning VIII bo‘lim 105-moddasida “yer ostidan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar” ya’ni yer ostidan foydalanganlik uchun soliqni O‘zbekiston Respublikasi hududida foydali qazilmalar qazib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar to‘laydilar [21, 102] deb qayd etilgan bo‘lsa, ikkinchi kodeksning IX bo‘lim, 242-moddasida yer qa’ridan foydalanuvchilar to‘laydigan soliqlar va maxsus to‘lovlar jumlalari qo‘shilgan, ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni aniqlash va qidirish, foydali qazilmalarni kovlab olish, mineral xomashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshirayotgan, shuningdek, foydali qazilmalardan foydali komponentlarni ajratib olgan holda ularni qayta ishlashni amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida yer qa’ridan foydalanuvchi ekanligi hamda yer qa’ridan foydalanuvchilar quyidagi yer osti boyliklaridan foydalanganliklari uchun soliq, qo‘shimcha foyda solig‘i, bonus va maxsus to‘lovlarni to‘lashlari belgilab qo‘yilgan. [22, 281] Uchinchi kodeksning XVIII bo‘limi 449-moddasida soliq to‘lovchilar, yer qa’ridan foydali qazilmalarni qazib oluvchi, mineral xomashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib oluvchi yer qa’ridan foydalanuvchilar “Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq to‘lovchilar”, deb e’tirof etiladi. Ya’ni, O‘zbekiston Respublikasi hududida konlarni qidirish, foydali qazilmalarni qazib olishni, mineral xom ashyodan va texnogen mineral hosilalardan foydali komponentlarni ajratib olishni amalga oshiruvchi yuridik va jismoniy shaxslar soliq solish maqsadida, “yer qa’ridan foydalanuvchilar”, deb e’tirof etildi. Qonun hujjatlarida nazarda tutilgan qoidalarga rioya etgan holda, qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi jismoniy shaxslar qimmatbaho metallarni oltin izlovchilar usulida qazib olishga doir faoliyatni amalga oshirishga taalluqli qism bo‘yicha soliq to‘lovchilar [23, 581] bo‘lmasligiga e’tibor qaratildi.

Muxtasar qilib aytganda, O‘zbekistonda soliq tizimini tubdan yangilash bo‘yicha huquqiy-me’yoriy asoslar yaratildi. Qabul qilingan ushbu hujjatlar zamon talablariga mos ravishda bosqichma-bosqich takomillashtirilib borildi. Buning natijasida soliqqa oid imtiyozlar, to‘lov va majburiyatlar tartibga solinib, yagona tizimga keltirildi.

Shu bilan birga, soliq idoralari bilan huquqni muhofaza qilish organlarining o‘zaro munosabatlari belgilandi. Soliq to‘lovchilar va soliq idoralarining huquqlari, vazifalari hamda javobgarligi aniqlashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, soliq sohasida mustaqillikka erishish mamlakat mustaqilligi e’lon qilinishidan oldin amalga oshirilgan. Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi qonun bilan Respublika hududida olinadigan soliqlar va yig‘imlar O‘zbekiston Respublikasi davlat byudjetiga va mahalliy byudjetga tushadi, deb belgilangan edi.

Soliq qonunchiligini shakllantirishga qaratilgan islohotlar Respublikaning o‘ziga hos bo‘lgan soliq tizimini vujudga keltirdi.

Soliq sohasidagi huquqiy-me’yoriy hujjatlarning Kodeks holatiga keltirilgunga qadar bo‘lgan davrda ularning ko‘p sonli ekanligi tizimlashtirilmaganligi kuzatilgan bo‘lsa, qonunosti hujjatlarining Kodekslardan avval qabul qilinishi ularga tegishli o‘zgartirishlar kiritish zaruriyatini tug‘dirdi. Bu esa soliq qonunchilik tizimidagi eng asosiy muammolardan hisoblanadi.

Soliq qonunchiligi tizimining o‘ziga xosligi hamda ushbu soha munosabatlarini tartibga soluvchi huquqiy hujjatlarni yanada takomillashtirishda quyidagilarga e’tibor qaratish lozimligi qayd etiladi:

Birinchidan, soliq sohasidagi qonun hujjatlarini ijro etishda davlat xokimiyati organlarining vakolatlarining turlicha ekanligi, ular o‘rtasida konstitutsion vazifalar taqsimoti mavjudligini hisobga olish lozim. Ushbu holatlar soliq qonunchiligini ishlab chiqishda davlat hokimiyati va boshqaruv organlariga huquq va majburiyatlar belgilashda jiddiy e’tibor qaratish lozimligini anglatadi.

Ikkinchidan, soliq sohasidagi qonun hujjatlari loyihalarini ishlab chiqish yoki amaldagi qonun hujjatlariga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritish jarayonida soliq normalarini tadbirkorlik faoliyatining bir qator sohalari, xususan kichik biznes, bank faoliyati, sug‘urta investitsiyaviy huquqiy munosabatlar sohasidagi qonun normalari bilan taqqoslagan holda, ushbu normalarni inobatga olish maqsadga muvofiq. Ushbu holat soliq qonunchiligini tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishiga to‘sqinlik qilmagan holda faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. II – jild. – Toshkent: O‘zbekiston, 2019. – B.124.
2. OECD Work on Taxation 2016-17. Centre for Tax Policy and Administration/ www.oecd.org/tax/; Fiscal Policy and Growth in Developing Asia/ADB Economics Working Paper Series.No.412, 2014.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 63, 93 – moddalar. 2023. – B.25. 35.
4. Gataulin Sh. O‘zbekistonning soliq tizimi: shakllanishi va taraqqiyot yo‘llari // Soliq to‘lovchining jurnali, 1996 yil, 11 son. – B. 2.
5. O‘zbekiston Respublikasining 1997 yil 24 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasining soliq kodeksini tasdiqlash” to‘g‘risida 396-I-sonli Qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1997, 4 – 5 – songa ilova. – B.1–50.
6. I.M. Niyazmetovning doktorlik dissertatsiyasida 500 dan ortiq o‘zgartirishlar kiritilgan deb ma’lumot berilgan. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B.61.
7. Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. 2005 yil 12 sentyabr. № 37 (581) – son. – B.5.
8. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi (yangi tahriri). – URL: https://lex.uz/docs/1286558.
9. Soliqlar va bojxona xabarlari gazetasi. 2010 yil 12 sentyabr. № 37 (581) – son. – B. 5.
10. Niyazmetov I.M. Soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish orqali soliq tizimi barqarorligini ta’minlash. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2018. – B. 64.
11. Manba: Rauing taxes– 2010, the global picture, O‘zbekistonning soliq to‘g‘risidagi qonun hujjatlari.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 7 yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksining yangi taxririni tayyorlash to‘g‘risida”gi 2108 – sonli Farmoyishi qabul qilingandan keyin Soliq kodeksi qabul qilingungacha uch yil vaqt ketdi. Soliq kodeksini qabul qilayotganda Hukumatga 2008 –2009 yillar mobaynida Soliq kodeksi normalarinnng amal qilishi va samaradorligi muntazam ravishda hamda har tomonlama monitoring va tahlil qilinishini ta’minlash hamda zarur bo‘lgan hollarda, uning ayrim normalarini yanada takomillashtirishga qaratilgan takliflarni kiritish vazifasi yuklatilgan edi.
13. “Soliq ma’muriyatchiligini tubdan takomillashtirish, soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning yig‘iluvchanligini oshirish chora – tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmon. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 684 – modda. 2017 y., 29 – son, – B.6.
14. https://president.uz/uz/lists/view/1492.

15. https://lex.uz/docs/4674902.
16. Fuqarolar uchun byudjet axborot nashri. – Toshkent, 2019. – B.15.
17. Kameral soliq tekshiruvi – soliq to‘lovchi tomonidan taqdim etilgan soliq hisobotlarini va (yoki) soliq to‘lovchining faoliyati to‘g‘risida soliq organida mavjud boshqa ma’lumotlarni o‘rganish va tahlil qilish yo‘li bilan soliq organi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruv. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – B.186.
18. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 1999. – B.45.
19. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2017. – B.185.
20. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – B.497.
21. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 1999. – B. 102.
22. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2017. – B. 281.
23. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. – Toshkent: “Adolat”, 2020. – B.581.

1-Ilova

Soliq kodeksi o’zgarishlar yillar kesimida



2-Ilova

Soliq kodeksiga qo’shimcha va o’zgartirishlar kiritilishi yillar kesimida



Asos: O’zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to’plami

3-Ilova



2008-2017 yillar moboynida Soliq kodeksiga kiritilgan o’zgarishlar soni

O‘ZBEKISTONDA KORRUPSIYAVIY HOLAT VA UNING ILMIY-FALSAFIY YECHIMI

To`lqin Jumayev

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti siyosiy fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Anotatsiya. *Maqolada O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaning hozirgi holati, uning ijtimoiy-iqtisodiy hamda siyosiy barqarorlikka ta’siri tizimli tahlil etilgan. Shuningdek, tadqiqotda milliy va xalqaro me’yoriy-huquqiy asoslar bilan mantiqiy solishtirilib, “raqamli halollik” hamda “elektron boshqaruv” kabi zamonaviy yondashuvlarni O‘zbekiston sharoitiga moslashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.*

Kalit so‘zlar. *Korrupsiya, institutsional islohotlar, raqamli boshqaruv, xalqaro tajriba, shaffoflik, fuqarolik jamiyati, elektron hukumat, halollik madaniyati, monopoliya, elektron platforma, jamoatchilik nazorati.*

Аннотация. *В статье проведён системный анализ современного состояния коррупции в Республике Узбекистан, а также эё влияния на социально-экономическую и политическую стабильност страны. Кроме того, в исследовании осуществлено логическое сопоставление национальных и международных нормативно-правовых основ, а также разработаны практические рекомендации по адаптации современных подходов, таких как «цифровая добропорядочност» и «электронное управление», к условиям Узбекистана.*

Ключевые слова. *Коррупция, институциональные реформы, цифровое управление, международный опыт, прозрачность, гражданское общество, электронное правительство, культура добропорядочности, монополия, электронная платформа, общественный контроль.*

Abstract. *This article presents a systematic analysis of the current state of corruption in the Republic of Uzbekistan, as well as its impact on the country’s socio-economic and political stability. In addition, the study provides a logical comparison of national and international legal and regulatory frameworks and develops practical recommendations for adapting contemporary approaches – such as digital integrity and e-governance – to the specific conditions of Uzbekistan.*

Key words. *Corruption, institutional reforms, digital governance, international experience, transparency, civil society, e-government, culture of integrity, monopoly, digital platform, public oversight.*

KIRISH

Korrupsiya – jamiyatdagi iqtisodiy, siyosiy va ma’naviy barqarorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi illat sifatida namoyon bo‘ladi. U nafaqat davlat resurslarining samarasiz taqsimlanishiga, balki fuqarolarning davlat idoralariga bo‘lgan ishonchining susayishiga ham olib keladi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Korrupsiyaga qarshi kurash davlat boshqaruvi samaradorligi, qonuniylik, iqtisodiy barqarorlik va fuqarolar ishonchini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi Prezident Sh.M. Mirziyoev ta’kidlaganidek, “korrupsiya – mamlakat taraqqiyotining eng katta dushmani”.

2020 yilda qabul qilingan “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun, 2021 yilda tashkil etilgan Korrupsiyaga qarshi kurash agentligi hamda “2025 yilgacha bo‘lgan milliy strategiya” ushbu sohada tizimli islohotlar poydevorini yaratdi. Shu bilan birga, xalqaro tajribalarni o‘rganish va ularni milliy huquqiy tizimga moslashtirish korrupsiyaning ildiz sabablarini bartaraf etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda korrupsiyaviy holatni ilmiy jihatdan tadqiq etish jarayonida korrupsion munosabatlarning shakllanishi va ularning vaqt o‘tishi bilan davlat hamda jamiyat rivojiga ko‘p qirrali ta’sir ko‘rsatib kelayotganligi aniqlanadi. Mazkur holatlarning vujudga kelishida muayyan tarixiy-institutsional omillar muhim o‘rin tutadi. Jumladan, sovet davridan meros bo‘lib qolgan byurokratik inersiya – ya’ni “tanish-bilishchilik” amaliyoti, norasmiy resurslar taqsimoti, “qog‘ozda bir xil, amalda esa boshqacha” yondashuv hamda muammolarni hal etishda “o‘z odamini topish” orqali masalani yechishga intilish holatlarining keng tarqalganligi korrupsion jarayonlarning ildiz otishiga zamin yaratgan. Shuningdek, iqtisodiy omillar ham korrupsiyaning yuzaga kelishida muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, mavjud resurslarni taqsimlash jarayonida davlatning yuqori darajadagi ishtiroki, energetika, geologiya, qurilish, transport va qishloq xo‘jaligi kabi strategik sohalarda litsenziya, kvota hamda tenderlarning davlat tomonidan belgilanishi ayrim mansabdor shaxslar tomonidan ushbu vakolatlardan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish holatlariga sabab bo‘lmoqda. Natijada, yaqin tanish-bilishlar yoki moddiy manfaatdor tomonlar foydasiga asossiz ravishda ijobiy qarorlar qabul qilinishi korrupsion xavflarni yanada kuchaytirmoqda. Mazkur maqola korrupsiyaning mahalliy tabiati va rivojlanish dinamikasini ilmiy asosda ochib berish orqali O‘zbekistondagi korrupsiyaviy holatning quyidagi jihatlarini ya’ni institutsional zaiflik, hokimiyatning ortiqcha markazlashuvi, insoniy omillar, raqamlashtirishdagi kamchiliklar, qog‘ozbozlikka asoslangan hisobat jarayoning avj olganligi, fuqarolarning xuquqiy ongining pastligi va olib borilayotgan islohatiy jarayonlarning jadallashib ketishi kabi jarayonlarni ilmiy tahlili asosida tizimlashtirib, korrupsiyaning ichki mexanizmlarini hamda vujudga kelish muhitini ilmiy asoslar orqali tushunishga yordam beradi.

Davlat va huquq tarixiga oid tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, korrupsiyani shakllanishining dastlabki bosqichlarida uning mazmun xususiyatlari, qaror qabul qilishdagi manfaatdorlik omillari va korrupsion amaliyotlarni vujudga keltiradigan sharoitlar deyarli barcha mamlakatlarda o‘xshash bo‘lgan. Ya’ni, korrupsiyaning paydo bo‘lishi milliy davlatchilikkacha mavjud bo‘lgan tartibsiz, shakllanmagan jamiyatning tadrijiy rivojlanishi bilan bog‘liq ob’ektiv omillarga tayanadi. Korrupsiya alohida shaxslar o‘rtasidagi epizodik munosabatlardan ijtimoiy ahamiyatga ega keng qamrovli hodisa – ya’ni ijtimoiy fenomen darajasiga ko‘tarilishi deyarli davlatchilikning yuzaga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi jarayonlari bilan parallel holda kechgan. Korrupsiyaning ijtimoiy fenomen sifatida shakllanish jarayonlari ham aynan shu davlat fenomenining paydo bo‘lishi va mustahkamlanishiga xos bosqichlarga mos ravishda yuzaga kelgan [1, 37].

Korrupsiyaning vujudga kelish sabablari va uni rag‘batlantiruvchi omillarni aniqlash jarayonida quyidagi asosiy ilmiy savollarni qo‘yish maqsadga muvofiqdir: korrupsiya qaysi ijtimoiy-iqtisodiy va institutsional sharoitlarda rivojlanadi hamda shaxsda qaysi psixologik omillar korrupsion xatti-harakatlarga moyillikni kuchaytiradi?

Korrupsiyaga undovchi omillarni ilmiy jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin. Avvalo, jamiyatda adolatsizlik hissining kuchayishi natijasida “boshqalar olayotgan ekan, men ham olsam nima bo‘libdi” kabi utilitar yondashuvning shakllanishi korrupsion xatti-harakatlarga ijtimoiy asos yaratadi. Shuningdek, “rahbar olayotgan bo‘lsa, nega men olmasligim kerak” degan stereotipning shaxs ongida mustahkamlanishi ham korrupsiyaga moyillikni oshiradi. Iqtisodiy omillar qatoriga xodimning olayotgan ish haqi kundalik va oylik zarur ehtiyojlarni qoplamasligi, mamlakatda inflyatsiya darajasining yuqoriligi hamda narx-navoning barqaror emasligi natijasida moddiy yetishmovchilik holatining yuzaga kelishi kiradi. Bunday sharoitda pora olish muayyan darajada daromadni to‘ldiruvchi manba sifatida qabul qilina boshlaydi. Tashkiliy-institutsional omillar orasida yuqori darajadagi byurokratiyaning mavjudligi, muammolarni hal etishda quyi bo‘g‘inlardan “hadya” yoki “pora” berish amaliyotining yashab kelayotganligi alohida e’tiborga loyiq. Bundan tashqari, soliq, sanitariya, yong‘in xavfsizligi, ekologiya va boshqa nazorat organlari tomonidan doimiy va rejasiz, o‘zaro muvofiqlashtirilmagan tekshiruvlarning olib borilishi ham korrupsion holatlarning yuzaga kelishiga turtki bo‘ladi.

Kadrlar siyosatidagi muammolar, ya’ni mas’uliyatsiz, kasbiy malakasi yetarli bo‘lmagan va o‘z kasbiga fidoyilik bilan yondashmaydigan shaxslarning rahbarlik lavozimlariga tayinlanishi ham korrupsion xavflarni kuchaytiradi. Shu bilan birga, yuqori lavozimdagi rahbarlarga mansabni saqlab qolish maqsadida muntazam ravishda “sovg‘a-salom” berib turishga moyillikning mavjudligi korrupsion munosabatlarning tizimli tus olishiga sabab bo‘ladi.

Huquqiy ong va huquqiy madaniyatning pastligi ham korrupsiyaning keng tarqalishiga xizmat qiluvchi muhim omillardan biridir. Fuqarolarning murojaat qilayotgan davlat organlarining vakolat va majburiyatlarini yetarli darajada bilmasligi natijasida “ishni tezroq hal qilish” maqsadida pul berish yoki

tanish-bilishchilikdan foydalanishga intilish holatlari kuzatiladi. Bundan tashqari, porani bajarilgan mehnat uchun mukofot yoki hadya sifatida qabul qilish haqidagi noto‘g‘ri tasavvurning keng tarqalganligi korrupsiyani oqlovchi psixologik mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, pora miqdorini uncha katta emas deb baholash va unga nisbatan qo‘llaniladigan jazolarning yengilligi (masalan, xayfsan yoki jarima bilan cheklanilishi) to‘g‘risidagi tasavvurlar shaxs ongida saqlanib qolgan bo‘lishi korrupsion xatti-harakatlarga jur’at bag‘ishlaydi. Yuqori lavozimlarda ishlovchi “tanish-bilishlar” orqali javobgarlikdan qutulish mumkinligi haqidagi ishonchning shakllanganligi ham ushbu jarayonni yanada mustahkamlaydi.

Nihoyat, mamlakatda yuqori mansab pog‘onasida faoliyat yuritayotgan ayrim amaldorlarning davlat budjeti mablag‘laridan asossiz va noqonuniy foydalanishi hamda ularga nisbatan muqarrar va adolatli jazolarning qo‘llanilmasligi quyi bo‘g‘indagi davlat xizmatchilari ongida “men ham olsam nima bo‘libdi” degan stereotipning saqlanib qolishiga olib kelmoqda. Yuqorida qayd etilgan omillar majmui jamiyatda korrupsion xatti-harakatlar uchun qulay sharoit va imkoniyatlarning shakllanishiga xizmat qiladi [2, 76].

Ish haqlarining raqobatbardosh emasligi ya’ni bunda aksariyat davlat tashkilotlarida oylik maoshlar kishining mehnat qobiliyatiga mos kelmasligi (me’yordan pastligi) natijasida qo‘shimcha daromad qilish maqsadida pora va sovg‘a olishga bo‘lgan ehtiyoj va moiyillikning oshib borishiga sabab bo‘ladi. Olib borilgan kuzatishlar va tadqiqotlar (OECD, UNDP) ga ko‘ra, maosh past bo‘lgan tizimlarda korrupsiya xavfi 2–3 barobar yuqori bo‘lishi aniqlangan [3, 58].

Monopoliyalar va bozor raqobatining cheklanganligi mamlakat iqtisodiy tizimida korrupsiya uchun sharoit yaratadi, bu jarayonda axborotning cheklanganligi, shaffof bo‘lmagan tariflar, tenderlarni “o‘z odamlariga” berish amaliyotining avj olganligi, qonunlarning tez-tez o‘zgarishi bunda me’yoriy hujjatlarning tez va ko‘p marotaba mantiqsiz holatda o‘zgarishi tadbirkorlar va amaldorlar uchun noaniqlik yaratadi bu jarayon esa “norasmiy vositachilar”ga ehtiyoj tug‘diradi, natijada “pora” va “kelishib olaylik” degan tushunchalarga keng imkoniyat yaratadi. Sud va huquqni muhofaza qilish tizimining zaifligi hamda yetarli darajada mustaqil bo‘lmaganligi natijasida adolat mexanizmi ishlamaydi. Bu esa korrupsiya xavfi yanada o‘sishiga imkon yaratadi. Chunki har qanday qonunbuzarlikdan aylanib o‘tish mumkin degan tushunchalar aynan mustaqil va adolatli bo‘lmagan ba’zi davlat tuzilmalarda mavjud ekanligining natijasidir.

Davlat tuzilmasidagi raqamlashtirilmagan jarayonlar ya’ni, elektron hujjatlar aylanmasi va axborot shaffofligi yetishmasligi natijasida xizmatlarning haddan tashqari qo‘lbola va qog‘ozbozlikka asoslanishi vujudga keladi bu esa qog‘oz orqali yuritiladigan ish jarayonlarida “inson bilan inson” o‘rtasidagi manfaatli munosabatlarni vujudga kelishi korrupsiya xavfi oshishiga sabab bo‘ladi. Davlat xaridlari jarayonida ma’lumot ochiqligining pastligi ya’ni tenderlar, davlat xaridlari, yer ajratish, litsenziyalar bo‘yicha ma’lumotlar to‘liq ochiq bo‘lmaganligi bois korrupsiya mexanizmini yanada avj olishiga imkon yaratadi. Bu holatni vujudga kelishiga fuqarolar tomonidan davlat onlayn xizmatlaridan foydalanish bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmasligi yoki kichik doirada auksion yoki tenderlarni o‘tkazish jarayonida ko‘rish mumkin. Natijada “ishni hal qilib beradigan” vositachilar bozorini vujudga kelishiga keng zaming yaratadi. Jamiyatda an’ana tusiga kirgan norasmiy munosabatlar ustuvorligi ham korrupsiya foizini yuqori bo‘lishiga sabab bo‘ladiki, bunda “Tanishbilishchilik”, “qarab qo‘yish”, “sovg‘a” kabi tushunchalar hali ham jamiyatning ayrim qatlamlarida yashab kelayotganligi, hattoki hal bo‘lmaydigan ishlarni hal qilish yo‘lida asosiy rol o‘ynaydigan ijtimoiy me’yor sifatida jamiyatning ba’zi qatlamlari orasida qabul qilinmoqda.

Mamlakatda korrupsiyaviy holatni o‘sishida yana bir turtki beruvchi ichki omillardan biri, tashkilotlar va muassasalarda oilaviy-qarindoshlik tarmoqlarining kuchliligi → kadrlar tayinloviga ta’sir etib, shaffoflik hamda adolat me’yorlariga zid ravishda kasbga fidoyi halol ishlaydigan ilmli kadr o‘rniga urug‘-aymoq munosabatlarini ustun qo‘ygan holda ba’zan tanish-bilishchilikka asoslangan “sadoqatli kadrlar”ni ishga olinishi korrupsiyaviy “uyushgan to‘dalar”ni vujudga kelishiga zamin yaratadi. Buning natijasida o‘sha kadr o‘zaro tanishbilshchilik qilgan holda korxona va davlat budjetini o‘marish, mablag‘larni o‘z manfaatlari yo‘lida sarflash kabi ishlar bilan shug‘ullanishiga zamin yaratiladi. Bundan tashqari, davlatda korupsiyaviy holatlarni oldini olish hamda uni tartibga solishda muhim rol o‘ynaydigan qonunchilik ijro tizimida qo‘llaniladigan jazo turlarining ta’sirchanlik darajasi past ekanligi fuqarolar o‘rtasida “baribir u adolatdan qochib ketadi”, “jarima bilan qutuladi” “amnitsiya (avf etilish) orqali chiqib keladi” degan tasavvur va tushunchalarni vujudga keltirdi bu esa boshqa bir shaxslar uchun korupsiyaga bo‘lgan moyillikni kamayishiga turtki bo‘laolmaydi.

Mamlakatda korrupsiyaning tobora kuchayib borishi qator ijtimoiy-iqtisodiy salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Avvalo, u iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarining sekinlashishiga olib keladi hamda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini pasaytiradi. Korrupsion munosabatlarning keng tarqalishi natijasida davlat yoki alohida tashkilotlar budjetida moliyaviy taqchillik yuzaga kelib, mablag‘lardan maqsadsiz va samarasiz foydalanish holatlari ko‘payadi. Shuningdek, davlat budjeti mablag‘larining o‘marilishi va noqonuniy talon-toroj qilinishi ko‘plab korxona hamda tashkilotlarning moliyaviy barqarorligiga putur yetkazib, ularning bankrot bo‘lishiga zamin yaratadi. Mazkur holat investitsion muhitga ham salbiy ta’sir ko‘rsatib, xorijiy investorlarning O‘zbekiston iqtisodiyotiga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi.

Korrupsiya davlat xarajatlarining samaradorligini keskin kamaytiradi, ijtimoiy sohalarga yo‘naltirilishi lozim bo‘lgan mablag‘larning maqsadli ishlatilishiga to‘sqinlik qiladi. Natijada, fuqarolar o‘rtasida ijtimoiy adolat tamoyillariga bo‘lgan ishonch susayib, davlat institutlariga nisbatan befarqlik va norozilik kayfiyati kuchayadi. Ayniqsa, korrupsiyaning salbiy oqibatlari yoshlar ongida “jamiyatda adolat mavjud emas” degan tasavvurning shakllanishiga olib kelib, mamlakatni tark etish zarurati haqidagi qarashlarni mustahkamlaydi. Bu holat o‘z navbatida yuqori malakali, bilimli va raqobatbardosh kadrlarning adolatli mehnat sharoiti hamda munosib haq to‘lanadigan xorijiy davlatlarga migratsiya qilishiga sabab bo‘lib, “miya oqimi” jarayonini kuchaytiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Insoniyat ijtimoiylashuv jarayoniga kiribdiki, doimo o‘zaro manfaatlar doirasida munosabatlar o‘rnatishga kirishib kelgan. Bu esa kishilik jamiyatida korrupsiyaning qadim ildidzga ega ekanligini ko‘rsatadi.

Korrupsiyaviy jarayonga nisbatan qadimgi g‘arb va sharq faylasuflari ham o‘zlarining falsafiy-ilmiy izlanishlari davomida ko‘plab nazariya hamda tushunchalarni ilgari surishgan. G‘arb faylasufi Platon va Aristotel (miloddan avvalgi IV asr) korrupsiyani mamlakatning ijtimoi-iqtisodiy poydevori va siyosiy taraqqiyotiga katta xavf soluvchi omil sifatida baholab, uni davlatning iqtisodiy poydevoriga zarar yetkazuvchi siyosiy harakatlar sifatida talqin qilgan. Ular uchun korrupsiya – faqat shaxsiy manfaat emas, balki davlat tizimini zaiflashtiruvchi siyosiy xavf deb ta’rif berishgan [4,18]. O‘rta asr g‘arb faylasufi Nikkolo Makiavelli (XV asr) esa hokimiyat (mansab) va turli manfaatli maqsadga erishish jarayonida axloqiy cheklovlar haqidagi o‘z nazariyasini ilgari surib, korrupsiyani *jamiyatni yemiruvchi "kasallik"* deb ataydi. Uning qarashlarida ba’zi ziddiyatli tushunchalar ham borki, bunda u Rim Respublikasini qonunbuzarlikka yo‘l qo‘ymaydigan mukammal davlat tuzumi sifatida maqtaydi (aslida esa imperiyada adolatliliylik bilan bog‘liq muammolar ancha ko‘p bo‘lgan) inchi Makiavellining “Hukmdor” (“The Prince”) asarida davlat qudrati va ravnaqi yo‘lida hukmdor axloqiy me’yorlarni chetlab o‘tishi mumkinligini ta’kidlaydi [5, 87]. Bu fikrlari orqali u qaysidir ma’noda hukmdorning ta’siri ostida ijod qilganligini ham angldash mumkin. Mazkur yondashuv keyinchalik mafkuriy asos sifatida shakllanib, maqsadga erishish uchun har qanday, hatto qonuniy bo‘lmagan vositalarni qo‘llashga yo‘l qo‘yuvchi tushuncha sifatida “makiavellizm” deb nom oldi. U faqat hukmdorlarga xos siyosiy amal emas, balki korrupsiyaviy faoliyatni oqlovchi g‘oyaviy “himoya qalqoni”ga aylandi.

Yana bir o‘rta asr yevropa faylasufi Sharl Lui Monteske (XVII asr) “Qonunlar ruhi to‘g‘risida” gi asarida korrupsiyani hokimiyatni bir qo‘lda ushlab turuvchi kuch sifatida ta’riflaydi. Unga ko‘ra, hokimiyatlar bo‘linishi mavjud bo‘lmagan jamiyatda korrupsiya tabiiy holatga aylanadi degan tushunchani ilgari suradi. Monteske korrupsiyani siyosiy tuzumni izdan chiqaruvchi salbiy jarayon sifatida ham ta’riflab o‘tkan [6,77]. Bu orqali faylasuf korrupsiyani salbiy oqibatlarga olib keluvchi ijtimoiy-iqtisodiy fenomen sifatida ham baholab o‘tkan**.**

Nemis faylasufi Immanuil Kant korrupsiyani axloqiy nuqtai nazardan baholagan holda uni “jamoatchilik aqlining xususiy manfaatga bo‘ysunishi” deb ta’riflaydi [8, 54]. Bu yondashuv keyinchalik zamonaviy liberal demokratiyalarda korrupsiyaga qarshi qonunchilik asosiga aylandi. Bundan shu narsani tushunish mumkinki, mansab hamda boshqaruv (moliyaviy boshqaruv bo‘g‘ini) qo‘lida bo‘lgan har qanday shaxs jamiyat fikrini o‘ziga bo‘yundirish kuchiga ega hisoblanadi deb ta’rif beriladi.

Yevropalik sotsiolog Maks Veber esa korrupsiyani ratsional byurokratiyaga zid holat sifatida ta’riflaydi. Uning ilmiy nazariyasiga ko‘ra, qonun-qoidalarga asoslangan emas balki, shaxsiy munosabatlarga tayangan boshqaruv usuli korrupsiyani vujudga kelishiga zamin yaratadi deydi [9, 59].

Sharq mutafakkirlari asarlarida korrupsiya zamonaviy atama sifatida qo‘llanilmagan bo‘lsa-da, uning mohiyatini tashkil etuvchi poraxo‘rlik, mansabni suiiste’mol qilish, adolatsiz hukm, xalq manfaatlariga xiyonat kabi ijtimoiy holatlar qattiq tanqid ostiga olinadi. Ularning fikrlarida adolatli davlat va halol boshqaruv jamiyat barqarorligining asosiy sharti sifatida e’tirof qilinadi. Bu jarayonda Abu Nasr Forobiy «Fozil odamlar shahri» asarida hukmdor va mamlakat amaldorlarining ma’naviy yetukligiga alohida urg‘u berib o‘tadi. Faylasuv qarashiga ko‘ra, hokimiyatdan shaxsiy manfaat yo‘lida foydalanish, jamiyatni tanazzulga olib kelishini alohida ta’kidlab o‘tish bilan birga adolat tamoyilini mamlakatning asosiy ustuni sifatida ko‘radi va mansabdorlarning halolligi yo‘qolgan jamiyat «johil shahar»ga aylanishini ta’kidlaydi. Forobiy ta’limotiga ko‘ra korrupsiya – bu davlatni ma’naviy tanazzulining belgisi sifatida ta’riflanadi [10, 32]**.** Shuningdek O‘rta asr sharq mutaffakkiri Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari davlat boshqaruvida adolat, qonun va mas’uliyat masalalariga bag‘ishlangan bo‘lib, asarda amaldorlarning poraxo‘rligi, xalq molini talon-toroj qilishi qattiq qoralanadi. Muallifning fikricha, podshoh va amaldor adolatdan chekinsa, davlat parokanda bo‘lishi ta’kidlab o‘tilgan. Uning fikriga ko‘ra, «Hukmdor adolat bilan ish tutsa – davlat yashaydi, zolimlikka yo‘l qo‘ysa – mamlakat yemiriladi» [11, 82] degan ilmiy-falsafiy nazariyalarni ilgari surgan. O‘z davriing buyuk tibbiyot olimi bo‘lgan Ibn Sino davlat va jamiyat masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-falsafiy qarashlarida adolatsizlik va qonunni shaxsiy manfaatga bo‘ysundirishni jamiyat salomatligiga tahdid sifatida baholaydi. Shuningdek, axloqiy buzilishni ijtimoiy kasallik deb atab, bunday holatda mamlakat boshqaruv tizimi tez orada zaiflashib borishini ta’kidlab o‘tkan. Yana bir sharq faylasufi davlat va jamiyatni adolat tamoyili asosida hukm etish tarafdori bo‘lgan Nizomulmulkning «Siyosatnoma» asarida amaldorlarning pora olishi, xalqni ezishi, mansabni shaxsiy boylik orttirish vositasiga aylantirishi qat’iy tanqid qilinadi. Faylasuf davlat rahbari amaldorlar ustidan doimiy nazorat o‘rnatishi lozimligini uqtiradi. Nizomulmulkga ko‘ra, poraxo‘r amaldor – davlatning eng xavfli dushmanidir [12, 43]**.** Shuningdek, o‘z davrining yetuk adabiyotshunos qomusiy olimi Alisher Navoiy asarlarida adolat va insof markaziy o‘rin tutadi. Navoiy «Saddi Iskandariy» va «Maxbub ul-qulub» asarlarida mansabni suiiste’mol qilish, xalq dardiga befarqlikni ma’naviy jinoyat sifatida talqin qiladi. Navoiyning fikricha, zolim amaldor jamiyat axloqini yemiruvchi kuchdir deb hisoblanadi [13, 76]. Korrupsiya borasida islom huquqshunosligi (islom fiqhiy qarashlari)da shakllangan fikrlar sohiblari Ibn Obidin, Shah Valiyulloh Dehlaviylarga ko‘ra, pora nafaqat harom amal, balki ijtimoiy barqarorlikka qarshi jinoyat sifatida qaraladi. Bu yerda korrupsiyaga qarshi kurashning asosiy vositasi – qonundan ko‘ra vi›kdon va mas’uliyatga aoslangan axloqiy tushunchaning yuksakligi degan axloqiy-falsafiy tushunchalar ilgari suriladi.

Yuqoridagi keltirib o‘tilgan ilmiy-falsafiy nazariya va tushunchalardan kelib chiqib shuni ta’kidlash mumkinki, korrupsiyaviy muammolar insoniyatni uzoq o‘tmish davrdan o‘ylantirib kelgan ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligi, uning yechimini izlash va jamiyatni bu muuammolardan xalos etish borasida ko‘plab tushunchalar axloqiy-ma’naviy tavsiyalarni mutaffakkirlar asarlarida o‘z ifodasini topganligidan ko‘rish mumkin.

XXI asrda jamiyat hayotida korrupsiya siyosiy-iqtisod nazariyasiga asoslangan holda ta’rif berilib, unga ko‘ra korrupsiyaviy holatlarni davlat va jamiyatdagi norasmiy institutlar sifatida baxolangan. Yevropalik mutafakkir Duglas Nort va uning izdoshlari korrupsiyani ta’riflashda shunday fikrlarni ilgari surishgan ularga ko‘ra, norasmiy qoidalar (korrupsiyaviy harakatlar) o‘z maqsadlari yo‘lida rasmiy institutlar (qonuniy harakatlar)ni «yengib o‘tgan» holat sifatida talqin qiladilar. Ularning fikricha agar qonun ishlamasa, korrupsiya ishlaydi – bu hech qanday ijtimoiy m’yor emas balki, jamiyatdagi yashirin institutsional reallikdir [14, 35] deb baholanadi. Bundan tashqari g‘arblik Daron Adjemoglu va Jeyms Robinson fikriga ko‘ra, korrupsiya ekstraktiv institutlar (ya’ni jamiyatdagi ta’sir doirasiga ega kichik guruxlarga mamlakatdagi boyliklar va mansab pillapoyalarini egallashga ruxsat berish holati) xosilasidir deb baholanadi. Bunday tizimlarga ega jamiyatda elita (yuqori saralangan jamiyat a’zolari) davlat resurslarini o‘z manfaati uchun qayta taqsimlaydi, korrupsiya esa tizimning “harakatlantiruvchi-generatori” vazifasini bajaradi [15, 41] deb ta’rif berganlar. Yana bir olim Geri Bekker korrupsiyani iqtisodiy ratsionallik nuqtai nazaridan tushuntirib, unga ko‘ra shaxs pora olishdan kutiladigan foyda jazodan yuqori foydali bo‘lsa, korrupsiyaga nisbatan moyillik yuqori bo‘ladi, buni natijasida muqarrar korupsiyaviy holat sodir bo‘ladi degan tushunchani ilgari suradi [16, 50]. Bundan shunday xulosa olish mumkinki, agar mamlakatda korrupsiyaga nisbatan qo‘llaniladigan jazo turlarining keltirilgan korrupsiyaviy holatga nisbatan ta’siri kuchsiz bo‘lsa, bu pora oluvchilar tomonidan normal holat sifatida qabul qilingshiga zamin yaratadi. Bu esa davlatda poraxo‘rlik bilan bog‘liq muammolarning kuchayishga keng yo‘l ochib beradi.

Jozef Stigliga ko‘ra, davlat qarorlari ochiq bo‘lmagan joyda manfaatdor guruhlar yashirin ta’sir o‘tkazadi. Shu bois u ochiq budjetlar, ochiq ma’lumotlar va raqamli boshqaruvni korrupsiyaga qarshi asosiy vosita deb hisoblaydi [17, 27]. Bundan shu narsa tushuniladiki, o‘zaro munosabatlar jarayonida inson omilining ishtiroki korrupsiya holatini kuchayishga sabab bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan. Shvesiyalik siyosatshunos Bo Rotstayn korrupsiyani “madaniy kasallik” sifatida izohlashni qat’iy rad etadi. Uning fikricha, hal qiluvchi omil – davlat institutlariga ishonch va “sifatli hukumat” (quality of government) degan tushunchani ilgari surgan. Unga ko‘ra, qonun hamma uchun bir xil ishlagan joyda korrupsiya ijtimoiy me’yorga aylanmaydi degan tushuncha ilgari surilgan [18, 105].

Jamiyatda korrupsiyaviy holatlarni har tomonlama ilmiy tadqiq etish natijasida G‘arb olimlarining XXI asrdagi konseptual yondashuvlarini quyidagi tarzda umumlashtirish mumkin. Ushbu yondashuvlarga ko‘ra, korrupsiya avvalo axloqiy muammo emas, balki institutsional xarakterga ega bo‘lgan tizimli muammo sifatida namoyon bo‘ladi. Ya’ni korrupsion xatti-harakatlar alohida shaxslarga emas, balki mavjud boshqaruv va nazorat mexanizmlaridagi nuqsonlarga bevosita bog‘liqdir. Shuningdek, korrupsiya individual darajada emas, balki tizim doirasida shakllanib, faoliyat yuritishi ta’kidlanadi. Shu sababli, faqat shaxslarga nisbatan jazo choralarini kuchaytirish muammoni to‘liq bartaraf etish uchun yetarli emas. Jazolash mexanizmlari muhim ahamiyat kasb etsa-da, ularning profilaktik va uzoq muddatli ta’siri cheklangan ekanligi qayd etiladi. Mazkur yondashuvlarga muvofiq, korrupsiyaga qarshi kurashishda shaffoflikni ta’minlash, hisobdorlik institutlarini mustahkamlash hamda davlat boshqaruviga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish kelajakda ushbu muammoni samarali hal etishda hal qiluvchi omillar sifatida e’tirof etiladi.

Sharq mutafakkirlarining ilmiy-falsafiy qarashlariga ko‘ra, korrupsiya avvalo axloqiy va e’tiqodiy inqiroz sifatida talqin etiladi. Mazkur yondashuvda korrupsiyaviy holatlar shaxsning ichki mas’uliyati, vijdoni va ma’naviy yetukligi bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy ong shakli sifatida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, Sharq tafakkurida korrupsiya adolat va omonat tushunchalariga nisbatan mas’uliyatsizlik, ya’ni jamiyat va davlat tomonidan ishonib topshirilgan vakolatlarni suiiste’mol qilish holati sifatida baholanadi. Bu qarashlarda shaxsiy manfaatni umumiy manfaatdan ustun qo‘yish ijtimoiy barqarorlik va ma’naviy qadriyatlarga tahdid soluvchi omil sifatida ko‘riladi.

O‘zbekistonda korrupsiyaga qarshi kurashda davlat tomonidan qabul qilingan qonun va normativ hujjatlar to‘liq holatda natija berishi qiyin kechishi mumkin, shu maqsadda olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida shuni tavsiya etish mumkinki, korrupsiyanini foizini kamaytirish yoki uni batamom yo‘qotishda qo‘yidagi islohatiy ishlarni amalga oshirish zarur hisoblanadi;

• korrupsiyaga qarshi kurashuvchi tashkilotlar vakolatlarini kengaytirish va ularning faoliyatiga aralashish holatlarini batamom tugatish zarur,

• xar bir tashkilotning o‘zida ichki tekshiruv mexanizmini yaratish hamda tashqi audit faoliyatini yo‘lga qo‘yish zaruriyati,

• shaffoflik tamoyiliga asoslangan holda tashkitlotlarning ichki va tashqi elektron hujjatlar aylanmasini keng yo‘lga qo‘yish zaruriyati,

• har bir tashkilotda davlat xizmatchilarining o‘z kasbiga nisbatan fidoyilik holatiga asoslangan etika kodekslarini ishlab chiqish va ularning ijrosini keng yo‘lga qo‘yish zaruriyati

• ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali fuqarolarning xuquqiy ongi va ularnit korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashuvchanlik ruhiyatini shakllantiriishga turtki beradigan ijtimoiy rolikldarni amalda keng qo‘llash zaruriyati,

• tashkilotlarda poraxo‘rlik va davlat mulkini talon-taroj qilish, mansab suistemolligi og‘ir gunohlardan biri ekanligini diniy tashkilot hodimlari tomonidan targ‘ibotini keng yo‘lga qo‘yish zaruriyati.

Yuqorida sanab o‘tilgan ilmiy tavsiyalardan xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, insonlar ruhiyatiga poraxo‘rlik yomon va noqonuniy odat ekanilingini (bu jarayonni aynan bog‘cha va maktab davridan boshlash mumhimligi) singdirilmas ekan ishlab chiqilgan qonunlarning ta’siri kuchli bo‘lmaydi. Mazkur mexanizmni joriy etish natijabardor ishlardan biri hisoblanadi.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, davlat tomonidan elektron hukumatni joriy etish eng samarali islohatlardlan biri hisoblanib, raqamli mexanizmlar (e-government, open data, AI-monitoring)ning samaradorligini amalda qo‘llash shuningdek, korrupsiya sohasida yuqori natijalarga erishgan xorijiy davlatlar tajribasini korrupsiyaviy =olatni kamaytirishda O‘zbekistonda tadbiq etish «asosiy ta’sir kuchi» sifatida baholanadi. Bu jarayonda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish zarur;

1. elektron davlat xizmatlari (E-gov, Davlat xizmatlar agentligi, lex.uz) kabi elektron platformalarini kengash joriy qilish;

2. elektronlashtirilgan (onlayn) tender tizimlarini barcha sohalarda joriy qilish;

3. ochiq ma'lumotlar platformalari (har bir vazirlik hamda tashkilotga tegishli elektron hujjatlar aylanmasi)ni joriy qilish;

4. AI (sun'iy intelktga asoslangan baholash)-bazasiga asoslangan monitoring tizimini amalda ijrosini ta'minlash lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan muammolarni yechimi O'zbekiston sharoitida qanchalik samarador ekanligini ilmiy tahlillar asosida asosida talqin qilingan holda tavsiyaviy ahamiyat kasb etib boradi.

O'zbekistonda korrupsiyaviy holatni kamaytirishda hamda ochiq-shaffof boshqaruv tizimini shakllantirish jarayonida ilmiy doira uchun yangi qiyosiy modellar va indikatorlar (muammo yechimini aniqlab hamda uni bartaraf etuvchi yo'nalishlar)ni taklif qilinadi.

XULOSA

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash mumkinki, rivojlanayotgan mamlakatlarda korrupsiyaga qarshi qonunlarning samaradorligi murakkab va ko'p qirrali masala bo'lib, uni siyosatshunoslar, sotsiologlar, tadqiqotchilar va amaliy mutaxassislar doimiy ravishda e'tibor markazida ushlab turishi zarur. Mavjud tadqiqotlar, jumladan ushbu ishda tahlil qilingan manbalar, korrupsiyaga qarshi qonunlarning joriy etilishi, ta'siri va amalga oshirishdagi muammolar bo'yicha qimmatli xulosalar berib kelmoqda. Korrupsiyaga qarshi samarali kurash – bu jazo mexanizmini kuchaytirish emas, balki halollik, mas'uliyat va shaffoflikni milliy madaniyat darajasiga ko'tarish demakdir. Milliy islohotlar va xalqaro tajribalar uyg'unligi barqaror taraqqiyotning asosiy garovidir. Xorijiy modellarni to'g'ridan-to'g'ri ko'chirish emas, balki ularni O'zbekiston sharoitiga mos keladigan jihatlarini milliy qadriyatlar ruhiyatiga hamda huquqiy madaniyatga aylantirish va mental xususiyatlarga mos holda tatbiq etish orqali yuqori natijalarga erishish mumkin. Tadqiqotda aniqlangan bo'shliqlarni to'ldirish va turli fanlararo yondashuvdan foydalanish orqali siyosatchilar, sotsiologlar va amalga oshiruvchi tashkilotlar korrupsiyaga qarshi kurash hamda samarali davlat boshqaruvini ta'minlash bo'yicha yanada ta'sirchan strategiyalarni ishlab chiqishlari lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Foreign Experience of Formation of Anti-Corruption Strategies. Pernebay Almaganbetov, Elmira Kenzhibekova, Teimuraz Khvedelidze, Saliman Buranbayeva, and Zhanel Sailibayeva. Kazakh National Pedagogical University named after Abay, Almaty, Kazakhstan. INTERNATIONAL JOURNAL OF ENVIRONMENTAL & SCIENCE EDUCATION 2016, VOL. 11, NO. 15, 8507-8516
2. Asian Review of Public Administration, Vol. XI, No. 2 (July-December 1999//Comparing Anti-corruption Measures in Asian Countries: Lessons to be Learnt JON S.T. QUAH, National University of Singapore
3. https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2019/03/anti-corruption-reforms-in-uzbekistan_c913fdbb/46942986-en
4. Aristotle. The Politics of Aristotle. Trans. Benjamin Jowett**.** Oxford, England (UK): Clarendon Press, 1885.
5. Machiavelli N. *Discourses on Livy*. – Chicago: University of Chicago Press, 1996.
6. Montesquieu C. *The Spirit of the Laws*. – Cambridge University Press, 1989.
7. Foreign Experience of Formation of Anti-Corruption Strategies. Pernebay Almaganbetov, Elmira Kenzhibekova, Teimuraz Khvedelidze, Saliman Buranbayeva, and Zhanel Sailibayeva. Kazakh National Pedagogical University
8. Kant I. *Metaphysics of Morals*. – Cambridge University Press, 1996.
9. Weber M. *Economy and Society*. – Berkeley: University of California Press, 1978.
10. Forobiy A. *Fozil odamlar shahri*. – T.: Fan, 1993.
11. Юosuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – T.: Ёzuvchi, 1971.
12. Nizomulmulk. *Siësatnoma*. – T.: Sharq, 1997.

13. Navoiy A. *Maxbub ul-qulub*. – T.: G‘afur G‘ulom, 1991
14. North, D. (1990). *Institutions, Institutional Change and Economic Performance*. Cambridge University Press.
15. Acemoglu, D., Robinson, J. (2012). *Why Nations Fail: The Origins of Power, Prosperity, and Poverty*. Crown Publishers.
16. Becker, G. (1968). “Crime and Punishment: An Economic Approach.” *Journal of Political Economy*, Vol. 76, No.
17. Stiglitz, J. (2002). *Globalization and Its Discontents*. W.W. Norton & Company.
18. Rothstein, B. (2011). The Quality of Government: Corruption, Social Trust, and Inequality in International Perspective. University of Chicago Press.

IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLARDA ELEKTRON DEMOKRATIYANING QO‘LLANILISHIGA OID AYRIM XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI TAHLILI

Sherzod Raximov

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Professional ta’limni rivojlantirish instituti boshqarma boshlig‘i, Siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Annotatsiya. *Maqolada fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, elektron demokratiyaga oid xorijiy tajribalar, elektron hukumat va elektron davlat xizmatlari, elektron demokratiyaning mazmun mohiyati, ijtimoiy masalarning muhokamasi, ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda elektron demokratiyani qo‘llash bilan bog‘liq muammolar, va ustuvor vazifalar to‘g‘risida ma’lumot berilgan.*

Maqolada siyosiy-ijtimoiy kompleks yondashuv, mantiqiylik, tizimlilik, qiyosiy tahlil, tahlil etish kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *elektron demokratiya, elektron hukumat, ijtimoiy tarmoqlar, elektron ishtirok, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar.*

Аннотация. *В статье представлена информация об участии граждан в общественно-политических процессах, зарубежном опыте электронной демократии, электронном правительстве и электронных государственных услугах, сущности электронной демократии, обсуждении социальных вопросов, проблемах, связанных с исползованием электронной демократии в общественно-политических процессах, и приоритетных задачах.*

В статье использованы такие методы исследования, как комплексный политико-социальный подход, системност и мтранительный анализ.

Ключевые слова: *электронная демократия, электронное правительство, социальные сети, электронное участие, политические и социальные процессы.*

Abstract. *The article provides information on the participation of citizens in socio-political processes, foreign experiences in electronic democracy, electronic government and electronic public services, the essence of electronic democracy, discussion of social issues, problems related to the use of electronic democracy in socio-political processes, and priority tasks.*

The article uses such research methods as a comprehensive political and social approach, systematicity, comparative analysis.

Keywords: *e-democracy, e-government, social networks, electronic participation, political and social processes.*

So‘nggi besh yillik islohotlarning natijasida mamlakatimizda Yangi O‘zbekistonni barpo etishning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma’rifiy asoslari yaratildi. “Elektron parlament” doirasida deputatlarni o‘z saylovchilari bilan, senatorlarni hududlardagi fuqarolar bilan bog‘lash, ular bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot olib borish, saylovchilarni qiynayotgan muammolarni muhokama qilish va hal etish jarayonini raqamlashtirish kabi masalalar keyingi besh yillikda ustuvor vazifalar sifatida belgilandi.[1,4]

Prezident Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart. Raqamli texnologiyalar nafaqat mahsulot va xizmatlar sifatini oshiradi, ortiqcha xarajatlarni kamaytiradi. Shu bilan birga, meni juda qattiq tashvishga soladigan va bezovta qiladigan eng og‘ir illat – korrupsiya balosini yo‘qotishda ham ular samarali vositadir. Buni barchamiz teran anglab olishimiz darkor.[2,3] Davlat boshqaruvi jarayonlarini takomillashtirishda kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish yirik byurokratik jarayonlarni qisqartirish va davlat siyosiy tadbirlarini amalga oshirish bilan bog‘liq moliyaviy xarajatlarni ham sezilarli darajada

kamaytiradi. Shuningdek, kelgusida saylov tizimini kompyuterlashtirish mumkin, bu esa saylovoldi tashviqoti xarajatlarini, davlat organlari va oddiy fuqarolarning saylov uchastkalariga borish uchun vaqt va kuch sarflamasligi uchun vaqt sarfini kamaytiradi.

“Elektron faoliyat”ni amalga oshirish tajribalarini rivojlanayotgan davlatlarning ijobiy tajribasini o‘rganish zarur. Bular, birinchi navbatda, Shveytsariya, Estoniya va Buyuk Britaniya bo‘lib, ularda davlat organlari faoliyatini takomillashtirishda elektron aloqa vositalaridan foydalanish amaliyoti ancha faol rivojlanmoqda.

Dunyo bo‘ylab elektron demokratiya tajribalari – Muvaffaqiyatli elektron(raqamli) demokratiya bir nechta modellari mavjud, lekin bu modellar xorijiy mamlakatlarda amalga oshirilayotgan muayyan demokratik jarayonlarning o‘ziga xos xususiyatlariga qarab farqlanishi mumkin.

Quyida bir nechta davlatlar misolida ko‘rib chiqamiz:

Estoniya: Estoniya Hukumati 2005 yildan beri onlayn ovoz berish orqali elektron demokratiya sohasida yetakchi davlatga aylangan. Estoniya davlatlar orasida elektron ovoz berish sohasida dastlabkilardan hisoblanadi, u 2005 yilda mahalliy saylovlarni internet orqali ovoz berishni o‘tkazgan (o‘sha paytda estoniyalik saylovchilarning 2% ga yaqini onlayn ovoz berishgan). 2007 yilda Estoniya parlamenti saylovlarda elektron ovoz berish qo‘llanilgan, 2011 yilgi parlament saylovlarida esa internet saylovchilar soni 24% ni tashkil etgan.

Davlat siyosatini shakllantirish, jamiyat va davlat o‘rtasidagi to‘siqlarni bartaraf etishda saylovchilarning faolroq ishtirok etishi loyihaning asosiy maqsadi bo‘ladi. Xuddi shu g‘oyalar Estoniyaning elektron fuqarosi loyihasining asosini tashkil etadi, uning doirasida ikkita elektron resurs yaratiladi: Axborot portali va Fuqarolik portali. Mamlakatning 100 ming aholisi internetdan foydalanadi. Butunjahon internet tarmog‘ining rivojlanishi va foydalanuvchilarning faolligi oshishi bilan saytlar mamlakat oldida turgan ko‘plab muammolarni muhokama qilish uchun paydo bo‘ladi. Qiziqarli loyiha “Keling, buni qilamiz! Mening Estoniyam”, “yaxshi g‘oyalar”ni qo‘llab-quvvatlagan. 2008 yilda ushbu veb-sayt yordamida fuqarolik faoli Rayner Nõlvak tashabbusi bilan Estoniya bo‘ylab bir kunlik axlat yig‘ish tashkil etilgan: bu aksiyada 50 ming kishi (mamlakat aholisining 4%) ishtirok etgan. O‘shandan buyon butun dunyoda “Keling, buni qilaylik!” harakatiga o‘xshash aksiyalar bo‘lib o‘tmoqda, unda 94 ta davlat qatnashmoqda. [3,91]

Estoniya raqamlashtirish sohasida peshqadam hisoblanadi. Mamlakat doim Yevropaning elektron hukumat bo‘yicha ko‘rsatkichlarini baholaydigan Yevropa Komissiyasining reytinglarida yuqori o‘rinlarni egallab keladi. Masalan, 20 yildan beri ushbu kichik Baltika mamlakati 1,3 million aholisining har biriga davlat raqamli shaxsiy identifikatsiyasini taqdim etib kelmoqda. 18 yildan beri barcha ovoz berish huquqiga ega fuqarolarga elektron ovoz berish imkonini taqdim etib kelinmoqda. 2023 yilda Estoniyadagi parlament saylovlarida ilk bor berilgan ovozlarning yarmidan ko‘prog‘i elektron tarzda topshiriladi. [4,1]

Shveytsariya: Shveytsariya ham elektron ovoz berish tajribasiga ega, shuningdek, yirik shaharlar va kantonlar darajasida “fuqarolar – Hukumat vakillari” elektron maslahat tizimi mavjud.

Shveytsariya ham Estoniya kabi xalqaro miqyosda elektron ovoz berish sohasida ilk qadam tashlagan mamlakatlardan biri hisoblanadi. Shuning uchun quyida ushbu ikki davlat tajribalari o‘zaro birgalikda tahlil qilinadi. Shveytsariyada 2003 yildan boshlab Geneva, Neuchâtel va Zurich kabi kantonlarda elektron saylovlar sinov tariqasida o‘tkaziladi. 2019 yilda qayta tekshiruvlar o‘tkazilib, elektron saylov tizimi qayta yaratiladi.[5,1] 2023 yil 22 oktabrda Shveytsariyaning so‘nggi federal saylovlarida Swiss Post’ning tizimi orqali to‘liq tekshirib bo‘ladigan elektron ovoz berish ilk bor muvaffaqiyatli amalga oshiriladi.[6,1] Bazel-Shtadt, Sankt-Gallen va Turgau kantonlarida jami 4 480 kishi elektron tarzda ovoz beradi. Ular asosan chet elda yashovchi shveysariyalik fuqarolar va Shveytsariyada yashovchi kam sonli saylovchilardan iborat bo‘lgan. Bu raqamni nisbatda ifodalasak, elektron ovoz berish huquqiga ega bo‘lganlardan 19 foizi elektron ovoz bergan. Solishtirish uchun, Estoniyada barcha saylovchilar elektron ovoz berish imkoniyatiga ega va 2023 yildagi parlament saylovlarida 300 mingdan ortiq kishi elektron tarzda ovoz bergan.[7,1] Bu tarixda birinchi marta ovozlarning yarmidan ko‘prog‘i raqamli shaklda berilgan holat bo‘ladi.

Buning asosiy sabablari yillar davomida shakllangan tizimga bo‘lgan ishonch hamda aholi onlayn ovoz berish ovoz berish kunida saylov uchastkasiga borishdan ancha qulayroq ekanini tushunib yetadi. Estoniyada ko‘plab davlat xizmatlari raqamlashtirilgan. Shu sababli, Estoniya fuqarolari onlayn davlat xizmatlaridan foydalanishga o‘rganib qolishgan.

-Estoniyada barcha ovoz berish huquqiga ega fuqarolar o‘z xohishlariga ko‘ra elektron ovoz berish yoki saylov kuni saylov qutisiga byulleten tashlashni tanlashlari mumkin. Shveysariyada esa qonunchilik elektron ovoz berish sinov davrida faqatgina saylovchilarning ko‘pi bilan 10 foiziga ruxsat berishini belgilaydi.

-Estoniyada saylovchi elektron platformaga o‘z e-ID (elektron shaxsiy guvohnomasi) orqali kirish huquqiga ega. Shveysariyada esa saylovchiga pochta orqali yuboriladigan saylov kartochkasidan maxsus kodni kiritadi va kantonga bog‘liq holda tug‘ilgan yili yoki sanasini ham kiritadi.

-Har ikki mamlakatda ham tizim dastur kodi ochiq, mutaxassislar uni tekshirib, xatarlar haqida xabar berishlari mumkin. Shveysariyada bunday xatarni topganlarga mukofot berish qonun bilan belgilangan. Estoniyada bunday mukofot tizimi mavjud emas.

-Shveytsariyada saylovchi elektron tarzda ovoz berganda, so‘nggi ovoz berishdan avval qaytarish kodlarini solishtirish so‘raladi. Bu orqali ovoz beruvchi uning ovozi to‘g‘ri yetib borganini tasdiqlay oladi. Estoniyada ham ovoz beruvchi ovozining to‘g‘ri yetkazilganligini tekshirishi mumkin – bu alohida ilovada amalga oshiriladi.

-Shveytsariyada har yili to‘rt marta federal ovoz berish o‘tkaziladi va fuqarolar kanton va munitsipal darajadagi saylovlarda ham ishtirok etishlari mumkin. Estoniyada esa qonun loyihalari bo‘yicha ovoz berish o‘tkazilmaydi, fuqarolarning siyosiy ishtirok etish imkoniyati, shu jumladan elektron ovoz berish, faqat parlament saylovlarigina chegaralangan.[8,1] Bundan tashqari, Estoniyada Shveysariyadan farqli ravishda pochta orqali ovoz berish amaliyoti mavjud emas.

Buyuk Britaniya: Mahalliy saylovlarda onlayn ovoz berish tizimlari qo‘llanilgan. Elektron ovoz berish bo‘yicha eksperimentlar amalga oshirilgan, saylovga nomzodlarning rasmiy debatlari internet-blog formatida o‘tkaziladi, “Buyuk Britaniyaning mahalliy elektron demokratiya milliy loyihasi” yaratiladi va moliyalashtiriladi.

AQSh - Elektron ovoz berish 2000 yilgi prezident saylovlarida keng joriy etilgan. Turli shtatlarda turli texnologiyalar qo‘llaniladi: “Direct Recording Electronic” (DRE) mashinalari, “Optical Scan Systems” va Internet orqali ovoz berish (masalan, harbiy xizmatchilar yoki chet eldagi fuqarolar uchun). G‘arbiy Virjiniya harbiylar uchun 2018 yilgi boshlang‘ich saylovlar paytida chet elga yuborilgan xodimlar o‘rtasida mobil ovoz berishni sinovdan o‘tkazgan. Ammo internet orqali ovoz berish hali ham keng joriy etilmagan, asosiy xavotirlar – xavfsizlik va ovozlar ustidan nazorat muammolari.

USA.gov, IRS.gov, SSA.gov [9,1] kabi portallar orqali fuqarolar hukumat xizmatlaridan foydalanish bilan bir qatorda, o‘z huquq va majburiyatlari haqida ma’lumot olishlari, murojaat qilishlari, shikoyat va taklif berishlari mumkin. Shuningdek, *regulations.gov* [10,1] – platformasi orqali taklif etilayotgan me’yoriy hujjatlar yuzasidan fuqarolar tomonidan fikr bildiriladi. Bu portal orqali fuqarolar jamoatchilik muhokamalarida qatnashib, qonun ijodkorligi jarayoniga ta’sir o‘tkazish imkoniga ega.

AQShda shtat gubernatori va shahar munitsipaliteti darajasida elektron murojaatlarni ko‘rib chiqish tizimi yaratilgan, partiyalar saylov faolligini oshirish uchun elektron axborot tizimlari ishlab chiqilgan.[11,3]

Open Town Hall, SeeClickFix, MindMixer, Neighborland [12,1] kabi platformalar orqali mahalliy aholi elektron taklif va tashabbuslari bilan qatnashadi. Bular orqali yo‘l ta’miri, jamoat xavfsizligi, jamoat transporti kabi masalalarda fuqarolar fikri to‘planadi va qarorlar qabul qilinadi.

AQShda elektron demokratiya asosan fuqarolar va hukumat o‘rtasidagi ikki tomonlama aloqani mustahkamlash, ma’lumotlarni oshkoralash, fuqarolarning fikrlarini eshitish va onlayn xizmatlarni yengillashtirish yo‘nalishlarida rivojlanmoqda.

Avstraliya: Elektron demokratiya sohasida amaliy tajribalar asosan mahalliy va shtat darajasida amalga oshirilgan bo‘lib, asosiy e’tibor fuqarolarni siyosiy jarayonlarga jalb qilish, hukumat faoliyatini ochiqlashtirish va platforma orqali muloqotni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

“iVote” (New South Wales shtati) elektron ovoz berish tizimi 2011 yildan foydalanib kelingan, elektron ovoz berish Avstraliyada cheklangan holda joriy etilgan. Asosan aniq guruhlar, ya’ni ko‘zi ojiz fuqarolar, chet eldagi avstraliyaliklar, o‘ta chekka hududlardagi saylovchilar uchun tashkil etilgan. Ammo 2021 yilda texnik muammolar sababli to‘xtatiladi. Saylov komissiyasi (NSWEC) 2023 yilgi shtat saylovlari uchun *iVote* internet orqali ovoz berish tizimidan foydalanishni to‘xtatish va uni qayta ko‘rib chiqish haqida qaror qabul qiladi. Bu qaror harakatlanish imkoniyati cheklangan yoki boshqa nogironliklarga ega bo‘lgan saylovchilar uchun noqulaylik tug‘diradi. Masalan, *Vision Australia* tashkiloti soqov va ko‘zi ojiz fuqarolar uchun mustaqil va maxfiy ovoz berish huquqi buzilayotganidan tashvish bildiradi.

Avstraliyaning Qo‘shma parlament saylov ishlari qo‘mitasi 2013 yilgi saylov bo‘yicha hisobotida shunday xulosaga kelgan: yaqin kelajakda keng qamrovli elektron ovoz berishni joriy etish – *katta xarajatlar va qabul qilib bo‘lmaydigan xavfsizlik muammolarini* keltirib chiqaradi.

2022 yilgi federal saylovlarda saylovchilar uchun bir nechta ovoz berish usullari mavjud bo‘lgan, ammo internet orqali ovoz berish ular qatorida bo‘lmagan. Ayrim shtat va hududlarda elektron ovoz berish imkoniyatlari faqat muayyan toifadagi fuqarolar uchun mavjud. [13,1]

Saylovlarni tashkil etishda “innovatsiya” hamda texnologiya orqali fuqarolik ishtirokini boyitish saylovga ishonchni saqlash uchun muhimdir. Demak, saylov tizimini modernizatsiya qilish xarajatlari ham, demokratiyaning to‘xtab qolishi bilan bog‘liq xatarlar ham hisobga olinishi kerak.

Hozircha internet orqali ovoz berish federal saylovlarda joriy etilmagan, xavfsizlik, identifikatsiya va fuqarolarni tekshirishdagi muammolar sababli qo‘llanilmaydi. [14,1]

“OurSay”- elektron platformasi fuqarolarning qiziqtiradigan savollariga deputatlar tomonidan javob beruvchi platforma. *Digital Rights Watch* – raqamli huquqlar va axborot erkinligini himoya qilish bilan shug‘ullanuvchi nodavlat tashkilotlardan biri bo‘lib, elektron demokratiya bilan bog‘liq huquqiy va siyosiy faol mavzularda faoliyat ko‘rsatadi. Hukumat va mahalliy organlar qonun loyihalari, strategiyalar yoki islohotlar yuzasidan onlayn muhokamalar tashkil qiladi. *"Have Your Say"* platformalari orqali turli masalalar bo‘yicha fuqarolardan fikr va takliflar yig‘iladi.[15,1] Bu usul fuqarolarning qaror qabul qilish jarayonida bevosita ishtirok etishini ta’minlaydi.

Avstraliyada elektron demokratiya tajribasi faqat elektron ovoz berish bilan cheklanmay, balki fuqarolarning onlayn ishtirokini kengaytirish va davlatning ochiqlik siyosatlarida elektron platforma va texnologiyalar orqali samarali ishlash tamoyillarini rivojlantirmoqda.

Fransiya: 2002–2007 yillarda ovoz mashinalari (electronic voting machines) orqali elektron ovoz berish qo‘llanilgan. 2017 yilda xavfsizlik sababli elektron ovoz berish to‘xtatildi va 2022 yilda yangi tizim joriy etiladi. Unda har bir saylovchi kodni email orqali, parolni esa SMS orqali olgan. Biroq ayrim xorijdagi saylovchilar kod olishda muammolarga duch kelgani sababli, 2023 yilda saylov natijalari ikki mintaqada bekor qilindi va qayta o‘tkaziladi.[16,1]

2019 yilda *“Gilets Jaunes” (sarbandlar harakati)* natijasida tashkil etilgan *Milliy debat (Grand Débat National)* faol ishtirokchilarni jalb qilib, xaqiqiy fuqarolik muhokamalarini amalga oshirish uchun onlayn va oflayn platformalardan foydalangan – bu jarayonda qariyb 2 million kishi ishtirok etadi.[17,1] **OpenDataSoft** kompaniyasi Parij va boshqa shaharlar uchun ochiq ma’lumotlar portallarini yaratgan (masalan Paris Data), bu fuqarolar, tadqiqotchilar va jurnalistlar uchun ahamiyatli ma’lumot manbai bo‘lgan.

Fransiyada elektron ovoz berish tizimlari hozircha faqat xorijdagi fuqarolar va mahalliy pilot loyihalar uchun qo‘llanilmoqda. Keng qamrovli, xavfsiz va ishonchli internet ovoz berish tizimiga asosli rag‘batlar kuchaymoqda, shuningdek, jamoatchilik fikrida xavfsizlik va maxfiylik masalalari ustuvor hisoblanadi.

Hindiston: 1999 yildan beri milliy va davlat darajasidagi saylovlarda elektron ovoz mashinalar - ESM(elektron saylash mashina)lar qo‘llanilib kelinmoqda, hozirda ham keng foydalanilmoqda. Hindistonda umumiy saylovlarda elektron ovoz berish 100 foiz qo‘llanilgan, lekin tekshirib bo‘lmaganligi sababli e’tirozga uchragan, Hindiston Nyu-Taun Kolkata taraqqiyot boshqarmasi bilan onlayn ovoz berishda E2E ovoz berish texnologiyasini sinab ko‘riladi. 2022 yil Kolkata shtatining Nyu-Taun shahrida 500 dan ortiq odam mobil telefonlardan foydalangan holda eng yaxshi bezaklar uchun ovoz beradi, bu elektron ovoz berish xavfsiz, to‘liq avtomatlashtirilgan va saylovchilar orasida mashhur ekanligini ko‘rsatadi. “Durga Puja” *(bayram bezaklari)* onlayn sinovi (online poll)ning asosiy maqsadi butun jamoaning ishtirokini rag‘batlantirish va jamoat fikrini to‘plash edi. Ushbu tadbir haqida maxsus platforma orqali fuqarolar o‘zaro fikrlarini bildiradilar – eng ko‘p ovoz to‘plagan Puja (bayram tantoshi) tanlangan. [18,111]

Ammo shuni ta’kidlash joizki, elektron ovoz berish tizimlaridan foydalanish munozarali va ba’zi ekspertlar bunday tizimlarning xavfsizlik va ishonchliligi bilan bog‘liq xavotirlarni ko‘targan.

Elektron demokratiyaning eng yuqori shakli bu ***to‘g‘ridan-to‘g‘ri elektron demokratiya*** (EDD) bo‘lib, u fuqarolarning bevosita ishtirokini ifodalaydi.

Xorijiy nazariya va amaliyotdagi eng murakkab muammo elektron demokratiyani amalga oshirishda huquqiy asoslash muammosi bo‘lib ko‘rinadi. Ushbu masalani umumiy o‘rganish shuni ko‘rsatdiki, fuqarolarning axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish munosabatlarini tartibga soluvchi me’yoriy hujjatlarga asoslangan murakkab huquqiy modellarni barpo etish lozim.

Elektron demokratiyani rivojlantirish jarayoni dunyoda notekis kechmoqda. Bu jarayon demokratik mamlakatlarda tezroq amalga oshmoqda, avtoritar davlatlarda sekinroq yoki umuman mavjud emas.[19,1] Eng katta o‘zgarishlarni G‘arbiy Yevropada ko‘rish mumkin. U yerda elektron demokratiyani rivojlantirish tizimli tus olgan. “Elektron demokratiya” loyihasi doirasida Yevropa fuqarolarining fikrlarini o‘rganish uchun, bir qator muhim masalalar bo‘yicha **elektron ovoz** berish loyihasi foydali eksperiment bo‘lgan. Tashabbus o‘z davrida Yevropa Ittifoqiga raislik qilgan Gretsiyaga tegishli edi. 2003 yilda Yevropa Ittifoqiga a’zo bo‘lishidan qat’i nazar, Internet imkoniyatlaridan foydalangan holda Yevropa davlatlarining barcha fuqarolari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga ta’lluqli edi.[20,1] Ovoz berish uchun beshta mavzu taklif qilinadi: hozirgi Yevropa Ittifoqi, uning dunyodagi roli, Ittifoqning kelajagi, Iroq inqirozi va Yevropa Ittifoqining navbatdan tashqari sammiti kabilardan iborat bo‘lib, loyihada ishtirok etishning turli usullari mavjud edi.

Yuqoridagi amaliy tajribalar natijasida Elektron demokratiyani to‘liq tavsiflovchi birinchi jiddiy xalqaro hujjat 2009 yildagi Yevropa Kengashi Vazirlar Qo‘mitasining Tavsiyasi ishlab chiqilgan.[21,25] Unda tavsiyalar, tamoyillar va yo‘riqnomalar belgilangan bo‘lib, ushbu kontekstda demokratiya va inson huquqlari tamoyillarini qo‘llashga mo‘ljallangan.

Tavsiyada “demokratiya”, “demokratik institutlar” va “demokratik jarayonlar” atamalaridan foydalaniladi. Elektron demokratiya asosiy erkinliklarni, inson huquqlari va ozchilik huquqlarini, shu jumladan axborot va undan foydalanish erkinligini hurmat qilishi masalalarini qamrab olgan. Demokratik institutlar, jumladan, NNTlar zarur chunki demokratiya davriy saylovlar bilan cheklanmaydi, shuning uchun demokratiyani qo‘llab-quvvatlash va himoya qilish uchun institutlar kerak. Hujjatda aytilishicha, EDning maqsadlari samarali yetakchilik maqsadlariga o‘xshash, – bular shaffoflik, hisobdorlik, mas’uliyat, ishtirok etish, munozaralar, inklyuzivlik, foydalanish imkoniyati, demokratiyaga ishonch, demokratik institutlar va demokratik jarayonlar va ijtimoiy birlik hamda asosiy *maqsad* – elektron shaklda demokratiyani qo‘llab-quvvatlash.

Internetdan ijtimoiy-siyosiy maqsadlarda muvaffaqiyatli foydalanishning yana bir misoli **Islandiyadadir**. So‘nggi hisob-kitoblarga ko‘ra, mamlakat aholisining 97,8 foizi internetdan foydalanadi.[22,92] Bu tajribadan eng muhim misollardan biri mamlakat ijtimoiy tarmoqlarda yangi Konstitutsiya loyihasining jamoaviy muhokamasi bo‘lgan. 2008-2009 yillardagi Islandiya moliyaviy inqirozidan so‘ng, jarayonda keng ishtirok etgan holda yangi konstitutsiya loyihasini ishlab chiqishga qaror qilinadi.

Konstitutsiyaviy kengash veb-saytiga 3600 ta fikr va 300 dan ortiq rasmiy takliflar kelib tushgan. Ushbu takliflarni inobatga olgan holda davlatning asosiy qonuni loyihasi parlament va jamoatchilikka taqdim etilgan va 2012 yil 20 oktabr kuni referendumda saylovchilar tomonidan tasdiqlangan. Shunday qilib, bevosita elektron demokratiya mexanizmlari yordamida Islandiyada chinakam milliy Konstitutsiya qabul qilinadi.

Germaniyada fuqarolarning murojaatlarini inobatga olgan holda elektron qonun ijodkorligi, deputatlarning qonun ijodkorligi faoliyatida masofaviy elektron ishtiroki konsepsiyasini yaratish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda. Germaniya konstitutsiyaviy qonunchiligini tahlil qilish bir qator olimlarga Germaniya parlamenti a’zosi maqomi ularning har biriga fuqarolarning tashabbuslarini elektron shaklda ko‘rib chiqish tizimini yaratish va ular bo‘yicha tezkor qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Yangi Zelandiyada 2007 yilda “1958 yildagi Politsiya to‘g‘risidagi qonunni qayta ko‘rib chiqish”da yangi qonun loyihasining viki-versiyasi jamoatchilikka taqdim etiladi.[23,70] Eksperiment natijasida 234 ta taklif kelib tushadi va hisobga olinadi. Mutaxassislarning fikricha, qonunni tayyorlash jarayonida fuqarolar ishtiroki asosiy jihatlardan biriga aylanadi.

Dunyoning ba’zi mamlakatlari va mintaqalarida allaqachon internet (elektron hukumat) orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratining juda samarali tizimi yaratildi. Biroq, ushbu tizimning modellari mintaqaviy o‘ziga xosliklarini aniqladilar.

Yevropa modeli milliy oliy institutlarning mavjudligi bilan tavsiflanadi – Yevropa Parlamenti, Yevropa Komissiyasi, Yevropa sudi qarorlari barcha Yevropa Ittifoqi mamlakatlari uchun majburiydir. Shu sababli, ushbu model birinchi navbatda Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar uchun faoliyat maydonini tenglashtirish va elektron hukumat faoliyatini muvofiqlashtirishga qaratilgan. Bu G2G modelini (hukumat hukumatga) haqiqatga aylantiradi. Unda Yevropaning har bir davlatida o‘zining milliy xususiyatlari saqlangan bo‘lsa-da, umumiy yondashuvlar va qadriyatlar mavjud. Yevropa Ittifoqi (YeI) elektron demokratiyani asosiy tamoyillar sifatida Fuqarolar ishtirokini kuchaytirish, Elektron imzo va identifikatsiya, E-ID (elektron ID-karta), kiberxavfsizlik va ishonch kabi faoliyatlarda rivojlantirmoqda.

Osiyo modeli o‘ziga xos boshqaruv uslubiga, ya’ni ierarxik piramida printsipi bo‘yicha tashkil etilgan davlat boshqaruvining ko‘p qatlamli tizimiga asoslangan. Ushbu model G2E (hukumat hukumat ishchilariga) modelining amaliy tatbiq etilishi hisoblanadi. Yevropaga nisbatan Osiyoda bu jarayon asimmetrik, ya’ni davlatlar orasida katta farqlar bilan kechmoqda. Osiyodagi ba’zi davlatlar ilg‘or yechimlarni joriy etgan bo‘lsa, boshqalari hali rivojlanish bosqichida turibdi. Janubiy Koreya, Singapur, Tayvan kabi mamlakatlar yuksak texnologik yechimlarni joriy etgan. Rivojlanayotgan davlatlar hali imkoniyat yaratish bosqichida. Ayrim davlatlarda jamiyat faol, boshqalarda esa fuqarolik ishtiroki cheklangan.

Shimoliy Amerikaninag elektron Hukumat modeli **AQSh va Kanadada** keng tarqalgan. Ushbu mintaqada elektron hukumat modeli iqtisodiy rivojlanish, texnologik infratuzilma va siyosiy tuzumlar asosida turlicha shakllangan. Amerika modeli nafaqat davlat tashkilotlarining veb-saytlariga kirishni ta’minlaydi, balki uning o‘ziga xosligini ko‘p jihatdan belgilaydi, erkin g‘oyalar, tashabbuslar almashish joyi, muayyan ishlar natijalarini muhokama qilish uchun maydonga aylanadi. U G2C va G2B nazariy kontseptsiyalari doirasida rivojlanadi va ommabop elektron hukumatni qurish orqali elektron demokratiyani rivojlantirishga qaratilgan. Amerikalik elektron Hukumat konsepsiyasining qarashlari fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan va bozor mexanizmlariga asoslanadi. Federal, shtat va mahalliy darajadagi markazlashmagan mustaqil elektron xizmatlar. *Data.gov* - Davlat Ochiq ma’lumotlar portali, USA.gov - yagona federal hukumat portali, Challenge.gov - fuqarolar innovatsion muammolarni hal qilishda ishtirok etishlari uchun platforma.

Kanada: Elektron demokratiya bo‘yicha bir nechta tashabbuslarni amalga oshirgan, shu jumladan onlayn ovoz berish sinovlari va raqamli shahar faoliyatini. Hukumat fuqarolarni jalb qilish va maslahat uchun bir qator onlayn platformalarni ham ishga tushirgan, shu jumladan MyDemocracy.ca platformasini. *Kanada modelini (elektron hukumat)* klassik deb atash mumkin,[24,92] chunki Kanadada raqamli elektronikaning asosiy maqsadi fuqarolarga internet orqali davlat ma’lumotlariga kirishni ta’minlash, shuningdek, barcha jismoniy va yuridik shaxslarni yangi tizimlardan foydalanishga o‘rgatishdir. Fuqarolarni raqamli texnologiyalar orqali davlat boshqaruvi, siyosiy qarorlar va jamoatchilik muhokamalariga jalb etishni ko‘zda tutuvchi **ochiq, inklyuziv va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqotga asoslangan** tizimdir. Kanadada elektron demokratiya demokratiyaning liberal modelini qo‘llab-quvvatlaydi va davlat-fuqaro o‘rtasida ishonchli raqamli muloqot muhitini shakllantiradi. Hukumatning ma’lumotlari ochiq bazada. Fuqarolar davlat hujjatlari, budjet ma’lumotlari, jamoat ishlari bo‘yicha ma’lumotlarni yuklab olishlari mumkin.

Kanadada elektron demokratiya faqat texnik vosita emas, balki huquqiy va siyosiy jarayonlarning bir qismi sifatida qabul qilingan:

• elektron ovoz berish faqat mahalliy darajada yoki sinov sifatida ayrim shtatlarda joriy qilingan. Federal saylovlarda an’anaviy ovoz berish saqlanmoqda.

• davlat ma’lumotlarini ochiq taqdim etish majburiyati.

• fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari himoya qilinadi.

Kanada modeli elektron demokratiyada ochiq hukumat, faol fuqarolik, va huquqiy kafolatlar asosida rivojlangan. Bu modelda davlat faoliyat shaffofligini oshirish, fuqarolarni qaror qabul qilishga jalb etish, hamda boshqaruv samaradorligini oshirish uchun raqamli vositalardan keng foydalanadi.

BMTning "Elektron hukumat 2012" hisobotiga ko‘ra “elektron ishtirok” sohasida yetakchilardan biri **Janubiy Koreya** hisoblanadi. 1995 yildan buyon mamlakat Axborot va kommunikatsiyalar vazirligi internet tarmog‘ini rivojlantirishga katta mablag‘ ajratgan. 2000 yilda Janubiy Koreya fuqarolarining aksariyati Butunjahon internet tarmog‘iga kirish imkoniga ega bo‘ladi va bir qator siyosatchilar o‘zlarining veb-sahifalariga ega bo‘lishadi. Bu onlayn siyosiy faollikning keskin o‘sishiga yordam beradi. Janubiy Koreyada elektron demokratiyani rivojlantirishning asosiy davri 2002 yilgi prezidentlik saylovlar davri bo‘ladi. Tahlilchilarning fikricha, Ro Mu Xyonning g‘alabasiga ko‘p jihatdan nomzod tarafdorlari tomonidan www.nosamo.org veb-saytida tashkil etilgan va 47 mingga yaqin ishtirokchi ishtirok etgan onlayn hamjamiyat qo‘llab-quvvatlangani sabab bo‘lgan.

Elektron tizimning samaradorligini baholash 2006 yildagi Vaseda universiteti **yapon mutaxassislari** tomonidan 32 davlatdagi elektron hukumat instituti vaziyatni tahlil qilingan.[25,2] Mamlakatlarning internetga tayyorlik darajasi internet foydalanuvchilari, keng polosali ulanish, mobil aloqa va shaxsiy kompyuter foydalanuvchilarining umumiy soni bilan aniqlanadi. Bundan tashqari, veb-resurslarning xavfsizlik tizimi baholanadi. **Shvetsiya, Gollandiya va Yaponiya** tarmoqni yaratish bo‘yicha eng tayyor bo‘lib chiqadi.

Umumiy mezonlarga ko‘ra *AQSh, Kanada, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Tayvan, Avstraliya, Buyuk Britaniya va Finlandiya* kabi davlatlar elektron Hukumat rivojlanishning maksimal darajasiga ega mamlakatlar sifatida tan olingan.[26,1]

Bir qator avtoritar davlatlar o‘z hududida axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va qo‘llash, ularni mavjud rejimga tahdid deb hisoblab bostirishadi. Shunday qilib, Xitoy, Saudiya Arabistoni, Eron, Belarusiya, Vetnam va boshqa mamlakatlarda internet erkinligi sezilarli darajada cheklangan. Misol uchun, Eron rasmiylari Gmail elektron pochtasiga kirishni bir necha bor bloklagan. Rasmiy tushuntirishlarga ko‘ra, elektron pochta xizmatlari Islom Respublikasi qonunlariga mos kelmaydi. Hozirda Eron davlat idoralari ular nazorat qila oladigan internetning o‘z analogini faol ravishda rivojlantirmoqda. [27,37]

Rossiyada axborot jamiyati va elektron demokratiyani rivojlantirish nuqtai nazaridan bugungi siyosiy voqelikni aks ettiruvchi ikki tomonlama vaziyat rivojlanadi. Bir qarashda u juda muvaffaqiyatli ketmoqda: internetdan foydalanuvchilar soni bo‘yicha mamlakat Yevropada 1-o‘rinni, dunyoda 6-o‘rin egalladi. Rossiyada internet auditoriyasi o‘sishda davom etmoqda, 2012 yil boshida 70 million kishini tashkil etgandi. Butunrossiya jamoatchilik fikrini o‘rganish markazining (VTsIOM) hisob-kitoblariga ko‘ra, bugungi kunda rossiyaliklarning 60 foizi internetdan foydalanadi, ulardan 40 foizi har kuni internetga kirishadi.[28,38] Bugungi Rossiyada muhim ijtimoiy-siyosiy muammolar va qonun loyihalarini ommaviy muhokama qilishga ruxsat beriladi va olqishlanadi, lekin asosiy qarorlar fuqarolik jamiyatining bevosita ishtirokisiz qabul qilinadi.

Elektron demokratiyaning asosiy elementi – bu elektron hukumat bo‘lib, u aholiga ma’muriy xizmatlar ko‘rsatish funksiyalarining bosqichma-bosqich transformatsiyasi orqali evolyusion tarzda shakllanmoqda. Elektron hukumatning legitimligi – davlat boshqaruvi samaradorligining amalda oshishi, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati yaxshilanishi va mustahkam ijtimoiy siyosat yuritilishi orqali ta’minlanadi. Elektron demokratiya esa elektron hukumatdan farq qiladi, chunki u faqatgina davlat xizmatlarini raqamli boshqarishdan kengroq tushuncha hisoblanadi. Dunyoning turli mamlakatlarida davlat xizmatlarini ko‘rsatish uchun raqamli texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi har birining o‘ziga xos xususiyatlariga ega bo‘lgan turli elektron Hukumat modellarini shakllantirishga olib keldi. [29,60]

BMTning (2022 yil) ma’lumotlariga ko‘ra, [30,4] global o‘rtacha rivojlanish indeksi (EGDI) asosan telekommunikatsiya infratuzilmasini mustahkamlashdagi yutuqlar tufayli 2020 yildagi 0,59 balldan 2022 yilda 0,61 ballga oshgan. Elektron Hukumatni rivojlantirish bo‘yicha Yevropa ittifoqi yetakchiligicha qolmoqda (EGDI 0,83), undan keyin Osiyo (0,64), Amerika (0,64), Okeaniya (0,50) va Afrika (0,40) davlatlari. Davlat sektorida keng qamrovli raqamli transformatsiya hali amalga oshirilmagan. Bundan tashqari, aksariyat mamlakatlarda sog‘liqni saqlash, ta’lim va ijtimoiy himoya sohalarini onlayn xizmatlarga o‘tkazish masalasi elektron Hukumatning ustuvor yo‘nalishlari bo‘lib qolmoqda. Foydalanuvchilar uchun eng sezilarli o‘sish ijtimoiy himoya dasturlari va imtiyozlariga murojaat qilish uchun xizmatlarni taklif qiladigan mamlakatlar bo‘ldi. Bu dasturlarga onalik nafaqalari, bolalar nafaqalari, pensiyalar, uy-joy va oziq-ovqat nafaqalari kiradi. Biroq, pandemiya raqamli bo‘shliqni yanada kuchaytirdi. Hozirgi vaqtda EGDI ko‘rsatkichlari jahon o‘rtacha darajasidan past bo‘lgan mamlakatlarda 3 milliarddan ortiq odam yashaydi. Ushbu mamlakatlarning aksariyati Afrika, Osiyo va Okeaniyada to‘plangan. Afrikaning 54 mamlakatidan faqat 4 tasida EGDI ko‘rsatkichlari jahon bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichidan (0,61) yuqori. Shu bilan birga, EGDI juda yuqori bo‘lgan guruhdagi eng yuqori (VH) reyting sinfiga ega bo‘lgan 15 ta davlat 2022 yilgi so‘rovda yetakchi davlatlar hisoblanadi. Ularning qiymatlari 0,89 dan 0,97 gacha (Daniya, Finlyandiya, Koreya Respublikasi, Yangi Zelandiya, Shvetsiya, Islandiya, Avstraliya, Estoniya, Niderlandiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Singapur, Birlashgan Arab Amirliklari, Yaponiya va Malta). Bu mamlakatlar quyidagi jihatlar bo‘yicha o‘z tajribalari bilan o‘rtoqlashadilar:

−Siyosiy faoliyatni belgilashda fuqarolarning ovozini qo‘shish, bunda aholining zaif qatlamlari uchun elektron ishtirok etish bo‘yicha aniq choralar ko‘rish;

−Raqamli savodxonlik va malakalarga sarmoya kiritish orqali o‘z fuqarolarining imkoniyatlarini kengaytirish.

−davlat, nodavlat va biznes sektor hamkorlari uchun standartlarni belgilash orqali inklyuziv amaliyotni targ‘ib qilish, raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatini maksimal darajada oshirish kerak.

2022 yil 180 dan ortiq mamlakatlar 39 ta indikator asosida tahlil qilinganda, quyidagi jadvalga muvofiq, Qo‘shma Shtatlar eng yuqori reytingga ega ekanligini ko‘rsatadi. “Elektron Hukumat”ning rivojlanishiga mintaqaviy muhitning o‘ziga xos omillari ta’sir ko‘rsatadi.

Hukumatning sun’iy intellektga tayyorlik indeksi [31,63]

Country	Global Position	Total Score	Government Pillar	Technology Sector Pillar	Data and Infrastructure Pillar
United States of America	1	85.72	86.21	81.67	89.28
Singapore	2	84.12	89.68	68.50	94.17
United Kingdom	3	78.54	81.81	65.57	88.24
Finland	4	77.59	87.80	58.71	86.27
Canada	5	77.39	84.11	64.41	83.65

Source: (Government AI Readiness Index, 2022).

Elektron demokratiya faoliyatiga oid yuqoridagi masalalarning o‘zi boshqaruvning prinsipial yangi turi emas, balki faqat demokratiya imkoniyatlarini kengaytiruvchi texnik vositadir.[32,84] Umuman olganda, elektron demokratiya nafaqat demokratik, balki avtoritar davlatlarning ham butun jahon hamjamiyatining ham ijtimoiy-siyosiy rivojlanishidagi istiqbolli yo‘nalishdir.

Xalqaro tajribalardan kelib chiqib elektron demokratiya faoliyatiga texnologik innovatsiyalar bilan fuqarolar ishtirokini yanada kengaytirish lozim. Estoniya, Buyuk Britaniya va Shveysariya kabi davlatlarning amaliy tajribalarini chuqurroq tahlil qilgan holda O‘zbekistonda ham joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Bunga tayyorlik, huquqiy asoslar, investsiyalar va ishonchlilik asosiy ta’sir qiluvchi omillar hisoblanadi. Xalqaro tajribalardan ko‘rinadiki, fuqarolik ishtirokini kuchaytirish va demokratiyada texnologik islohotlar singari muhim yo‘nalishlarni amalga oshirish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://lex.uz/docs/ (O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomasi. http://iqtisodiyot.tsue.uz https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyeevning-oliy-25- 01-2020.
3. Электронная демократия: мировой опыт. Институт современной истории (http://www.imrussia.org/ru/society/ 330-e-democracy-citizens-and-the-state). С-91
4. Estoniya davlat saylovlar idorasi rahbari Arne Koitmyaening bayoni (15.12.2023.) // https://digital-solutions.post.ch/en/e-government/blog/estonia-vs-switzerland-the-main-differences-between-these-two-e-voting-pioneers?utm_source
5. https://en.wikipedia.org/wiki/Voting_in_Switzerland?utm_source
6. https://www2.post.ch/en/about-us/profile/swiss-post-and-politics/swiss-post-in-the-digital-world/e-voting-electronic-vote-casting-for-switzerland?utm_source
7. Estoniya davlat saylovlar idorasi rahbari Arne Koitmyaening bayoni (15.12.2023.) // https://digital-solutions.post.ch/en/e-government/blog/estonia-vs-switzerland-the-main-differences-between-these-two-e-voting-pioneers?utm_source
8. Estoniya davlat saylovlar idorasi rahbari Arne Koitmyaening bayoni (15.12.2023.) // https://digital-solutions.post.ch/en/e-government/blog/estonia-vs-switzerland-the-main-differences-between-these-two-e-voting-pioneers?utm_source
9. https://www.ssa.gov/multilanguage/russian.html
10. https://www.regulations.gov/
11. Маренков В. Общие вопросы формирования системы электронной демократии за рубежом (https://www.rcoit.ru/news/16300/) С-3.
12. https://neighborland.com/

13. https://www.auspublaw.org/blog/2022/06/ivote-the-2021-nsw-government-elections-and-the-future-of-internet-voting?utm_source
14. https://theconversation.com/australia-doesnt-have-online-voting-for-federal-elections-and-we-should-keep-it-that-way-180865?utm_source
15. https://www.nsw.gov.au/nsw-government/communications
16. https://democracy-technologies.org/voting/france-new-online-voting-record/?utm_source
17. https://www.globalgovernmentforum.com/turning-protest-to-participation-civic-tech-in-france/?utm_source
18. https://papers.ssrn.com/sol3/papers.cfm?abstract_id=4623414(on page 111)
19. Маренков В. Общие вопросы формирования системы электронной демократии за рубежом (https://www.rcoit.ru/news/16300/)
20. https://www.imemo.ru/index.php?page_id=1248&file=https://www.imemo.ru/files/File/magazines/meimo/12_2013/9-Rovinskaya.pdf
21. http://idemocracy.ru/projects/articles/ 42-ec2009edem.html) (on page 25)
22. http://idemocracy.ru/projects/articles/ 42-ec2009edem.html (str 92)
23. Электронная демократия: мировой опыт. Институт современной истории (http://www.imrussia.org/ru/society/ 330-e-democracy-citizens-and-the-state) C-70
24. Равинская Т. “Электронная демократия в теории и на практике” // Мировая экономика и международные отношения, 2013. – №12. (C-92) -https://www.imemo.ru/index.php?page_id=1248&file= https://www.imemo.ru/files/File/magazines/meimo/12_2013/9-Rovinskaya.pdf
25. Шляхтина С. Электронное правителсво с цифрах и фактах – уровен зрелости ЕР в разных странах // Kompyuter Press. 2007. № 2 (http://www.compress. ru/article.aspx?id=17274&iid=799).
26. Шляхтина С. Электронное правителсво с цифрах и фактах – уровен зрелости ЕР в разных странах // Kompyuter Press. 2007. № 2 (http://www.compress. ru/article.aspx?id=17274&iid=799).
27. Электронная демократия: мировой опыт. Институт современной истории (http://www.imrussia.org/ru/society/ 330-e-democracy-citizens-and-the-state) (C-37)
28. Электронная демократия: мировой опыт. Институт современной истории (http://www.imrussia.org/ru/society/ 330-e-democracy-citizens-and-the-state) (C-38)
29. Стороженко L., Игнатенко О., Ярошовец Т., Антипенко И., Власенко В. (2023). E-democracy in the context of the information society: prospects, challenges and opportunities. Amazonia Investiga, 12(70), page 68. https://doi.org/10.34069/AI/2023.70.10.6
30. United Nations E-government Survey (2022). Global Trends in E-Government - On page 4 https://desapublications.un.org/sites/default/files/publications/2022-09/Chapter%201.pdf
31. Стороженко L., Игнатенко О., Ярошовец Т., Антипенко И., Власенко В. (2023). E-democracy in the context of the information society: prospects, challenges and opportunities. Amazonia Investiga, 12(70), 63-77. -https://www.amazoniainvestiga.info/index.php/amazonia/article/view/2552/3787
32. Электронная демократия в теории и на практике. 2013 Ровинская Г. Т. / Мировая экономика и международные отношения, 2013, № 12, с. 84–96.

YANGI O‘ZBEKISTONNING IJTIMOIY SIYOSATI: ISLOHOTLAR STRATEGIYASI VA INSON KAPITALI TRANSFORMASIYASI

Nigora Buranova

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent

Annotatsiya: *Ushbu maqolada "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan tub islohotlar tahlil qilinadi. Ta’lim, sog‘liqni saqlash va kambag‘allikni qisqartirish yo‘nalishlaridagi ko‘rsatkichlar statistik ma’lumotlar asosida yoritilgan. Ijtimoiy davlat konsepsiyasining amaliy ifodasi sifatida inson kapitalini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.*

Kalit so‘zlar: *Ijtimoiy davlat, inson kapitali, ta’lim islohoti, kambag‘allikni qisqartirish, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazi, inklyuziv ta’lim.*

Аннотация: *В статье анализируются коренные реформы в социальной сфере в рамках стратегии «Узбекистан – 2030». Показатели в сфере образования, здравоохранения и сокращения бедности освещены на основе статистических данных. Исследованы вопросы развития человеческого капитала как практического выражения концепции социального государства.*

Ключевые слова: *Социальное государство, человеческий капитал, реформа образования, сокращение бедности, центр социальных услуг «Инсон», инклюзивное образование.*

Abstract: *This article analyzes fundamental reforms in the social sphere within the framework of the "Uzbekistan – 2030" strategy. Indicators in education, healthcare, and poverty reduction are highlighted based on statistical data. The issues of human capital development are researched as a practical expression of the concept of a social state.*

Keywords: *Social state, human capital, education reform, poverty reduction, "Inson" social services center, inclusive education.*

Aholi turmush darajasini yuqori darajada ta’minlash, inson manfaatlarini ro‘yobga chiqarish va uni har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida ijtimoiy yo‘naltirilgan barqaror bozor iqtisodiyoti, ochiq tashqi siyosatga ega kuchli demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadida keng qamrovli islohotlar amalga oshirila boshlandi. Ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi mamlakatimizni "ijtimoiy davlat" deb e’lon qilishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlarini tubdan o‘zgartirdi. Ayniqsa, bugungi yangilanishlar sharoitida milliy tafakkurning rivoji bois, yoshlarda ma’naviyatning muhim qirrasi bo‘lgan o‘zlikni anglash jarayonlari kuchayib, Vatan taqdiriga ma’sullik hissi ortib bormoqda. Tabiiyki, yoshlarda dunyoqarash yangicha mazmun kasb etib, ijtimoiy-siyosiy taraqqiyot rivojida o‘ziga hos ahamiyatga ega bo‘lmoqda vazifadir [1].

Ijtimoiy davlat – bu har bir fuqaro uchun munosib turmush darajasi, sifatli ta’lim va tibbiy xizmat kafolatlanadigan tizimdir. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, hozirgi kunda O‘zbekistonda Yalpi ishlab chiqarish mahsulotlarining 50 foizdan ortig‘i ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga yo‘naltirilmoqda. Bugungi kunda jahon hamjamiyati O‘zbekistonni ijtimoiy islohotlar markazi sifatida e’tirof etmoqda. Ushbu jarayonlarni ilmiy tahlil qilish, erishilgan natijalarni tizimlashtirish va kelajakdagi strategik maqsadlarni belgilash iqtisodiyot va sotsiologiya fanlari oldidagi dolzarb vazifadir [2, 12]. Ijtimoiy masalalar mamlakat taraqqiyotining muhim omili sifatida iqtisodiy rivojlanishga ta’sir etadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston Respublikasida davlat ijtimoiy siyosati ijtimoiy islohotlarni davomli amalga oshirib borish orqali aholi turmush darajasini barqaror o‘stirib borishdan iborat. Mamlakatimizda aholi daromadlari va turmush darajasini oshirishga qaratilgan ijtimoiy siyosatning amalga oshirilishi natijasida, aholi jon boshiga o‘rtacha to‘g‘ri kelgan pul daromadlari, ish haqi va pensiyalar o‘sishining ijobiy dinamikasi vujudga kela boshladi.

Ta’lim tizimi – millat kelajagi poydevori asosida so‘nggi yillarda ta’limning barcha bosqichlarida qamrov va sifat ko‘rsatkichlari keskin o‘sdi. Ayniqsa, oliy ta’limdagi transformatsiya diqqatga sazovordir. Ta’lim sohasidagi islohotlar faqat raqamlar bilan cheklanib qolmay, xalqaro standartlarga o‘tish (Kredit-modul tizimi) va xususiy sektorni jalb qilish orqali raqobat muhitini yaratdi [2, 45]. 2024 yilning – Yoshlar va biznesni qo‘llab-quvvatlash yili, deb e’lon qilinishi ham mamlakatimizda amalga oshirilib kelinayotgan islohotlarning uzviy va mantiqiy davomi bo‘ldi. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi yoshlarga va tadbirkorlikka oid maqsadlariga aynan uyg‘undir. Xususan, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida yoshlarning zamonaviy kasblar bilan mashg‘ul bo‘lishini ta’minlash uchun har bir viloyatda bittadan “Kreativ park”lar faoliyatini tashkil etish, ularga yiliga kamida 40 ming nafar yoshlarni jalb qilish, har yili 500 nafar iste’dodli yoshlarni xorijning nufuzli oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish, maktab bitiruvchilarining kamida 2 ta xorijiy til va 1 ta kasb egallashini ta’minlash, kitobxon yoshlar sonini 5 million nafarga yetkazish, “Top-500” ga kiradigan xorijiy universitetlar bilan hamkorlikda kamida 50 ta qo‘shma ta’lim dasturi asosida “ikki diplomli tizim”ni joriy etish kabi maqsadlar o‘rin olgan.

Holbuki, sog‘lom, bilimli, madaniyatli yoshlar mamlakat taraqqiyoti va kelajagini belgilab beruvchi hamda jamiyatda ijobiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda harakatlantiruvchi kuchdir. Yoshlarga oid davlat siyosati avvalo har bir davlatning ichki siyosati bo‘lib, yoshlar va davlat o‘rtasidagi munosabatlarni muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, yoshlarga oid davlat siyosati hech qachon yakunlangan tizimni anglatmaydi. Bu sohadagi izchil va hayotchan islohotlar davr talabi va mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib, takomillashtirib boriladigan uzluksiz jarayondir.

Bugungi kunda ta’lim sifatini yaxshilash ya’ni, elitar ta‘limdan ommaviy sifatga o‘tish maqsadida Prezident maktablari tashkil etildi. Bunda asosiy e’tibor O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan ijtimoiy islohotlarning eng muhim bo‘g‘ini – iqtidorli yoshlarni aniqlash va ularni xalqaro standartlar darajasida o‘qitish tizimining yaratilishi bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 20-fevraldagi PQ-4199-sonli qarori ushbu yo‘nalishdagi fundamental qadam bo‘ldi [4, 14]. Bundan maqsad iqtidorli bolalarni aniqlash, ta’lim jarayonida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llagan holda ularni o‘qitish va tarbiyalash bo‘yicha yaxlit tizim yaratish, iste’dodli yoshlarni yanada qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ma’nan yetuk va intellektual jihatdan barkamol avlodni shakllantirishdan iborat.

Prezident maktablarining o‘ziga xosligi shundaki, bu muassasalarda ta’lim jarayoni "STEAM" dasturi asosida, Kembridj universiteti bilan hamkorlikda olib boriladi. Hozirgi kunda ushbu maktablar mamlakat ta’lim tizimi uchun "etalon" vazifasini o‘tamoqda [2, 22].

Ijtimoiy davlatning eng asosiy belgilaridan biri – bu jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning jamiyatga integratsiyalashuvini ta‘minlashdir. O‘zbekistonda 2020-2025-yillarda inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi [6, 41]. O‘zbekistonda oxirgi yillarda inklyuziv ta’limni rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Inklyuziv ta’lim (lotincha includere – “qamrab olaman”, “jalb qilaman”) – bu ta’lim tizimi bo‘lib, unda barcha bolalar, ularning jismoniy, intellektual, ijtimoiy, hissiy yoki boshqa xususiyatlaridan qat’i nazar, o‘z tengdoshlari bilan birgalikda yashash joyidagi oddiy maktab va bog‘chalarda ta’lim olishini nazarda tutadi. Bu tizimning asosiy g‘oyasi – “maktab bolaga moslashishi kerak, bola maktabga emas”. 2023-yil holatiga respublika bo‘yicha 500 dan ortiq umumta‘lim maktablarida inklyuziv sinflar tashkil etilgan bo‘lib, ularda 3 mingdan ortiq o‘quvchi ta‘lim olmoqda [5, 115].

Bu borada 2020-yil 13-oktyabrda Prezidentning “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [8]. Ko‘plab maktablarda inklyuziv sinflar tashkil etilmoqda. Maxsus maktab-internatlardan bosqichma-bosqich umumiy ta’lim tizimiga o‘tish jarayoni boshlangan.

Bugungi kunda aholi ijtimoiy himoyasi va sog‘lig‘ini saqlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha ham ko‘p ish qilindi. Bunda asosiy e’tibor sog‘liqni saqlashda raqamlashtirish va kafolatlangan xizmatga qaratilmoqda. Sog‘liqni saqlash tizimida "Inson qadri uchun" tamoyili asosida birlamchi bo‘g‘in isloh qilindi. Tibbiyotni moliyalashtirish hajmi 2017-yilga nisbatan 6 barobar oshirildi. 2023-yildan boshlab Sirdaryo viloyatida tajriba tariqasida boshlangan "Davlat tibbiy sug‘urtasi" mexanizmlari butun respublika bo‘ylab joriy etilmoqda. Raqamlashtirish natijasida "Elektron poliklinika" va "Elektron retsept" tizimlari ishga tushirildi, bu esa korrupsion holatlarni keskin kamaytirdi [3, 112]. So‘nggi yillarda tibbiyot sohasining o‘ziga 230 trillion so‘m yo‘naltirildi. Buning hisobiga joylarda 187 ta yangi poliklinika va shifoxona ishga tushdi, 1 ming 244 tasi rekonstruksiya qilinib, jihozlandi [6].

Natijada birlamchi tibbiyot muassasalari quvvati 60 foizga oshib, tibbiy xizmat aholiga ancha yaqinlashdi. Ilgari asosan poytaxtda bajarilgan yuqori texnologik va diagnostika-davolash usullarining 400

dan ortig‘i hududlarda amalga oshirilmoqda. Yuzlab murakkab amaliyotlar viloyat markazlariga, kam invaziv operatsiyalar tuman darajasiga tushirildi.

So‘nggi yillarda yurtimiz tibbiyotida ilg‘or texnologiyalar joriy etilib, ta’lim jarayonlariga ham keng tatbiq qilinmoqda. Xususan, uchta oliy ta’lim muassasasi negizida Toshkent davlat tibbiyot universiteti tashkil etildi. Urganch davlat tibbiyot instituti faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Sakkizta tibbiyot oliy ta’lim muassasasi xalqaro akkreditatsiyadan o‘tdi. Bu sohada zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega kadrlar tayyorlash imkoniyatlari yanada kengaydi.

Mamlakat bo‘ylab davlat tibbiyot muassasalari zamonaviy axborot-kommunikatsiya jihozlari bilan ta’minlandi, yagona raqamli infratuzilma shakllantirildi. 2024–2025-yillarda 3 mingdan ortiq tibbiyot muassasasi lokal tarmoq bilan ta’minlandi. Minglab yangi kompyuterlar xarid qilinib, texnik baza yangilandi.

Tez tibbiy yordam xizmatida elektron boshqaruv yo‘lga qo‘yilib, chaqiriqlarga yetib borish vaqti 25-30 daqiqadan 10-15 daqiqagacha qisqartirildi.

Shuningdek, “Elektron retsept” tizimi faoliyati yo‘lga qo‘yilishi natijasida ortiqcha dori yozish holatlari 40 foizga kamaydi, dori vositalari aylanmasi shaffoflashdi. Barcha tibbiy ma’lumotlar biometrik himoya ostida saqlanib, shaxsiy ma’lumotlar xavfsizligi ta’minlanmoqda.

Hozirda Raqamli sog‘liqni saqlash platformasini ishlab chiqish davom etmoqda, buning uchun mablag‘ Germaniyaning KfW banki tomonidan ajratilgan. Loyihaning umumiy qiymati – 58,2 million yevro, KfW shundan 45 millionini kredit, yana 5,5 millionini grant ko‘rinishida taqdim etgan, hukumat ishtiroki esa 7,7 million yevroni tashkil etadi.

Avval belgilanganidek, O‘zbekistondagi barcha tibbiyot va farmatsevtika tashkilotlari, jumladan, dorixonalar ham Raqamli sog‘liqni saqlash platformasiga majburiy tartibda ulanishi kutilmoqda.

Shu bilan birga, 2025-yil 1-yanvardan boshlab raqamli sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish va saqlab turish maqsadida platformada qayd etilgan har bir sug‘urta va boshqa holatlar bilan bog‘liq ma’lumotlarni ishlash va qayta ishlash uchun yagona integratorga Davlat tibbiyot sug‘urtasi jamg‘armasidan davlat tibbiyot muassasalariga to‘lanadigan mablag‘ning 0,3 foizi miqdorida komissiya to‘lovi ajratiladi [7].

Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–noyabr oylarida O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash sohasida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 18,2 trln so‘mni tashkil etgan. Ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 15,3 foizga oshgan.

Milliy statistika qo‘mitasi e’lon qilgan raqamlarga ko‘ra, hisobot davrida sog‘liqni saqlash xizmatlari bozori barqaror o‘sish tendensiyasini namoyon etgan. Jumladan, 11 oy davomida sohada ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi 18,2 trln so‘mga teng bo‘lib, o‘tgan yilga nisbatan 15,3 foizlik o‘sish qayd etilgan [8].

Kambag‘allikni qisqartirish va ijtimoiy himoya: "O‘zbekiston tajribasi" asosida mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadi ish o‘rinlarini ko‘paytirish va kambag‘allikni qisqartirishdir. Bu boradagi manzilli ishlar natijasida o‘tgan yilning o‘zida kambag‘allik darajasi 11 foizdan 8,9 foizga tushdi. 1 million aholi kasb-hunarga o‘qitilib, ish boshlashiga ko‘maklashilib, kambag‘allikdan olib chiqildi [8]. O‘zbekistonda kambag‘allikni kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida aholi jon boshiga real jami daromad 43,9 foizga, o‘rtacha hisoblangan nominal oylik ish haqi 79,7 foizga yoki 2016-yildagi 1293,8 ming so‘mdan 2019-yilda 2324,5 ming so‘mga oshdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda kambag‘allikni qisqartirish, ehtiyojmand aholiga manzilli ijtimoiy yordam ko‘rsatilishini kengaytirish, aholi daromadlarini oshirish borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Buning natijasida kambag‘allik darajasi 2019-yildagi 23 foizdan 2023-yilda 11 foizga qisqartirilishiga erishildi. 2025-yil yakunida kambag‘allikni 6 foizga qisqartirish ko‘zda tutilmoqda.

Shu maqsadda respublika bo‘yicha kambag‘allikni qisqartirish masalasini umummilliy harakatga aylantirgan holda “Kambag‘al oilalar uchun yettita imkoniyat va mas‘uliyat” tamoyili asosida 2024-yilning 1-noyabridan “Kambag‘allikdan farovonlik sari” kompleks dasturini amalga oshirish boshlandi.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23 sentabr kuni qabul qilingan “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi farmoni dasturilamal vazifasini bajarmoqda. Unga ko‘ra, 2024-yilning qolgan davrida 500 ming, 2025-yilda esa 1 million nafar aholini kambag‘allikdan chiqarish davlat ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining hamda barcha darajadagi davlat organlari va tashkilotlarining birinchi darajali vazifasi etib belgilandi.

O‘zbekiston tarixida ilk bor kambag‘allikni tan olish va unga qarshi kurashishning vertikal tizimi yaratildi. Bu tizim "Mahallabay" ishlash usuli orqali amalga oshirilmoqda.

2023-yil 1-iyunda tashkil etilgan Prezident huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tarqoq bo‘lgan barcha ijtimoiy xizmatlarni birlashtirdi. "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari orqali har bir muhtoj oilaga individual yondashuv (keis-menejment) yo‘lga qo‘yildi [7, 88].

O‘zbekistonda ijtimoiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar "Inson kapitali – jamiyatning asosiy boyligi" g‘oyasiga asoslanadi. Tadqiqot natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Ijtimoiy davlat tamoyillari hayotga tatbiq etilishi natijasida aholining turmush darajasi barqaror o‘sib bormoqda.

- Ta‘lim va tibbiyot sohasidagi islohotlar inson kapitalining sifat ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

-Kambag‘allikni qisqartirishda "boqimandachilik"dan "tadbirkorlikka yo‘naltirish" modeliga o‘tish kutilgan natijalarni bermoqda.

“Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida mustahkamlanmoqda, bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironligi bor shaxslar va keksa avlod vakillari huquqlarining ishonchli muhofazasini ta‘minlash, fuqarolarning ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarini uy-joy bilan ta‘minlash, mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini belgilanishi, fuqarolarning tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini davlat hisobidan olishga haqliligi kabi qo‘shimchalar konstitutsiya loyihasiga kiritildi.

Natijada inson va fuqarolarning Konstitutsion normalar orqali kafolatgan ijtimoiy-iqtisodiy huquqi va erkinligi, o‘z navbatida, mos ravishda davlatning tegishli majburiyati bilan mustahkamlanmoqda.

Bu esa, o‘z navbatida, so‘nggi yillarda Harakatlar strategiyasi doirasida erishilgan natijalar va Taraqqiyot strategiyasi doirasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish uchun mustahkam konstitutsion himoyani ta‘minlash, huquq va erkinliklardan kelajak avlodlarimiz emin-erkin foydalanishi uchun ular Konstitutsiyada muhrlandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. https://reandpub.uz/wp-content/uploads/2025/12/talim_fidoyilari-2025-dekabr-1-qism-217-221.pdf
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2023. – 80 b.
4. https://gov.uz/uz/activity_page/health
5. O‘zbekiston Respublikasining "Prezident maktablarini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4199-sonli qarori, 2019.
6. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi statistik hisoboti, 2023.
7. https://www.gazeta.uz/uz/2024/01/03/it-med/
8. https://kun.uz/kr/news/2026/01/08/2025-yil-sogliqni-saqlash-xizmatlari-hajmi-va-tarkibi-ochiqlandi
9. O‘zbekiston Respublikasining "Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida"gi PQ-4860-sonli qarori, 2020.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O‘zbekiston – 2030" strategiyasi to‘g‘risida"gi PF-158-sonli Farmoni.
11. https://gov.uz/uz/activity_page/social_protection
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari (stat.uz), 2024.
13. Ijtimoiy himoya milliy agentligi yillik hisobotlari, 2024.
14. https://www.gazeta.uz/oz/2025/02/03/poverty/

РАЗВИТИЕ АРБИТРАЖНОЙ КУЛЬТУРЫ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Дилафруз Хидирова

эксперт по комплаенсу, правовому сопровождению бизнеса

Annotatsiya. *Maqolada huquqiy tizimlarning o'zgarishi va xalqaro iqtisodiy faoliyatning faollashishi fonida Markaziy Osiyo mamlakatlarida hakamlik madaniyatining shakllanishi va evolyutsiyasi jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqot mintaqada Arbitrajni shakllantirishning tarixiy shartlarini, uning faoliyatining zamonaviy institutsional va huquqiy asoslarini, shuningdek, nizolarni hal qilishning samarali vositasi sifatida arbitrajning rolini ko'rib chiqadi. Xalqaro standartlar, investitsiya muhiti va huquqiy an'analarning arbitraj institutlarini rivojlantirishga ta'siriga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xulosa arbitraj madaniyatining mintaqaning huquqiy barqarorligi va barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash uchun ahamiyati ortib borayotganligi to'g'risida xulosa chiqaradi.*

Kalit so‘zlar: *arbitraj, arbitraj madaniyati, nizolarni muqobil hal qilish, Markaziy Osiyo, xalqaro tijorat arbitraji, huquqiy madaniyat, investitsiya nizolari, arbitraj institutlari.*

Аннотация. *Статья анализирует процессы становления и эволюции арбитражной культуры в странах Центральной Азии на фоне изменений правовых систем и активизации международной экономической деятельности. В исследовании рассматриваются исторические предпосылки формирования арбитража в регионе, современные институциональные и правовые основы его функционирования, а также роль арбитража как действенного инструмента для разрешения конфликтов. Особое внимание уделяется воздействию международных стандартов, инвестиционного климата и правовой традиции на развитие арбитражных институтов. В заключении делается вывод о растущем значении арбитражной культуры для поддержания правовой стабильности и устойчивого экономического роста региона.*

Ключевые слова: *арбитраж, арбитражная культура, альтернативное разрешение споров, Центральная Азия, международный коммерческий арбитраж, правовая культура, инвестиционные споры, арбитражные институты.*

Abstract. *The article analyzes the processes of formation and evolution of arbitration culture in Central Asian countries against the background of changes in legal systems and the intensification of international economic activity. The study examines the historical prerequisites for the formation of arbitration in the region, the modern institutional and legal foundations of its functioning, as well as the role of arbitration as an effective tool for conflict resolution. Special attention is paid to the impact of international standards, the investment climate and the legal tradition on the development of arbitration institutions. In conclusion, it is stated that the arbitration culture is increasingly important for maintaining legal stability and sustainable economic growth in the region.*

Keywords*: arbitration, arbitration culture, alternative dispute resolution, Central Asia, international commercial arbitration, legal culture, investment disputes, arbitration institutions.*

Введение. Центральная Азия представляет собой обширный регион с огромными экономическими возможностями. В свете происходящих здесь реформ, неудивительно, что интерес к арбитражу в странах этого региона постоянно возрастает.

Развитие арбитражной культуры в Центральной Азии представляет собой актуальное и стратегически значимое направление в контексте современных юридических и институциональных трансформаций региона, обусловленных углубляющейся интеграцией в глобальные экономические процессы. Ускоренное расширение международной торговли, интенсификация трансграничных инвестиций и рост числа коммерческих споров актуализируют необходимость повышения эффективности механизмов разрешения конфликтов. Традиционные государственные суды в ряде

государств региона сталкиваются с перегрузкой, затянутыми сроками рассмотрения дел и недостаточной гарантией нейтралитета, что приводит к снижению доверия со стороны участников хозяйственной деятельности и препятствует формированию благоприятного инвестиционного климата.

В условиях вышеуказанных вызовов арбитраж как альтернативный механизм разрешения споров приобретает ключевое значение. Однако уровень его институционального развития и правовая культура демонстрируют значительную неоднородность в различных государствах Центральной Азии. Отсутствие устойчивых стандартов арбитражной практики, недостаточная осведомленность делового сообщества о преимуществах арбитража, а также дефицит квалифицированных арбитров препятствуют полномасштабной реализации данного механизма и ограничивают его потенциал в укреплении правовой стабильности и экономической конкурентоспособности региона.

Таким образом, исследование динамики развития арбитражной культуры в Центральной Азии обладает не только теоретическим значением для юридической науки, но и практической актуальностью для совершенствования правового регулирования, повышения эффективности разрешения коммерческих споров и укрепления инвестиционной привлекательности региона.

Методы исследования. В процессе исследования развития арбитражной культуры в Центральной Азии был применён комплекс общенаучных и специальных юридических методов познания. Основу методологической базы составил диалектический метод, позволивший рассмотреть арбитражную культуру как динамичное и развивающееся правовое явление. В вопросе использования формально-юридического метода проведён анализ норм национального законодательства государств Центральной Азии. Был также задействован сравнительно-правовой метод для сопоставления арбитражных моделей, институциональных механизмов и правоприменительной практики в отдельных странах Центральной Азии. Помимо вышеуказанных методов, были использованы историко-правовой, системный и структурно-функциональный.

Основная часть. В условиях глобализации и интенсификации международных экономических взаимодействий особую значимость приобретает эффективность механизмов разрешения коммерческих и инвестиционных споров. Для государств Центральной Азии, находящихся на стадии правовой и институциональной трансформации, формирование устойчивой арбитражной культуры является ключевым фактором обеспечения правовой стабильности, защиты прав участников гражданского оборота и повышения инвестиционной привлекательности региона.

Арбитраж как форма альтернативного разрешения споров представляет собой не только правовой институт, но и элемент правовой культуры, отражающий уровень доверия общества и бизнеса к негосударственным механизмам защиты прав. Арбитражная культура, в свою очередь, представляет собой совокупность правовых знаний, ценностей, практик и институциональных традиций, связанных с использованием арбитража как способа разрешения споров. Она включает в себя уровень осведомлённости субъектов предпринимательской деятельности об арбитраже, доверие к арбитражным институтам, качество нормативно-правового регулирования, профессионализм арбитров, а также устойчивость и предсказуемость арбитражной практики.

В отличие от формального существования арбитражных судов, развитая арбитражная культура предполагает их активное и осознанное использование, признание арбитража как эффективной альтернативы государственному правосудию и готовность сторон добровольно исполнять арбитражные решения.

Исторически на территории Центральной Азии существовали традиционные формы разрешения споров, основанные на обычном праве, медиации и авторитете уважаемых лиц общины. После обретения независимости государства региона приступили к формированию национальных правовых систем, включая институты международного и внутреннего коммерческого арбитража. Однако длительное доминирование государственного правосудия и ограниченный опыт автономного частного арбитража обусловили необходимость постепенного формирования новой правовой культуры.

На современном этапе развитие арбитражной культуры характеризуется неоднородностью. В отдельных государствах созданы постоянно действующие арбитражные учреждения, приняты специальные законы об арбитраже, осуществляется гармонизация национального законодательства с международными стандартами, включая положения Типового закона ЮНСИТРАЛ. Вместе с тем сохраняется ряд проблем, препятствующих полноценному развитию арбитражной культуры.

К ним относятся недостаточный уровень доверия к арбитражу со стороны бизнеса, ограниченная практика признания и приведения в исполнение арбитражных решений, а также слабая интеграция арбитража в общую систему разрешения споров.

Так, интерес к арбитражу в Кыргызстане неуклонно растёт как благодаря активности Международного Третейского суда при Торгово-промышленной палате Кыргызской Республики по внутренним третейским разбирательствам, так и по причине международных арбитражных споров, в которые перманентно вовлечена страна. Арбитраж остаётся в фокусе новостных дайджестов и в связи с нестандартными законодательными решениями о коммерческом и инвестиционном арбитраже, которые время от времени предлагает законодатель. Кыргызстан в апреле 2022 года завершил ратификационные процедуры по конвенции ICSID, которые сдерживались в течение 25 лет. Теперь республика - полноценный участник Конвенции и споры с участием Кыргызстана будут рассматриваться не по Дополнительным правилам (Additional Facilities Rules), а по Конвенции. [1]

Кроме того, арбитражное законодательство в Кыргызстане достаточно стабильно. Закон о третейских судах, принятый в 2002 году, регулирует как внутренний, так и международный арбитраж, хотя при внимательном прочтении становится очевидным, что он больше ориентирован на внутренний арбитраж. Отметим, что в Кыргызстане нет закона о международном коммерческом арбитраже, а действующий ориентирован больше на внутренний арбитраж. И как отмечают эксперты, национальное законодательство об арбитраже должно быть изменено с учётом потребностей международного арбитража. [1]

Арбитраж в Казахстане сегодня представляет собой динамично развивающуюся институцию альтернативного разрешения споров, включающую как национальные, так и международные элементы. В национальном правовом поле арбитраж регулируется, прежде всего, Законом Республики Казахстан «Об арбитраже»[3], который регулирует порядок создания и деятельности коммерческих арбитражей, а также условия признания и исполнения международных арбитражных решений на территории страны. Кроме того, Казахстан создал специализированные правовые механизмы в рамках Астана Международного Финансового Центра (AIFC) – отдельной юрисдикции с собственными правилами и процедурой рассмотрения коммерческих споров. [11]

Одним из ключевых факторов развития арбитража в стране стало создание International Arbitration Centre (IAC) при AIFC,[15] работающего по международным стандартам и предлагающего нейтральную, независимую и мирового уровня платформу для разрешения коммерческих споров.

Помимо IAC, в Казахстане функционируют многочисленные национальные арбитражные учреждения – порядка 17 постоянно действующих арбитражей по данным Арбитражной палаты Казахстана, включая коммерческие и специализированные центры. Такие центры, как Центр арбитража при Национальной палате предпринимателей «Атамекен», способствуют развитию арбитражной практики на уровне отечественного бизнеса.[2] Коммерческие арбитражи, действующие на основе Закона об арбитраже, предоставляют сторонам гибкий и более оперативный механизм разрешения споров, альтернативный государственным судам.

Общая судебная практика в Казахстане преимущественно проявляет про-арбитражный подход – более 90 % арбитражных решений признаются и исполняются государственными судами, что укрепляет доверие к арбитражу как способу разрешения коммерческих споров. Перспективы развития связаны не только с укреплением национальных арбитражных институтов, но и с активным включением Казахстана в международный арбитражный оборот, что укрепит инвестиционный климат и правовую предсказуемость для иностранных инвесторов.

В Республике Таджикистан институт третейского судопроизводства получил нормативное закрепление с принятием Закона Республики Таджикистан «О третейских судах» от 20 марта 2007 года № 249.[4] Указанный закон регулирует как постоянные, так и временные формы третейского (арбитражного) разбирательства, устанавливая принципы добровольности, независимости арбитров, равенства сторон и состязательности. Республика Таджикистан присоединилась к Нью-Йоркской конвенции в 2012 году. [14]

Существенным шагом к международной интеграции стало присоединение Республики Таджикистан к Конвенции ООН о признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений (Нью-Йоркской конвенции от 1958 года), что оформлено Законом Республики Таджикистан от 10 мая 2012 года. Присоединение к этой ключевой международной конвенции позволило

расширить возможности признания и исполнения решений иностранных арбитражей на территории Таджикистана, а также сделало возможным исполнение решений таджикских третейских судов в более чем 160 государствах – участниках Конвенции. [13]

Создание национального правового режима третейского судопроизводства и присоединение к Нью-Йоркской конвенции 1958 года свидетельствуют о стремлении Республики Таджикистан интегрировать свои правовые механизмы в международную систему альтернативного разрешения споров, укрепить инвестиционную привлекательность и обеспечить правовые гарантии для участников трансграничных экономических отношений. [13]

Одним из ключевых шагов формирования института арбитража в Туркменистане стало принятие Закона «О международном коммерческом арбитраже» 10 сентября 2014 года, который вступил в силу с 1 января 2016 года.[5] Данный нормативный акт ориентирован на гармонизацию национальных норм с международной практикой, в том числе с положениями Типового закона ЮНСИТРАЛ, и предусматривает широкие возможности для сторон по определению порядка разрешения споров и состава арбитражных органов. Кроме того, деятельность международного коммерческого арбитража в Туркменистане регулируется положениями законодательства о Торгово-промышленной палате,[6] которая оказывает организационное содействие функционированию арбитражных органов и формированию соответствующих регламентов.

Важным шагом для интеграции Туркменистана в международную арбитражную систему стало присоединение к Нью-Йоркской конвенции о признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений (New York Convention), вступившее в силу 2 августа 2022 года.[7] Это обеспечение международного признания арбитражных решений, принятое Туркменистаном 4 мая 2022 года, расширяет возможности исполнения решений иностранных арбитражей на территории страны и повышает правовую уверенность инвесторов.

Одновременно Туркменистан ратифицировал Конвенцию ООН о договорах международной купли-продажи товаров (CISG), что дополнительно укрепляет правовую базу международных коммерческих отношений. [7]

В последние годы руководство страны уделяет внимание созданию институциональных структур для развития арбитражной практики. Так, Президент Туркменистана поручил создать Международный коммерческий арбитражный центр при Торгово-промышленной палате, ориентированный на привлечение отечественных и иностранных инвесторов, а также на формирование негосударственных коммерческих арбитражных механизмов на основе международной практики.

Несмотря на наличие нормативных основ, практика применения арбитража в Туркменистане пока ограничена по сравнению с более развитыми международными арбитражными юрисдикциями. И все же перспективы развития арбитража в Туркменистане связаны с дальнейшей гармонизацией законодательства, созданием специализированных арбитражных центров с международным участием и повышением доверия бизнес-сообщества к арбитражным механизмам как эффективному способу разрешения коммерческих споров.

Что касается Республики Узбекистан, то, говоря о международном арбитраже в нашей стране, следует выделить 2018 год, который, как импульс, дал начало многочисленным событиям, связанным с международным арбитражем. В течение последующих пяти лет в Узбекистане были предприняты значительные шаги по дальнейшему развитию и популяризации международного коммерческого арбитража, как одного из эффективных инструментов разрешения международных коммерческих споров. Самым первым по хронологии эпизодом 2018 года, который касался международного арбитража, стало назначение гражданина Узбекистана в Международный арбитражный суд Международной торговой палаты впервые как в истории суда ICC, так и Узбекистана. Это событие обеспечило представительство страны в одном из авторитетных арбитражных учреждений в мире. [1]

Еще одним важным событием 2018 года стало создание Ташкентского международного арбитражного центра (TIAC), учреждённого 5 ноября 2018 года Постановлением Президента Республики Узбекистан. [12] TIAC функционирует при Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан.

В 2020 году впервые в истории Узбекистана страна назначила двух своих граждан в состав коллегии арбитров Международного центра по урегулированию инвестиционных споров (ICSID). До этого ни один гражданин Узбекистана не был представлен в указанной коллегии.

И нельзя не отметить, принятие в Узбекистане 16 февраля 2021 года нового Закона «О международном коммерческом арбитраже», который стал самым долгожданным событием для инвесторов и всего арбитражного сообщества страны. [12] Данный закон основывается на Типовом законе ЮНСИТРАЛ о международном коммерческом арбитраже, при этом он содержит несколько дополнительных статей, отражающих страновую специфику. Внутренний же арбитраж в стране, регулируется отдельным Законом «О третейских судах», принятым ещё в 2006 году. [10]

С принятием Закона «О международном коммерческом арбитраже» была сформирована полноценная законодательная основа для проведения международного арбитражного разбирательства на территории Узбекистана.

Международные экономические отношения и приток иностранных инвестиций оказывают значительное влияние на развитие арбитражной культуры в Центральной Азии. Иностранные инвесторы обычно ориентированы на использование международного коммерческого арбитража, ожидая соблюдения принципов независимости, нейтральности и исполнимости арбитражных решений.

Необходимо отметить, что формирование устойчивой арбитражной культуры является стратегически важным направлением для государств Центральной Азии. Это предполагает комплексный подход, включающий совершенствование нормативно-правовой базы, повышение профессионализма арбитров, укрепление доверия бизнеса к арбитражным институтам и интеграцию арбитража в общую систему разрешения споров. Только при соблюдении этих условий можно говорить о создании эффективной и авторитетной системы альтернативного разрешения споров, способствующей правовой стабильности и инвестиционной привлекательности региона.

Участие государств Центральной Азии в международных конвенциях, таких как Нью-Йоркская конвенция о признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений, играет важную роль в укреплении доверия к арбитражным процедурам и стимулировании развития институциональной базы. Этот процесс способствует интеграции национальных правовых систем в глобальное правовое пространство, что является важным аспектом модернизации юридической инфраструктуры региона.

Ключевыми факторами, препятствующими развитию арбитражной культуры в Центральной Азии, остаются недостаточная правовая осведомленность предпринимателей, дефицит квалифицированных арбитров, обладающих международным опытом, а также необходимость дальнейшего совершенствования нормативно-правовой базы. Эти проблемы требуют комплексного подхода, включающего образовательные инициативы, профессиональное развитие и институциональные реформы.

Перспективы развития арбитражной культуры связаны с расширением образовательных программ в области международного арбитража, повышением роли профессиональных ассоциаций и сообществ, созданием специализированных арбитражных учреждений и укреплением взаимодействия между арбитражными и государственными судебными органами. Эти меры направлены на формирование устойчивой арбитражной культуры, которая способствует эффективной защите прав участников гражданского оборота, снижению нагрузки на судебную систему и созданию благоприятных условий для экономического развития региона.

Формирование устойчивой арбитражной культуры представляет собой важный элемент модернизации правовых систем государств Центральной Азии. Арбитраж не только выступает эффективным инструментом разрешения споров, но и служит индикатором уровня правовой культуры, доверия к институтам правосудия и готовности к интеграции в международное правовое сообщество.

С каждым годом интерес к международному арбитражу в наших государствах увеличивается. Всё больше молодых специалистов выбирают эту область для своей профессиональной деятельности. Это позволяет прогнозировать успешное развитие международного арбитража в странах Центральной Азии.

Комплексное развитие арбитражной культуры на основе международных стандартов и национальных правовых традиций может стать ключевым фактором обеспечения правовой стабильности и устойчивого экономического роста в регионе. Это предполагает гармонизацию национального законодательства с международными стандартами, повышение квалификации юридических кадров и создание благоприятных условий для развития арбитражных институтов.

Таким образом, развитие арбитражной культуры в Центральной Азии является многогранным процессом, требующим системного подхода и координации усилий различных заинтересованных сторон. Успешная реализация этого процесса будет способствовать укреплению правовой системы региона, повышению доверия к институтам правосудия и созданию благоприятных условий для экономического прогресса.

Выводы. Настоящее исследование демонстрирует, что эволюция арбитражной культуры в Центральной Азии представляет собой многослойный и комплексный процесс, детерминированный историческими, правовыми и социально-экономическими детерминантами. Арбитраж в государствах данного региона последовательно трансформируется из формализованного института в действенный механизм альтернативного разрешения споров, тем не менее, степень его практического применения и уровень общественного доверия остаются неоднородными.

Устойчивое формирование арбитражной культуры непосредственно коррелирует с качеством нормативно-правовой базы, эффективностью судебной поддержки арбитражной практики, профессиональной подготовкой арбитров и уровнем правовой осведомлённости субъектов экономических отношений. В условиях интенсификации международного сотрудничества и инвестиционной активности значение арбитража как инструмента правовой защиты продолжает неуклонно возрастать, что детерминирует необходимость дальнейшего совершенствования арбитражных институтов в Центральной Азии.

В результате проведенного исследования были сформулированы ключевые умозаключения:

- Арбитражная культура выступает неотъемлемым элементом общей правовой культуры общества и отражает степень зрелости правовой системы государства, уровень доверия к негосударственным механизмам защиты прав и готовность участников гражданского оборота к автономному разрешению споров. Развитая арбитражная культура свидетельствует о признании принципов диспозитивности, процессуальной автономии сторон и верховенства права, а также о способности правовой системы обеспечивать баланс между государственным правосудием и альтернативными формами разрешения конфликтов.

- В государствах Центральной Азии в последние годы наблюдается положительная динамика институционального и нормативно-правового развития арбитража, выражающаяся в создании постоянно действующих арбитражных учреждений, принятии специализированных законов и модернизации процессуальных норм. Вместе с тем уровень практического применения арбитража остаётся относительно низким, что обусловлено как исторически сложившимся доминированием государственного судопроизводства, так и сохраняющимся скептическим отношением со стороны участников предпринимательской деятельности.

- Ключевым фактором формирования и устойчивого развития арбитражной культуры является доверие со стороны бизнеса и инвесторов, которое формируется на основе предсказуемости и стабильности арбитражной и судебной практики. Отсутствие единообразия в подходах государственных судов к вопросам признания и исполнения арбитражных решений снижает привлекательность арбитража и препятствует его восприятию как эффективного и надёжного механизма разрешения споров.

- Гармонизация национального арбитражного законодательства стран Центральной Азии с международными стандартами, в том числе с положениями Типового закона ЮНСИТРАЛ и международными арбитражными конвенциями, способствует укреплению институциональных основ арбитража и повышению уровня правовой определённости. Такая гармонизация создаёт благоприятные условия для трансграничного сотрудничества, укрепляет доверие иностранных инвесторов и повышает конкурентоспособность региона в глобальной экономике.

- Основными препятствиями развития арбитражной культуры в Центральной Азии продолжают оставаться недостаточный уровень правовой осведомлённости субъектов предпринимательства о возможностях и преимуществах арбитража, дефицит квалифицированных арбитров, обладающих специализированными знаниями и международным опытом, а также недостаточная степень судебной поддержки арбитража. Преодоление данных проблем требует комплексного подхода, включающего правовое просвещение, институциональное развитие и совершенствование взаимодействия между арбитражем и государственными судами.

Помимо выводов, предлагает ряд **рекомендаций** по дальнейшему исследованию данной проблематики:

- Рекомендуется продолжить системную модернизацию национального арбитражного законодательства государств Центральной Азии с учётом положений Типового закона ЮНСИТРАЛ, Нью-Йоркской конвенции 1958 года и сложившейся международной арбитражной практики. Особое внимание следует уделить устранению правовых коллизий, чрезмерных формальных требований и оснований для вмешательства государственных судов в арбитражное разбирательство, что позволит повысить автономию арбитража и предсказуемость правового регулирования.

- Необходимым условием развития арбитражной культуры является формирование устойчивой и единообразной судебной практики по вопросам признания и приведения в исполнение арбитражных решений, а также по обеспечительным мерам в арбитражном разбирательстве. В этой связи целесообразно развитие специализированной судебной экспертизы, подготовка методических разъяснений и повышение квалификации судей в сфере арбитражного права, что будет способствовать укреплению доверия к арбитражу со стороны делового сообщества.

- Для формирования высокопрофессионального арбитражного сообщества рекомендуется расширять образовательные и профессиональные программы, направленные на подготовку арбитров, включая специализированные магистерские курсы, программы повышения квалификации и международные стажировки. Важным направлением является формирование стандартов профессиональной этики арбитров и развитие механизмов их сертификации и аккредитации.

- В целях расширения практического применения арбитража целесообразно активизировать правовое просвещение субъектов предпринимательства, включая проведение информационных кампаний, семинаров и практико-ориентированных мероприятий. Распространение информации о преимуществах арбитража, его процессуальной гибкости, конфиденциальности и международной исполнимости решений позволит повысить уровень доверия к данному институту и стимулировать его использование в договорной практике.

- Перспективным направлением является укрепление регионального сотрудничества между арбитражными институтами стран Центральной Азии посредством обмена опытом, проведения совместных научных и практических мероприятий, а также разработки унифицированных подходов к арбитражной практике. Создание региональных платформ для диалога и координации позволит сформировать единое арбитражное пространство и повысить международную конкурентоспособность арбитражных институтов региона.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Алёнкина Н.Б., Бобокулова Ф.З., Кенжебаева А.Т. Развитие Арбитража в странах Центральной Азии. -https://jusmundi.com/en/document/publication/ru-razvitie-arbitrazha-v-stranakh-tsentralnoi-azii
2. Арбитражный Центра национальной палаты предпринимателей РК «Атамекен». - https://qazchem.kz/en/novosti/arbitrazhnyj-centr-nacionalnoj-palaty-predprinimatelej-rk-atameken
3. Закон Республики Казахстан «Об арбитраже» от 8 апреля 2016 г. № 488-V ЗРК. - https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1600000488
4. Закон Республики Таджикистан «О третейских судах» от 20 января 2007 г. № 238. - https://constcourt.tj/ru/hujatho/zakon-respubliki-tadzhikistan-o-tretejskih-sudah/
5. Закона Республики Туркменистан «О международном коммерческом арбитраже» от 10 сентября 2014 года. - https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/22591/zakon-turkmenistana-%3Cbr%3Eo-mezhdunarodnom-kommercheskom-arbitrazhe
6. Закон Республики Туркменистан «О торгово-промышленной палате». - https://infotrade.gov.tm/media/Law%20of%20Turkmenistan%20on%20Chamber%20of%20commerce%20and%20industry%20No.183-V%20of%2028.02.2015%20in%20Russian.pdf
7. Закон Туркменистана «О присоединении к Конвенции о признании и приведении в исполнение иностранных арбитражных решений». - https://turkmenistan.gov.tm/ru/post/62437/zakon-turkmenistana-o-prisoedinenii-k-konvencii-o-priznanii-i-privedenii-v-ispolnenie-inostrannyh-arbitrazhnyh-reshenij
8. Закон Туркменистана «О присоединении к Конвенции Организации Объединённых Наций о договорах международной купли-продажи товаров». - https://turkmenistan.gov.tm/index.php/ru/

post/ 62435/zakon-turkmenistana-o-prisoedinenii-k-konvencii-organizacii-obedinyonnyh-nacij-o-dogovorah-mezhdunarodnoj-kupli-prodazhi-tovarov
9. Закон Республики Узбекистан «О международном коммерческом арбитраже» от 16.02.2021 г., № ЗРУ-674. - https://lex.uz/docs/5294087
10. Закон Республики Узбекистан «О третейских судах» от 16.10.2006 г., № ЗРУ-64. - https://lex.uz/docs/1072094
11. Конституционный закон Республики Казахстан «О Международном финансовом центре «Астана»» от 7 декабря 2015 г. № 438 – V ЗРК. - https://adilet.zan.kz/rus/docs/Z1500000438
12. Постановление Президента Республики Узбекистан «О создании Ташкентского международного арбитражного центра (TIAC) при Торгово-промышленной палате Республики Узбекистан» от 05.11.2018 г., № ПП-4001. - https://lex.uz/docs/4039518
13. Чжан В., Бактыбек А. Сравнительно- правовой анализ Третейского судопроизводства: от Восточной и Центральной Азии к международным арбитражным институтам. - file:///C:/Users/User/ Downloads/sravnitelno-pravovoy-analiz-treteyskogo-sudoproizvodstva-ot-vostochnoy-i-tsentralnoy-azii-k-mezhdunarodnym-arbitrazhnym-institutam.pdf
14. Convention on the Recognition and Enforcement of Foreign Arbitral Awards (New York, 1958) // Uncitral. URL: https://uncitral.un.org/en/texts/arbitration/conventions/foreign_arbitral_awards/status
15. The International Arbitration Center at the AIFC – the key to effective resolution of international disputes. - https://konsugroup.com/en/news/aifc-international-arbitration-center/

AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA INKLYUZIV TA’LIM: IMKONIYATI CHEKLANGANLAR UCHUN TENG IMKONIYATLAR

Nargiza Abdusattarova

O‘zR FA huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo’yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada axborot texnologiyalarining inklyuziv ta’limda tutgan o‘rni, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun teng imkoniyatlar yaratishdagi ahamiyati, shuningdek, amaliyotdagi muvaffaqiyatli yechimlar va muammolar tahlil etiladi. Inson huquqlari, tenglik va ijtimoiy adolat tamoyillari zamonaviy jamiyatning asosiy ustunlaridan biridir. Ushbu qadriyatlar asosida shakllangan inklyuziv ta’lim tushunchasi barcha bolalar, jumladan, imkoniyati cheklangan bolalar ham, sifatli ta’lim olish huquqiga egaligini anglatadi. Bu jarayonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari muhim vositaga aylangan. Zamonaviy raqamli vositalar imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’limga qo‘shilishi, faol ishtirok etishi va ijtimoiy integratsiyasi uchun katta imkoniyatlar yaratadi.*

Kalit so‘zlar: Inklyuziv ta’lim, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, imkoniyati cheklanganlar, teng imkoniyatlar, raqamli ta’lim, ta’limda innovatsiyalar, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar, texnologik vositalar, raqamli inklyuziya, ta’limda tenglik.

Аннотация: *В данной статье рассматривается роль информационных технологий в инклюзивном образовании, их значение в обеспечении равных возможностей для людей с ограниченными возможностями, а также анализируются успешные практические решения и существующие проблемы. Права человека, равенство и социальная справедливост являются одними из основных столпов современного общества. Понятие инклюзивного образования, сформированное на основе этих ценностей, означает, что все дети, включая детей с ограниченными возможностями, имеют право на получение качественного образования. В этом процессе информационно-коммуникационные технологии стали важным инструментом. Современные цифровые средства создают широкие возможности для включения учащихся с ограниченными возможностями в образовательный процесс, их активного участия и социальной интеграции.*

Ключевые слова: *инклюзивное образование, информационно-коммуникационные технологии, люди с ограниченными возможностями, равные возможности, цифровое образование, инновации в образовании, учащиеся с особыми потребностями, технологические средства, цифровая инклюзия, равенство в образовании.*

Annotation: *This article analyzes the role of information technology in inclusive education, its significance in creating equal opportunities for individuals with disabilities, as well as successful practical solutions and challenges. Human rights, equality, and social justice are among the fundamental pillars of modern society. The concept of inclusive education, shaped by these values, implies that all children, including those with disabilities, have the right to access quality education. In this process, information and communication technologies have become essential tools. Modern digital tools offer great opportunities for students with disabilities to participate in education, engage actively, and achieve social integration.*

Keywords: *Inclusive education, Information and Communication Technologies (ICT), persons with disabilities, equal opportunities, digital education, educational innovations, students with special needs, technological tools, digital inclusion, educational equity.*

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi har bir sohada tub islohotlarni boshlab berdi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Ayniqsa, ta’lim sohasida e’tiborga loyiq o‘zgarishlar, muhim yangiliklarni olib kirdi. Jumladan inklyuziv ta’lim – ya’ni imkoniyati cheklangan shaxslar uchun teng va sifatli ta’lim imkoniyatlarini yaratish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda va bu o‘rinda axborot texnologiyalari muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada axborot texnologiyalarining inklyuziv ta’limdagi o‘rni, ularning imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning bilim olish jarayonidagi samaradorligini oshirishdagi ahamiyati, shuningdek, bu jarayonda duch kelinayotgan muammolar va ularni hal etish yo‘llari ilmiy-nazariy hamda amaliy nuqtayi nazardan tahlil etiladi. Maqolaning maqsadi – Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali inklyuziv ta’lim sifatini oshirish va shu orqali imkoniyati cheklanganlar uchun teng ta’lim imkoniyatlarini ta’minlashga xizmat qiluvchi tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari, xususan, 4-maqsad – “Barchani o‘z ichiga olgan va sifatli ta’lim bilan ta’minlash” – bugungi kunda davlatlar oldida ta’lim tizimini har tomonlama rivojlantirish, shu jumladan imkoniyati cheklangan shaxslarning ta’limga to‘sqinlik qiluvchi omillarini bartaraf etish bo‘yicha muhim vazifalarni qo‘ymoqda [14, 3]. Inklyuziv ta’lim, avvalo, inson huquqlari, adolat va tenglik prinsiplari asosida shakllanadi. Bunda barcha o‘quvchilar, ularning jismoniy yoki aqliy salohiyatidan qat’i nazar, umumiy ta’lim jarayonida ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish talab etiladi. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari esa bu borada samarali vosita sifatida maydonga chiqmoqda. Zamonaviy texnologiyalar yordamida nogironligi bo‘lgan bolalarning o‘qitish, muloqot qilish, mustaqil o‘rganish va ijtimoiylashuv jarayonlari yengillashtirilmoqda.

Asosiy qism. Inklyuziv ta’lim, va bu atamaning fanga kirib kelishi, sabablari to‘g‘risida ma’lumot beradigan bo‘lsak, *inklyuziv ta’lim* – bu imkoniyati cheklangan bolalarni umumta’lim muassasalariga jalb etish, ular uchun qulay, barqaror va faol o‘quv muhitini yaratishga qaratilgan yondashuvdir. Unda jismoniy, aqliy, sensor va boshqa turdagi imkoniyatlar cheklangan bolalarga bilim olishda boshqalar bilan teng huquq va imkoniyatlar yaratiladi. Birlashgan Millatlar tashkilotining bolalar huquqlarini himoya qiluvchi va ularni qo‘llab-quvvatlovchi xalqaro tashkilot UNICEF ma’lumotlarida, *inklyuziv ta’lim* – bu barcha o‘quvchilarni, ularning individual farqlari yoki o‘quv ehtiyojlaridan qat’i nazar, bir xil o‘quv muhitida sifatli ta’lim bilan ta’minlashni anglatadi. Bu yondashuv har bir bola uchun mos o‘quv imkoniyatlarini yaratish, o‘quvchilarning o‘zini qadrlangan va qo‘llab-quvvatlangan deb his qilishini ta’minlash, sinfda o‘ziga xoslik tuyg‘usini shakllantirish va xilma-xil hamda adolatli ta’lim hamjamiyatini rivojlantirishga qaratilgan [15,176].

Bundan tashqari “Inklyuziv ta’lim – bu barcha bolalarga maktabga borish, o‘qish va rivojlanish uchun teng imkoniyat beruvchi eng samarali yondashuvdir. Inklyuziv ta’lim deganda barcha bolalar bir xil sinfxonalarda, bir xil maktablarda o‘qishlari nazarda tutiladi. Bu, odatda, chetda qolib ketgan guruhlar – nafaqat nogironligi bo‘lgan bolalar, balki ozchilik tillarida so‘zlashuvchi bolalar uchun ham haqiqiy o‘quv imkoniyatlarini anglatadi, [15,22] deyiladi. Inklyuziv ta’lim tizimlari barcha o‘quvchilarning kelib chiqishi, madaniyati, tajribasi sinfga qanday ijobiy hissa qo‘shishini qadrlaydi va turli guruhlarning yonma-yon o‘sishini qo‘llab-quvvatlaydi, bu esa hammaga foyda keltiradi. Inklyuziv ta’lim – bu barcha kelib chiqishdagi o‘quvchilarga birgalikda o‘rganish va rivojlanish imkonini beradi, bu esa barcha uchun foydali hisoblanadi [15,22]. Inklyuziv ta’lim – bu ta’lim tizimidagi yondashuv bo‘lib, har bir bolaga, ularning imkoniyati, nogironligi, ijtimoiy holati, jinsi, etnik mansubligi yoki boshqa alohida ehtiyojlaridan qat’i nazar, sifatli ta’lim olish imkoniyatini taqdim etishni maqsad qiladi [12,154]. Inklyuziv ta’limning asosiy tamoyili o‘quvchilardagi xilma-xillikni tan olish va unga moslashishdir; bu xilma-xillik to‘siq sifatida emas, balki imkoniyat sifatida qaraladi. Buning uchun o‘quv dasturlarini moslashtirish, turli pedagogik yondashuvlardan foydalanish, shuningdek, tegishli resurslar va qo‘llab-quvvatlovchi tizimlarni yaratish zarur [11,61].

Darhaqiqat, inklyuziv ta’lim bu nogiron o‘quvchilarni oddiy sinflarga joylashtirish bilan cheklanmaydigan, balki barcha o‘quvchilar qadrlanadigan, qo‘llab-quvvatlanadigan va o‘z salohiyatlarini to‘liq namoyon eta oladigan tizimni yaratishga qaratilgan falsafadir. Bu har bir kishi o‘zini shu muhitga tegishli deb his qiladigan va to‘liq ishtirok etadigan ta’lim muhiti yaratish haqida bo‘lib, bu esa barcha uchun o‘qish natijalarini yaxshilaydi [8, 12].

Inklyuziv ta’limning asosiy jihatlari to‘g‘risida to‘xtaladigan bo‘lsak, ba’zi manbalarda quyidagi ma’lumotlarni sanab o‘tish muhim hisoblanadi:

Universallikka kirish. Nogironligi bo‘lgan, turli kelib chiqishga ega yoki maxsus ehtiyojli bo‘lgan

barcha o‘quvchilar umumiy ta’lim muassasalarida kutib olinadi va qo‘shiladi [5, 189]. Darhaqiqat, “Universallikka kirish” tamoyili – inklyuziv ta’limning yuragi hisoblanadi. Bu g‘oya barcha bolalar, xususan, nogironligi bor, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan kam ta’minlangan, madaniy yoki til jihatdan ozchilik guruhlarga mansub bo‘lgan o‘quvchilar uchun ta’limning ochiq, adolatli va teng bo‘lishini ta’minlaydi. Ko‘p hollarda, ta’lim tizimlari faqat o‘rtacha yoki o‘ziga mos o‘quvchilarni nazarda tutadi. Natijada, maxsus ehtiyojli o‘quvchilar chetda qoladi. “Universallikka kirish” esa ta’lim tizimini o‘quvchiga moslashtirishni talab qiladi – bu juda muhim o‘zgarish. Bu yondashuvning ijobiy tomoni shundaki, avvalo, diskriminatsiyani kamaytiradi, ijtimoiy integratsiyani kuchaytiradi, har bir bola o‘zining qadrini his qiladigan muhit yaratadi.

Ehtiyojlarga moslashuv. Ta’lim tizimi va o‘qitish yondashuvlari har bir o‘quvchining ehtiyojlariga moslashtiriladi, o‘quvchilarning standart tizimga moslashuvi kutilmaydi [5,188]. An’anaviy ta’lim modelida barcha o‘quvchilardan bir xil uslubda o‘rganish, bir xil tezlikda fikrlash va bir xil natijalarga erishish talab qilinadi. Ammo real hayotda har bir bola o‘ziga xos bo‘lgan iqtidori, o‘rganish uslubi, rivojlanish sur’ati va ehtiyojlari bilan farq qiladi. Shuning uchun, ta’lim tizimi o‘quvchiga moslashishi zarur – o‘quvchi tizimga emas. Bu yondashuvning afzalliklari, shulardan iboratki, individuallashtirilgan ta’lim orqali o‘quvchi o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi. Shu bilan birga o‘quvchilar o‘zlarini qadrlangan va tushunilgan deb his qilishadi, bu esa motivatsiyani oshiradi. Hamda stress va bosim kamayadi, chunki bola o‘ziga mos yo‘ldan boradi. Bu yondashuv nafaqat nogiron yoki maxsus ehtiyojli bolalar uchun, balki har qanday o‘quvchi uchun foydali. “Ehtiyojlarga moslashuv” tamoyili – bu faqat didaktik o‘zgarish emas, balki inson qadr-qimmatini tan olishdir. Har bir bolaning o‘z yo‘li borligini e’tirof etish, unga o‘sha yo‘lda yordam berish – bu adolatli va samarali ta’limning asosi hisoblanadi. Shunday ekan, bu tamoyilni hayotga tatbiq etish – ta’lim tizimini inson markaziga qo‘yish demakdir.

Turli xillikni qadrlash. Inklyuziv ta’lim har xil o‘quvchilarning farqlarini kuch deb biladi va xilma-xil qarashlar orqali o‘rganish jarayoni boyitilishi mumkinligini tan oladi. [5, 187] An’anaviy ta’limda farqlilik ko‘pincha muammo sifatida qaralsa, inklyuziv ta’limda *farq – boylik* deb e’tirof etiladi. Ya’ni, har bir o‘quvchining madaniyati, tili, jismoniy imkoniyati, fikrlash uslubi yoki ijtimoiy kelib chiqishi o‘rganish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Turli qarashlar o‘quv muhitini kengaytiradi va o‘quvchilarga tanqidiy fikrlash, bag‘rikenglik, va empatiya kabi muhim ijtimoiy ko‘nikmalarni shakllantirishga yordam beradi. Bir xil muhitda turli fikrlar mavjud bo‘lishi – bu demokratik va ochiq jamiyat qurishning ilk bosqichidir. Farqli o‘quvchilarni qadrlash orqali ular o‘zlarini jamiyatning to‘laqonli a’zosi deb his qiladilar, bu esa ularning o‘ziga ishonchini oshiradi.

Tegishlilik tuyg‘usini yaratish. O‘quvchilar maktab va jamiyat bilan bog‘langanligini his qiladilar va qatnashish hamda yutuqqa erishishda qo‘llab-quvvatlanadilar. [5,191]. Har qanday o‘quvchi o‘zini sinfda, maktabda va jamiyatda qabul qilingan, qadrlangan va kerakli deb his qilmasa, u nafaqat o‘rganishga, balki ijtimoiy hayotga ham faol aralasha olmaydi. Tegishlilik tuyg‘usi – bu oddiy ishtirok emas, bu ichki hissiy bog‘lanish, o‘zini umumiy muhitning ajralmas qismi sifatida his qilishdir. Bu holat faqat nogiron yoki maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun emas, har bir bola uchun muhim. O‘zini jamiyatga tegishli deb his qilgan o‘quvchi o‘qishga rag‘batli bo‘ladi, psixologik barqarorlikka ega bo‘ladi, ijtimoiy ko‘nikmalarini yaxshi rivojlantiradi. Bu tuyg‘u, ayniqsa, jamiyatdan chetda qolishga moyil bo‘lgan guruhlar uchun – nogiron bolalar, immigrantlar, yoki til jihatdan ozchilik vakillari uchun – insoniy munosabat va ruhiy qo‘llab-quvvatlash sifatida juda zarur.

To‘siqlarni bartaraf etish. Inklyuziv ta’lim o‘quvchilarning ta’limga kirishi va unda ishtirok etishiga to‘sqinlik qiluvchi jismoniy yoki kamsituvchi to‘siqlarni bartaraf etishga faol harakat qiladi. [5,199] “To‘siqlarni bartaraf etish” – inklyuziv ta’limda amaliy o‘zgarishlarning bosh boshlanish nuqtasidir. Chunki istalgan niyat, siyosat yoki tamoyil faqat qog‘ozda qolib ketadi, agar real hayotdagi jismoniy, ijtimoiy va ruhiy to‘siqlar olib tashlanmasa. To‘siqlar ikki turda bo‘ladi: *Jismoniy to‘siqlar* – masalan, binolarga kirishdagi panduslar yo‘qligi, ko‘zi ojizlar uchun belgilar mavjud emasligi, eshitish moslamalari bilan uyg‘un dars vositalari yo‘qligi.

Kamsituvchi (psixologik yoki ijtimoiy) to‘siqlar – masalan, o‘qituvchining yoki jamiyatning maxsus ehtiyojli bolaga nisbatan past kutishlari, teng imkoniyat bermaslik, yoki o‘quvchilar orasidagi kamsitish. To‘siq borgan joyda rivojlanish to‘xtaydi, o‘quvchi o‘z salohiyatini ocholmaydi, jismoniy to‘siq o‘quvchining ta’limga kirishini cheklaydi, ijtimoiy to‘siq esa ularning ruhiy ishtirokini to‘xtatadi. To‘siqlarni olib tashlash orqali ta’limda faollik, tenglik, va motivatsiya ortadi. Shuning sababli ham bu tamoyil inklyuziv ta’lim siyosatining markazida turishi shart. Chunki ta’limga olib boradigan yo‘lda hech qanday to‘siq bo‘lmasligi kerak.

Bugungi raqamli davrda inklyuziv ta’limning ahamiyati yanada ortib bormoqda, chunki Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari rivojlanmoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari inklyuziv ta’limni moslashuvchan o‘quv vositalarini yaratish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali boyitish imkoniyatini beradi [3,98]. Raqamli texnologiyalar maxsus ehtiyojli o‘quvchilarga ta’lim materiallariga kirish va ular uchun qulay usulda ishtirok etish imkonini beradi. Masalan, ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun ekran o‘quvchi dasturlari yoki eshitishida muammo bo‘lgan o‘quvchilar uchun subtitrli o‘quv videolarini aytish mumkin. Bu raqamli davr an’anaviy ta’limdagi ko‘plab jismoniy va psixologik to‘siqlarni yengib o‘tish imkonini beradi, shu bilan birga ta’lim texnologiyalarini loyihalashda inklyuziv ta’lim tamoyillarini integratsiyalash muhimligini ta’kidlaydi [6, 45].

Inklyuziv ta’limning markazida barcha o‘quvchilar birgalikda, bir xil muhitda o‘qish huquqiga ega degan e’tiqod yotadi va bunday tizim barcha uchun foydali bo‘lishi mumkin [10,123]. Raqamli davrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bir paytda, inklyuziv ta’limning ahamiyati yanada oshib bormoqda. Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari moslashuvchan o‘quv vositalarini yaratish va o‘quv jarayonini shaxsiylashtirish orqali inklyuziv ta’limni boyitish imkonini beradi [8,132]. Raqamli texnologiyalar o‘quv materiallarini inklyuziv tarzda ishlab chiqish imkonini yaratadi va bu o‘z navbatida alohida ehtiyojli o‘quvchilarga o‘ziga mos usullarda ta’lim olishga yordam beradi. Masalan, ko‘zi ojiz talabalar uchun ekran o‘quvchi dasturlar, eshitishida muammo bo‘lgan talabalar uchun esa subtitrli videolardan foydalanish mumkin. Raqamli asr an’anaviy ta’limda mavjud bo‘lgan jismoniy va psixologik to‘siqlarni yengish uchun echimlar taklif etadi va o‘quv texnologiyalarini loyihalashda inklyuziv tamoyillarni hisobga olish zarurligini ta’kidlaydi [13,87].

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini ta’limga integratsiya qilish, ayniqsa alohida ehtiyojli o‘quvchilar uchun, teng huquqli ta’lim olish, faol ishtirok etish va muvaffaqiyatga erishish imkonini oshiruvchi muhim omil bo‘la oladi [4,51]. Biroq, bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud, xususan, Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari infratuzilmasiga teng bo‘lmagan kirish imkoniyati, o‘qituvchilarning inklyuziv texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tayyorgarligi yetarli emasligi, shuningdek, alohida ehtiyojli o‘quvchilarga moslashtirilgan o‘quv resurslarining yetishmasligi [11, 67]. Shu bois, AKTning inklyuziv ta’limda samarali qo‘llanilishini chuqur o‘rganish muhim hisoblanadi.

Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari orqali o‘quvchilarning turli ehtiyojlarini qamrab olish imkoniyati paydo bo‘ladi va jamoatchilik vakillari bu orqali chekka qatlamlarga ham ta’lim imkoniyatini taqdim etuvchi tashabbuslarni ishlab chiqishi mumkin [3,44]. Buning natijasida, har bir inson o‘z salohiyatini ro‘yobga chiqarishi va jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan yanada inklyuziv va demokratik jamiyat shakllanadi [13,112]. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari inklyuziv ta’limda o‘qituvchilar va talabalar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Ular yordamida o‘qituvchilar individual o‘quvchilarning ehtiyojlariga moslashgan o‘quv materiallarini tayyorlashlari, interaktiv va ko‘p formatli darslarni tashkil etishlari mumkin [12,45]. Misol uchun, videodarslar, audiokitoblar, animatsiyalar, simulyatsiyalar va onlayn testlar yordamida o‘quv jarayonini boyitish mumkin. Bundan tashqari, AKT yordamida o‘quvchilarning o‘zaro muloqot qilish, hamkorlikda ishlash va bilimlarni mustahkamlash imkoniyatlari oshadi. Onlayn forumlar, virtual sinflar va videoqo‘ng‘iroqlar o‘quvchilarni geografik jihatdan uzoqda bo‘lsa ham birlashtiradi. Bu ayniqsa, qishloq joylarda yoki maxsus ehtiyojli o‘quvchilar uchun juda muhimdir [5,109]. Ammo, AKT-ning inklyuziv ta’limdagi samarali qo‘llanilishi uchun o‘qituvchilarning texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmalarini oshirish zarur. O‘qituvchilar uchun maxsus treninglar va malaka oshirish kurslari tashkil etilishi, shuningdek, texnologik qo‘llab-quvvatlash tizimlari joriy etilishi kerak. Shuningdek, o‘quv resurslari va platformalar inklyuzivlik tamoyillariga muvofiq ishlab chiqilishi lozim. Bu esa, barcha o‘quvchilar uchun qulay, oson tushunarli va turli ehtiyojlarga mos keladigan bo‘lishi kerak. Masalan, rang ko‘rmaydiganlar uchun kontrastli interfeyslar, klaviatura orqali boshqarish imkoniyatlari, ovozli navigatsiya kabi funksiyalar muhim hisoblanadi.

Xulosa va tavsiyalar. Inklyuziv ta’limning rivojlanishi jamoatchilik xizmatining sifatini oshirishga ham xizmat qiladi. Ta’lim sohasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda jamoatchilik bilan samarali aloqalar o‘rnatish, ma’lumotlarni ommaviylashtirish va ta’limga kirish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Masalan, onlayn platformalar orqali ta’lim sohasidagi xizmatlar, qo‘llab-quvvatlash, maslahatlar, o‘quv materiallari va treninglar jamoatchilikka qulay shaklda yetkazilishi mumkin. Bu esa ta’limdagi inklyuzivlik tamoyillarini kengroq joriy etishga yordam beradi. Jamoatchilik xizmatining boshqa bir muhim jihati – inklyuziv ta’lim bo‘yicha turli manfaatdor tomonlar: o‘qituvchilar,

ota-onalar, nodavlat tashkilotlar va hukumat idoralari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishdir. Bu ham o‘z navbatida inklyuzivlikning samaradorligini oshiradi [8,76].

Axborot texnologiyalari inklyuziv ta’limni rivojlantirishda beqiyos imkoniyatlar yaratmoqda. Ular imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning ta’limga kirishini osonlashtiradi, individual yondashuvni ta’minlaydi va o‘quv jarayonini yanada qiziqarli va interfaol qiladi. Masofaviy ta’lim vositalari, onlayn platformalar, maxsus dasturiy ta’minotlar va moslashtirilgan qurilmalar orqali turli ehtiyojga ega bolalar ham sifatli ta’lim olish imkoniga ega bo‘lishmoqda. Ayniqsa, ekran o‘quvchi dasturlar Screen reader (NVDA, JAWS) - ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun matnni ovozli o‘qib beradi, Brail printerlari - ko‘zi ojiz o‘quvchilar uchun adabiyotlar chop etish uchun fodalaniladi, ishora tili tarjimonlari, AR/VR texnologiyalar – ta’lim jarayonini modellashtiradi, Speech-to-text (Google Voice Typing) - qo‘lidan nogironlar uchun gapni matnga aylantiradi [2,77], shu kabi innovatsion vositalar ularning o‘zlashtirish jarayonini yengillashtirmoqda. Biroq bu jarayonda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, barcha ta’lim muassasalarida internet va texnik jihozlarning mavjud emasligi, mutaxassislar va o‘qituvchilarning yetishmasligi, pedagoglarning texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi pastligi kabi holatlar inklyuziv ta’limga to‘sqinlik qilmoqda.

Shu bois, axborot texnologiyalarini ta’lim tizimiga samarali joriy etish uchun kompleks chora-tadbirlar zarur. Bunga o‘qituvchilarni doimiy malaka oshirish kurslari orqali tayyorlash, imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus elektron platformalar yaratish, davlat va nodavlat tashkilotlar hamkorligida texnik bazani mustahkamlash hamda barcha ta’lim resurslarining qulay va hammabop bo‘lishini ta’minlash kiradi. Xulosa qilib aytganda, axborot texnologiyalari imkoniyati cheklangan o‘quvchilar uchun ta’lim olishda teng imkoniyatlar yaratish, ularning jamiyatga to‘laqonli integratsiyasini ta’minlash va inklyuziv ta’limni barqaror rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Shu sababli, bu yo‘nalishda olib borilayotgan ishlarni izchil davom ettirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Boymurodov B.E., Innovatsion ta'lim texnologiyalarida virtual reallik (vr) va kengaytirilgan reallik (ar) usullari, Maqola, Ijodkor o‘qituvchi jurnali, - Toshkent, 2023 yil.
2. Xamidova G., AKT vositalari orqali imkoniyati cheklanganlar uchun ta’limni tashkil etish. - Toshkent. 2022.
3. World Health Organization (2019). Assistive Technology for Inclusive Education.
4. Andrade, A., & Doolin, B. (2016). Information and communication technology and the social inclusion of refugees.
5. Bong, W., & Chen, W. (2024). Increasing faculty’s competence in digital accessibility for inclusive education: A systematic literature review. International Journal of Inclusive Education.
6. Brodin, J., & Lindstrand, P. (2008). ICT and inclusive education in primary schools-pupils with motor disabilities. Journal of Assistive Technologies.
7. Chambers, D. (2020). Assistive technology supporting inclusive education: Existing and emerging trends. Assistive Technology to Support Inclusive Education.
8. Costa, R., & Garrido, J. (n.d.). Theoretic-practical assumptions of the inclusive school in the framework of Information and Communication Technologies.
9. Hoogerwerf, E., Mavrou, K., & ... (2021). The Role of Assistive Technology in Fostering Inclusive Education. Strategies and Tools.
10. Huamán-Romaní, Y., Burga-Falla, J., & ... (2022). Use and knowledge of ICTs in inclusive education at educational levels.
11. Lorini, M., Zyl, I. V., & Chigona, W. (2014). ICTs for inclusive communities: A critical discourse analysis. International Development.
12. Oralbekova, A., Arzymbetova, S., Begalieva, S., (2016). Application of Information and Communication Technologies by the Future Primary School Teachers in the Context of Inclusive Education.
13. Williams, R., Stewart, J., & Slack, R. (2005). Social learning in technological innovation: Experimenting with information and communication technologies.
14. https://uzbekistan.un.org/uz/sdgs.
15. https://www.unicef.org/education/inclusive-education

QOZOG'ISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING HUQUQIY VA AMALIY ASOSLARI

Bekmurod Allamurodov

O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz ilmiy xodimi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Qozog'iston Respublikasining davlat boshqaruvi va tashqi siyosiy faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish tajribasi ikki yondashuv asosida tahlil qilinadi. Yondashuv – mamlakatda "e-hukumat" infratuzilmasining bosqichma-bosqich shakllanishi (2006–2016) va "Raqamli Qozog'iston" dasturi (2017–2022) doirasida amalga oshirilgan raqamli transformatsiya jarayonlarini qamrab oladi. Muallif "e-Gov.kz", "Ochiq hukumat", "Elektron litsenziyalash" va "Mobil hukumat" kabi loyihalar, shuningdek, BMTning "E-hukumat rivojlanish indeksi" va internet qamrovi kabi ko'rsatkichlar asosida islohotlar samaradorligini asoslaydi.*

Kalit so'zlar: raqamli diplomatiya, elektron hukumat, raqamli transformatsiya, "Raqamli Qozog'iston" dasturi, tashqi siyosat, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.

Аннотация. *В данной статье анализируется опыт внедрения цифровых технологий в государственное управление и внешнеполитическую деятелность Республики Казахстан на основе двух подходов. Подход охватывает процесс поэтапного формирования инфраструктуры «электронного правительства» (2006–2016) и цифровой трансформации в рамках программы «Цифровой Казахстан» (2017–2022). Автор обосновывает эффективност реформ на примере таких проектов, как «e-Gov.kz», «Открытое правительство», «Электронное лицензирование» и «Мобильное правительство», а также с использованием таких показателей, как Индекс развития электронного правительства ООН и уровен интернет-покрытия.*

Ключевые слова: *цифровая дипломатия, электронное правительство, цифровая трансформация, программа «Цифровой Казахстан», внешняя политика, информационно-коммуникационные технологии.*

Abstract. *This article analyzes the experience of implementing digital technologies in public administration and foreign policy activities of the Republic of Kazakhstan based on two approaches. The approach covers the gradual formation of the e-government infrastructure (2006–2016) and the digital transformation carried out within the framework of the Digital Kazakhstan program (2017–2022). The author substantiates the effectiveness of reforms through projects such as e-Gov.kz, Open Government, Electronic Licensing, and Mobile Government, as well as using indicators such as the UN E-Government Development Index and Internet penetration rates.*

Keywords: *digital diplomacy, e-government, digital transformation, Digital Kazakhstan program, foreign policy, information and communication technologies.*

Zamonaviy xalqaro munosabatlarda tezkor axborot ulashishga bo'lgan talabning yanada dolzarblashuvi, davlatlar o`z tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda kengaytirilgan axborot-kommunikatsion texnologiya (AKT) imkoniyatlaridan foydalanishni taqozo etmoqda. Ushbu jarayonlar malakat boshqaruvida qaror qabul qilish mexanizmlarini o'zaro integratsiyalash, shuningdek, ilg'or tahlil metodlarini joriy etish orqali qisqa vaqt ichida tashqi siyosiy faoliyat kun tartibidagi masalalarni samarali amalga oshirishga xizmat qiladi. Bu holat mamlakatlarga xalqaro maydonda o'z mavqelarini yanada mustahkamlash, turli xil geosiyosiy vaziyatlarga moslashuvchanlik va tezkor javob berish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Markaziy Osiyo mintaqasida, Qozog`iston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyatda raqamli diplomatiyani joriy etish va undan samarali foydalanish yo'lida keng ko'lamli islohotlarni amalga

oshiryotgan mamlakatlar qatoriga kiradi. Davlat miqyosida raqamli vositalarni joriy etish jarayonlarini ikki yondashuv asosda tahlil qilishimiz mumkin:

Birinchi yondashuv – mamlakat boshqaruvida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarni joriy etilishi

Mamlakatda raqamli texnologiyalarni joriy etish va rivojlantirish, global tarmoqga kirish, davlat boshqaruvida “Elektron” xizmatni yo‘lga qo‘yish kabi jarayonlarni quyidagi bosqichlarga bo‘lish mumkin;

Birinchi bosqich, 2006-2016-yillarni o‘zida qamrab oladi. Mazkur bosqichning eng muhim jihatlaridan biri “e-hukumat” portalining joriy etilishidir. 2006-yilda Qozog‘istonda ilk marotaba “e-Gov.kz” elektron hukumat portali ishga tushirildi. Fuqarolar uchun elektron raqamli imzoning bepul joriy etilishi tufayli davlat xizmatlaridan onlayn foydalanish imkoniyati yaratildi. “Elektron hukumat” portalini yaratish Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2004-yil 10-noyabrdagi 1471-sonli “Qozog‘iston Respublikasida 2005-yilda elektron hukumatni shakllantirish bo‘yicha Davlat dasturi to‘g‘risida”gi Farmoni [1] asos bo‘ldi. Bugungi kunda” e-Gov” portalidan 10 milliondan ortiq kishi foydalanadi. Uning infratuzilmasi orqali 760 ta onlayn xizmatlarni taqdim etmoqda. Qiyoslash uchun 2015-yil ushbu ko‘rsatkich 4 mln, 2018-yil esa 8.6 mln foydalanuvchini tashqil etgan [2].

Hozirgi kunda mazkur portal asosida bir qator loyihalar samarali amalga oshirilib kelinmoqda. Ushbu loyihalar o‘zida o‘nlab turli xil axborot tizimlari, registrlar, Davlat ma’lumotlar bazasi, yuzlab ilovalar va xizmatlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, “ Elektron notarial ”, “Ko‘chmas mulk reyestri”, davlat organlarining elektron hujjat aylanishining yagona tizimi, “Elektron litsenziyalash ”, davlat organlarining internet portali, “ Mobil hukumat ” axborot tizimi, Telegram, Facebook va Vkontakte chat-botlari va boshqalar.

Ahamiyati jihatdan muhim loyihalardan biri hisoblangan “EGov mobil ilovasi” hukumat mobil ilovasini tashqil etishdagi ilk qadamlardan biri bo‘ldi. Ilovaning asosiy maqsadi Qozog‘iston Respublikasi aholisiga mobil aloqa vositalari orqali davlat xizmatlarini ko‘rsatishga, shuningdek, mamlakat aholisi o‘rtasida qo‘shimcha va samarali o‘zaro aloqa kanalini yaratishga qaratilgan hamda “1414” qisqa bepul raqami doirasida ko‘rsatiladigan davlat xizmatlari to‘g‘risida fuqarolarga SMS-xabarlarni qabul qilish va yuborishni ta’minlaydi. Shuningdek, ilova elektron hukumat foydalanuvchisi to'g'risidagi shaxsiy ma'lumotlarni to'plash va saqlash uchun mo'ljallangan [3].

2015-yil 24-noyabrdagi Qozog`iston Respublikasining “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi hamda 2015-yil 15-noyabrdagi “Axborot olish to‘g`risidagi” qonunlari asosida “Ochiq hukumat” portali yaratildi. Portalning asosiy maqsadi mamlakat faoliyatiga doir ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega sohalari to‘g`risida aholining xabardorlik darajasini oshirishni ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, “Ochiq hukumat”portali davlat organlarining normativ-huquqiy hujjatlar loyihalari va qonun loyihalari konsepsiyalarini ko‘rib chiqishda fuqarolarning ishtirokini ta’minlaydigan “ ochiq me’yoriy hujjat”, fuqarolarga Blog platformasi xizmatlari, internet konferensiyalari va so‘rovnomalari orqali muloqot o‘tkazish imkoniyatini taqdim etuvchi “ochiq muloqot”, hamda fuqarolarga davlat organlari faoliyati samaradorligini baholash natijalari to‘g‘risida ma’lumot berish, shuningdek, fuqarolarning baholash tizimi haqidagi tushunchalarini yaxshilash maqsadida “davlat tashqilotlarining faoliyatini baholash” kabi tarkibiy qismlardan iborat [4].

Respublika biznes hamjamiyatining axborot hamkorligining samarali, ochiq mexanizmini ta’minlash maqsadida “Elektron litsenziyalash” davlat ma’lumotlar bazasi axborot tizimi yaratilgan. Tizim Qozog‘iston Respublikasida “Elektron hukumat”ni shakllantirish va rivojlantirish dasturi hamda Qozog‘iston Respublikasini ilg‘or sanoat-innovatsion rivojlantirish bo‘yicha 2010-2014 yillarga mo‘ljallangan davlat dasturi doirasida amalga oshirildi [5].

Birinchi davr isloxotlarni tahlil qilish orqali quyidagi natijalarni kuzatish mumkin: birinchidan davlat xizmatlarining umumiy hajmidan elektron shaklda olingan davlat xizmatlari ulushi 25% oshdi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish indeksi bo‘yicha Qozog`iston Respublikasi mazkur davrda 52 pog`onani egalladi, Davlat organlarining ichki faoliyati raqamlashtirish borasidagi isloxotlarda ham sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. “Elektron hukumat”ning rivojlanish indeksi bo‘yicha 33-pog`onani egalladi.

Raqamlashtirishning ikkinchi bosqichi, 2017-2022-yillarni o‘zida qamrab olgan bo‘lib, mamlakatda raqamlashtirish siyosatini amalga oshirish hamda raqamli texnologiyalarni bosqichma bosqich rivojlantirishga qaratilgan "Raqamli Qozog'iston" dasturidir.

Mazkur davrda, raqamlashtirish borasidagi jarayonlarni yangi bosqichiga asos solindi. 2017 yil 12 dekabrdagi 827-son qarori asosida Qozog`iston hukumati tomonidan 2018-2022 yillarga mo'ljallangan "Raqamli Qozog'iston" dasturini ishga tushirildi [6]. Ushbu dasturning maqsadi "Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlarini tezlashtirish va o'rta muddatli istiqbolda raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali aholining hayot sifatini yaxshilashdir.

"Raqamli Qozog'iston" dasturi beshta asosiy yo'nalishni o‘z ichiga qamrab oladi:

"Iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish" - mehnat unumdorligi va kapitallashuvning o'sishiga olib keladigan ilg'or texnologiyalar va imkoniyatlardan foydalangan holda Qozog'iston Respublikasi iqtisodiyotining an'anaviy tarmoqlarini o'zgartirish yo'nalishi;

“Raqamli davlatga o‘tish” – ehtiyojlarni oldindan bilgan holda davlatning aholi va biznesga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasi sifatidagi funksiyalarini o‘zgartirish yo‘nalishi;

“Raqamli ipak yo‘lini amalga oshirish” – Qozog‘iston Respublikasi tranzit salohiyatini amalga oshirish uchun, ham ichki zanjir uchun ma’lumotlarni uzatish, saqlash va qayta ishlashning yuqori tezlikdagi va himoyalangan infratuzilmasini rivojlantirish yo‘nalishi.

"Inson kapitalini rivojlantirish" - yangi vaziyatga, bilimlar iqtisodiyotiga o'tishni ta'minlash uchun ijodiy jamiyatni yaratishni o'z ichiga olgan transformatsiya yo'nalishi;

“Innovatsion ekotizim yaratish” – biznes, ilm-fan va davlat o‘rtasida barqaror o‘zaro bog‘liqliklarga ega bo‘lgan texnologik tadbirkorlik va innovatsiyalarni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish yo‘nalishi. Davlat innovatsiyalarni ishlab chiqarish, moslashtirish va joriy etishga qodir ekotizim katalizatori sifatida ishlaydi [7].

Ushbu islohotlar Qozog'iston Respublikasining barcha sohalar faoliyatida raqamli texnologiyalardan foydalanishga hissa qo'shmoqda. Xususan, mazkur sohadagi isloxotlar samaradorligini quyidagi ma’lumotlar va jadval asosida izohlash mumkin:



1-rasm. Qozog`iston Respublikasi elektron hukumatining yutuqlari (BMTning global reytingi 2010-2020 yy).

Manba: Un E-Government Knowledgebase. https://publicadministration.un.org/egovkb/en-us/Data/Country-Information/id/87-Kazakhstan

Yuqorida keltirilgan, Birlashgan Millatlar tashqiloting “E-Government Knowledgebase” tadqiqot natijalariga ko‘ra Qozog`iston Respublikasi E-hukumat rivojlanish indeksi” bo‘yicha 0.8628 % tashqil etib, 193 davlatlar orasida 28-o‘rinni, “E-ishtirok etish ko‘rsatkichi”ga ko‘ra 15-o‘rinni egallamoqda. “Tarmoq tayyorligi indeksi” bo‘yicha 39-o‘rinni egallamoqda [8].

Shuni ta’kidlash joizki, raqamli vositalarni joriy etish, mamlakatda mavjud AKT infratuzilmalari xususan, internetnetning ulanish qamrovi va tezligiga bog`liqdir. Raqamlashtirishga asoslangan davlat milliy strategiyasi, davlat xizmatlari va elektron hukumatning muvaffaqiyatli tashqil ettirilganligi mamlakatning raqamli diplomatiya yo‘nalishidagi munosabatlarida aks etadi. 2021-yilda Qozog‘iston aholisining deyarli 91 % internetga ega bo‘lgan. Bu Qozog‘iston aholisining 50,6 foizi internetga ega bo‘lgan 2011 yilga nisbatan sezilarli o‘sganligini ko‘rsatadi [9].

Qozog‘istonda global tarmoqdan faol foydalanuvchilarning soni 2023-yil yanvarida 17.3 million foydalanuvchini (aholining taxminan 90 foizini) tashqil etdi. Bu ko‘rsatkich Qozog‘istonda internetdan

foydalanish darajasi 2023-yil holatiga ko‘ra jami aholining 90,9 foizini tashqil qildi. Shuningdek, ijtimoiy tarmoqlarda faol foydalanuvchilar soni 11,85 million kishini tashqil qiladi. Mazkur ko‘rsatkich jami aholining 60,8 foiziga tengdir. Qozoqlar orasida eng mashhur ijtimoiy tarmoq “Facebook” bo‘lib, undan 2,30 million foydalanuvchi foydalanmoqda, keyingi o‘rinlarda “Instagram”, “Linkedin, “Twitter”dir (1.2 jadval) [10].



2-rasm. Qozog`istonda eng ko‘p qo‘llaniladigan ijtimoiy tarmoqlar ko‘rsatkichi 2023-yil holatiga ko‘ra.

Manba: datareportal.com https://datareportal.com/reports/digital-2023kazakhstan%20was%20h

Ikkinchi yondashuv, mamlakat tashqi siyosiy faoliyatida raqamli texnologiyalarni joriy etish bosqichi

Mamlakat tashqi ishlar faoliyatida raqamli diplomatiyani joriy etish borasidagi say-harakatlar 2021 yil 30-dekabrdagi “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va raqamli sohani rivojlantirish” konsepsiyasi [11] hamda 2023-2029-yillarni qamrab olgan “Raqamli transformatsiya, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va kiberxavfsizlik sanoatini rivojlantirish” kabi huquqiy asoslarga tayanadi [12]. Konsepsiyaning pirovard maqsadlariga oltita muhim jabhalar kiritilgan bo‘lib, quyidagi yo‘nalishlarni muhim omillar sifatida talqin etilgan:

- Jamoat xavfsizligining raqamli chora-tadbirlarini ishlab chiqish,
- raqamlashtirish orqali iqtisodiy raqobatni rivojlantirish,
- raqamli boshqaruvni rivojlantirish,
- tashqi siyosatni raqamlashtirish [13].

Pirovard maqsadlarning to‘rtinchi yo‘nalishi mamlakat tashqi siyosiy faoliyatni yuritishda raqamli vositalarning qo‘llanilishiga qaratilgan bo‘lib, unda raqamli diplomatiya – Tashqi ishlar vazirligining raqamli vositalardan foydalangan holda tashqi siyosat boshqaruvi va investitsiyalarni jalb qilish vositasi sifatida talqin etilgan. Shuningdek, unda raqamli vositalar nafaqat davlat organlari tomonidan aholining kundalik muammolariga munosabatni bildirish, balki hukumat va jamiyat o'rtasidagi doimiy muloqot ko‘prig vazifasini bajarishi, diplomatik faoliyatning yagona axborot tizimini yaratish Qozog'iston Respublikasi xalqi va Qozog'iston Respublikasi davlat organlari uchun katta ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi ma’lum qilingan. Bu o‘z novbatida ma’lumotlarni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, modellashtirish va tahlil qilish hamda ulardan hisoblash va situatsion vazifalarni hal qilish, qarorlar tayyorlash va qabul qilishda foydalanishga asoslangan axborot muhitini yaratish orqali mamlakat aholisining turmush farovonligini bevosita oshirish imkonini beradi [14].

Raqamli diplomatiya Qozog‘istonga xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashqilotlar bilan aloqalarni mustahkamlash uchun kuchli vositalarni taqdim etadi. Xususan, elektron aloqa va ijtimoiy tarmoqlar diplomatlarga real vaqt rejimida fikr va axborot almashish, global muammolarni hal qilish, muzokaralar olib borish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash imkoniyatlarini yaxshilaydi. Iqlim o'zgarishi va qashshoqlik kabi global muammolarga qarshi kurashish, ma'lumotlarni to'plash va unga yechimlarni ishlab chiqishga qaratilgan sa'y-harakatlarni muvofiqlashtirishga yordam beradi. Qolaversa, raqamli vositalardan foydalanish Qozog‘istonning Yevroosiyo markazida joylashgan davlat sifatida mavjud muammolarni hal etishda xalqaro sa’y-harakatlarning faol ishtirokchisiga aylanish imkoniyatini beradi [15].

Xulosa o’rinda shuni ta’kidlash mumkinki, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tezkor rivojlanishi davlatlarning tashqi siyosiy faoliyatini amalga oshirishda raqamli vositalardan samarali foydalanishni taqozo etmoqda. Qozog‘iston Respublikasining raqamli diplomatiya va elektron hukumatni joriy etish borasidagi tajribasini tahlil qilish natijasishuni ko`rsatdiki, mamlakat raqamli transformatsiyani

bosqichma-bosqich, strategik rejalashtirish asosida amalga oshirgan. Birinchi bosqich (2006–2016) “e-hukumat” infratuzilmasini shakllantirish, davlat xizmatlarini elektronlashtirish va ochiqlik tamoyillarini joriy etish bilan xarakterlanadi. “e-Gov.kz” portali, “Ochiq hukumat” va “Mobil hukumat” kabi loyihalar fuqarolar bilan davlat o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tubdan o‘zgartirdi. Ikkinchi bosqich (2017–2022) “Raqamli Qozog‘iston” dasturi doirasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish, innovatsion ekotizimni rivojlantirish va raqamli davlat qurilishini jadallashtirishga yo‘naltirildi. Mazkur dastur beshta yo‘nalish (iqtisodiyotni raqamlashtirish, raqamli davlat, “Raqamli ipak yo‘li”, inson kapitalini rivojlantirish va innovatsion ekotizim) orqali mamlakatning global raqamli raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, Qozog‘iston raqamli diplomatiyani joriy etishda tizimli, bosqichma-bosqich va institutsional yondashuvni amalga oshirgan davlat sifatida e’tiborga loyiqdir. Mazkur tajriba Markaziy Osiyo va rivojlanayotgan mamlakatlar uchun davlat boshqaruvida AKTni keng qo‘llash, tashqi siyosatda raqamli vositalardan strategik foydalanish bo‘yicha muhim amaliy namunadir. Amalga oshirilayotga ushbu isloxotlar raqamli diplomatiyani nafaqat yangi instrument balki davlatlarning xalqaro maydondagi mavqeyini oshirishdagi mexanizm sifatidagi ahamiyatini saqlab qolishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gov.kz. Комитет государственных услуг Министерства цифрового развития, инноваций и аэрокосмической промышленности Республики Казахстан. Электронное правителство // Gov.kz. – URL: https://www.gov.kz/memleket/entities/kgu/activities/1363?lang=ru (дата обращения: 17.10.2023).
2. Gov.kz. Комитет государственных услуг Министерства цифрового развития, инноваций и аэрокосмической промышленности Республики Казахстан. Электронное правителство // Gov.kz. – URL: https://www.gov.kz/memleket/entities/kgu/activities/1363?lang=ru (дата обращения: 17.10.2023).
3. Projects of the electronic government of the Republic of Kazakhstan. https://egov.kz/cms/en/ information/about/projects Acess:01.12.2023
4. Egov.kz. Проекты электронного правителства Республики Казахстан // Egov.kz. – URL: https://egov.kz/cms/ru/information/about/projects?mobile=no (дата обращения: 01.12.2023).
5. Elicense. О портале // Elicense.kz. – URL: https://elicense.kz/LicensingContent/AboutPortal (дата обращения: 01.12.2023).
6. Постановление Правителства Республики Казахстан от 12 декабря 2017 года № 827 «Об утверждении Государственной программы “Цифровой Казахстан”» // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан «Әділет». – URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/P1700000827 (дата обращения: 17.10.2023).
7. Постановление Правителства Республики Казахстан от 30 декабря 2021 года № 961 «Об утверждении концепции развития информационно-коммуникационных технологий и цифровой сферы» // Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан «Әділет». – URL: https://adilet.zan.kz/rus/docs/P2100000961 (дата обращения: 17.10.2023).
8. United Nations. UN E-Government Knowledgebase: Country Information – Kazakhstan // EGOVKB. – URL: https://publicadministration.un.org/egovkb/ (дата обращения: 05.10.2023).
9. Statista. Internet penetration rate in Kazakhstan from 2011 to 2021 // Statista.com. – 2021. – URL: https://www.statista.com/statistics/769863/internet-penetration-rate-kazakhstan/ (дата обращения: 17.10.2023).
10. Datareportal. Digital 2023: Kazakhstan // Datareportal.com. – 2023. – URL: https://datareportal.com/reports/digital-2023-kazakhstan (дата обращения: 17.10.2023).
11. Adilet(Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан). Постановление Правителства Республики Казахстан от 30 декабря 2021 года № 961. Об утверждении концепции развития информационно-коммуникационных технологий и цифровой сферы. https://adilet.zan.kz/kaz/docs/P2100000961
12. Постановление Правителства Республики Казахстан от 28 марта 2023 года № 269. Об утверждении Концепции цифровой трансформации, развития отрасли информационно-коммуника-

ционных технологий и кибербезопасности на 2023 - 2029 годы https://adilet.zan.kz/rus/ docs/ P2300000269
13. Adilet (Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан). Постановление Правительства Республики Казахстан от 30 декабря 2021 года № 961. Об утверждении концепции развития информационно-коммуникационных технологий и цифровой сферы. https://adilet.zan.kz/kaz/docs/P2100000961
14. Adilet (Информационно-правовая система нормативных правовых актов Республики Казахстан). Об утверждении концепции развития информационно-коммуникационных технологий и цифровой сферы. Adilet.https://adilet.zan.kz/kaz/docs/P2100000961
15. Акылбаев, И. Цифровая дипломатия и новые технологии: двигател развития Казахстана в XXI веке / И. Акылбаев // Казахстанский институт стратегических исследований при Президенте Республики Казахстан. – 2023. – 30 ноября. – URL: https://kisi.kz/ru/chifrovaya-diplomatiya-i-novye-tehnologii-dvigatel-razvitiya-kazahstana-v-xxi-veke/ (дата обращения: 01.12.2023).

ПОЛИТИКА ЗАИМСТВОВАНИЯ (POLICY TRANSFER) В МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЯХ: НА ПРИМЕРЕ ЦИФРОВЫХ РЕФОРМ УЗБЕКИСТАНА И ОПЫТА СИНГАПУРА

Феруза Киргизбаева

Научный сотрудник Координационно-методического центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан

Annotatsiya: *Maqolada "policy transfer" (siyosatni o'zlashtirish) zamonaviy xalqaro munosabatlarning muhim mexanizmi sifatida O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan raqamli islohotlar va Singapur tajribasi misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – raqamli davlat boshqaruvi sohasida boshqaruv amaliyotlarini o'zlashtirish mexanizmlari, shakllari va natijalarini aniqlashdan iborat. Ishda policy transfer nazariy asoslari yoritilib, Singapurning raqamli davlat modeli tahlil qilinadi hamda uning O'zbekistonga moslashuvi jarayoni o'rganiladi. Xalqaro hamkorlik va kadrlar tayyorlash dasturlari asosiy transfer kanallari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekistonda policy transfer moslashuvchan xarakterga ega bo'lib, milliy sharoitlarga bog'liq holda amalga oshiriladi. Raqamli islohotlarni muvaffaqiyatli amalga oshirishda xalqaro hamkorlik muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.*

Kalit so'zlar: *policy transfer; xalqaro munosabatlar; raqamli davlat; elektron hukumat; raqamlashtirish; O'zbekiston; Singapur; davlat boshqaruvi; xalqaro hamkorlik.*

Аннотация: *В статье рассматривается политика заимствования (policy transfer) как механизм современных международных отношений на примере цифровых реформ Республики Узбекистан и опыта Сингапура. Цель исследования – выявить механизмы, формы и результаты заимствования управленческих практик в сфере цифрового государственного управления. В работе раскрываются теоретические основы policy transfer, анализируется сингапурская модель цифрового государства и исследуется процесс ее адаптации в Узбекистане. Особое внимание уделяется каналам заимствования, включая международное сотрудничество и образовательные программы. Установлено, что policy transfer в Узбекистане носит адаптивный характер и зависит от национальных условий. Сделан вывод о значимости международного сотрудничества для успешной реализации цифровых реформ.*

Ключевые слова: *policy transfer; международные отношения; цифровое государство; электронное правительство; цифровизация; Узбекистан; Сингапур; государственное управление; международное сотрудничество.*

Abstract: *The article examines policy transfer as a mechanism of contemporary international relations, focusing on digital reforms in the Republic of Uzbekistan and the experience of Singapore. The aim is to identify the mechanisms, forms, and outcomes of transferring governance practices in digital government. The paper outlines the theoretical foundations of policy transfer, analyzes Singapore's digital government model, and explores its adaptation in Uzbekistan. Particular attention is paid to transfer channels, including international cooperation and training programs. The study finds that policy transfer in Uzbekistan is adaptive and dependent on national conditions, emphasizing the importance of international cooperation for successful digital reforms.*

Keywords: *policy transfer; international relations; digital government; e-government; digitalization; Uzbekistan; Singapore; public administration; international cooperation.*

ВВЕДЕНИЕ

В условиях глобализации и усиления взаимозависимости государств возрастает значение трансграничного обмена управленческими практиками и институциональными моделями. Современные международные отношения все чаще включают не только политико-дипломатическое взаимодействие, но и процессы заимствования эффективных механизмов государственного управления, формирующие направление *policy transfer* (политика заимствования). Под данным понятием понимается использование знаний о политике, институтах и управленческих решениях, сформированных в одной стране, при разработке и реализации политики в другой [1, 5-24]. Таким образом, *policy transfer* выступает одним из ключевых механизмов современной системы международных отношений.

Цифровизация государственного управления занимает центральное место в процессах модернизации. Развитие электронного правительства и переход к концепции «умного государства» рассматриваются как стратегические приоритеты, направленные на повышение эффективности управления и качества государственных услуг [2]. В этих условиях государства активно обращаются к опыту лидеров цифровой трансформации, среди которых особое место занимает Сингапур.

Республика Узбекистан в последние годы демонстрирует активную динамику цифровых реформ.

Реализация стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» направлена на развитие электронного правительства, цифровой инфраструктуры и государственных сервисов. Согласно данным ООН, страна существенно улучшила позиции в Индексе развития электронного правительства (EGDI), что отражает положительные результаты проводимых реформ [3, 46-53]. В данном процессе важную роль играет заимствование передового зарубежного опыта, в том числе сингапурской модели цифрового государственного управления.

Несмотря на значительное развитие теории policy transfer в зарубежной науке, прежде всего в работах Д. Доловица и Д. Марша [4, 483-499], а также в рамках теории диффузии политик, в научной литературе сохраняется недостаток комплексных исследований, посвященных анализу заимствования управленческих моделей в странах Центральной Азии, включая Узбекистан. Это определяет актуальность настоящего исследования.

Объектом исследования выступает международное сотрудничество в сфере цифрового управления. Предметом исследования является процесс заимствования элементов сингапурской модели цифрового государства в Узбекистане.

Целью статьи является выявление механизмов, форм и результатов policy transfer в контексте взаимодействия Республики Узбекистан и Сингапура. Для достижения поставленной цели решаются следующие задачи: раскрыть теоретические основы policy transfer; проанализировать особенности цифровой модели Сингапура; выявить каналы заимствования в Узбекистане; оценить эффективность и ограничения данного процесса.

Методологическую основу исследования составляют сравнительный анализ, институциональный подход и исторический метод.

ОСНОВНАЯ ЧАСТЬ

Формирование теории policy transfer тесно связано с развитием смежных концепций – policy diffusion (диффузии политик), policy convergence (сближения политик) и policy learning (политического обучения). В отличие от диффузии, акцентирующей внимание на распространении политических инноваций, теория policy transfer сосредоточена на механизмах, субъектах и целях заимствования [5, 269-288]. В научной литературе также подчеркивается, что заимствование управленческих моделей представляет собой сложный процесс адаптации, а не простого копирования зарубежного опыта [6, 19-30].

В научных исследованиях выделяются основные механизмы policy transfer, такие как: обучение, подражание, конкуренция и принуждение. Эти механизмы отражают различные формы взаимодействия государств в условиях глобализации. При этом, как отмечается в современных исследованиях, эффективность заимствования во многом зависит от качества институциональной среды и уровня развития государственного управления [7].

Особое значение в контексте policy transfer приобретает цифровизация государственного управления. Развитие электронного правительства рассматривается как глобальный тренд, охватывающий как развитые, так и развивающиеся страны. Согласно исследованиям, электронное правительство представляет собой систему организационно-правовых и технологических решений, направленных на повышение эффективности государственного управления и доступности государственных услуг [8]. При этом внедрение цифровых технологий способствует повышению прозрачности и открытости государственного управления, а также укреплению взаимодействия между государством и обществом [9, 230-235].

В Республике Узбекистан процессы цифровизации государственного управления приобрели стратегическое значение в рамках реализации концепции «Цифровой Узбекистан – 2030». Исследования показывают, что развитие электронного правительства в стране сопровождается совершенствованием нормативно-правовой базы, созданием цифровых платформ и расширением спектра государственных услуг [10, 36-43]. Вместе с тем подчеркивается, что дальнейшее развитие требует учета международного опыта и его адаптации к национальным условиям [11].

Таким образом, теория policy transfer позволяет рассматривать цифровые реформы как результат не только внутренних преобразований, но и активного международного взаимодействия, в рамках которого происходит заимствование, адаптация и трансформация управленческих моделей. Это делает данный теоретический подход особенно релевантным для анализа сотрудничества Узбекистана и Сингапура в сфере цифрового государственного управления.

Сингапурская модель цифрового государства. Сингапурская модель цифрового государственного управления является одной из наиболее развитых и признанных в мировой практике. Ее формирование связано с последовательной государственной стратегией цифровизации, реализуемой с конца XX века и получившей институциональное оформление в рамках инициативы Smart Nation, запущенной в 2014 году. Основной целью данной стратегии является интеграция цифровых технологий, больших данных и информационно-коммуникационной инфраструктуры в систему государственного управления и повседневную жизнь граждан [12].

Высокий уровень развития цифрового государства в Сингапуре подтверждается международными рейтингами. Согласно данным ООН, страна занимает лидирующие позиции в Индексе развития электронного правительства (EGDI), входя в число мировых лидеров и занимая 3-е место в 2024 году [13]. Кроме того, Сингапур стабильно демонстрирует высокие показатели в других международных индексах: 2-е место в мировом рейтинге цифровой конкурентоспособности (IMD) и 4-е место в Глобальном инновационном индексе [14]. Это свидетельствует о комплексном развитии цифровой экосистемы, включающей инфраструктуру, человеческий капитал и качество государственных услуг.

Ключевой особенностью сингапурской модели является ее комплексный и централизованный характер. Управление цифровой трансформацией осуществляется через специализированные государственные структуры, в частности GovTech и Smart Nation and Digital Government Office, что обеспечивает координацию политики и единый стандарт цифровых решений. В основе модели лежит концепция интеграции трех ключевых элементов: цифрового правительства, цифровой экономики и цифрового общества [15].

Одним из наиболее успешных практических кейсов является внедрение национальной цифровой идентификации (Singpass), которая обеспечивает доступ граждан к широкому спектру государственных и частных услуг через единую платформу. По оценкам международных исследований, использование единой цифровой идентичности значительно повышает доступность и эффективность государственных сервисов [16]. Дополнительно Сингапур активно развивает систему обмена государственными данными (Government Data Sharing), что позволяет интегрировать различные ведомства и повысить качество управленческих решений.

Важным элементом сингапурской модели является ориентация на человека (citizen-centric approach). Государственные цифровые сервисы проектируются с учетом удобства пользователей, что способствует высокому уровню их использования и доверию граждан к государству. Кроме того, значительное внимание уделяется цифровой инклюзии: государство реализует программы по обеспечению доступа к интернету и цифровым услугам для социально уязвимых групп населения [17].

Сингапур также активно использует инновационные технологии, включая искусственный интеллект, большие данные и интернет вещей (IoT), для повышения эффективности государствен-

ного управления. Эти технологии применяются в таких сферах, как транспорт, здравоохранение, городское планирование и безопасность, что позволяет формировать модель «умного города» как части более широкой концепции «умного государства» [18].

Таким образом, сингапурская модель цифрового государства представляет собой комплексную систему, основанную на интеграции технологий, институтов и человеческого капитала. Ее успешная реализация и международное признание делают Сингапур одним из ключевых доноров управленческих практик в рамках policy transfer, что определяет его значимость для анализа цифровых реформ в Узбекистане.

Policy transfer в Узбекистане. В последние годы Республика Узбекистан активно реализует стратегию цифровой трансформации, в рамках которой значительную роль играет заимствование зарубежного опыта. После 2017 года цифровизация была определена в качестве одного из ключевых направлений государственной политики, что нашло отражение в стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030». В рамках данной стратегии осуществляется масштабное внедрение информационно-коммуникационных технологий в систему государственного управления, развитие электронных услуг и цифровой инфраструктуры [19].

Процесс policy transfer в Узбекистане носит преимущественно адаптивный характер и реализуется через различные каналы международного сотрудничества. Одним из наиболее значимых партнеров в данной сфере выступает Сингапур, опыт которого активно изучается и внедряется в практику государственного управления. Так, начиная с конца 2010-х годов, узбекские государственные органы регулярно взаимодействуют с сингапурскими институтами, включая GovTech и Singapore Cooperation Enterprise, в рамках программ обмена опытом, обучения и консультирования [20]. В частности, в 2018 году делегация Узбекистана посетила Сингапур с целью изучения передовых практик цифрового правительства, включая системы «умного города», электронных услуг и управления данными [21].

Ключевыми каналами policy transfer выступают: образовательные программы и повышение квалификации государственных служащих, международные проекты с участием организаций, таких как ПРООН и Всемирный банк, а также институциональное сотрудничество в сфере разработки цифровых решений. Данные формы взаимодействия соответствуют «мягким» механизмам policy transfer, основанным на обучении и обмене опытом, а не на принуждении.

Важным направлением заимствования является внедрение конкретных элементов цифрового государственного управления. В Узбекистане активно развивается Единый портал интерактивных государственных услуг, который обеспечивает доступ граждан к государственным сервисам в онлайн-формате. Исследования показывают, что факторы доверия и качества услуг играют ключевую роль в распространении электронного правительства среди населения [22, 15-37]. Одновременно осуществляется развитие институциональной инфраструктуры, включая создание единого интегратора государственных информационных систем (UZINFOCOM), что способствует централизации и координации цифровых процессов [23].

Процесс политики заимствования сталкивается с рядом ограничений. Среди основных проблем выделяются различия в институциональной среде, уровень цифровой грамотности населения, а также недостаточная развитость инновационной экосистемы. Исследования подчеркивают, что прямое копирование зарубежных моделей, включая сингапурскую, является невозможным. Эффективным является лишь селективное заимствование и адаптация отдельных элементов с учетом национальных особенностей.

Таким образом, policy transfer в Узбекистане представляет собой комплексный и многоуровневый процесс, включающий заимствование, адаптацию и трансформацию зарубежных управленческих практик. Взаимодействие с Сингапуром играет важную роль в данном процессе, выступая одним из ключевых источников институционального и технологического опыта. В то же время успешность заимствования во многом определяется способностью национальной системы государственного управления адаптировать данный опыт к собственным условиям.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Проведённое исследование показало, что политика заимствования (policy transfer) выступает важным механизмом трансформации государственных систем в условиях глобализации. В

современных международных отношениях она обеспечивает циркуляцию управленческих моделей, знаний и институциональных практик, способствуя модернизации национальных систем государственного управления.

Анализ теоретических подходов позволил установить, что policy transfer представляет собой сложный многоуровневый процесс, включающий различные механизмы – от обучения и подражания до институционального сотрудничества. При этом заимствование не сводится к простому копированию, а предполагает адаптацию и трансформацию заимствуемых элементов с учетом национальной специфики.

Исследование сингапурской модели цифрового государства показало, что ее эффективность обусловлена сочетанием стратегического планирования, развитых институтов и широкого использования цифровых технологий. Сингапур выступает в качестве одного из ключевых доноров управленческих практик в сфере цифровизации, формируя стандарты и подходы, востребованные в международной практике.

В свою очередь, анализ цифровых реформ в Узбекистане продемонстрировал активное использование механизмов policy transfer, реализуемых через международное сотрудничество, образовательные программы и институциональные проекты. Заимствование сингапурского опыта носит преимущественно адаптивный характер и осуществляется с учетом национальных условий и приоритетов развития.

Вместе с тем выявлено, что эффективность policy transfer в значительной степени зависит от институциональной совместимости, уровня развития государственного управления и кадрового потенциала. Ограничения, связанные с различиями в политических и социально-экономических условиях, требуют селективного и гибкого подхода к заимствованию зарубежного опыта.

Таким образом, policy transfer в сфере цифрового государственного управления выступает важным фактором модернизации Узбекистана, а взаимодействие с Сингапуром – одним из ключевых направлений данного процесса. Полученные результаты подтверждают значимость международного сотрудничества как инструмента развития цифрового государства.

Исходя из проведённого исследования, можно предложить следующие рекомендации:

1. Усилить институциональную координацию цифровых реформ:

– обеспечить более тесное взаимодействие между государственными органами, ответственными за цифровизацию, с целью повышения эффективности реализации политики.

2. Развивать систему подготовки кадров в сфере цифрового управления:

– расширить программы обучения государственных служащих с привлечением международного опыта, в том числе сингапурского.

3. Применять селективный подход к заимствованию зарубежного опыта:

– адаптировать отдельные элементы сингапурской модели с учетом национальных социально-экономических и институциональных условий.

4. Расширять международное сотрудничество в сфере цифровизации:

– углублять взаимодействие с Сингапуром и другими странами-лидерами в области цифрового государственного управления.

5. Совершенствовать нормативно-правовую базу цифровых реформ:

– обеспечить гибкость регулирования и поддержку внедрения инновационных технологий.

6. Развивать цифровую инфраструктуру и инклюзивность:

– обеспечить равный доступ к цифровым услугам для различных групп населения, включая регионы и социально уязвимые категории.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Dolowitz D., Marsh D. Learning from Abroad: The Role of Policy Transfer in Contemporary Policy-Making // Governance. 2000. Vol. 13. No. 1. P. 5–24.
2. United Nations. E-Government Survey 2024: Accelerating Digital Transformation for Sustainable Development. New York: UN, 2024.
3. Kh.F. Khursandov, Analysis of Uzbekistan position in the global ranking of electronic government services // International Scientific Journal "Science and Innovation". Series A. Volume 4 Issue 5. 18.05.2025. P. 46–53.

4. Stone D. Transfer and translation of policy //Policy studies. – 2012. – Т. 33. – №. 6. – С. 483-499.
5. Marsh D., Sharman J. Policy Diffusion and Policy Transfer // Policy Studies. 2009. Vol. 30. No. 3. P. 269–288.
6. Малик Е.Н., Шедий М.В., Пикалов Б.В. «Электронное правительство» как интегративная платформа предоставления государственных услуг // Управленческое консультирование. 2020. № 9. С. 19–30.
7. Benson D., Jordan A. What Have We Learned from Policy Transfer Research? // Political Studies Review. 2011.
8. Электронное правительство: теория и практика // Review.uz. 2023. https://review.uz/post/ elektronnoe-pravitelstvo-teoriya-i-praktika
9. Когамова А. Электронное правительство Республики Узбекистан: Опыт, проблемы, решения // Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences. – 2024. С.230-235.
10. Эргашов Ж. К. Развитие электронного правительства в Республике Узбекистан // Кронос. – 2022. – Т. 7. – №. 4 (66). – С. 36-43.
11. Электронное правительство в Узбекистане: международный опыт и перспективы // illp.uz. 2025.
12. Smart Nation Singapore. Official Portal. URL: https://www.smartnation.gov.sg/
13. United Nations. E-Government Survey 2024. New York: UN, 2024. https://publicadministration. un.org/ egovkb/en-us/Reports/UN-E-Government-Survey-2024
14. IMD World Digital Competitiveness Ranking; WIPO Global Innovation Index // Smart Nation Singapore. https://www.imd.org/centers/wcc/world-competitiveness-center/rankings/world-digital-competitiveness-ranking/
15. Cooper, Adam Kenneth; Marskell, Jonathan Daniel; Chan, Cheow Hoe. National Digital Identity and Government Data Sharing in Singapore: A Case Study of Singpass and APEX (English). Washington, D.C. : World Bank Group. http://documents.worldbank.org/curated/en/099300010212228518
16. The 25 Countries Leading in E-Government // Smart City Expo. https://www.smartcityexpo.com/the-25-countries-leading-in-e-government-paving-the-way-for-efficiency-and-transparency/
17. Smart Nation 2.0 Report. Singapore Government. https://file.go.gov.sg/smartnation2-report.pdf
18. Малик Е.Н., Шедий М.В. Электронное правительство: зарубежный опыт // Управленческое консультирование. 2020.
19. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship and AI. UNDP, 2025. https://www.undp.org/uzbekistan/publications/digital-economy-uzbekistan-state-digital-entrepreneurship-and-artificial-intelligence
20. OECD. Promoting Investment in Support of Uzbekistan’s Digital Transformation. 2025. https://www.oecd.org/en/publications/roadmap-for-sustainable-investment-policy-reforms-in-uzbekistan_20865f29-en/full-report/promoting-investment-in-support-of-uzbekistan-s-digital-transformation_d5635702.html
21. Representatives of Uzbekistan study experience of Singapore in digital government // UzDaily. 2018. https://www.uzdaily.uz/en/representatives-of-uzbekistan-study-experience-on-singapore-in-development-of-digital-government/
22. Avazov S. et al. E-government services adoption in Uzbekistan: An empirical validation of extended version of the unified model of electronic government acceptance (UMEGA) //Journal of Policy Studies. – 2022. – Т. 37. – №. 3. – С. 15-37.
23. UZINFOCOM – единый интегратор государственных ИТ-систем Узбекистана. https://uzinfocom. uz/

TOVAR BELGISIGA OID NIZOLARNING IQTISODIY SUDLARDA KO`RIB CHIQILISHINING O`ZIGA XOS JIHATLARI

Abdulla Raximov

Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudining sud'yasi

Diyora Sayfullayeva

Toshkent xalqaro Vestminster universiteti talabasi

Annotatsiya: *Mazur maqolada intellektual mulk ob'ektlaridan biri bo'lgan tovar belgilariga bo'lgan huquqlarning paydo bo'lishi, tovar belgilarining eksklyuziv huquqlari nima ekanligi va ularning buzilishi uchun javobgarlik tashkilotlar, iqtisodiy va diniy sudlarga yuklatilishi haqida so'z boradi. Tovar belgilari bilan bog'liq masalalar ularning kelib chiqishi va mexanizmlari bilan bog'liq. Muammolarni joylashtirish xamda Sharq intellektual mulk huquqi buzganlik uchun fuqarolik-huquq javobgarlikni belgilash borasidagi kontseptual tahlillarni aniqlash va tahlil qilish imkoniyatini beradi.*

Kalit so'zlar: *intellektual mulk, huquq, ixtiro, Sanoat Namunalari, foydali Modellar, tovar belgilari, tijorat sirlari.*

Аннотация: *В данной статье рассматривается возникновение прав на товарные знаки, являющиеся одним из объектов права интеллектуальной собственности, в чем заключаются исключительные права на товарные знаки, вопросы ответственности за их нарушение, основания и механизмы рассмотрения споров о товарных знаках экономическими и гражданскими судами, а также выявляются связанные с этим проблемы. Уточнение и изучение проблем позволяют определить и проанализировать концептуалные подходы к определению гражданской ответственности за нарушение прав интеллектуальной собственности.*

Ключевые слова: *интеллектуальная собственност, права, изобретения, промышленные образцы, полезные модели, товарные знаки, коммерческая тайна*.

Abstract: *This article examines the emergence of rights to trademarks, which are one of the objects of intellectual property law, what exclusive rights to trademarks consist of, issues of liability for their violation, the study of the foundations and mechanisms for considering trademark disputes by economic and civil courts, and the identification of related problems. Clarification and study of the problems allow us to identify and analyze conceptual approaches to determining civil liability for violation of intellectual property rights.*

Keywords*: intellectual property, law, invention, industrial designs, utility models, trademarks, trade secrets.*

Tovar belgilari huquqiy muhofazasini ta'minlash, shuningdek sohaga oid qonun hujjatlari normalarini tizimlashtirish va unifikatsiyalash orqali yanada takomillashtirish bilan ularni xalqaro shartnomalarga yaqinlashtirish, shu bilan birga ushbu sohadagi huquqbuzarliklarning oldini olish mexanizmlarini yaratishni taqozo etmoqda. Tovar belgilarining huquqiy himoyasi va mazkur ob'ektlardan foydalanish bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy tartibga solishning o'ziga xos xususiyati shundaki, u huquqiy javobgarlik turlaridan biri hisoblangan fuqarolik-huquqiy javobgarligining o'ziga xos xususiyatlarini o'zida namoyon etadi.

"Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasi uchinchi qismiga asosan, tovar belgisini yoki shu belgi bilan belgilangan tovarni ruxsat berilmagan tarzda tayyorlash, qo'llash, olib kirish, savdoga taklif etish, sotish, o'zgacha tarzda fuqarolik muomalasiga kiritish yoki ularni shu maqsadda saqlash yoxud ular bilan adashtirib yuboradigan

darajada aynan o‘xshash bo‘lgan bir xildagi tovarlarni belgilash tovar belgisiga doir mutlaq huquqni buzish huquqbuzar xatti-harakatlarining noqonuniy ekanligiga asos bo‘lib xizmat qiladi [1].

Yetkazilgan moddiy va ma’naviy zararni (haqiqiy zarar va boy berilgan foyda) qoplab berish tarzida fuqarolik-huquqiy javobgarlik ta’sir chorasi huquqbuzarning noqonuniy xattiharakatlari (harakatsizlik) hamda kelib chiqqan haqiqiy zarar va boy berilgan foyda o‘rtasida sababiy bog‘lanish mavjud bo‘lgan hollarda qo‘llanadi.

Qonunda va shartnomada javobgarlikning boshqacha asoslari nazarda tutilmagan bo‘lsa, ayb huquqbuzarni fuqarolik-huquqiy javobgarlikka tortishning zaruriy sharti hisoblanadi. Ayb fuqarolik-huquqiy javobgarlikning sub’ektiv sharti hisoblanadi va fuqarolik huquqbuzarligining tarkibini tashkil qiluvchi boshqa asoslarga nisbatan o‘ziga xos xarakterda bo‘ladi. Bugungi kunda munozarali masalasi sifatida saqlanib qolayotgan bo‘lishiga qaramay, “ayb” tushunchasi sivilist olimlar tomonidan batafsil tadqiq hamda tahlil qilingan. “Ayb” tushunchasiga nisbatan eng keng tarqalgan yondashuvlardan biriga asosan, ayb o‘zida “shaxsning jamiyat va boshqa shaxslarning qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini e’tirof etmaslik bilan bog‘liq noqonuniy xattiharakatlariga bo‘lgan ruhiy munosabatini” namoyon etadi.

Amaliyotda huquqbuzarga nisbatan yetkazilgan zararni pul ko‘rinishida qoplab berish tarzidagi javobgarlik ta’sir chorasini qo‘llashda ayrim qiyinchiliklar kelib chiqadi. Chunki, bunda huquqbuzarning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida shaxsiylashtirish vositasi egasiga yetkazilgan zararni aniqlash va o‘lchashning aniq mezonlari xanuzgacha mavjud emas. Bundan tashqari, tovar belgilaridan huquq egasining roziligisiz, shartnoma tuzmagan holda qonunga xilof ravishda foydalanganlik natijasida yetkazilgan zarar pul ko‘rinishida qoplab berish bo‘yicha sud amaliyoti unchalik rivojlanmagan. Biroq, shunga qaramasdan, jabrlanuvchi tomon o‘zining xarajatlari hisob-kitobini hamda huquqbuzarning noqonuniy xatti-harakatlari natijasida mulkiy xarakterdagi oqibatlarning bahosini sudga taqdim etishi har tomonlama maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Tovar belgisi shaxsning ma’lum bir belgiga nisbatan mutlaq huquqlarini e’tirof etgan holda, undan foydalangan holda tovar ishlab chiqarish hamda uni realizatsiya qilish, boshqa shaxslarga ushbu tovar belgisidan foydalanish huquqini taqdim etishi yoki tovar belgisiga bo‘lgan huquqdan voz kechishi, boshqa shaxslarning ushbu belgidan insofsiz foydalanish holatlaridan himoya qilishi kabi fuqarolik-huquqiy munosabatlarni o‘zida namoyon etadi. Tovar belgilari individuallashtirish vositasi sifatida fuqarolik muomalasida bo‘lar ekan, unga nisbatan qonunda belgilangan huquq va vakolatlarni amalga oshiradi va bu huquq mutlaq huquq sifatida e’tirof etiladi.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek tovar belgisi uni ro‘yxatdan o‘tkazish asosida huquqiy jihatdan muhofaza qilinadi. Tovar belgisiga bo‘lgan huquq tovar belgisi ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi.

Fuqarolik kodeksining 1103-moddasiga asosan tovar belgisiga bo‘lgan huquq egasi o‘ziga tegishli belgidan foydalanishda va uni tasarruf etishda alohida huquqqa ega. Tovar belgisiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritishdan iborat alohida huquq ham tovar belgisiga bo‘lgan huquq egasiga tegishlidir. Tovar belgisini qonunda belgilangan tartibda har qanday tarzda muomalaga kiritish undan foydalanish deb hisoblanadi. Tovar belgisini nashr etganda, uni ko‘pchilik oldida ijro etganda yoki undan o‘zgacha tarzda foydalanganda tovar belgisining o‘ziga ham, uning belgilariga ham biror-bir o‘zgartishlar kiritishga faqat unga bo‘lgan huquq egasining roziligi bilan yo‘l qo‘yiladi. Tovar belgisining daxlsizligiga bo‘lgan huquq tovar belgisiga bo‘lgan huquq egasiga tegishlidir [2].

Shuni alohida ta’kidlash lozimki tovar belgisi uning nomiga ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga tovar belgisiga bo‘lgan huquqni himoya qilish rad etilishi mumkin emas, ushbu qoida tovar belgisini ro‘yxatdan o‘tkazishning noqonuniyligi to‘g‘risidagi dalillar sudga taqdim etilgan taqdirda ham amal qiladi. Mutlaq huquqlarni amalga oshirish talabi faqatgina tovar belgisiga nisbatan huquqiy himoya haqiqiy emas deb topilgandan so‘nggina belgilangan tartibda tovar belgisini huquqiy himoya qilishni tugatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 1102-moddasiga muvofiq, tovar belgisi uni ro‘yxatdan o‘tkazish asosida huquqiy jihatdan muhofaza qilinishi belgilangan. Tovar belgisiga bo‘lgan huquq tovar belgisi ro‘yxatga olinganligi to‘g‘risidagi guvohnoma bilan tasdiqlanadi. Shunga asosan tovar belgisiga nisbatan shaxsning mutlaq huquqlari tan olinadi va davlat organi tomonidan muhofaza qilinadi.

Iqtisodiy sudlar intellektual mulkka oid eng ko‘p nizolarni ko‘rib chiquvchi sud tizimi hisoblanadi.

Tovar belgisi va nizoli belgini adashtirish ehtimoli belgilarning o‘xshashlik darajasi va tovarlarning bir xilligi darajasidan kelib chiqqan holda aniqlanadi. Tovarlarning bir xilligi tegishli

tovarning oddiy iste’molchisida ushbu tovarlar bitta ishlab chiqaruvchiga tegishli ekanligi haqidagi tasavvurga ega bo‘lishining asosiy imkoniyati asosida belgilanadi. Shu bilan birga, sud tovarlarning turini, ularning maqsadini, ular ishlab chiqarilgan materialning turini, tovarlarni sotish shartlarini, iste’molchilar doirasini, bir-birini to‘ldirish yoki bir-birini almashtirish imkoniyatini ham hisobga olishi mumkin.

O‘xshashlikni aniqlash sud tomonidan tovar belgisi va belgini grafik, tovush va semantik mezonlarga asosan taqqoslash natijalari bo‘yicha, tomonlar taqdim etgan dalillarni hisobga olgan holda, ularning ichki ishonchiga ko‘ra amalga oshiriladi. Shu bilan birga, sud qaysi elementlarga nisbatan o‘xshashlik mavjudligini ham hisobga oladi. Agarda tovar belgisi himoyalanmagan elementlardan tashkil topgan bo‘lsa, unda tovar belgisi va belgining o‘xshashligini aniqlashda so‘zlarning joylashuvi, ranglar uyg‘unligi, tovar belgisidagi umumiy g‘oya inobatga olinishi lozim.

Belgilarning o‘xshashlik darajasini va tovarlarning bir xilligini aniqlash uchun maxsus bilim talab etilmaydi.

Adashtirish ehtimolini aniqlashda ishda ishtirok etuvchi shaxslar tomonidan taqdim etilgan dalillar, belgi va tovar belgisining haqiqiy adashtirib yuborilishi to‘g‘risidagi dalillar, shu jumladan tegishli mahsulotning oddiy iste’molchilari fikrini so‘rovlari ham hisobga olinishi mumkin.

Sud tegishli holatlarning har birini emas, balki belgilarning o‘xshashlik darajasi, tovarlarning bir xilligi darajasi boshqa holatlarning adashtirib yuborish ehtimoliga ta’sirini hisobga oladi.

Umuman olganda belgi barcha elementlarda boshqa belgi bilan mos tushsa, aynan bir xil deb hisoblanadi. Agar belgi belgiga umuman olganda o‘xshash bo‘lsa, alohida farqlariga qaramasdan boshqa belgi bilan aralashtirib yuborish darajasida o‘xshash deb hisoblanadi.

Belgilarning o‘xshashligini baholash belgilarning har qanday xususiyatlari, shu jumladan so‘zli yoki grafik elementlar, ularning kompozitsion va rang-grafik yechimi, rang, ranglar uyg‘unligi va boshqalar ta’siri ostida shakllanadigan umumiy tasavvur asosida amalga oshiriladi.

Qonunda tovar belgisiga bo‘lgan huquqlar 10 yil davomida amal qilishi belgilab qo‘yilgan va tovar belgisi egasi nafaqat belgidan foydalanish bo‘yicha mutlaq huquqlarga ega bo‘ladi, balki boshqa shaxslarning belgidan ruxsatsiz foydalanishiga yo‘l qo‘ymaydi. Aynan tovar belgisi egasida boshqa shaxslarning ushbu belgidan ruxsatsiz foydalanishini to‘xtatish huquqi mavjudligi sababli olimlar tovar belgisiga bo‘lgan huquqlarni negativ huquqlar deb ta’riflaydilar.

Tovar belgisiga bo‘lgan huquqlarni qo‘lga kiritishning o‘zi bu huquqlar qonun hujjatlarida belgilangan muddat davomida amal qiladi degani emas. Muayyan tovar belgisiga bo‘lgan huquqlarni olish orqali huquq egasi ushbu tovar belgisidan u ro‘yxatga olingan tovarlarga nisbatan foydalanish majburiyatini oladi.

Agar tovar belgisi egasi uzluksiz bir qancha muddat davomida tovar belgisidan foydalanmasa, u qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin? Umuman tovar belgisidan foydalanmaslik qanday huquqiy oqibatlarga olib keladi? Qonunga ko‘ra tovar belgisidan uzluksiz uch yil davomida foydalanmaslik tovar belgisiga berilgan guvohnomaning amal qilishini muddatidan oldin tugatishga asos bo‘lishi mumkin [3].

Tovar belgisiga bo‘lgan huquqni, basharti u tovar yoki uning tayyorlovchisi haqida chalg‘ishga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lsa, boshqa shaxsga berishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Fuqarolik kodeksining 1105-moddasiga asosan tovar belgisiga bo‘lgan huquqning boshqa shaxsga o‘tishi, shu jumladan uni shartnoma asosida yoki huquqiy vorislik tartibida boshqa shaxsga berish vakolatli davlat organida ro‘yxatdan o‘tkazilmog‘i lozim.

Mazkur Kodeksning 1106-moddasiga ko‘ra, tovar belgisiga bo‘lgan huquqni boshqa shaxsga berish to‘g‘risidagi yoki litsenziya berish haqidagi shartnoma yozma shaklda tuzilishi va vakolatli davlat organida ro‘yxatdan o‘tkazilishi lozim.

Yozma shaklga va ro‘yxatdan o‘tkazish talabiga rioya etmaslik shartnomaning haqiqiy emas deb topilishiga sabab bo‘ladi [4]/

Ushbu turdagi nizolarni ko‘rib chiqishning o‘ziga xos jihatlaridan biri shundaki, bu turdagi nizoda tovar belgisidan foydalanmaganlik holatini isbotlash majburiyati da’vogarda emas, balki ushbu belgidan foydalanganlik holatini isbotlash majburiyati tovar belgisi egasida bo‘ladi. Ya’ni bunda da’vogarga isbotlash majburiyatini yuklash noto‘g‘ri, chunki da’vogar uchun bunday dalillarni to‘plash juda qiyin va ba’zan imkonsizdir. Biroq, savdo nuqtalarida sotiladigan tovarlar yoki bozorga chiqarilgunga qadar vakolatli organlarda majburiy ro‘yxatdan o‘tishi kerak bo‘lgan tovarlarga nisbatan ro‘yxatga olingan tovar belgisini bekor qilish holatlari bundan mustasno (masalan, dori vositalari uchun

ishlab chiqarish uchun ruxsatnoma) yoki raqamli identifikatsiya belgisi (masalan, alkogol yoki tamaki mahsulotlari), bunda dalillarni to‘plash imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Sud tomonidan ishning barcha holatlariga baho bergan holda o‘z ichki ishonchiga asoslanib tovar belgisiga berilgan guvohnomaning amal qilishini muddatidan oldin tugatish yoki tugatishni rad qilish to‘g‘risidagi qaror qabul qilinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.-T.: O‘zbekiston NMIU, 2019.
Tajriba natijalariga tayangan holda falsafa fanini integrativ o‘qitishga qaratilgan o‘quv-metodik tavsiyalar va amaliy ishlanmalar ishlab chiqildi. Ushbu metodik materiallar ta'lim jarayonini konstruktiv uyg‘unlashuv tamoyili asosida tashkil etish, raqamli vositalardan samarali foydalanish, refleksiv faoliyatni yo‘lga qo‘yish va talabalarning shaxsiy sog‘lom hayot strategiyasini shakllantirishda samarali yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari falsafa fanini integrativ o‘qitish orqali talabalarda valeologik ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tajriba-sinov jarayonida olingan dalillar ishlab chiqilgan metodikaning amaliyotda o‘z tasdig‘ini topganini, talabalarning salomatlikka oid bilim, qadriyat va amaliy faoliyat uyg‘unligini ta'minlashga real sharoit yaratganini ko‘rsatdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori. – Toshkent, 2020.
3. O‘zbekiston Respublikasida 2030 yilgacha ta’limni rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
4. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma’naviyat, 2008.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.
6. Abduqodirov A.A. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: Fan, 2012.

7. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy va amaliy asoslari. – Toshkent: Fan, 2006.
8. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste’dod, 2014.
9. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 2002.
10. G‘oziyev E.G‘. Psixologiya. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994.
11. Vygotskiy L.S. Pedagogik psixologiya. – Moskva: Pedagogika, 1991.
12. Leontev A.N. Faoliyat. Ong. Shaxs. – Moskva: Politizdat, 1975.
13. Rubinshteyn S.L. Umumiy psixologiya asoslari. – Sankt-Peterburg: Piter, 2000.
14. Matveyev L.P. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Moskva: Sport, 2008.
15. Balsevich V.K. Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodologiyasi. – Moskva, 2001.
16. Xolodov J.K., Kuznetsov V.S. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi va metodikasi. – Moskva: Akademiya, 2010.
17. Bandura A. Social Learning Theory. – New York: Prentice Hall, 1977.
18. Deci E., Ryan R. Self-Determination Theory: Basic Psychological Needs in Motivation, Development, and Wellness. – New York: Guilford Press, 2017.
19. WHO (World Health Organization). Global Recommendations on Physical Activity for Health. – Geneva, 2010.
20. WHO. Guidelines on Physical Activity and Sedentary Behaviour. – Geneva, 2020.
21. UNESCO. Education 2030: Incheon Declaration and Framework for Action. – Paris, 2015.
22. Slastenin V.A. Pedagogika. – Moskva: Akademiya, 2004.
23. Podlasiy I.P. Pedagogika. – Moskva: Vlados, 2003.
24. Xujayev N., Raxmonov A. Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2015.

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARI VA YAPONIYA MUNOSABATLARINI O'RGANISHDAGI ASOSIY YONDASHUVLAR

Dilorom Razikova

O'zR FA huzuridagi O'zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markaz doktoranti

Annotatsiya: *Dastlab mavhum konsepsiya sifatida qabul qilingan jahon munosabatlarining ko'p markazli tuzilmasi g'oyasi bugungi kunda davlatlar o'rtasidagi o'zaro aloqalarda belgilovchi omilga aylandi. Bu o'zgarishlar faqat global ta'sirga ega davlatlarning maqomlarini qayta taqsimlash va jahon sahnasidagi an'anaviy me'yorlarni moslashtirish bilangina cheklanmaydi. Shu bilan birga, jamiyat hayotining turli sohalaridagi institutlar va ularning o'zaro bog'liqligi har tomonlama qayta baholanmoqda, buning natijasida davlatlararo aloqalarning tashkiliy tuzilmasi hamkorlik va raqobatning alohida mintaqaviy maydonlariga bo'linib bormoqda. Markaziy Osiyo mintaqasi esa o'zining yetarli resurslari va salohiyatiga ega, mintaqaviy hamkorlikning o'ziga xos modellarini shakllantirish va amalga oshirishga qodir bo'lgan ko'plab proaktiv davlatlar mavjudligi bilan ajralib turadi.*

Markaziy Osiyo mintaqasida shakllanib borayotgan uzoq muddatli va operativ shart-sharoitlar yuqori ta'sir salohiyatiga ega davlatlar bilan bir qatorda o'rta darajadagi imkoniyatlarga ega mamlakatlar uchun ham tashqi siyosiy tashabbuslarni ilgari surishda qo'shimcha imkoniyatlar yaratmoqda. Mintaqada faoliyat yuritayotgan ichki va tashqi aktorlarning xilma-xilligi global siyosiy makonda bir vaqtning o'zida hamkorlik va raqobatning mavjud bo'lishi bilan tavsiflanadigan murakkab o'zaro ta'sir darajasini namoyon etadi. Shu munosabat bilan, ilmiy tahlil predmeti sifatida Markaziy Osiyo mintaqasidan tashqarida bo'lgan aktorlarning mazkur mintaqa davlatlari bilan o'zaro munosabatlarning shaffof tizimini yaratishda qo'llayotgan usullari tahlil qilinadi.

Mazkur maqola Markaziy Osiyo mintaqasida Yaponiyaning tashqi siyosiy ta'sirining xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi uchta asosiy tadqiqot yo'nalishini ilgari suradi. Birinchi yo'nalish ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy munosabatlar doirasida ijtimoiy jarayonlarga turli shakllarda ta'sir ko'rsatuvchi tashqi ta'sirning asosiy omillarini mahalliylashtirish va batafsil tavsiflashga qaratilgan. Ikkinchi yo'nalish iqtisodiy maydonda ijtimoiy o'zaro ta'sir amaliyotlarini o'rganishni nazarda tutib, Yaponiya hamda mintaqa davlatlari vakillarining shaxsiy, jamoaviy va ommaviy darajalarda qanday muloqot qilishi va harakatlarini muvofiqlashtirishi masalalarini tahlil qiladi. Uchinchi yo'nalish davlatlararo munosabatlar mexanizmlarida namoyon bo'ladigan "oraliq ta'sir"ni aniqlash va talqin etishga qaratilgan. Mazkur tadqiqot doirasida bu, bir tomondan, Markaziy Osiyo – Yaponiya munosabatlarida iqtisodiy aloqalar ichida turli institutsional shakllarning ijtimoiy ta'siri sinergiyasini izlashni, ikkinchi tomondan esa iqtisodiy kuchlarning davlatlararo o'zaro ta'sirning boshqa sohalariga kirib borishini anglatadi. Shu tariqa, maqolamizda oraliq ta'sir ijtimoiy munosabatlarning "o'ziga xos yaxlitligi" sifatida talqin qilinadi, ya'ni tizimning alohida elementlariga xos bo'lmagan, biroq ularning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keladigan yangi sifat va xususiyatlarning paydo bo'lishi bilan izohlanadi. Aynan ushbu holat davlatlararo aloqalarning muayyan turlariga xos bo'lgan o'ziga xoslikni belgilab beradi.

Kalit so'zlar: *ko'p tomonlama munosabatlar, Osiyo mamlakatlari, hamkorlik, Markaziy Osiyo, Yaponiya.*

Аннотация: *Идея многоцентрового устройства мировых отношений, прежде воспринимаемая как абстрактная концепция, ныне выступает определяющим фактором во взаимодействии государств. Эти перемены не ограничиваются лишь перераспределением статусов государств с глобальным влиянием и корректировкой устоявшихся норм на мировой сцене; параллельно происходит всесторонняя переоценка институтов и их связей в различных областях об-*

щественной жизни, в результате чего организационная структура межгосударственных контактов дробится на отдельные региональные поля сотрудничества и соперничества. Центральноазиатский регион отмечается присутствием множества проактивных государств, располагающих необходимыми ресурсами и потенциалом для формирования и реализации собственных моделей региональной кооперации.

В центральноазиатском регионе нарастают долговременные и оперативные предпосылки, которые открывают дополнительные окна для реализации внешнеполитических инициатив как для государств с высоким уровнем влияния, так и для стран со средним потенциалом. Широкий круг внутренних и внешних акторов, действующих в этом пространстве, наглядно демонстрирует ту степень сложности, при которой взаимодействие соседствует с соперничеством на мировой политической сцене. В связи с этим предметом научного анализа становится то, какими методами разные внерегиональные игроки выстраивают региональные стратегии, чтобы создать открытую сеть взаимных отношений с государствами центральноазиатского региона.

Статья выдвигает три направления исследования, служащие для выяснения характера внешнеполитического влияния Японии в регионе Центральной Азии. Первое направление заключается в локализации и детальной характеристике основных факторов внешнего воздействия, которые порождают различные формы влияния на общественные процессы в экономической области двусторонних и многосторонних отношений. Второе – исследование практик социального взаимодействия, как токийские акторы и представители стран региона коммуницируют и координируют действия на личностном, коллективном и массовом уровнях в экономическом поле. Третье направление ориентировано на обнаружение и интерпретацию так называемого «промежуточного эффекта», проявляющегося в механизмах взаимоотношений между государствами. В данном исследовании это как поиск в японско-центральноазиатских отношениях синергии социального влияния различных институциональных форм внутри экономических взаимоотношений, так и проникновение экономических сил в другие сферы межгосударственного взаимодействия.

Ключевые слова: *многосторонние отношения, страны Азии, сотрудничество, Центральная Азия, Япония.*

Abstract: *The idea of a multi-center structure of global relations, previously perceived as an abstract concept, is now a defining factor in the interaction between states. These changes are not limited to the redistribution of the status of states with global influence and the adjustment of established norms on the global stage; instead, there is a comprehensive reevaluation of institutions and their connections in various areas of public life, resulting in the fragmentation of the organizational structure of interstate relations into separate regional fields of cooperation and competition. The Central Asian region is characterized by the presence of many proactive states that have the necessary resources and potential to form and implement their own models of regional cooperation.*

In the Central Asian region, long-term and operational prerequisites are growing, opening up additional windows for the implementation of foreign policy initiatives by both high-impact states and countries with medium potential. The wide range of internal and external actors operating in this space clearly demonstrates the complexity of interactions and rivalries on the global political stage. As a result, the focus of scholarly analysis has shifted to understanding how various non-regional actors are employing regional strategies to create an open network of mutual relations with Central Asian states.

The work proposes three research directions to clarify the nature of Japan's foreign policy influence in the Central Asian region. The first direction focuses on identifying and characterizing the main external factors that generate various forms of influence on social processes in the economic sphere of bilateral and multilateral relations. The second direction explores the practices of social interaction, examining how Tokyo-based actors and representatives of the region's countries communicate and coordinate their actions at the individual, collective, and mass levels in the economic realm. The third direction is focused on the detection and interpretation of the so-called "interstitial effect" that manifests itself in the mechanisms of relations between states. In this study, it is both the search for synergy in the social influence of various institutional forms within economic relations in Japanese-Central Asian relations, as well as the penetration of economic forces into other areas of interstate interaction.

Keywords: *multilateral relations, Asian countries, cooperation, Central Asia, Japan.*

Ko‘p tomonlama munosabatlar – bu xalqaro maydonda kechadigan, ikkidan ortiq davlatlar ishtirok etadigan hamda maxsus, barqaror institutlar shaklida amalga oshiriladigan munosabatlardir. Shuningdek, ko‘p tomonlama munosabatlar ikkidan ortiq davlatlardan iborat bo‘lgan nodavlat subyektlar ishtirok etadigan, tijoriy manfaat va foyda olishni maqsad qilmagan, hamda maxsus tashkil etilgan barqaror institutlar doirasida kechadigan aloqalar deb ham ataladi [1].

Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarni o‘rganish siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatlarni tahlil qilishni, shuningdek tomonlar duch kelayotgan muammolarni ko‘rib chiqishni o‘z ichiga olishi mumkin.

Siyosiy aspektga oid yondashuvlar 1-rasmda aks ettirilgan. Quyida siyosiy aspektning asosiy tarkibiy qismlari tahlil qilinadi.

“Markaziy Osiyo + Yaponiya” tashabbusini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, 2004 yilda Tokyo Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlik va mustaqil rivojlanishni rag‘batlantirishga qaratilgan muloqot formatini yaratish tashabbusi bilan chiqqan.

Dastlabki yillarda ushbu muloqot asosan tashqi ishlar vazirlari darajasidagi uchrashuvlar shaklida faoliyat yuritgan. Muhokama qilinadigan asosiy masalalar qatoriga quyidagilar kirgan: mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlik, mintaqadagi hamkorlik va muvofiqlashtirish, terrorizm va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurash, islohotlar va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash hamda mintaqaviy va global kun tartibidagi dolzarb masalalar bo‘yicha hamkorlik.

Keyinchalik ushbu muloqot formatiga iqtisodiy komponent ham qo‘shila boshladi. 2023 yilda Yaponiya va mintaqa davlatlari iqtisodiyot va energetika vazirlari o‘rtasida Iqtisodiyot va energetika vazirlari muloqoti ishga tushirildi. Ushbu tashabbus natijasida iqlim bo‘yicha majburiyatlar va toza energiyaga o‘tish masalalarini muhokama qiluvchi qo‘shma bayonotlar qabul qilindi [2].



1-rasm. Markaziy Osiyo va Yaponiya ko‘p tomonlama munosabatlarining siyosiy jihatlari.

Mazkur format vaqt o‘tishi bilan biznes tashabbuslarini ilgari surish uchun institutsional maydon sifatida ham shakllandi. Uning doirasida muntazam ravishda biznes-forumlar tashkil etila boshlandi. Jumladan, 2024 yilda Ostona shahrida o‘tkazilgan biznes-forum yakunida bir qator hamkorlik memorandumlari, shu jumladan sanoat loyihalarini amalga oshirishga oid kelishuvlar imzolandi.

2025 yilda Ostona shahrida baholash sohasidagi ekspertlar, ilmiy doira vakillari hamda amaliyotchilar ishtirokida “Markaziy Osiyo – Yaponiya” formatidagi ilk ekspertlar muloqoti bo‘lib o‘tdi. Ushbu muloqot doirasida ikki tomonlama va ko‘p tomonlama hamkorlikning dolzarb yo‘nalishlari, mintaqaviy integratsiya jarayonlari hamda ularning rivojlanish istiqbollari muhokama qilindi.

Shuningdek, 2025 yil dekabr oyida Yaponiya poytaxti Tokyoda Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya yetakchilari ishtirokida yuqori darajadagi ilk sammit uchrashuvi o‘tkazildi. Mazkur tadbir 2004 yilda mintaqaviy hamkorlikni mustahkamlash va barqaror rivojlanishni rag‘batlantirish maqsadida asos solingan ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlik platformasining institutsional evolyutsiyasida muhim bosqich sifatida baholanadi.

Ko‘p tomonlama o‘zaro hamkorlikni shakllantirish jarayonida Tokyo o‘zining Hind va Tinch okeani mintaqasiga yo‘naltirilgan siyosati doirasida Markaziy Osiyo davlatlaridagi ta’sirini izchil ravishda kengaytirib bormoqda. Shu bilan birga, Yaponiya qonun ustuvorligi va umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarga asoslangan xalqaro aloqalar modelini ilgari surmoqda. Markaziy Osiyo mamlakatlari Yaponiyani aniq strategik pozitsiyaga ega hamkor sifatida qabul qilmoqda hamda uning mintaqadagi ishtirokini siyosiy-iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishni ta’minlash uchun zarur omil deb hisoblashmoqda.

Mintaqaga oid milliy strategiyaning izchil shakllantirilgani va ko‘p qirrali xalqaro hamkorlik Yaponiyaga mintaqa uchun umumiy bo‘lgan muammolarni bartaraf etishga sezilarli hissa qo‘shish imkonini bermoqda. Shu bilan birga, Yaponiya hukumati boshqa davlatlarga ekologik tahdidlarga qarshi kurashish va tabiiy muvozanatni saqlab qolish borasida ko‘maklashmoqda [6].

Uning ichki siyosati o‘z ichiga quyidagi yo‘nalishlarni kiritadi:

1. Mintaqaviy nomutanosibliklarni muvozanatlashtirish. Yaponiya quyidagi yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan kompleks mintaqaviy siyosatni amalga oshiradi:

Umumtizimli siyosat – davlat barcha mintaqalarni bir xil darajada qo‘llab-quvvatlaydi hamda ularning faolligini rag‘batlantirish maqsadida iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy muhitni shakllantiradi.

Selektiv siyosat – davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashga eng ko‘p muhtoj bo‘lgan mintaqalarni aniqlash hamda ularga nisbatan maxsus choralar, jumladan soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalarini qo‘llashni nazarda tutadi.

2. Infratuzilmani modernizatsiya qilish. Mintaqaviy rivojlanish strategiyalari va rejalari hududlarni kompleks obodonlashtirishni, jumladan megapolislar va chekka hududlarni qamrab olgan holda, tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun zarur shart-sharoitlarni hamda mamlakatning har bir fuqarosi uchun taqqoslanadigan darajadagi qulaylikni ta’minlashni nazarda tutadi.

3. Demografik muammolarni kamaytirish. Mintaqaviy siyosat doirasidagi ko‘plab chora-tadbirlar Yaponiyada jamiyatning keksayib borishi bilan bog‘liq salbiy oqibatlarni yumshatishga, shuningdek, eng tez qarib borayotgan shahar va qishloqlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan.

Tashqi siyosat orqali ko‘p tomonlama munosabatlarni yo‘lga qo‘yishga qaratilgan quyidagi yo‘nalishlar amalga oshiriladi:

1. Tokyo Tinch okeani hamda Osiyo makonida ko‘p tomonlama hamkorlik platformalaridagi ishtirokini izchil ravishda kengaytirib bormoqda. Yaponiya delegatsiyalari muntazam ravishda Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari Assotsasiyasi (The Association of Southeast Asian Nations – ASEAN) mintaqaviy formatlarida ishtirok etib, ASEAN homiyligida o‘tkaziladigan, muloqot bo‘yicha hamkorlar jalb etiladigan mudofaa darajasidagi uchrashuvlarda qatnashadi hamda Sharqiy Osiyo davlatlari sammitlarida faol ishtirok etadi. Ushbu faollik mazkur geografik makonda Yaponiyaning iqtisodiy manfaatlarini ta’minlash va ilgari surishga, davlatlar o‘rtasida ishonch mexanizmlarini shakllantirish va mustahkamlashga, shuningdek, mintaqadagi vaziyat yuzasidan mutaxassislar fikrlari va axborot almashinuvining doimiy tizimini yo‘lga qo‘yishga qaratilgan.

2. Moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatish. Masalan, 2004 yilda Hind okeanida sodir bo‘lgan zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Yaponiya hukumati 500 million AQSh dollarini ajratgan. Ushbu mablag‘ tabiiy ofatlarning zararini kamaytirish va jabrlangan hududlarda tiklanish ishlarini qo‘llab-quvvatlashga yo‘naltirilgan.

3. Tokyo Janubi-Sharqiy Osiyo mintaqasida integratsiyalashgan iqtisodiy zonani shakllantirish tashabbuslarida faol ishtirok etmoqda, xususan, ASEAN bilan hamkorlik orqali. Ushbu formatlardagi ishtirok Yaponiya texnologik yechimlari va biznes-modellarini joriy etish, shuningdek, infratuzilma va barqaror rivojlanish dasturlarini amalga oshirish uchun kanal vazifasini o‘taydi [1].

Keyingi bo‘limda iqtisodiy jihatga o‘tamiz (2-rasmga qarang).

Investitsiya hamda savdo-iqtisodiy hamkorlikni tahlil qilish investitsion faollikni o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarining o‘zaro investitsiyalarini tahlil qilamiz.

Markaziy Osiyo investitsion portfeli mamlakatlar kesimida mujassamlashganligi bilan tavsiflanadi. Investitsiyalarning asosiy hajmi (92%) uch mamlakat hissasiga to‘g‘ri keladi – O‘zbekiston (22,6 mlrd AQSh dollari), Turkmaniston (20,6 mlrd AQSh dollari) va Qozog‘iston (19,3 mlrd AQSh dollari) [5].

Investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha eng yuqori o‘sish sur’atlari O‘zbekistonda kuzatilmoqda. Xususan, 2016 yildan buyon to‘plangan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar hajmi 45 baravardan ortiq oshgan. So‘nggi bir yarim yil davomida mamlakatga kiritilgan investitsiyalar hajmi ikki baravar ko‘payib,

11,0 mlrd AQSh dollaridan 22,6 mlrd AQSh dollarigacha yetdi. Mazkur jarayon ko‘rib chiqilayotgan davrda Markaziy Osiyo bo‘yicha investitsiyalarning umumiy o‘sishining qariyb 62 foizini ta’minladi hamda investitsiya muhitining yaxshilanishi, sanoatni modernizatsiya qilish va energetik transformatsiya jarayonlarining jadallashuvi bilan izohlanadi [1].



2-rasm. Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya ko‘p tomonlama munosabatlarining iqtisodiy jihatlari.

2025 yil 20-dekabr kuni Tokyo shahrida «Markaziy Osiyo + Yaponiya» formatidagi ilk uchrashuv bo‘lib o‘tdi. Yaponiya hukumati rahbari Sanae Takaichi yaqin besh yil davomida Markaziy Osiyo mamlakatlarida loyihalarni amalga oshirish uchun taxminan 3 trillion yena (19 mlrd AQSh dollaridan ortiq) miqdorida investitsiya kiritishga Yaponiya tayyor ekanini ma’lum qildi [8].

Yaponiya barcha tomonlar uchun manfaatli bo‘lgan loyihalarni uchta ustuvor yo‘nalishda, ya’ni yashil barqarorlik, transport infratuzilmasi hamda inson resurslarini rivojlantirish sohalarida ilgari surishni rejalashtirmoqda.

Yaponiya sarmoyalarining ba’zi bir yo‘nalishlari:

- Transkaspiy xalqaro transport yo‘lagini hisobga olgan holda global ta’minot zanjirlarining uzluksiz faoliyatini qo‘llab-quvvatlash;
- sun’iy intellekt sohasidagi hamkorlikni mustahkamlash;
- global ta’minotlarni diversifikatsiya qilish maqsadida hayotiy zarur foydali qazilmalar sohasidagi hamkorlik [5].

2025 yil holatiga ko‘ra, Yaponiya Markaziy Osiyo mamlakatlari orasida eng katta investitsiyalarni Qozog‘istonga kiritgan bo‘lib, ularning umumiy hajmi 8,5 mlrd AQSh dollaridan oshadi. Respublikada yapon kapitali ishtirokidagi qariyb 70 ta korxona faoliyat yuritmoqda.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo aloqalarining rivojlanishi Yaponiya iqtisodiyoti uchun mahsulotlarni realizatsiya qilishning qo‘shimcha kanallarini ochib beradi hamda mintaqaga xos bo‘lgan tabiiy resurslarning barqaror oqimini ta’minlaydi. Bunday hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘yish Tokyoga xalqaro munosabatlarning keskinlashuvi sharoitida iqtisodiy zaiflikni kamaytirish, xomashyo yetkazib berishning muqobil yo‘nalishlarini shakllantirish va iste’mol bozorlarini kengaytirish imkonini beradi. Xususan, Markaziy Osiyo davlatlarida dunyodagi eng yirik uran zaxiralaridan ayrimlari, shuningdek, nodir rangli metallarining sezilarli hajmlari jamlangan [2].

Markaziy Osiyo davlatlari bir qator ustuvor tarmoqlarda, xususan, energetika tizimlarini qayta jihozlash, tranzit tarmog‘ini kengaytirish, ekologik yo‘naltirilgan yechimlarni joriy etish hamda uglerod chiqindilarini qisqartirish dasturlarini amalga oshirishda Yaponiyaning texnologik ishlanmalariga murojaat qilmoqda. Hamkorlik shunday yo‘lga qo‘yilganki, eksport qilinadigan tabiiy resurslar evaziga zamonaviy texnologiyalar va zarur bilim hamda tajribalardan foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Madaniy va gumanitar hamkorlikni o‘rganish quyidagi yondashuvlarni nazarda tutadi (3-rasmga qarang).

3-rasm. Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarning madaniy jihatlari.

Markaziy Osiyo davlatlarida yapon markazlari tashkil etilgan bo‘lib, ular yapon til kurslarini o‘tkazadi, Yaponiya madaniyatiga oid tadbirlar tashkil qiladi va biznes sohasidagi mutaxassislarni tayyorlaydi. Ushbu markazlar Markaziy Osiyo davlatlari hukumatlari va Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) o‘rtasidagi kelishuvlar asosida ochilgan.

Markaziy Osiyodagi ayrim yapon markazlari misollarini 4-rasmda keltiramiz.

Olma-Ota va Ostonadagi qozoq-yapon markazlari	Toshkent va Buxorodagi o‘zbek-yapon markazlari	Dushanbedagi yapon tili va madaniyati markazi
•Yapon tili kurslari, Yaponiya madaniyatiga oid tadbirlar, shuningdek, kichik va o‘rta biznes uchun biznes-dasturlar tashkil etadi.	•Yapon tili kurslari, madaniy tadbirlar (origami kurslari, choy marosimlari, yapon raqslari kechalari va hk.) va biznes-seminarlar o‘tkazadi.	•Boshlang‘ich darajadagilar uchun yapon tili kurslarini tashkil etadi.

4-rasm. Markaziy Osiyoda yapon markazlariga misollar.

Markazlar til o‘rgatuvchi o‘qituvchilar va ta’lim muassasalariga yordam ko‘rsatadi: o‘qituvchilar uchun kurslar tashkil qiladi, o‘quv materiallarini taqdim etadi. Shuningdek, u yerda til bilan bog‘liq tadbirlar o‘tkaziladi, masalan, tanlovlar, mavzuga oid uchrashuvlar va ma’ruzalar.

Masalan, Buxorodagi o‘zbek-yapon markazida 2 yil davomida o‘tiladigan yapon tili kurslari mavjud bo‘lib, shuningdek, turizm sohasida qisqa muddatli 3 oylik kurslar va yapon tilini bilish darajasini aniqlash bo‘yicha xalqaro imtihon (JLPT)ga tayyorgarlik uchun 6 oylik kurslar ham tashkil etilgan [3].

Yaponiya va Markaziy Osiyoning bir qator davlatlari universitetlar darajasida almashinuvlarni qo‘llab-quvvatlamoqda. Ushbu ta’lim sohasidagi aloqalar CA+JAD formati doirasidagi hamkorlik kontekstida rivojlanmoqda. 2025 yilning so‘nggi oyida ushbu formatdagi rahbarlarning ilk uchrashuvi chog‘ida Tokyoda tayyorlangan hujjat imzolanib, unda Yaponiya mintaqaning besh davlati bilan akademik almashinuvlarini kengaytirishi rejalari qayd etilgan.

Ommaviy diplomatiya Markaziy Osiyo mamlakatlari va Yaponiya o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir ko‘rsatadi. Mintaqalarda ommaviy diplomatiyaga bo‘lgan yondashuvlar o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Markaziy Osiyo mamlakatlarining ommaviy diplomatiya sohasidagi maqsadlari – mintaqa davlatlari o‘rtasida ishonchli aloqalarni shakllantirish hamda nizolarni tartibga solishdan iborat. Ayrim strategiyalar quyida keltirilgan:

1. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining muntazam maslahat uchrashuvlari mintaqaviy ustuvor yo‘nalishlarni muvofiqlashtirish hamda tashqi chaqiriqlarga nisbatan umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish uchun muhim platforma vazifasini bajaradi.

2. Institutsional formatlarda ishtirok etish – masalan, Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) doirasida – bunda Markaziy Osiyo mamlakatlari ishonchli va konstruktiv tayanch sifatida namoyon bo‘ladi.

3. Nizolarni tartibga solishda ommaviy diplomatiyadan foydalanish – mintaqa ichidagi keskin qarama-qarshiliklar bo‘yicha konstruktiv muloqotni yo‘lga qo‘yishga xizmat qiladi.

4. Markaziy Osiyoda ommaviy diplomatiya vositalariga axborot tarqatish, gumanitar almashinuvlar, oliy darajadagi o‘zaro tashriflar hamda diplomatik PR-kampaniyalar kiradi.

Tokyoning ommaviy tashqi siyosiy tashabbuslari doirasida Markaziy Osiyo davlatlariga nisbatan bir qator asosiy ustuvor yo‘nalishlar ilgari suriladi: mamlakatning ijobiy jamoatchilik qiyofasini shakllantirish, ushbu davlatlarning mustaqil rivojlanish yo‘nalishlarini qo‘llab-quvvatlash hamda ular o‘rtasida faol hamkorlikni rag‘batlantirish. Mazkur ustuvor yo‘nalishlar Tokyoning ushbu geografik hudud jamiyatlari bilan o‘zaro aloqalarini mustahkamlash va mintaqadagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan o‘zaro chora-tadbirlar majmui sifatida talqin etiladi. Ularni amalga oshirish yo‘nalishlariga quyidagilar kiradi:

- Yaponiya va Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida hamkorlik formatini yo‘lga qo‘yish tashabbusi amalga oshirildi; o‘zaro hamkorlik bir necha darajadagi ishtirok doirasida rivojlanmoqda – vazirlik rahbarlari va davlat xizmatchilari uchrashuvlaridan tortib, ekspertlar yig‘ilishlari hamda ishbilarmon doiralar vakillari o‘rtasidagi aloqalargacha. Kun tartibiga suv resurslarini boshqarish, qishloq xo‘jaligi sohasini rivojlantirish, chegara xavfsizligini ta’minlash, turizm hamda boshqa yo‘nalishlarni qamrab olgan keng ko‘lamli masalalar kiritilgan.

- Madaniy-diplomatik amaliyotlar – bu turli tadbirlar majmui sifatida tushuniladi: Yaponiyaga oid ma’lumotlarni keng auditoriyaga yetkazish, uning tarixiy va zamonaviy madaniy namoyishlarini taqdim etish, yapon tilini o‘rganishga qiziqish uyg‘otish hamda shaxslararo almashinuv dasturlarini tashkil etish. Markaziy Osiyo davlatlari hududida bunday tashabbuslar muntazam ravishda amalga oshiriladi va ular nafaqat poytaxt markazlarida, balki mamlakatlarning katta hududlarini ham qamrab oladi [1].

- XXI asrning ilk yillarida Qozog‘iston, Qirg‘iziston va O‘zbekiston hududlarida birlashtirilgan tuzilmalar paydo bo‘lgan bo‘lib, ular kadrlar salohiyatini oshirishga qaratilgan. Ularning dasturlariga tadbirkorlik kurslari, yapon tilini o‘rganish mashg‘ulotlari, kompyuter sinfxonalari bilan jihozlangan auditoriyalar hamda axborot va madaniy almashinuvni rivojlantirishga yo‘naltirilgan loyihalar kiradi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan Yaponiyaning o‘rtasidagi keng ko‘lamli aloqalar bir vaqtning o‘zida afzalliklarga ega bo‘lib, bir qator xavf-xatarlarni ham yuzaga keltirishi mumkin. Ushbu tizimdagi asosiy qiyinchiliklar davlatlar darajasidagi boshqaruv, ishbilarmonlik va moliyaviy faoliyat, asosiy xo‘jalik va transport infratuzilmasi holati hamda aholining hamkorlikni qabul qilishi bilan bog‘liq.

- Hududdagi davlatlar qarashlardagi tafovutlari va turli tarkibi barqaror ko‘p tomonlama hamkorlik mexanizmlarini yaratishni murakkablashtiradi. Masalan, 2020 yilda Yaponiya hukumati Markaziy Osiyo davlatlari bilan hamkorlik platformasini boshlashga harakat qilgan, biroq ushbu tashabbus mintaqaning ichki birdamligi sustligi sababli kutilgan natijalarni bermagan edi.

- Tokyo ushbu hududda xorijiy subyektlarning siyosiy va iqtisodiy ishtirokining oshishiga nisbatan ehtiyotkorlikni saqlaydi. Yapon davlat idoralarida mintaqada barqarorlikni ta’minlashda Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)ning faol rolini va Xitoy hamda Rossiya yirik energetika holdinglarining Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi faoliyatining kuchayishini xavotir bilan kuzatishadi.

- Savdo aylanmasi hajmi nuqtai nazaridan Yaponiya mintaqaviy hamkorlariga nisbatan sezilarli darajada ortda. Masalan, 2023 yilda Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi umumiy tovar aylanmasi 2,02 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo‘lib, bu miqdor ushbu mintaqa bilan Xitoyning tashqi savdo aylanmasining taxminan 2,26% ini tashkil etadi; Xitoyning Markaziy Osiyo bilan savdo aylanmasi 89,42 milliard AQSh dollari deb baholangan.

- Yaponiya va Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi tovar ayirboshlashning katta qismi uning geosiyosiy raqiblari – Xitoy va Rossiya hududlaridan o‘tuvchi transport tarmoqlariga tayanadi. Potensial yuk oqimlarini boshqa transport yo‘llariga qayta yo‘naltirish logistik xarajatlarning oshishiga olib kelishi va yapon yetkazib beruvchilarning bozor pozitsiyalarini zaiflashtirishi mumkin.

- Markaziy Osiyo davlatlarining infratuzilmasi rivojlanmaganligi mintaqaning boy tabiiy resurslarini o‘zlashtirishni qiyinlashtiradi; ayni resurslarga yapon investitsiyalari loyihalarni amalga oshirish uchun yo‘naltiriladi.

- Mintaqaning bo‘linganligi – ba’zi davlatlar Yevroosiyo Iqtisodiy Ittifoqiga a’zo, boshqalari – Jahon Savdo Tashkilotiga, ayrimlari, masalan, Turkmaniston, neytral siyosat yuritib, kamroq integratsiyalashadi; bu esa tashqi investitsiyalarni jalb qilishda muammolar tug‘diradi [5].

- Markaziy Osiyo mamlakatlarida Yaponiya ijobiy qabul qilinadi. Masalan, Qirg‘izistonda jamoatchilik fikri Yaponiya bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirishga yo‘naltirilgan, chunki Yaponiya mintaqada “yumshoq kuch” siyosatini amalga oshirmoqda.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo davlatlari va Yaponiya o‘rtasidagi ko‘p tomonlama munosabatlarni o‘rganish turli murakkabliklarga duch keladi, ular metodologik yondashuvlar, axborot manbalari va tadqiqotchilar duch keladigan muammolar bilan bog‘liq. Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatini shakllantirish va rivojlantirish jarayonidagi tarixiy, iqtisodiy va siyosiy xususiyatlarni kompleks tarzda o‘rganish davomida quyidagi qiyinchiliklar yuzaga keladi: Yaponiyaning mintaqadagi manfaatlar tabiatini uning iqtisodiy va siyosiy sohalardagi asosiy tashabbuslarini ochish orqali ifodalash; Markaziy Osiyo mamlakatlarining geografik joylashuvi va resurs salohiyatini hisobga olgan holda Yaponiyaning mintaqadagi siyosiy ustuvor yo‘nalishlarini shakllantirish; Markaziy Osiyodagi Yaponiya va AQSh siyosatining o‘zaro bog‘liqligi, masalan, mintaqaning ayrim davlatlariga moliyaviy va boshqa turdagi yordam ko‘rsatishning o‘ziga xos jihatlari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Борисов, Д.А. Международная власт Японии в Центральной Азии: экономические аспекты / Д.А. Борисов // Вестник Санкт-Петербургского университета. Международные отношения. – 2025. – Т. 18, № 1. – С. 47-62.
2. Дмитриева, М.О. Япония в новой «болшой игре» в Центральной Азии: фактор Китая / М.О. Дмитриева // Россия и Китай: история и перспективы сотрудничества. – 2025. – № 4(15). – С. 559-563.
3. Добринская О.А. Особенности «мягкой силы» Японии в странах Центральной Азии. [Электронный ресурс] - Режим доступа: file:///C:/Users/Admin/Downloads/osobennostimyagkoy-sily-yaponii-v-stranah-tsentralnoy-azii.pdf - Загл. экрана.
4. Добринская О.А. Энергетическая дипломатия Японии и Центральной Азии. [Электронный ресурс]. - Режим доступа: file:///C:/Users/Admin/Downloads/podhodyaponii-k-energeticheskoy-bezopasnosti-v-vostochnoy-azii.pdf
5. Нуралиев Н.А. Геополитическое влияние Японии в Центральной Азии и взаимоотношения с Кыргызстаном / Н.А. Нуралиев, Э.А. Жангазиева, А.К. Жолдошев, Б.Э. Булатов // Вестник Международного Университета Кыргызстана. – 2024. – № 1(53). – С. 30-39.
6. Сидоренко Н.В. Применение инструментов мягкой силы во внешней политике Японии в государствах Центральной Азии / Н.В. Сидоренко // Социально-гуманитарные знания. – 2025. – № 11. – С. 474-476.
7. Шадаева Ш.А. Япония и Центральная Азия: эволюция дипломатических механизмов взаимодействия / Ш.А. Шадаева // Журнал «Международные отношения и регионоведение». – 2025. – Vol. 61, No. 3.
8. Zakirov B. Japan Is Back in Central Asia, But on Different Terms [Электронный ресурс]. - Режим доступа: https://thediplomat.com/2026/01/japan-is-back-in-central-asia-but-on-different-terms/

XALQARO MUNOSABATLARDA TA’LIM DIPLOMATIYASI TUSHUNCHASI MAZMUNI: UNING NAZARIY-ILMIY ASOSLARI

Dilso’z Nishonova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: *Mazkur ishda xalqaro munosabatlar tizimida ta’lim diplomatiyasining tushunchasi, mazmun-mohiyati hamda uning nazariy-ilmiy asoslari tahlil etiladi. Ta’lim diplomatiyasi davlatlarning tashqi siyosiy maqsadlarini amalga oshirishda ta’lim sohasidan samarali vosita sifatida foydalanish jarayoni sifatida yoritiladi. Unda ta’lim almashinuv dasturlari, xalqaro stipendiyalar, akademik mobil’lik, qo‘shma ta’lim muassasalari va ilmiy hamkorlik mexanizmlarining davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlashdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, ta’lim diplomatiyasining “yumshoq kuch” (soft power) konsepsiyasi, jamoat diplomatiyasi va madaniy diplomatiya bilan o‘zaro bog‘liqligi nazariy jihatdan asoslanadi. Tadqiqotda globallashuv jarayoni, raqamli transformatsiya hamda zamonaviy geosiyosiy sharoitda ta’limning strategik resurs sifatidagi ahamiyati ko‘rsatib o‘tiladi. Xulosa sifatida, ta’lim diplomatiyasi davlatlarning xalqaro nufuzini oshirish, barqaror hamkorlikni rivojlantirish va global muammolarni hal etishda muhim omil ekanligi ilmiy jihatdan asoslab beriladi.*

Kalit so‘zlar: *ta’lim diplomatiyasi, xalqaro munosabatlar transformatsiyasi, yumshoq kuch, ko‘pqutblilik, globallashuv, konstruktivizm, institutsional yondashuv, mintaqaviy integratsiya, geosiyosiy raqobat.*

Аннотация: *В данной работе анализируются понятие, сущность и теоретико-научные основы образовательной дипломатии в системе международных отношений. Образовательная дипломатия рассматривается как процесс эффективного использования сферы образования в реализации внешнеполитических целей государств. Раскрывается роль программ образовательного обмена, международных стипендий, академической мобильности, совместных образовательных учреждений и механизмов научного сотрудничества в укреплении взаимного доверия между государствами. Также теоретически обосновывается взаимосвязь образовательной дипломатии с концепцией «мягкой силы» (soft power), публичной и культурьной дипломатией. В исследовании показано значение образования как стратегического ресурса в условиях глобализации, цифровой трансформации и современной геополитической обстановки. В заключение научно аргументируется, что образовательная дипломатия является важным фактором повышения международного авторитета государств, развития устойчивого сотрудничества и решения глобальных проблем.*

Ключевые слова: *образовательная дипломатия, трансформация международных отношений, мягкая сила, многополярность, глобализация, конструктивизм, институциональный подход, региональная интеграция, геополитическая конкуренция.*

Abstract: *This article provides a scholarly analysis of the theoretical and conceptual foundations, essence, and practical significance of education diplomacy within the system of international relations. Education diplomacy is examined as an important instrument of foreign policy, and its interconnection with the concept of soft power, as well as its integration with public and cultural diplomacy, is theoretically substantiated. The study explores the role of educational exchange programs, academic mobility, international grants and scholarships, joint educational initiatives, and scientific cooperation mechanisms in fostering mutual trust and sustainable partnerships among states. Based on systemic, comparative, and institutional approaches, the article assesses the role of education diplomacy in the context of contemporary globalization and digital transformation. The conclusion summarizes, on the basis of scholarly evidence, the significance of education diplomacy in enhancing a state's international image*

and reputation, promoting strategic partnerships, and contributing to the resolution of global challenges.

Keywords: *education diplomacy, transformation of international relations, soft power, multipolarity, globalization, constructivism, institutional approach, regional integration, geopolitical competition.*

KIRISH

XXI-asr boshlariga kelib globallashuv jarayonlarining intensivligi yanada kuchayib ketmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlarda o'zaro ishonchning chuquq tanazzulga yuz tutishi natijasida global xavfsizlik va barqaror rivojlanishga nisbatan jiddiy tahdidlar tobora kuchayib, geosiyosiy jarayonlar shiddat bilan o'zgarib bormoqda [1]. Ko'pqutblilik jarayonlari bir tomondan, xalqaro munosabatlarning o'ziga xos yangi xususiyatlar kasb etayotganini anglatsa, boshqa tomondan esa ko'pqutblilikning chuqurlashuvi insoniyat oldiga yangi muammolarni yuzaga chiqarmoqda. Zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida kuchlar muvozanati faqat harbiy va iqtisodiy salohiyat bilan belgilanmay, davlatlarning intellektual resurslari, ta'lim sifati va ilmiy nufuzi ham xalqaro maydondagi ta'sir doirasini kengaytiruvchi muhim omilga aylanmoqda. Shu sababli ta'lim diplomatiyasi davlatlararo raqobat va hamkorlikning muhim vositasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Qiziqarli jihati shundaki, bunday sharoitda, BMT, Yevropa Ittifoqi kabi yirik xalqaro tashkilotlar mustahkam birlikni namoyish etish o'rniga buning aksini ko'rib, guvohi bo'lmoqdamiz. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Jahon miqyosida ishonch inqirozi kuzatilmoqda. Bunday murakkab sharoitda amaliy hamjihatlik va hamkorlik ruhini saqlash, umumiy manfaatlarni mavjud ziddiyatlardan yuqori qo'ygan holda, mamlakatlarni jipslashtirish g'oyasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib bormoqda" [2]. Ana shunday murakkab vaziyatni hisobga olgan holda, xalqaro munosabatlar tizimida ta'lim diplomatiyasini ilmiy-nazariy tadqiq etish har qachongidan ham dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqot xalqaro munosabatlar transformatsiyasining murakkab multifaktorli hodisasini o'rganishda nafaqat metodlar, balki yondashuvlarni qo'llash orqali ham ilmiy tadqiq etildi. Shuningdek, xalqaro munosabatlar tizimini o'rganishda muayyan davlatning tashqi siyosiy faoliyatidagi ta'lim diplomatiyasini baholash mezonlarini olish uchun ijtimoiy yondashuvdan ham foydalanildi.

Ushbu yondashuv muayyan subyekt bo'lgan davlatni xalqaro ishtirokchilarining u yoki bu guruhiga nisbat berish orqali baholash uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, neo-institutsional va namunaviy yondashuvlar ham ushbu ilmiy tadqiqot ishida qo'llanildi. Bu esa xalqaro munosabatlarda ta'lim strategiyasi transformatsiyasini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganishga yordam beradi. Xalqaro munosabatlar nazariyasida ta'lim diplomatiyasi davlatning tashqi siyosiy strategiyasining gumanitar komponenti bo'lib, u bilim, madaniyat va qadriyatlar transferi [3] orqali xorijiy auditoriyaga ta'sir o'tkazishni ko'zda tutadi [4]. Shu o'rinda diplomatiya va ta'lim diplomatiyasi uzi nima degan savol tug'iladi. Diplomatiya – xalqaro munosabatlar va davlatlararo siyosiy muloqotning an'anaviy mexanizmi sifatida tarixan uzoq davom etgan fenomen bo'lib, u XVIII asr fransuz tilidagi *diplomate* [5] so'zidan kelib chiqqan va xalqaro hujjatlar almashinuviga bog'langan tushuncha sifatida tasvirlanadi. Diplomatiya an'anaviy ravishda siyosat, xavfsizlik va iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq edi [6-210]. Ta'lim diplomatiyasi atamasi rasmiy bir shaxs tomonidan "birinchi marta kiritildi" deb aniq qayd etilmagan bo'lsa ham, ilmiy diskursda u quyidagicha paydo bo'lgan:

Birinchidan: XX asr o'rtalari: Xalqaro ta'lim almashuvlari, stipendiyalar va davlat qo'llab-quvvatlovi bilan bog'liq tadqiqotlar paydo bo'ldi. Bu davrda "ta'limning xalqaro siyosatdagi roli" mavzusi xalqaro pedagogika va xalqaro munosabatlar maktablarida tahlil qilina boshlandi [7-320].

Ikkinchidan: 1990–2000-yillar: Yumshoq kuch konsepsiyasi xalqaro ta'limni diplomatiya instrumenti sifatida maktablarda, universitetlarda va hukumat strategiyalarida ko'proq ilmiy baholanadigan mavzu sifatida mustahkamlandi [8].

Uchinchidan: 2000-yillardan – hozirgi davr: Globalizatsiya, universitetlararo shartnomalar, xalqaro grantlar, talaba mobilligi va bilim diplomatiyasi nazariyalari keng tarqaldi. Bu davrda "ta'lim diplomatiyasi" atamasi yanada aniq konsept sifatida qo'llanadi va u xalqaro strategik hamkorlik vositasi sifatida ilmiy tadqiqotlarda uchraydi [9].

Ta’lim diplomatiyasi an’anaviy diplomatiya usullaridan farqli ravishda ta’lim va bilim almashish mexanizmlari orqali xalqaro ta’sir o‘tkazishni anglatadi. Bu tushuncha XX asr o‘rtalaridan boshlab, xalqaro ta’lim almashinuvi va davlatlararo madaniy aloqalar mustahkamlanishi bilan o‘ziga xos ilmiy mavzu sifatida shakllana boshladi. Ta’lim orqali shakllangan ijobiy munosabatlar uzoq muddatli bo‘lib, ular siyosiy konyunkturadan [10] nisbatan mustaqil xarakterga ega [11]. Xorijda ta’lim olgan mutaxassislar va siyosiy elita vakillari ko‘pincha o‘qigan davlatiga nisbatan ijobiy munosabatni saqlab qoladi, bu esa kelajakda siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqaro munosabatlar nazariyasida ta’lim diplomatiyasi tushunchasi nisbatan yangi ilmiy kategoriya bo‘lib, u davlatning tashqi siyosiy maqsadlariga erishishda ta’lim tizimi, akademik almashinuv, ilmiy hamkorlik va bilimlar transferidan tizimli ravishda foydalanish jarayonini anglatadi Mazkur tushuncha diplomatiyaning klassik siyosiy va iqtisodiy shakllarini to‘ldiruvchi, gumanitar yo‘nalishga ega bo‘lgan “yumshoq kuch” mexanizmi sifatida talqin etiladi [12]. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, xalqaro maydonda “yumshoq kuch” (soft power) vositalarining ahamiyati ortib borishi davlatlarning tashqi siyosatida noan’anaviy diplomatik mexanizmlarni faol qo‘llash zaruratini yuzaga keltirdi [13]. Shunday mexanizmlardan biri sifatida ta’lim diplomatiyasi zamonaviy xalqaro munosabatlar tizimida muhim strategik vositaga aylanmoqda [14]. Ta’lim diplomatiyasi orqali davlatlar nafaqat o‘z milliy manfaatlarini ilgari suradi, balki madaniy-gumanitar hamkorlikni chuqurlashtirish, ijobiy xalqaro imijni shakllantirish hamda uzoq muddatli siyosiy va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash imkoniyatiga ega bo‘lmoqda. Albatta, zamonaviy dunyo tartibotini baholashda turli xil metodologi yondashuvlar mavjud. Ba’zi siyosatshunos olimlar xalqaro munosabatlar tizimi postbipolyar davrda ekanini iddao qilmoqdalar [15]. Zamonaviy xalqaro munosabatlar transformatsiyasi atrofidagi bahsli munozalarda yangilanayotgan dunyo tartibotining shakllanishida ta’lim diplomatiyasi mavzusi alohida o‘rin egallagan. Bu borada juda ko‘plab olimlar tadqiqot olib borgan

Amerikalik olim Stephen P. Duggan (1870–1950) xalqaro munosabatlar, xalqaro ta’lim va madaniy diplomatiya sohalarining ilk nazariyotchilaridan biri hisoblanadi [16]. Muhim jihat shuki, Duggan “education diplomacy” (ta’lim diplomatiyasi) atamasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishlatmagan. Biroq u ilgari surgan g‘oyalar mazmunan ta’lim diplomatiyasining ilmiy poydevorini yaratgan. Duggan ta’limni – xalqaro tinchlik vositasi bo’lib, ta’limni “millatlar o‘rtasida o‘zaro tushunishni shakllantiruvchi eng kuchli va barqaror mexanizm”[17] sifatida baholagan. Uning fikricha: siyosiy shartnomalar vaqtinchalik bo‘lishi mumkin, ammo ta’lim orqali shakllangan intellektual va madaniy aloqalar uzoq muddatli bo‘ladi. U 1919-yilda International Institute of Education (IIE) tashkil etilishida boshchilik qilgan. IIEni tashkil etilishi orqali ta’limni xalqaro hamkorlik vositasiga aylantirish konsepsiyasi ilk bor tizimli ravishda amaliyotga kiritildi [18]. Bu hodisa xalqaro talabalarning davlat siyosati kontekstida foydaliligi haqidagi ilmiy fikrlarning boshlang‘ichi sifatida qaraladi (bu holat XX asr boshi – o‘rta davrda xalqaro ta’lim sohasida ilk ilmiy fikrlar uyg‘ongan davr deb tan olinadi). Duggan ta’lim va xalqaro munosabatlar o‘rtasidagi aniq bog‘liqlikni ilk konseptual darajada yoritgan shaxslar sirasiga kiradi [19]. Dugganning ta’lim diplomatiyasini xalqaro talabalarning mobilligini millatlararo tushunishni mustahkamlovchi vosita sifatida ko‘rdi [20], bu esa zamonaviy ta’lim diplomatiyasining konseptual ildizlaridan biri sifatida baholanadi [21]. Bu g‘oya hozirgi ta’lim diplomatiyasining strategik va uzoq muddatli xarakteri bilan to‘liq mos keladi. Mazkur ilmiy tadqiqot ishida keltirilgan aktorlarning turlari va ularning xususiyatlarini o‘rganish natijasida to‘plangan ma’lumotlar yuqoridagi ta’kidlagan yondashuvlarimizdan bir bo‘lgan – namunaviy yondashuv uchun dastlabki ma’lumotlar bo‘lib xizmat qiladi. Amerikalik yana bir taniqli olim Philip Altbach esa Amerika Qo’shma Shtatlarida Xalqaro oliy ta’lim va bilimlar geopolitikasi uning xalqaro munosabatlar davlatlar o’rtasidagi munosabatlarda ta’lim diplomatiyasi yagona muallif tomonidan emas, balki liberalizm, yumshoq kuch va konstruktivizm nazariyalari doirasida faoliyat yuritgan olimlar tomonidan bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, zamonaviy xalqaro munosabatlar fanida mustaqil ilmiy yo‘nalish sifatida shakllantirilgan degan g’oyani ilgari suradi [22].

Bizningcha, ta’lim diplomatiyasini xalqaro munosabatlar fanida mustaqil tushuncha sifatida shakllanishida, aniq bir nazariyotchining “bevosita” ta’rifi emas, balki liberal va konstruktivistik nazariy maktablar doirasida ishlab chiqilgan konseptual qarashlar majmuasi ham hal qiluvchi rol o‘ynagan [23]. Ushbu nazariy yondashuvlar ta’lim, ilm-fan va madaniyatni davlatlararo hamkorlik hamda identitet shakllantirish vositasi sifatida ilmiy jihatdan asoslab berdi [24]. Liberalizmning falsafiy ildizlari Immanuel Kantning asarlarida davlatlar o‘rtasidagi tinchlik, axloqiy me’yorlar, bilim, ma’rifat orqali ta’minlanishini ilgari suradi [25]. Garchi Kant bevosita “ta’lim diplomatiyasi” atamasini ishlatmagan bo‘lsa-da, uning qarashlari ta’limni xalqaro tinchlik va hamkorlikning asosiy omili sifatida talqin qilishga ilmiy zamin yaratgan. XX asr boshida Woodrow Wilson liberalizmni xalqaro siyosatga tadbiq etib, ta’lim

va madaniyat almashinuvini xalqaro barqarorlikning muhim sharti sifatida ko‘rdi [26]. Wilson davrida xalqaro ta’lim almashinuvi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Bu jarayon ta’lim diplomatiyasining amaliy va institutsional asoslarini shakllantirdi [27].

Turizm sohasini tizimli boshqarishda Butunjahon turizm tashkilotining metodologiyalari qo‘llaniladi:

Turizm statistikasi: UNWTOning «Jahon turizmi barometri» va tavsiyalari asosida hududiy turizm statistikasini shakllantirish metodologiyasi ishlab chiqilgan.

Turistlar xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha xalqaro me’yorlar milliy huquqiy hujjatlarga (masalan, «Turizm to'g'risida»gi qonun) singdirilgan.

3. Milliy dasturlar va huquqiy asoslar

O‘zbekiston Standartlar institutining 2025-yil 23-oktabrdagi 127/XSt-son buyrug‘i bilan O‘zMSt ISO 21620:2025 (ISO 21620:2021, IDT) «Turizm va unga bog‘liq xizmatlar. Madaniy meros mehmonxonalari. Jihozlash va xizmat ko‘rsatishga doir talablar» xalqaro standarti tasdiqlandi va davlat ro‘yxatiga olindi [6]. Mazkur standart O‘zbekiston Standartlar instituti tomonidan Turizm qo‘mitasi qoshidagi STQ 9 «Turizm sohasida standartlashtirish bo‘yicha texnik qo‘mita» bilan hamkorlikda ishlab chiqildi. Ushbu standart tarixiy yoki madaniy meros obyektlarida joylashgan mehmonxonalarni jihozlash va ularda ko‘rsatiladigan xizmatlarga oid talablar hamda tavsiyalarni belgilaydi. Standartning asosiy maqsadi – tarixiy obyektlar yoki madaniy meros binolarini asrab-avaylash va ulardan turizm sohasida samarali foydalanish uchun moslashtirishdan iborat.

PANDEMIYA DAVRIDA JORIY QILINGAN TIBBIY STANDARTLASHTIRISH

O‘zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish («O‘zstandart») agentligining qaroriga binoan O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qoshidagi «Turizm xizmatlarini sertifikatlashtirish markazi» DUK tomonidan ishlab chiqilgan yangi davlat standarti tasdiqlandi.

Yangi O‘z DSt 37.001-2020 standarti «Korxonalar faoliyatining xavfsiz sharoitlarini standartlash tizimi. Turistik industriya obyektlarida xavfsiz turistik xizmatlar ko‘rsatishga doir tavsiyalar»ni o‘z ichiga olgan. Standart Sayohat va turizm bo‘yicha xalqaro kengashning (WTTC) «Safe Travels: Global Protocols & Stamp for the New Normal» bayonnomalari, Ispaniyaning «Medidas para la reducción del contagio por el coronavirus SARSCoV-2 Instituto para la Calidad Turística Española (ICTE) » va Turkiyaning «Assessment form on Covid-19 and hygiene practices applied during pandemic for accommodation and food & beverage facilities» hujjatlari asosida ishlab chiqildi [7]. Ushbu standart turizm xizmatlarini taqdim qiladigan tashkilotlar tomonidan qo‘llanishi uchun mo‘ljallangan. Yangi standart infeksion kasalliklarning ommaviy tarqalishi (epidemiya, pandemiya) va undan keyingi davrda turistik industriya obyektlari ishchi va xodimlarining salomatligini himoya qilish uchun maqbul mehnat sharoitini va jarayonini tashkil etish, profilaktik tadbirlarni amalga oshirish, sayyohlarning salomatligini ta’minlash maqsadida ularga sanitariya-gigiyenik xavfsiz xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tavsiyalarni o‘z ichiga oladi va qo‘llanilishda ixtiyoriylik kasb etadi.

Standartdagi tavsiyalar turistik obyektlarda, jumladan joylashtirish vositalari, transport, umumiy ovqatlanish obyektlari va ko‘ngilochar, ma’rifiy, ishbilarmonlik, davolash-sog‘lomlashtirish, jismoniy tarbiya-sport obyektlarda taqdim etiladigan xizmatlarga tatbiq etiladi. Shuningdek, standart obyektlarni tekshirish, baholash yoki tan olish vaqtida ham qo‘llanilishi mumkin. Ushbu standart talablariga muvofiq sertifikatlashtirilgan obyektlarga maxsus tanitish belgisi taqdim qilinadi.

RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASI VA ULARDAN FOYDALANISH

Ko‘plab mamlakatlarda ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan ilg‘or tajriba O‘zbekiston uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan imkoniyatdir. Masalan, Turkiya turizmni rivojlantirishda davlat va xususiy sektor hamkorligini yo‘lga qo‘ygan. 2007-yilda qabul qilingan «Tourism Strategy–2023» dasturi asosida xizmat sifati va infratuzilma standartlashtirilgan [8].

O‘zbekistonda ham turizm klasterlarini rivojlantirish (Chorvoq, Amirsoy, Zomin) aynan shu modelga yaqin yondashuv asosida amalga oshirildi. Turkiya modeli – amaliy va tez natija beruvchi tizim sifatida qo‘llanilgan.

Yaponiya esa turizmda xizmat madaniyati va intizom bilan ajralib turadi. 2016-yilda qabul qilingan turizm strategiyasi xizmat sifatini global darajaga olib chiqishga qaratilgan [9].

O‘zbekistonda gidlar tayyorlash, servis madaniyatini oshirish va mehmondo‘stlikni rivojlantirish hamda kichik biznes va oilaviy turizmni rivojlantirishda ushbu tajriba muhim rol o‘ynaydi.

Fransiya madaniy va gastronomik turizmni rivojlantirish orqali turizm daromadlarini oshirishga erishgan. Tarixiy obidalarni saqlash va ulardan turizmda foydalanish tizimi yuqori darajada tashkil etilgan [9,26].

O‘zbekistonda Samarqand, Buxoro va Xiva shaharlarida madaniy meros asosida turizmni rivojlantirishda ushbu tajriba qo‘llanilmoqda, shuningdek, milliy oshxona taomlari (palov, somsa, milliy taomlar) targ‘ib qilinmoqda. Fransiya tajribasi – madaniy turizmni rivojlantirishda muhim rol o‘ynagan.

Germaniya turizmda qat’iy standartlashtirish va sertifikatlash tizimi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, ekologik turizm va sifat nazorati tizimi rivojlangan [10,118].

O‘zbekistonda ISO standartlarini joriy etish va ekologik turizm zonalarini rivojlantirishda Germaniya tajribasining ta’siri seziladi.

O‘zbekiston uchun xalqaro standartlashtirish tizimini takomillashtirish – bu faqat texnik me’yorlarni qabul qilish emas, balki butun iqtisodiyotning sifat, xavfsizlik va raqobatbardoshlik darajasini oshirish degani. Bu jarayonlar shunchaki qolipni ko‘chirish asosida emas, balki o‘zimizning milliy o‘ziga xosligimizdan kelib chiqqan holda bosqichma bosqich amalga oshirishni talab qiladi. Masalan, O‘zbekiston uchun eng samarali yo‘l – bu «gibrid model», ya’ni

-Germaniyaning sanoat va muhandislik standarti etaloni

-Yaponiyaning sifat va samaradorlik madaniyati

-Janubiy Koreyaning texnologiya va innovatsiya standartlari

-Singapurning logistika va xizmatlar standarti

-AQShning moslashuvchan va innovatsion modellari bo‘lishi mumkin.

Ushbu kombinatsiyalangan standart va modellar davlatimizni eksportga yo‘naltirilgan, texnologik rivojlangan, global bozorda raqobatbardosh iqtisodiyotga aylantirishi mumkin, natijada esa ichki turizm bozori yanada yuqori pog‘onaga ko‘tarilish potensialiga ega bo‘lishi mumkin.

Qo‘shni davlatlar misolida olib qaraydigan bo‘lsak, Qozog‘istonda 2020-yillarda ichki turizmni oshirish uchun soliq imtiyozlari va «Kids Go Free» (bolalarga bepul aviachiptalar) dasturi joriy etilgan [11,260]. Bu tajribalarni o‘rganib, mahalliy sharoitga moslashtirish katta manfaat berishi mumkin. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan hududiy turlar tashkil etishda ham hamkorlik qilish imkoniyati bor – masalan, qo‘shni Qirg‘iziston va Qozog‘istondagi tog‘-turizm maskanlari bilan birlashgan paketlar, yoki Turkmanistonning qo‘shni viloyatlari bilan umumiy sayohat marshrutlari yaratish. Bu kabi hamkorliklar orqali ichki turizm ham transchegaraviy omildan foyda oladi, chunki qo‘shni yurtlarga sayohat qilgan vatandoshlar yo‘l-yo‘lakay o‘z yurtimiz hududlariga ham tashrif buyurishi mumkin.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro standartlarning ahamiyati juda katta. Ular xizmat sifati va xavfsizlikni oshiradi hamda turizmni yangi bosqichga olib chiqadi. Shuningdek, ichki turizmning barcha bo‘g‘inlarida aniq yo‘l xaritasi asosida faoliyat olib borishini ta’minlaydi.

Rivojlangan davlatlarda joriy qilingan xalqaro standartlashtirish tizimi va me’yorlardan ichki turizmning barcha yo‘nalishlarida samarali foydalanish va buning uchun davlatimizning barcha potensial imkoniyatlarini oqilona qo‘llash kerak, chunki O‘zbekiston turizm salohiyati rivojlanayotgan davlatlar qatoridan joy olmoqda va dunyo e’tirof etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-sonli «O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Farmoni. URL: http://lex.uz//uz/docs/-4143188 (murojaat sanasi: 06.01.2019)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrdagi PF-4861-sonli «O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoni. URL: http://lex.uz//docs/-3077301 (murojaat sanasi: 12.12.2016)
3. https://xs.uz/uz/post/turizm-sohasida-davlat-standartlari-haqida-nimalarni-bilasiz (murojaat sanasi: 21.11.2019)
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi 4095-sonli «Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi Qarori. URL: http://lex.uz//docs/-4141452 (murojaat sanasi: 06.01.2019)
5. URL: https://tourquality.uz (murojaat sanasi: 23.11.2025)
6. URL: https://gov.uz/oz/uzbektourism/news/view/105030 (murojaat sanasi: 25.11.2025)
7. URL: https://yuz.uz/uz/news/turizm-sohasida-yangi-standart-qabul-qilindi (murojaat sanasi: 20.08.2020)
8. URL: https://docslib.org/doc/12641912/tourism-strategy-of-turkey-2023-tourism-strategy-of-turkey-2023?utm_source=chatgpt.com (murojaat sanasi: 28.02.2007)
9. Sodiqova G. O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish strategiyasi va istiqbollari. «Science and innovation in the education system» № 15(26) 2025 URL: https://search.app/krp8v57y8TBJahB47
10. Sodikov M. Sustainable tourism and green hotel development in Uzbekistan: adopting international best practices. «International scientific journal Management, Marketing and Finance». № 2(138) 2025. URL: https://jmmf.uz
11. Matkarimov J. O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish strategiyasi: muammolar, imkoniyatlar va innovatsion yechimlar. «Marketingjournal» № 8(260) 2025. URL: https://marketingjournal.uz › article › download (murojaat sanasi: 08.08.2025)

РЕПРЕЗЕНТАТИВНОСТЬ ДАННЫХ В ЭМПИРИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ: ПРОБЛЕМЫ ВЫБОРКИ, ПРЕДВЗЯТОСТИ И ОБОБЩЕНИЯ РЕЗУЛЬТАТОВ

Дильшод Аберкулов

Научный сотрудник Координационно-методического центра по вопросам новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан

Гузал Шаудунова

магистр Национального университета Узбекистана

Annotatsiya. *Mazkur maqolada empirik tadqiqotlarda ma'lumotlar vakilligi muammosi namunaviylik, tarafkashlik va natijalarni umumlashtirish masalalari orqali metodologik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot empirik ma'lumotlarning ilmiy xulosalardagi o'rni va ishonchliligini belgilovchi asosiy omillarni aniqlashga qaratilgan. Tahlil natijalari empirik tadqiqotlarda tanlanma dizaynining puxtaligi, tarafkashlikni kamaytirish va umumlashtirish chegaralarini aniq belgilash ilmiy xulosalarning asoslanganligini ta'minlashini ko'rsatadi. Maqola empirik tadqiqotlar metodologiyasini takomillashtirishga doir nazariy xulosalarni taqdim etadi.*

Kalit so'zlar. *empirik ma'lumotlar, namunaviylik, vakillik, tarafkashlik, umumlashtirish, tashqi validlik, metodologiya.*

Аннотация. *В данной статье представлен методологический анализ проблемы репрезентативности данных в эмпирических исследованиях, в ходе которого рассматриваются вопросы выборки, систематической ошибки и обобщаемости результатов. Цель исследования – выявить ключевые факторы, определяющие роль и достоверность эмпирических данных в научных выводах. Результаты анализа показывают, что обоснованность плана выборки, снижение систематической ошибки и четкое определение пределов обобщаемости в эмпирических исследованиях обеспечивают валидность научных выводов. В статье представлены теоретические выводы по совершенствованию методологии эмпирических исследований.*

Ключевые слова: *эмпирические данные, выборка, репрезентативность, систематическая ошибка, обобщение, внешняя валидность, методология.*

Abstract. *This article methodologically analyzes the problem of data representation in empirical research through the issues of sampling, bias, and generalization of results. The study aims to identify the main factors that determine the role and reliability of empirical data in scientific conclusions. The analysis results demonstrate that in empirical research, the robustness of sampling design, reduction of bias, and clear delineation of generalization boundaries ensure the validity of scientific conclusions. The article presents theoretical insights on improving the methodology of empirical research.*

Keywords: *empirical data, sampling, representativeness, bias, generalization, external validity, methodology.*

Введение. Эмпирические исследования являются важной составляющей научного знания в современных социальных и гуманитарных науках, поскольку позволяют соотнести теоретические конструкции с реальными социальными процессами и объяснить явления и взаимосвязи в обществе на основе фактических данных. В то же время научная значимость эмпирических данных определяется не только их объемом или уровнем технической обработки, но и репрезентативностью выбранной выборки, объективностью процесса сбора данных и методологической обоснованностью обобщения полученных результатов. Опыт практических исследований показывает,

что основные недостатки эмпирического анализа возникают именно в связи с этими тремя факторами – репрезентативностью, систематической ошибкой и обобщаемостью.

Репрезентативность выборки составляет методологическую основу эмпирического исследования. Если выбранная группа респондентов не отражает должным образом ключевые социально-демографические или культурные характеристики общей исследуемой совокупности, полученные данные не будут репрезентативными. В таком случае, хотя эмпирические результаты могут казаться научно обоснованными, сфера их применения серьезно ограничивается. По этой причине проблема репрезентативности является не просто вопросом статистической техники, а проявляется как методологическая проблема, напрямую связанная с эпистемологической обоснованностью научных выводов.

Вторым фактором, серьезно влияющим на качество и достоверность эмпирических данных, является систематическая ошибка. Систематическая ошибка может возникать на различных этапах исследования – при отборе респондентов, составлении анкет, сборе и обработке данных, а также при интерпретации результатов. В этом процессе сознательные или бессознательные предположения исследователя, ограничения выбранных методов, а также поведение респондентов приводят к систематическим искажениям эмпирических данных. В результате эмпирические данные с большей вероятностью становятся набором данных, смещенным в определенном направлении, а не полностью отражающим объективную социальную реальность.[1]

Проблема обобщения результатов является одним из самых сложных и спорных аспектов эмпирических исследований. Зачастую эмпирические результаты, ограниченные конкретными пространственными, временными и социальными контекстами, применяются в более широком масштабе без надлежащего методологического обоснования или четких ограничений. Такой подход подрывает внешнюю валидность научных выводов и создает риск интерпретации результатов эмпирических исследований как универсальных законов. В этом смысле проблема обобщения связана не столько с тем, насколько точно были собраны эмпирические данные, сколько с ответственностью за определение условий, при которых они применимы.

В современной научной литературе вопросы репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости в эмпирических исследованиях рассматриваются в качестве отдельного методологического направления. В частности, вопросы внешней валидности, репрезентативности и снижения систематической ошибки определяются как основные условия повышения надежности эмпирических исследований. С этой точки зрения соблюдение требований методологической строгости, прозрачности и научной осторожности при работе с эмпирическими данными становится непременной необходимостью для современных научных исследований.[2]

Методы. Данное исследование основано на теоретико-методологическом анализе, направленном на выявление сущности проблем репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости эмпирических данных. Дизайн исследования разработан на основе обобщения и критической оценки современных подходов, сложившихся в методологии эмпирических исследований. Методы, используемые в данном разделе, служат для выявления методологических ограничений, возникающих в процессе работы с эмпирическими данными, и для оценки достоверности научных выводов.

В ходе исследования сначала был применен аналитический метод для выявления теоретического содержания понятий «адекватность выборки» и «репрезентативность» в эмпирических исследованиях. С помощью этого метода были концептуально проанализированы такие критерии, как структура выборки, методы выборки и соответствие эмпирических данных генеральной совокупности. В результате было продемонстрировано, что репрезентативность выборки – это не просто статистический показатель, а методологическое условие научной обоснованности эмпирических выводов.[1]

Кроме того, в рамках исследования был применен сравнительный метод для проведения сравнительного анализа научных возможностей и ограничений вероятностных и невероятностных методов выборки. Такой подход позволил выявить влияние различных стратегий выборки на обобщаемость результатов и продемонстрировал, что план выборки является решающим фактором внешней валидности эмпирических результатов.

При изучении проблемы систематической ошибки были использованы методы концептуального анализа и классификации. В частности, систематическая ошибка отбора, систематическая ошибка отсутствия ответов, а также систематические ошибки измерения и интерпретации были

выделены в отдельные группы. Эта классификация позволила отличить ошибки, возникающие в эмпирических данных, от случайных отклонений и оценить их влияние на научные результаты.[3]

Кроме того, в ходе исследования были использованы методы обобщения и индуктивного умозаключения, и на основе методологических подходов, ранее предложенных в отдельных научных исследованиях, были сформулированы общие теоретические выводы. При этом особое внимание уделялось вопросу о том, при каких условиях и в каких пределах можно обобщать эмпирические результаты. Оценка результатов с точки зрения внешней валидности была направлена на обеспечение соблюдения принципов научной строгости в эмпирических исследованиях.[2]

В то же время в ходе исследования применялся критико-рефлексивный подход, что позволяло исследователю сохранять критическое отношение к собственной методологической позиции и интерпретациям. Данный подход позволил снизить риск субъективности и односторонности при интерпретации эмпирических данных.

В целом, методы, использованные в исследовании, были направлены на повышение методологической строгости при работе с эмпирическими данными, выявление ошибок, связанных с репрезентативностью и предвзятостью, а также на обеспечение научно обоснованного подхода к обобщению полученных результатов.

Результаты. Результаты методологического и концептуального анализа показали, что проблемы репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости эмпирических результатов неразрывно связаны между собой. В ходе исследования выяснилось, что достоверность эмпирических результатов зачастую определяется не размером выборки, а тем, насколько выборка отражает состав совокупности. В практических исследованиях адекватность числа респондентов часто интерпретируется как показатель репрезентативности; однако было установлено, что даже большая выборка может оказаться нерепрезентативной, если ее охват ограничен или определенные социальные группы исключены из наблюдения. Эта ситуация еще раз подтверждает, что дизайн выборки составляет методологическую основу для эмпирических выводов.

Анализ показал, что проблема репрезентативности проявляется в основном тремя способами: во-первых, возникает дисбаланс охвата в результате того, что некоторые сегменты населения не охватываются; во-вторых, когда принципы вероятностной выборки не применяются или реализуются формально, выборка не может в полной мере отражать параметры совокупности; В-третьих, чрезмерная представленность определенных групп в выборке приводит к искажению эмпирических показателей по сравнению с реальными социальными пропорциями. На практике эти факторы объясняют, почему статистические обследования требуют проведения выборочных наблюдений с соблюдением определенных методологических требований. [4]

Результаты исследования проблемы предвзятости показывают, что искажение эмпирических данных не ограничивается субъективными взглядами исследователя, а представляет собой совокупность систематических отклонений, возникающих на протяжении всего исследовательского процесса. Ограничения в процессе отбора респондентов, неслучайный характер отсутствия ответов, использование наводящих или неоднозначных формулировок вопросов, а также выборочные решения при обработке данных приводят к смещению эмпирических результатов в определенном направлении. В частности, систематическая ошибка, связанная с отсутствием ответов, проявляется как скрытый источник риска в эмпирическом анализе, и высокий общий уровень ответов не гарантирует объективности эмпирических выводов. В современных методологических подходах оценка систематической ошибки, связанной с отсутствием ответов, и прозрачное сообщение о ней признаются необходимыми предпосылками для обеспечения качества эмпирических исследований [5].

Что касается обобщения результатов, то анализ показал, что одной из наиболее распространённых методологических ошибок в эмпирических исследованиях является именно отсутствие четкого обозначения границ обобщения. Часто данные, ограниченные конкретным местом, временем и социальным контекстом, применяются к широкой популяции или даже на универсальном уровне. В таких случаях эмпирические корреляции с внутренней согласованностью ошибочно принимаются за внешнюю валидность. На самом деле обобщение эмпирического результата на популяцию и его перенос в другие контексты требуют разных методологических условий. Поэтому обобщение – это этап, требующий научной осторожности и подлежащий строгому ограничению в рамках плана исследования, характеристик выборки и контекстуальных факторов.[2]

При обобщении результатов анализа в эмпирических исследованиях выявляется цепочка проблем: ограничения в охвате и отборе приводят к смещению в составе выборки, что, в свою очередь, усиливает различные формы смещения и в конечном итоге приводит к чрезмерной обобщенности полученных результатов. Хотя каждое звено этой цепочки в отдельности может казаться незначительным недостатком, их совокупный эффект отдаляет эмпирические данные от научно обоснованных выводов. С этой точки зрения методологическая строгость, обоснованность плана выборки и четкое определение пределов обобщаемости выступают в качестве ключевых критериев, определяющих научную ценность эмпирических исследований.

О**бсуждение**. Полученные результаты показывают, что проблемы репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости в эмпирических исследованиях не являются отдельными явлениями, а представляют собой взаимосвязанные процессы, формирующиеся в рамках единой методологической концепции. Теоретические подходы, изложенные во введении и в разделе «Методы» исследования, были подтверждены полученными результатами: научная ценность эмпирических данных определяется, прежде всего, обоснованностью плана выборки и четкостью границ обобщаемости. В этом смысле было установлено, что надежность эмпирических выводов зависит в большей степени от методологической строгости, чем от сложности статистической методики.

Анализ результатов показывает, что проблема репрезентативности зачастую рассматривается как «технический вопрос», однако на практике она определяет эпистемологические основы эмпирического знания. Если выборка не отражает адекватно основной социально-демографический состав населения, то даже данные, собранные методологически правильно, останутся слабой основой для научных обобщений. Это особенно важно при выводах, касающихся управления социальными процессами и общественным мнением, поскольку некорректная репрезентация чревата риском искажения реальной социальной ситуации.

Результаты обсуждений вопроса о предвзятости в эмпирических исследованиях показывают, что ошибки нельзя объяснить исключительно субъективностью респондента или исследователя. Напротив, систематическая ошибка может возникать на каждом этапе – от разработки плана исследования до сбора и обработки данных. Поэтому снижение систематической ошибки следует рассматривать не как разовую техническую меру, а как стратегию, охватывающую весь исследовательский процесс. В частности, оценка систематической ошибки, связанной с отсутствием ответов, и прозрачное сообщение о ней становятся ключевым требованием для обеспечения научной целостности эмпирических исследований.

Что касается обобщения полученных данных, в данной статье обращается внимание на распространенную ошибку в практике эмпирических исследований: результаты, обладающие внутренней согласованностью, автоматически распространяются на более широкий контекст. Однако внешняя валидность требует определенных методологических условий и ограничивается характеристиками выборки, контекстуальными факторами и условиями проведения исследования. Поэтому обобщение следует рассматривать не как процесс выдвижения «максимального утверждения», а скорее как процесс тщательного ограничения выводов и определения сферы их применимости.

Результаты обсуждения показывают, что основная методологическая проблема в эмпирических исследованиях заключается не в наличии отдельных ошибок, а в их последовательном накоплении в единую цепочку проблем. Ограничения охвата приводят к систематической ошибке выборки, которая усиливает смещение и в конечном итоге приводит к чрезмерной генерализации. Пока эта цепочка не будет разорвана, эмпирические данные нельзя будет поднять до уровня научно обоснованных выводов.

В контексте Узбекистана, где растет спрос на эмпирические исследования, понимание этих вопросов на методологическом уровне приобретает особое значение. [6] В процессе принятия правительственных и общественных решений на основе эмпирических данных качество выборки, снижение уровня предвзятости и четкое определение границ обобщаемости повышают социальную ответственность эмпирических знаний. С этой точки зрения результаты исследования указывают на необходимость интерпретации эмпирического анализа не просто как процесса сбора данных, а как комплексной деятельности, включающей в себя научные, этические и методологические обязательства.

Заключение. Целью данного исследования было проведение методологического анализа сущности проблем репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости результатов в

эмпирических исследованиях. Проведенный теоретико-методологический анализ показал, что достоверность научных выводов в эмпирических исследованиях определяется не только объемом собранных данных или примененными статистическими методами, но и обоснованностью плана выборки, объективности процесса сбора данных и четкости границ обобщения. В этом смысле эмпирические данные проявляются не как научное доказательство, а как источник знания, формирующийся в рамках определенного набора методологических условий.

Результаты исследования подтвердили, что проблема репрезентативности напрямую затрагивает эпистемологические основы эмпирического знания. Если выборка не отражает должным образом ключевые социальные и демографические характеристики генеральной совокупности, эмпирические результаты становятся слабым основанием для научных обобщений. Было установлено, что систематическая ошибка – это не ошибка на отдельном этапе, а совокупность систематических отклонений, возникающих на протяжении всего исследовательского процесса. Ключевой вывод относительно обобщаемости результатов заключается в том, что научная ценность эмпирического исследования определяется не степенью применимости его результатов, а ясностью и обоснованностью, с которой определяются условия их применения.

В целом, в эмпирических исследованиях проблемы репрезентативности, систематической ошибки и обобщаемости проявляются не по отдельности, а в виде единой методологической цепочки. До тех пор, пока каждое звено этой цепочки не будет подвергнуто тщательному контролю, эмпирические данные нельзя возвести в ранг научно достоверных выводов. Поэтому строгое соблюдение принципов методологической дисциплины, прозрачности и научной строгости при планировании и проведении эмпирических исследований является обязательным требованием современных социально-гуманитарных исследований.

Эти выводы способствуют повышению качества эмпирических исследований, укреплению обоснованности научных результатов и усилению роли эмпирических знаний в общественной и управленческой практике.

СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ

1. Henrich, J., Heine, S. J., & Norenzayan, A. (2010). Самые странные люди в мире? Behavioral and Brain Sciences, 33(2–3), 61–83.
2. Мурад, М. Х., Катаби, А., Бенхадра, Р., и Монтори, В. М. (2018). Внешняя валидность, обобщаемость, применимость и непосредственность: краткое введение. BMJ Evidence-Based Medicine, 23(1), 17–19.
3. Туранжо, Р., Конрад, Ф. Г., и Купер, М. П. (2013). Наука о веб-опросах. Oxford University Press.
4. Шодмонов Ш., Ходжаев Б. Теория статистики. – Ташкент: Иктисодиот, 2016.
5. Федеральный комитет по статистической методологии. Лучшие практики отчетности об отклонениях, связанных с отсутствием ответов. – Вашингтон, 2023.
6. Шодмонов Ш., Ходжаев Б. Теория статистики. – Ташкент: Иктисодиот, 2016.

MEDIAMADANIYATNING VUJUDGA KELISH GENEZISI VA TARIXIY-RETROSPEKTIV ASOSLARI

Azamat Amirov

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti falsafa fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD)

Sarvinoz Ismatova

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti magistranti

Annotatsiya: *Mazkur maqolada mediamadaniyat tushunchasining mohiyati, kelib chiqish ildizlari hamda uning jamiyat va shaxs hayotidagi o’rni ilmiy jihatdan ochib berilgan. Shuningdek, mediamadaniyatning turli davrlarda rivojlanish bosqichlari falsafiy tahlil qilingan.*

Kalit so‘zlar: *mediamadaniyat, genezis, tarixiy tahlil, retrospektiv tahlil, axborot jamiyati, ijtimoiy ong, globalizatsiya.*

Аннотация: *В данной статье научно раскрываются сущность понятия медиакултуры, её истоки происхождения, а также её роль в жизни общества и личности. Также с философской точки зрения проанализированы этапы развития медиакультуры в различные исторические периоды.*

Ключевые слова: *медиакультура, генезис, исторический анализ, ретроспективный анализ, информационное общество, общественное сознание, глобализация.*

Annotation: *This article scientifically reveals the essence of the concept of media culture, its origins, and its role in the life of society and the individual. It also provides a philosophical analysis of the stages of development of media culture across different historical periods.*

Keywords: *media culture, genesis, historical analysis, retrospective analysis, information society, social consciousness, globalization.*

Kirish. Bugungi kunda yangi shakldagi axborot makonining paydo bo‘lishi va kompyuter texnologiyalarining yuqori sur’atda taraqqiy etishi oqibatida kishilar o‘rtasidagi axborot almashinuvi jarayonining yangi bosqichga ko‘tarilishi insoniyat tafakkurida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib kelmoqda. Texnologik taraqqiyot ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir etmoqda, internet tizimi ijtimoiy tarmoqlarida axborotlarni tarqatish, saqlash va saralash avj olmoqda. Bunday sharoitda mediamadaniyatning mohiyatini chuqur anglash, uning tarixiy rivojlanish bosqichlarini bilish orqali zamonaviy media jarayonlarini to’g’ri tahlil qilish, mediamadaniyatning imkoniyatlarini takomillashtirish, axborot xurujiga nisbatan mafkuraviy immunitetni shakllantirish va yoshlarning ijtimoiy ongini davr ruhiga moslashtirishni metodologik takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan ushbu maqolada mediamadaniyat tushunchasini ham ilmiy, ham falsafiy jihatdan tahlil qilishni o’z oldimizga maqsad qilib qo’ydik.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Mediamadaniyat tushunchasi va axborot madaniyati ko‘plab olimlar tomonidan o‘rganilgan. Bugun jahonda turli davlatlar tomonidan axborot madaniyati va uning tarkibiy tuzilmalariga kiruvchi omil va vositalarni ilmiy o‘rganish alohida fan, alohida muammo, alohida pedagogika, alohida siyosat darajasiga chiqdi. Ilmiy markazlar, olim-u mutaxassislar ushbu muammolar tevaragida ixtisoslashgan holda, yuz berayotgan holatni o‘rganishmoqda, tahliliy asarlar yaratishyapti va mediologiya fanini taqdim etish masalasini o‘rtaga tashlashmoqda.

Mediamadaniyat tushunchasining mohiyatini bilish uchun, uning asosi bo‘lgan madaniyat so‘ziga e’tibor qaratish lozim. O. Shpengler, German Gesse, Maks Veber, V.S. Solovev, A. Kryober, K. Klakxon, E. Taylor va boshqalar madaniyat kategoriyasini ijtimoiy-falsafiy tahlil etdilar.

Madaniyat, globallashuv jarayonida texnomadaniyat, uning turlari, OAV va mediamadaniyat taraqqiyoti mavzularini jahon olimlaridan D. Bell, M. Maklyuen, E. Toffler, P. Berger, T. Lukman,

Y. Lotman, V. Bibler, J. Bodriyyar, J. Delyoz, J. Derrid, E. Kassirer, Y. Kristeva, G. Markuze, F. Nitsshe, X. Ortegi-i-Gasset, F. Sossyur, Z. Freyd, M. Fuko, Y. Xabermas, I. Xayzeng, M. Kastels, D. Rashkoff, R. Xarris, K. Yung kabilar tadqiq etganlar.

Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan M. Baxtin, N. Berdyayev, B. Alekseyev, O. Astafev, A. Axiyezer, T. Bogatirev, V. Vodolazov, B. Yerasov, L. Zaks, S. Kara-Murzi, V. Karpichev, V. Kemerov, Y. Krasin, C. Kropotov, O. Latsis, A. May, M. Mojeyko, N. Lapin, A. Panarin, Y. Reznik, I. Starodubovsk va boshqalar o‘rganganlar.

O‘zbekiston olimlaridan Sh. Paxrutdinov, A. Mo‘minov, S. Otamurodov, J. Abdullayev, M. Yoqubova, O. Kostrin,O. Lansev, M. Usmonov, Sh. Qo‘shoqovlar ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni amalga oshirishda ilmiy bilishning analiz va sintez, umumlashtirish, qiyosiy taxlil kabi usullari hamda obyektivlik, tizimlilik, mantiqiylik tamoyillariga tayanilgan.

Tahlil va natijalar. Insoniyatning tarixiy taraqqiyotini o‘rganar ekanmiz, to‘rt marta axborot inqilobi yuz berganligini kuzatamiz. Birinchisi, dastlabki yozuvning kashf etilishi, bunda turli ma’lumotlar tosh, yog‘och, papirus parchalariga yozib borilgan. Ikkinchisi, o‘rta asrlarda dastlabki bosmaxonalarni kashf etilishi hamda qo‘lyozma va kitoblarning nashr etilishi bilan izohlanadi. Uchinchisi, radio va televideniyening kashf etilishi bilan tavsiflanadi. To‘rtinchisi, jamiyatimizga umumbashariy internet ijtimoiy tarmog‘ining kirib kelishi bilan belgilanadi. Aynan oxirgi bosqich mediamadaniyatning shakllanishi va taraqqiyotini o‘z ichiga qamrab oladi.

Mediamadaniyat yangi texnologiyalar taraqqiyoti bilan tizimli bog‘liq. Farang tadqiqotchisi, sotsiolog Kristian Feygelson ta’kidlaganidek: “...yangi texnologiyalar mavjud bo‘lgan an’anaviy demonstratsiya qilish amaliyotlarini yo‘q qildi. Hech bo‘lmaganda bizning real voqealarga bo‘lgan munosabatimiz yanada murakkablashdi va endi to‘g‘ridan-to‘g‘ri emas, samarali vositachilikka aylandi». [1]

Mediamadaniyatni o‘rganish globallashuv jarayonlari bilan uzviy bog‘liq va dolzarb, shuningdek, buni quyidagicha tavsiflash maqsadga muvofiqdir: “Hozirgi davrda dunyo davlatlarida: ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ma’naviy munosabatlar globallashuvi butun insoniyatning qadriyatlarini, sivilizatsiyalari taqdirini u yoki bu tomonga o‘zgartirish uchun zarur obyektiv shart-sharoit va imkoniyatlar yaratmoqda. [2] Bugun bir tomondan, dunyoda yangi axborot-texnologiya tartiblari shakllanmoqda, ikkinchi tomondan, yirik davlatlar o‘rtasidagi manfaatlar kurashi kuchayib, jahon bozorida raqobat keskinlashmoqda.

Nazariy jihatdan, har qanday global muammo yechimiga sivilizatsion yondashuv tamoyiliga ko‘ra, turli muqobil madaniyat nazariyalarining o‘zaro integratsiyalashgan-konsensus nuqtasini topish, ularni amaliyotda qo‘llashning nisbatan universal metodologiyasini yaratishga asos bo‘ladi. Inson paydo bo‘lishi va rivojlanib borishi evolyusiyasi bilan uzviy bog‘liq holatda madaniyat ham yuzaga keldi va taraqqiy etib bordi. Madaniyat o‘z taraqqiyotida mazmunan serqirra va murakkab tuzilmaga ega bo‘lib bordi, ya’ni mazmunan va hajman boyidi. Jumladan, moddiy va ma’naviy, diniy va dunyoviy, an’anaviy va zamonaviy, milliy va umuminsoniy kabi ko‘plab tarkibiy qismlar yuzaga keldi. Zamonaviy madaniyatga fan va texnika rivoji bevosita va bilvosta ta’sir ko‘rsatdi, natijada madaniyatning yangi shakli bo‘lgan mediamadaniyat paydo bo‘ldi.

XX asrning o‘rtalarida E. Toffler tomonidan madaniyatning yuzaga kelayotgan yangi shakllari haqidagi nazariyalar olg‘a surilgan. Elvin Toffler jamiyatni o‘rganar ekan, o‘zining “Uchinchi to‘lqin” asarida uni uch bosqichga ajratadi: agrar, industrial, postindustrial. Bunda agrar jamiyat bosqichida yer bilan bog‘liq munosabatlar asosiy sanalsa, industrial bosqichda ishlab chiqarishning sanoatlashtirilishi va uchinchi bosqichda esa barcha soha ijtimoiy munosabatlari asosini texnika rivoji, elektr energiyasi, aniqrog‘i vizual axborotlashuv tashkil etishi bayon etilgan.

“Qishloq xo‘jaligi, sanoat hamda hozirgi axborot tamaddunlari. Tabiiy savol tug‘iladi: xo‘sh, keyin-chi? E. Toffler masalaga futurologik talqin bilan ham yondashgan: “...insoniyat to‘rtinchi to‘lqin davrini ham boshdan kechiradimi? Unga qanday nom beriladi? Taraqqiyot shiddati bashariyatni qayerlarga olib boradi? O‘zimiz yaratgan, erishgan va erishayotgan taraqqiyot cho‘qqilarida omon qolish hamda yashash epini topa bilamizmi?”, [3] - kabi qator savollarga javob izlaydi.

“Mediamadaniyat” tushunchasi, dastlab Toronto universiteti olimlari tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Garold Innis va Marshal Makluen media atamasini ijtimoiy munosabatlar kommunikativligi omili sifatida qo‘llaganlar. Atamaning etimologiyasiga kelsak: mediamadaniyat tushunchasi kelib chiqish asosini ikki so‘z, ya’ni “media” va “kultura” so‘zlari tashkil etadi. Sotsiolog

M. Maklyuen XX asrning o‘rtalarida alohida e’tirof etib ta’kidlashicha, “media” qadimgi lotin tilidan olingan bo‘lib, “vosita”, “o‘rtada turuvchi”, muhit ma’nosini anglatadi va an’anaviy (bosma, radio, ovozli, kinematograf, televideniye) hamda zamonaviy ommaviy-axborot vositalari (video, mobil telefonlar, SD, DVD, kompyuter, internet, raqamli texnologiyalar)ni o‘z ichiga oladi”. [4] “Kultura” – qadimgi lotin tilidan olingan bo‘lib - ishlov bermoq yoki qayta ishlamoq ma’nolarini anglatgan. Mediamadaniyat – fenomeni texnika va ijodkorlikning integratsiyasi, “ommaviy madaniyat” madaniyat va ijtimoiy hayotdagi modernizatsiyalashtirish jarayonlari bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan madaniyatning shaklidir.

“Mediamadaniyat – bu axborot-kommunikativ vositalar, insoniyat tomonidan ijtimoiy taraqqiyotda to‘plangan moddiy va intellektual qadriyatlarning media sohasi bo‘lib, ijtimoiy ishlab chiqarish xarakteriga ega bo‘lgan funksional tizimdir.” [5]

Jamiyatdagi ijtimoiy hodisalar va jarayonlar axborotlarning almashinuviga asoslanadi, shuningdek axborotlar almashinuvida turli omil va vositalardan foydalaniladi. Axborot almashinuvi va ularning vositalari masalasida tizimli yondashuv taqozo etiladi, ya’ni mediamadaniyatning o‘ziga xos xususiyati shundaki, tizimli yondashuvning asosini kishilararo sotsial kommunikatsiyaning bosh elementi bo‘lgan o‘zaro axborot almashinuvi jarayoni tashkil etadi. Ushbu hodisalar ijtimoiy-gumanitar fanlarning fundamental nazariyalaridan bo‘lib, bir tomondan, shaxslar, kichik guruhlar, turli jamoalar o‘rtasidagi axborot almashinuvi, aloqalar va munosabatlarni tartibga solish vositasi sifatida qabul qilinsa, ikkinchi tomondan, ularni ilmiy o‘rganish usuli sifatida ham namoyon bo‘ladi.

XXI asrdagi tezkor, keng ko‘lamdagi axborot tizimi va telekommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi axborot makonining globallashuvi, hayotning deyarli barcha sohalariga, ayniqsa, inson turmush tarziga kirib borib, jahon taraqqiyotiga kuchli ta’sir ko‘rsatayotgan omil sifatida e’tirof etilmoqda. Axborot almashinuvi jarayonlari 4 ta fundamental komponent: 1) axborot almashish; 2) tashkil etish; 3) aks ettirish; 4) o‘zaro ta’sir doirasida tahlil etilgan. [6]

Insoniyat media madaniyatining har qanday shakli stixiyali, tasodifan vujudga kelgan emas. Aksincha, bir tomondan, o‘zidan oldingi ajdodlarning axborot madaniyatiga oid tarixiy merosiga vorislik munosabatlarini ijodiy rivojlantirish, tajribalarini umumlashtirish, milliy va umuminsoniy ma’naviy-madaniy qadriyatlarni uyg‘unlashtirish natijasi hisoblanadi. Ikkinchi tomondan, axborot madaniyatini integratsiyalashtiruvchi va globallashtiruvchi motivlar, mexanizmlar tizimi insoniyat tarixi tadrijiy rivojlanishining dialektik davomi va konkret bosqichi sifatida baholanishi kerak.

Mediamadaniyat tushunchasining muqobil varianti sifatida “ommaviy madaniyat” tushunchasi mavjud, ya’ni har ikki tushuncha zamonaviy texnikaning taraqqiyoti va aynan kommunikativ vositalar yordamida jamiyatga havola etiladi: “ilmiy muomalada “Mass kultura”, “Mass media” tushunchalari sinonim holda qo‘llanildi”. [7]

Har ikkisida ham madaniy-axborotlarning almashinuvida ijtimoiylik va individual erkinlikka keng yo‘l ochilgan, axborotlarning turfa xil mavzularda va turli hajmlarda bo‘lish imkoniyati mavjud. Har ikkisi ham jamiyatga ham ijobiy, ham salbiy ta’sir ko‘rsata oladi. Har ikkisida ham ideologik immunitetni barqaror shakllantirish zarurati, sababi, mafkuraviy tahdidlarning yetarlicha mavjudligi bilan izohlanadi. Har ikki holatda ham milliy madaniyatlarning boyib borishidan ko‘ra ko‘proq, millat madaniyatidan begonalashib borishi ko‘zga tashlanadi. Milliy madaniyatlar o‘rtasidagi integratsiya natijasida barcha millatlar madaniyatini dialektik o‘zgarib borayotganiga guvoh bo‘lmoqdamiz. Har ikkisi ham professional madaniyatdan ko‘ra ko‘proq, mazmunan sayoz madaniyatning ommalashishiga ko‘proq ta’sir ko‘rsatadi. Xalqaro internet tarmoqlariga cheklovlarning majburan o‘rnatilishi ham hozirga kelib, biror millat yoki elat madaniyatining dialektik o‘zaro ta’sirlardan chetda bo‘lishiga olib kelmaydi. Sababi, har ikkalasini ham tarqalishi vositalar va omillarning nihoyatda ko‘pligi bilan xarakterlanadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida shuni ta’kidlash lozimki, mediamadaniyat madaniyatning zamonaviy shakli bo‘lib, u juda porloq istiqbolga ega. Chunki, mediamadaniyatda axborotlar juda tez va katta hajmda yetkazilishi mumkin. Kelajakda uning tarkibiy tuzilishi va mazmun-mohiyati yanada murakkablashib boradi, bunda zamonaviy kommunikativ texnologiyalar rivoji asosiy rol o‘ynaydi. Mediamadaniyat ijtimoiy muhitni o‘zgarishiga juda katta ta’sir ko‘rsatadi, axborot bo‘xronlarini giperlashtiradi, jamiyatda axloqsizlikni avj olishiga asosiy omil sifatida ta’sir ko‘rsatadi, g‘oyalar transformatsiyasini keltirib chiqaradi va rivojlantiradi, jamiyatga ma’naviy-ruhiy tomondan turlicha ta’sir etishi kuchayadi, raqamli texnologiyalar yordamida insonlar erkinligiga daxl eta oladi. Bu kabi salbiy holatlar kelib chiqmasligi yoki ularni kamaytirish, bartaraf etish maqsadida kelajakda mediamadaniyatni insonparvarlashtirish dolzarb masala bo‘lishi shart.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фейгелсон К. “Искусства и медиасфера” // «Искусство и новые технологии» - М.: МЕДИУМ, 2001. – С. 39.
2. Qodirov N.M. Axborot mediamadaniyati transformatsiyasi va globallashuvi // NamDU Ilmiy axborotnomasi. – Namangan. 2019. - № 12. – B. 83-93.
3. Xurshid Do‘stmuhammad, «Axborot madaniyati – hayot mamot masalasi, https://xs.uz/uzkr/post/ akhborot-madaniyati-hayot-mamot-masalasi.
4. Криллова Н.Б. “Медиакультура – как интегратор среды социальной модернизации”. – Москва. 2005г. – С. 4.
5. Кемеров В. Е. Введение в социальную философию.–М.: 2000. –С. 296- 297.
6. Raximova Sh.A. “Ijtimoiy tizimni modernizatsiyalashtirish jarayonida axborot almashinuvi madaniyati”. – Toshkent. 2021. – B. 13.
7. Криллова Н.Б. “Медиасреда российской модернизации”, Москва: “Академический проект”, 2005 г, - С. 2.

“O‘ZBEKISTON ENG YANGI TARIXINING DOLZARB MASALALARI”

FANLARARO ILMIY-NAZARIY JURNAL

1-son (19), 2026.

Ofset bosma. Shartli bosma tobog‘i 12,5.
Adadi 100 nusxada.

Toshkent shahar, Uchtepa tumani, Maxorat – 71.
“Shafoat nur fayz” MChJ bosmaxonasida chop etilgan.
Toshkent shahar, Olmazor tumani, Nodira – 19.